ISBN: 978-93-87837-12-7

# ODINA MUHAMMAD XORAZMIYNING TASAVVUFIY-FALSAFIY MEROSI VA UNING XORAZM MA’NAVIY MUHITIDA TUTGAN O‘RNI



Author

XUDOYQULOVA NARGIZ ABDULLAEVNA

Published by
Novateur Publication
466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

XUDOYQULOVA NARGIZ ABDULLAEVNA

# “ODINA MUHAMMAD XORAZMIYNING TASAVVUFIY-FALSAFIY MEROSI VA UNING XORAZM MA’NAVIY MUHITIDA TUTGAN O‘RNI”

– 2026

**novateurpublication.org**

Qo‘lyozma huquqida

*Ushbu monografiya* ***Urganch davlat tibbiyot instituti*** *Kengash yig‘ilishining 2026 yil 5 iyundagi 10-sonli bayonnomasiga, asosan, nashrga tavsiya qilingan*

Xudoyqulova Nargiz Abdullaevna

*Qo‘lingizdagi ushbu monografiya Xorazm vohasida yashab ijod etgan Odina Muhammad Xorazmiyning Tasavvuf tariqatlarining evolyutsiyasi va ularning islom ma'naviyatiga ta'siri to'g'risidagi falsafiy qarashlari va tasavvufiy tariqatlarining yo'nalishi ma'naviy amaliyotlar va ularning islom ma'naviyatiga rivojlanib borayotgan ta'siri o'rtasidagi chuqur o'zaro bog'liqlikni ochib berganligiga bag'ishlanadi*

*Monografiya o‘zida juda ko‘p ma’lumotlarni jamlaganligi bilan Xorazda XVIII-XIX asrlarda mavjud tasavvufiy-falsafiy tarixni ilmiy jihatdan o‘rganuvchi tadqiqotchilar va qiziquvchi o‘quvchilar uchun munosib qo‘llanma bo‘ladi degan umiddamiz.*

2026. 205. Б

**Mas’ul muharrir:……………………………. BUXDU professori falsafa fanlari doktori Sharipova Oygul Tursunovna**

**Taqrizchilfr..:…………………………….URDTI“Ijtimoiy fanlar"kafedrasi**
**Dotsent f.f.d (DSc) R.Q. Qurbaniya**
**Ma’mun universiteti dotsentii,**
**f.f.d (PhD) U.S.Musayevdan**

*Donoga yondoshgil, qoch nodondan san,*
*Hatto u xavflidir dono dushmandan.(J.Rumiy)*

## MUQADDIMA

Dunyoning shiddat bilan keskin ravishda avj olgan og'ir va muammoli globallashuv jarayoni insoniyat turmush hayotida goh yaxshilikka goh savollarga to'la bo'lgan vaziyatni vujudga keltirmoqda. Bu jarayonlar murakkab bir tizim sifatida qabul qilinib , uning yechimini ob'ektiv tarzda ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Shu jumladan Islom tafakkuridagi ma'naviyat va falsafa o'rtasidagi murakkab munosabatlar, ayniqsa, tasavvufiy tajriba va falsafiy izlanishlarning chuqur uyg'unligini o'zida mujassam etgan so'fiylik haqida muhim munozaralarga ilmiy yondashuv davr talabi ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Tasavvuf dinamik harakat sifatida o'zining dastlabki islom dini paydo bo'lgan asrlarida islomning qat'iy talqinlariga javoban paydo bo'lib, ichki poklanish va asketik amaliyotlar orqali ilohiylik bilan shaxsiy munosabatlar aloqasini ta'kidladi.

Yangi O'zbekiston davlatining zamonaviy rivojlanish bosqichidagi yosh avlod tarbiyasi dolzarb bo'lgan bir davrda falsafiy qarashlar muallifi Odina Muhammad Xorazmiy ilgari surgan borliq birligi va ilohiy ta'limot bilan uyg'unlikda axloqiy yashash muhimligi g'oyalari o'ziga xos ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar, raqamli transformatsion jarayonlar avj olgan bu davrda o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasi va u bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar asosiy ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biridir. Zero, "Zamonaviy bilimlarga ega, mamlakat kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning muhim shartidir"1

Ibn al-Arobiy kabi mutafakkirlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan "Vahdat-ul-vujud" falsafasi Naqshbandiya tariqatida sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib Shayx Odina Muhammad qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bu esa mutafakkir olim, faylasuf Shayx Odina Eshon ilgari surgan zuhd va zohidlik g'oyalari zamonaviy jamiyat muammolari sharoitida tinchlik va totuvlikni

mustahkamlashga hissa qo'shadi.  Tadqiqotning funksional maqsadini ochib berish uchun ontologik tamoyillar imkoniyatlaridan unumli foydalanish asosida mutafakkirning axloq normalari konsepsiyasini yoshlar ongiga chuqur singdirishga doir tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb yetadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida", 2018 yil 23 iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 14- avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Dunyoning turli informatsion, axloqiy va ma’naviy tahdidlar avj olib borayotgan bugungi manzarasida o’sib kelayotgan yosh avlodni milliy tarbiya va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak hurmat ruhida komil inson qilib tarbiyalashga oid ilmiy izlanishlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash joizdir. Xususan, Odina Muhammad Xorazmiyning Tasavvuf tariqatlarining evolyutsiyasi va ularning islom ma’naviyatiga ta’siri to’g’risidagi falsafiy qarashlari taqdim etilmoqda. Bu ishning alohida e’tiborga molik jihati shundaki ,ilmiy izlanishlarda xali yorqin tanilmagan Odina Muhammad Xorazmiy qarashlaridagi tasavvufiy tariqatlarining yo’nalishi ma’naviy amaliyotlar va ularning islom ma’naviyatiga rivojlanib borayotgan ta’siri o’rtasidagi chuqur o’zaro bog’liqlikni ochib berganligi muhim ahamiyat kasb yetadi.

O‘zbekiston taraqqiyotining uchinchi renessans bosqichida yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan foydalanish, taraqqiyotning milliy kontentini ko‘tarishi aniq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ota-bobolarimizning boy madaniy merosini o‘rganish va uni bugungi kun yoshlariga etkazishga oid fikr-mulohazalari, g‘oya va qarashlari, shu yo‘nalishga doir qaror, farmon, farmoyishlari hamda fundamental ahamiyatga ega asarlari va nutqlari tadqiqot ishimizning metodologik asosi bo‘lib hizmat qiladi[1].

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning hayot yo‘li va boy ma’naviy merosini o‘rganish va tadqiq etishda jahon olimlaridan Sh. Pellat va Dj. Baldoklar bevosita o‘rgangan bo‘lmasada J. Rumiyning ilmiy merosini o‘rganganlar va uni tarjima qilish orqali kimlar o‘rganganligini keltirib o‘tganlar[2]. Xususan Odina

---

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangm O‘zbekiston strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.; Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2019. – 160 b; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 488 b; Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajaki farovon bo‘ladi. –T.:“O‘zbekiston” nashriyoti, 2019. – 400 b.; Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shaxsiy javobgarliklar xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 104 b.

2 .John Baldock, The Essence of Rumi, Hardcover, 240 paGES, Published September 30th 2005 by Chartwell Books.; Ch. Pellat. Assisted by J. Burton-Page, C. Dumont and V.L. Ménage. - Leiden : E.J. Brill, 1991. - Vol. 2. (platn.) Shimmel A. “Jalaladdin Rumi, story on Prayer” (1992), Chittik W.C. The Sufi Path of Love. The Spiritual Teachings of Rumi. – Albany, 1983. – 433 r, Coleman Barks, “The Essential Rumi”. – Harper, San Francisco, 1995.

Muhammadning “Miftoh ul-asror (sirlar kaliti)” ya’ni “Masnaviyi ma’naviy” asari tafsiri shu vaqtgacha berilgan sharhlarning eng a’losi ekanligini aytib o‘tganlar.

MDH mamlakatlari olimlari orasidan E. Bertels, V. Bartold, , A. Mets, I. Braginskiy, O. Akimushkin va A. Кныshlar o‘zlarining tadqiqot ishlarida keltirib o‘tganlar.

Mamlakatimiz olimlardan, N. Komilov, A. Mahkam, Jamol Kamol, B. Karimov, S. Karimov va G. Navro‘zovalarning ilmiy tadqiqot ishlari va asarlarida Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ning ma’naviy merosi va hayot yo‘li haqida ma’lumotlar uchraydi.

**Монографияни чоп қилишдан асосий мақсад** Dunyoning shiddat bilan keskin ravishda avj olgan og’ir va muammoli globallashuv jarayoni insoniyat turmush hayotida goh yaxshilikka goh savollarga to’la bo’lgan vaziyatni vujudga keltirmoqda. Bu jarayonlar murakkab bir tizim sifatida qabul qilinib , uning yechimini ob’ektiv tarzda ko’rib chiqishni taqozo qiladi. Shu jumladan Islom tafakkuridagi ma’naviyat va falsafa o’rtasidagi murakkab munosabatlar, ayniqsa, tasavvufiy tajriba va falsafiy izlanishlarning chuqur uyg’unligini o’zida mujassam etgan so’fiylik haqida muhim munozaralarga ilmiy yondashuv davr talabi ekanligini alohida ta’kidlash zarur. Tasavvuf dinamik harakat sifatida o’zining dastlabki islom dini paydo bo’lgan asrlarida islomning qat’iy talqinlariga javoban paydo bo’lib, ichki poklanish va asketik amaliyotlar orqali ilohiylik bilan shaxsiy munosabatlar aloqasini ta’kidladi.

**Shuningdek risolani yaratishda quyidagi vazifalarni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik:**

Odina Muhammad Xorazmiyning tasavvufiy g’oyalarini falsafiy tahlil etishning nazariy metodologik asoslarini ochib berish;

Odina Muhammad Xorazmiyga oid manba va tadqiqotlar tahlili, hayoti va ma’naviy merosi o‘rganish;

Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufshunos mutafakkir sifatida qarashlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish;

Mutafakkirning tasavvuf ta’limotida tutgan o’rni va “Miftoh ul – asror” (“Sirlar kaliti”) asarining tasavvufiy- falsafiy mohiyati ochib berish;

Mutafakkirning Mir’ot ul-obidiyn (“Obidlar ko’zgusi”) asarining falsafiy mohiyati ochib berish;

“Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”)asarida tasavvufiy maqomlar haqidagi qarashlarini aniqlashtirish;

“Risolai Odina Eshon” kitobining falsafiy tahlili va mutafakkir tasavvufiy talqinlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan omillarni oldini olishda mutafakkir ma’naviy ta’limotining o’rni ijtimoiy axloqiy ahamiyatini ko‘rsatib berish;

Odina Muhammad Xorazmiyning mehr-oqibat, o’z-o’zini tarbiyalash, axloqiy hayotga cheksiz sodiqlik tamoyillari ontologik-gnoseologik xususiyatlarini talqin etish;

Odina Muhammad Xorazmiyning borliqning falsafiy asoslari so’fiylik tafakkuri turli e’tiqodlar orasida bag’rikenglikni targ’ib qiluvchi insonparvarlik qadriyatlari bilan qanday uyg’unlashishi mumkinligi g’oyalarini falsafiy asoslash;

jamiyat taraqqiyotining ontologik xususiyatlarini falsafiy tahlil qilish orqali Odina Muhammad Xorazmiyning ma’naviy merosini bilishning yoshlar tarbiyasiga konstruktiv ta’sirini dalillashdan iborat.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Odina Muhammad Xorazmiyning inson va jamiyatning ma’naviy olamiga oid ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlaridan targ‘ibot va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda davra suhbatlarini tashkil etishda foydalanish mumkin bo‘lgan jihatlari ochib berilgan;

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarining tafsir hisoblangan “Miftoh ul-asror” (sirlar kaliti) asari orqali Odina Muhammad Xorazmiyning inson va insoniylik, uning mavjudlining asosiy mohiyati, olam va borliq, gnoseologik qarashlari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlillar yordamida asoslangan;

Odina Muhammad Xorazmiyning sabr-toqat, qanoat, iroda ….. va ma’rifat haqidagi qarashlari insonning ma’naviy yuksalishi sharoitida ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalashga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

## I-BOB. ODINA MUHAMMAD XORAZMIY TASAVVUFIY G’OYALARINI FALSAFIY TAHLIL ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Birinchi bob “Odina Muhammad Xorazmiyga oid manba va tadqiqotlarning tahlili”va “Odina Muhammad Xorazmiy hayoti va ma’naviy merosi”deb atalgan ikkita paragrafdan iborat.Birinchi paragrafda qisqacha tasavvuf haqida, Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy g’oyalarining faplsafiy tahlili, unga nazariy va metodologik asoslardan yondashish mumkinligi, mutasavvif o’z qarashlarini Qur’on, hadis va mutafakkirlar hikmatlari asosida shakllantirgani, shayx ilgari surgan asosiy g’oyalarning mazmun-mohiyati, ma’naviy poklanish, ilohiy muhabbat, komil inson kontseptsiyasiga oid fikrlar tahlili berilgan. Ilmiy merosidan bizgacha yetib kelgan va hozirda O’z R FA Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalar xazinasida saqlanayotgan “Risolai Odina Eshon”, “Miftoh ul-asror” (“Sirlar kaliti”), “Mir’ot ul-obidiyn” (“Obidlarning ko‘zgusi”), “Tavba ut-tolibiyn” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”), “Tarjimai duoyi qunut” (Qunut duosining tarjimasi”) nomli asarlari haqida qisqacha ma’lumotlar keltirillgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida Odina Muhammad Xorazmiyning tug’ilgan joyi, Kubraviya tariqatining ma’naviy an’analaridan ilhom olganligi, Jaloliddin Rumiy hazratlarini o’zining ruhiy ustozi deb bilib, uning mashhur asari “Ma’naviy mas’naviysiga” yozgan sharhini “Miftoh ul – asror” (“Sirlar kaliti”) deb nomlangani, 33 bobdan iborat tibbiy risolasi, mutasavvifga bag’ishlangan marsiyalar, yaxshi fazilatlar, forsiy tilda yozilgan ruboiylari, qalb pokligiga oid fikrlar manbalar

asosida tahlil qilingan. Shayx Odina Eshonning Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” kabi namuna bo’lgan so’fiylarning yo’lga intilish va haqiqat sirlariga oid yozgan va ta’limotlaridan na o’tmishdan, na hozirgi zamondan ustunroq asar topa olmagani, hech kim “Masnaviy” kabi keng qamrovli va murakkab kitobga duch kelmaganiga oid fikrlari falsafiy tahlil etilgan.

**Odina Muhammad Xorazmiyga oid manba va tadqiqotlarning tahlili**

Odina Muhammad Xorazmiy oʻz davrida tasavvufiy-irfoniy va ijtimoiy-falsafiy gʻoyalarni oʻz qarashlarida ilgari surgan XVIII-XIX – asrlarning tasavvuf olamining zabardast vakili hisoblanadi. Odina Muhammad Xorazmiyning qrashlarida asosan, Najmiddin Kubro ta’limotining Kubraviya tariqati ta’siri seziladi. Inson ruhining ma’naviy sayri va ruhiy tajribasi shu tariqat asoslariga uygʻun holda sharhlanganligini koʻrishimiz mumkin. Odina Muhammad Xorazmiyning asarlari Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”iga yaqin boʻlib, xalqona tilda ruhiy tarbiya gʻoyalarini targʻib etadi. Shu bilan birgalikda, Sharh va tazkiralar – keyingi davrlarda yozilgan “Tazkirat ul-avliyo” va boshqa manbalarda Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf ahlining buyuk namoyondasi sifatida tilga olingan. Odina Muhammad Xorazmiy qarashlarining asosini, Sharq falsafasi, xususan, inson mohiyati, axloqiylik va ruhiy kamolot konsepsiyasi; alloma yashagan davrning ijtimoiy-madaniy sharoitlari, Kubraviya tariqatining Xorazm vohasidagi ta’siri koʻrish mumkin; alloma ijodining markazida “komil inson” gʻoyasi turadi.

Ajdodlarimiz bizga katta ilmiy meros qoldirgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozma fondida turli ilmiy yoʻnalishlarga oid koʻplab asarlar saqlanmoqda. Tadqiqotchilarimiz ana shunday asarlarni qunt bilan oʻrganmoqdalar. Bu mehnat, ayniqsa, mustaqillik yillarida tobora kengayib bordi. Ilgari kirish imkoni boʻlmagan asarlarni endi oʻrganishimiz mumkin. I.A. Karimov va Prezident Sh.M. Mirziyoyev muhim tashabbus va koʻrsatmalari bilan olimlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Biz tarixiy merosimizni qanchalik oʻrgansak, yangidan-yana tomonlarini kashf etsak, ma’naviy-ahloqiy asarlarimizni toʻliqroq anglaymiz. Shuning uchun ham I.A. Karimov: “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql bilan ma’naviy zakovatni, diniy

dunyoqarash bilan komil bilimdonlikni oʻz ichiga mujassam etgan buyuk arboblar koʻp boʻlgan", degan edilar[3]. Haqiqatan ham, tarixni oʻrganish, merosimizni tadqiq qilish natijasida yuzlab olimlarimizning nomlari paydo boʻlmoqda[4].

Muallif tomonidan sezilarli darajada toʻldirilgan ushbu dissertatsiya Sayyid Odina Muhammad ibn Sayyid Muzaffar ul-A'lo al-Xorazmiy al-Hazoraspiy (1728-1801) hayoti va xizmatlarini yoritib beradi, uning nomi oʻzining salmoqli shon-shuhratiga ega boʻlishiga qaramay, hozirgi zamon ilm-fanida noma'lumligicha qolmoqda. Mutafakkir olim Odina Eshon Jaloliddin Rumiy ijodini tadqiq qilib, uning chinakam himoyachisi sifatida maydonga chiqdi.U Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" nomli asarining 2-kitobini "Miftoh ul-asror" ("Sirlar qutiti") nomi bilan sharh yozgan. Uning yana "Risolai Odina eshon" nomli asari ham mavjud[5]. Muridlariga buyirib yozdirilgan "Sharhi kalimoti ba'zi axli suluh" ("Ba'zi suluk ahlining soʻzlariga sharh") nomli asari ham bizgacha yetib kelgan, ularning ham tarjimalari mavjud hisoblanadi

Hijriy oʻn ikkinchi (XVIII) asrda Xorazmda yashab, "Sharhi kalamoti ba'zi axli suluk", "Risolai Odina Eshon", "Mir'ot ul-obidin", "Tavbat ut-toyibin" va "Tarjimai duoi Qunut" kabi fors tilida bitgan asarlari bilan oʻzidan qimmatli ilmiy meros qoldirgan Shayx Odina Muhammad Xorazmiy "Miftoh ul- asror"da "Masnaviyi ma'naviy" asarining uch daftari (jildi)ni irfoniy jihatdan sharhlab bergan. Fors tilida bitilgan "Miftox ul-asror"ning Mullo Abdusalom Xonaqohiy tomonidan kitobat qilingan yagona qoʻlyozma nusxasi 7143-raqami ostida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar xazinasida saklanadi[6].

Alloma insonni nafsdan ozod qilish, ma'rifat bilan toʻldirish, muhabbat orqali Haqqa yetaklashni ta'kidlagan; mutafakkirning qarashlari zamonaviy falsafiy tahlil uchun germenevtik va dialektik usullar orqali oʻrganilmoqda; Odina Muhammad Xorazmiyga oid tadqiqotlar mavjud boʻlsa-da, ular hali yetarlicha chuqur

---

[3] Каримов И.А. Ўзбекистон XXИ аср бўсағасида. Тошкент., 1997 й., - Б. 140
[4] Қаранг: Маънавиятимиз юлдузлари. Тошкент., 1999 й.
[5] Латифжон Баҳоуддин Ўғли. Хоразимлик маърифат соҳиби. Тошкент.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 3-4
[6] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 3.
Ўша асар, 5 б – бет.

o‘rganilmagan. Uning tasavvufiy qarashlarini Ibn Sino, Yassaviy, Kubro va Jaloliddin Rumiy g‘oya va qarashlari bilan solishtirishga katta ehtiyoj bor; bugungi kunda Odina Muhammad Xorazmiyning ma’naviy-axloqiy qarashlari yoshlar tarbiyasi, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlik masalalarida metodologik asos bo‘lishi mumkin.

XVIII asrda Xorazmda ko‘pgina shoirlar, alloma-mutafakkirlar yashab ijod etganlar. Shulardan ko‘zga ko‘ringan, yirik mutafakkirlardan biri Hazrati Odina Eshondir.

Hazrati Odina Eshon, uning to‘liq ismi – Sayyid Odina Muhammad ibn Sayyid Muzaffar ul-A’lo al-Xorazmiy al-Xazoraspiy bo‘lib, u 1728 yilda Xorazmda tavallud topgan. Odina Eshon hayoti haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi. Lekin u bilan bir davrda yashab, ijod etgan zamondoshlari bergan ma’lumotlar, shuningdek, uning avlodlari tomonidan nashr etilgan kitobga.[7] suyanib, Odina Eshonning hayoti haqida bir muncha ma’lumotga egamiz. O‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan shoiri va Odina Eshonning zamondoshi bo‘lgan Roqimning ma’lumoticha, Odina Eshon dunyoviy ilmlar bilimdoni bo‘lish bilan birga shoir va mohir xattot bo‘lgan ekan. Roqim Odina Eshon vafotiga bag‘ishlab marsiya yozgan.[8] Alloma arab va fors tillarini mukammal bilgan.

Odina Eshon o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan mutasavvifi bo‘libgina qolmay, balki taniqli shoiri ham edi. Uning ilmiy merosidan bizgacha 5 ta asari yetib kelgan bo‘lib, ular O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda.

1.“Risolai Odina Eshon” deb nomlangan bo‘lib, fors tilida yozilgan. Risola 1801 yilda Alloquli ibn Mulla dargohquli tomonidan ko‘chirilgan. [10] Unda ba’zi oyat va hadislarning majoziy ma’nolari sharhlab berilgan. Muallif mazkur asarida har bir sharfdan so‘ng, o‘z fikrini mustahkamlash uchun Jaloliddin Rumiyning baytlaridan parchalar keltirilgan.

---

[7] Латифжонхожи Баҳоуддин ўғли. Ҳазрати Одина Эшон қиссаси. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001.
[8] Латифжонхожи Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: Зарқалам, 2003.

2.“Miftoh ul-asror” (“Sirlar kaliti”) bo‘lib, asar fors tilida yozilgan. Asarning yagona nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida 7143-raqami ostida saqlanmoqda.

3.“Mir’ot ul-obidiyn” (“Obidlarning ko‘zgusi”) deb nomlangan bo‘lib, unda yaxshi xulq, har tomonlama odob-axloqqa ega kishilarning sifatlari bayon qilingan.

4.“Tavba ut-tolibiyn” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) bo‘lib, tolibning tariqat yo‘lidagi qonun-qoidalarini egallash borasidagi tarbiyasi haqidadir.

5.“Tarjimai duoyi qunut” (Qunut duosining tarjimasi”) deb nomlanadi.

Mazkur asarlarning bir necha nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanadi.

Tadqiqot ishimizda yuqorida tilga olingan allomaning falsafiy qarashlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

O‘tmishda yashab o‘tgan allomalar, ayniqsa, tasavvuf ahli fikricha, inson ikki asos – jism va ruhdan iboratdir, deydilar. Inson jismida to‘rt unsun – suv, olov, havo va tuproq xususiyatlari jamlangan. Inson o‘z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, ya’ni hayvonlarga borib taqaladi.[9]

Odina Eshonning ta'kidlashicha, har bir g‘aybat (behusunlik) paytida ruhlarni tana chegarasidan ozod qiladi va tana pardasini chiqaradi. Keyinchalik, U O‘zining cheksiz inoyati orqali tana pardasini ko‘taradi, har bir ongsizlik holatida ruhlarni tana chegarasidan ozod qiladi, ularni hukmronlik va hukmdan ozod qiladi. Odina Eshonning ta'kidlashicha, noma'lum cho‘llarni kezib o‘tish ruhlarga tanalari bilan uyg‘unlikka erishish imkonini beradi. Tinchlik, ruh noma'lum narsalarni kuzatish va tana yo‘l-yo‘riqlari bilan mashg‘ullikdan xalos bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Boshqalar bilan muloqot qilish, nomukammal bilan suhbatlashish paytida qalbning xiralashishiga olib kelishi mumkin. Zohidlarning ruhlari o‘z tanalari bilan uyg‘unlikka erishib, noma'lum sahroga sayohat qilishadi. Shu nuqtai nazardan Odina Eshon o‘z “Masnaviy”nida sharhlashda shunday ta’kidlaydi:

---

[9] Комилов Н. Тасаввуф ва Шарқ фалсафаси. /Шарқ машъали, 1998. 1-2-сон. – Б. 48.

Rafta dar sahroyi bechun jonishon,
Ruhishon osudai abdonishon.
(Jonlari benishonlik sahrosiga ketib,
Ruhlari badanlari bilan osudalik topdi.)[10]

Bizning fikrimizcha, ruh yakka o‘zi bo‘lganda biror narsa qila olmaydi. U jon bilan birgalikda inson tanasida yashaydi va inson ongi bilan hamohanglikda harakat qiladi. Yusuf Qorabog‘iyning fikricha, ruhni moddiy olamning sifat va xususiyatlaridan biri, deb hisoblaydi. Ruh ilohiy olamning zarrasi emas, u o‘lmas ham emas. Ruhni o‘limga mahkum etgach, uni muqaddaslikdan mahrum qiladi,[11] deydi.

Hazrati Zu-l-Majid va Jalolning tugal buyuklik va yuksakligi, Janobi Malik ul-Muta’olning izzat va qarori olamni jahon ichra hayronlikka tashlamoqni va jahonni esa nodonlik olamida xiyra qilmoqni, minglab-minglab xaloyiqu bandalarni kufr va zulmatobodda sarosima va sargardon qilmoqni taqozo etdi, inson va jinlar sinfidan necha minglab guruhni adashuv va jaholat sahrosida tashna holda halok etmoqni iqtizo qildi. Bu bilan hidoyat sharbatini ularning jon og‘izlariga, inoyat olamining nasimini ularning jon mashomiga yetqizmoqni ko‘zladi va ma’rifat hamda iyqon qadahidan ularga tottirdi. Ulardan ba’zilariismlar, sifatlar va tavhid ilmidan vojib ul-vujudning vujudini tasdiqi bobida nazar va istidlol yo‘li orqali imkoni boricha qanoat qildilar, undan nasiba oldilar va shod bo‘ldilar. Bir qanchalari yanada taraqqiy qilish uchun Ilohiy amrlarni bajarish, qaytarganlaridan qochish va boshqa yoqimli ishlarni amalga oshirishda qattiq harakatni ishga soldilar. Kuchli jiddu (16a) jahdni ilmni ziyoda qilishga baxshida qilib, dil sofligini va ruh pokligini hosil qildilar, tan temirini kuchli riyozat orqali sayqalladilar. Chunonchi, bu haqda aytadilar[12]:

---

[10] Ўша асар, 72 б – бет.
[11] Нуритдинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда ХВИ-ХВИИ асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. – Т.: Фан, 1991. – Б. 78.
[12] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 25-26.

Gar tani xoki galizu tira ast,

Saykalash kun z-on ki saykalgira ast. Xamchu ohan garchi tiraxaykali,

Saykali kun, sayqali kun, sayqali.

(Tuproq tana garchi qo‘pol va qora bo‘lsa ham,

Unga sayqal ber, u sayqalni qabul qiluvchidir.

U temir kabi qora tanli bo‘lsa-da,

Sayqal ber, sayqal ber, sayqal ber.)[13]

(Ular sayqal bilan) Ilohiy fayzga loyiq bo‘lganlar. Xaq subhonahu ularning orasidan ba’zilarining diliga Jaloliyat sifati bilan nur tarab, olamni ularning nazarida nurlar bilan limmo-lim qilgan, vujudidan tashqari barcha ashyoni mahv va foniy qilgan. Ular intizor holda g‘ayb pardasidan qanday ish zuhurga kelishi va lorayb saropardasidan qanday ishorat yuz berishini kutib o‘tirganlar. Jaloliyat zulmati ostida hayron bo‘lgan bir qancha vaqtlar ham bo‘ladi. Nogoh rahm egasi bo‘lgan Xazrati Xudovand o‘zining ehson va inoyati orqali bayon ilmi olamining sarhadidan ayon va irfon mamlakatiga yetqizadi va U Muso kabi Jalol va sadoqatning zimiston tunida talab vodiysida sargashta, rangsiz olam vodiysida sarosima bo‘lgan odamni nurlar chaqini orqali o‘ziga tortadi: «Vaqtiki bu muborak maqomda ul maydonning o‘ng tarafidan olov uning qoshiga keldi, daraxtdan: «Ey Muso, men butun olamning Parvardigori-man» degan ovoz keldi». (Kur’on, 28/30).

Odina Eshonning fikricha, ruhlar badandan uzilganlaridan so‘ng, vujud xonalaridan benishonlik o‘tloqlariga ketadilar, g‘aybat tunlari kelganda uyg‘oqlik maydoniga qaytishni istaydilar va bu bilan o‘z oyoqlariga uzun kishan soladilar. Bu kishan ruhning badanga bog‘liqligidir, degan falsafiy-tasavvufiy mushohadani keltirib yozadi:

Lek bahri on ki ro‘z oyand boz,

Bar nihond bar poyishon bandi daroz.

[13] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 26.

(Biroq kunlar yana kelishi uchun,

Oyoqlariga uzun band soladilar.)[14]

So'fiylar ruhni muqaddas va boqiy deb bilgan holda, jismoniy halokatdan tashqarida ham bardosh berishini ta'kidlaydilar. Jismoniy shakl nobud bo'lganda, ruh saqlanib qoladi, tana esa parchalanadi. Ular ruh va tana o'rtasidagi munosabatlar ilohiy kuchga ega ekanligini ta'kidlaydilar. O'limdan keyin ruh davom etadi va ruhlar olamiga o'tadi. Bizning aqlimiz zaif va agar o'lganlarning ruhlari yangi tanalarga o'tadigan bo'lsa, marhumning soni tiriklarning soniga teng bo'ladi. Biz sharqda "tanasux" deb ataladigan ruhning bir tanadan boshqasiga o'tishi haqidagi ba'zilarning fikrini rad etamiz. Yusuf Qorabo'g'iy ruh va tana o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, shu orqali ruh o'lgandan keyin tana bilan birga halok bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga, olim ruhning bir tanadan boshqasiga o'tishini tasdiqlovchi tushunchaning noto'g'riligini ko'rsatadi.[15]

Farobiy yozadi: "Tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi", deydi.[16] Uning fikricha, ruhiy substansiyaning tanadan tashqarida bo'lish, degan tasavvuf ahli fikrlari bilan farqli o'laroq, ruhning butunlay tana va ruhning chambarchas bog'liqligini ham yoqlaydi.[17]

Odina Eshon esa ruh va jon haqidagi o'z mulohazalarini quyidagicha bayon qiladi: "G'ayb olamining o'tloqzori va lo g'ayb sahnining ko'kalamzoridan tortib olib, vujudning yuki ostiga kiritsalar, birin-ketin to to'liq fano yuz berguncha g'aybat yuz beraveradi, to vasl ipining uziladigan vaqtiga yetgandagina uzadilar",[18] deb yozadi.

Oldingi satrlardan xulosa qilish mumkinki, ruh tanadan faqat inson o'lik olamdan chiqqanda chiqib ketadi. Ruh tananing o'zidan oldin tanani tark etadi, chunki ruh jonsiz tanada ishlay olmaydi.

---

[14] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 73 а - бет.

[15] Юсуф Қорабоғий ва ..., 79-бет.

[16] Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. /Нашрга тайёрловчи, фил.ф.н. А.Ирисов. – Т.: Халқ мероси, 1993. – Б. 176.

[17] Туленова Г. Руҳий – фалсафий қарашлар муштараклиги. /Фалсафа ва ҳуқуқ, 2005. 4-сон.– Б. 11.

[18] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 73 б - бет.

Odina Eshonning ta'kidlashicha, masihiylar itoatni uch qismga ajratadilar: tana, qalb va ruhning itoatkorligi. Tananing itoatkorligi uni odob-axloq qoidalariga bo'ysundirishni talab qiladi. Qalbning itoatkorligi uni nafsning nafs va fikrlardan poklab, yaxshi xulq-atvor bilan bezashni nazarda tutadi. Ruhning itoatkorligi ruhning mohiyatini tashkil etuvchi ruh va "o'z nuridan ularga nur sochgan" nur tomonidan hurmat qilinishi kerak[19] degan falsafiy-tasavvufiy fikrni keltiradi va yozadi:

Gar budy jon zinda bepartav kunun,
Hech go'fty kofironro mayyitun.
(Agar jon uning partavisiz tirik bo'lganda,
Kofirlarni "o'liklar" deb hech aytarmiding.)[20]

Demak, Odina Eshonning yozishicha, ruh tobeligi uni Rasululloh (s.a.v.) nuri ichida mahv etish va uning poyoni yo'q nuridan bosh chiqarib, Allohning behad va bepoyon nurini bekayf va kam mushohada etishdir. Ruh tobeligi Allohga bo'lgan tobelikning kamolidir. Inson bu kamollikga haddi sig'masa, harakat qilsin, lekin hech qachon tark etmasin,[21] degan falsafiy-tasavvufiy g'oyani ilgari suradi. Albatta Odina Eshon o'z fikrini mustahkamlash uchun Qur'oni Karim va rasululloh (s.a.v.) so'zlaridan keltiradi. "(Ey Muhammad), aytgil: "Agar sizlar Allohni do'st tutsangizlar, menga tobe bo'linglar".[22] Rasululloh (s.a.v.) buyuradilar: "Har narsaki, agar u to'liq topilmasa, to'liq ham tashlab qo'yilmaydi", kuch va quvvat yetguncha harakat qilsinlar, qidirsinlar, toki qidirishning uddasidin imkon boricha chiqa olsinlar.[23] Bizningcha, ruh tana, nafs tabiat ustidan g'olib bo'la olmaydi. Inson o'z asli bo'lmish mutloq ruh holatiga yaqinlashishi, uning vasliga yetishish uchun ham shunday qilishlari lozim.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Miftox ul- asror" asarining "Xalifaning saroyini xudoyi ta'olo ilmiga qiyos qilgani" haqidagi qismda:

---

[19] Ўша асар, 119 – бет.
[20] Ўша асар, 120 а – бет.
[21] Ўша асар, ўша бет.
[22] Қуръони Карим./таржима ва тафси муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Сано – стандарт, 2021.
[23] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 120 а – бет.

Qatrae az Dajlai xubiyi o‘st,

K-on namegunjad zi purū zeri po‘st.

(Uning xo‘blik Dajlasidan bir qatrasi,

Ko‘pligidan odamning tanasi ichiga sig‘maydi.)

Sharh: Bu xo‘blik, ya’ni Xay va Kayyum sifatining tajalliysidan bu olam ko‘zasi to og‘zigacha to‘la bo‘lib, u Alloh ta’olo Zotining cheksiz tajalliysidan bir qatradir va bu qatra to‘lalikdan teri ostiga, ya’ni vujud ichiga sig‘maydi.

Odina Eshon fikricha, Allohga bo‘lgan ruh tobeligi to‘liq bo‘lib, u kamolga yetsa, Alloh ham sizlarni do‘st tutadi,[24] deydi. Demak, Allohga ruhan tobe bo‘lgan banda ojiz. Qomatiga do‘stlik xil’atini kiygizadi, uni o‘z do‘stiga aylantiradi va o‘zidan boshqani do‘st tutishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Haqiqiy kamolotga erishish uchun inson avvalo ilmiy tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Ichki ma’naviy-axloqiy kuchlar shaxsga tabiatni xolisona baholash imkonini beradi. Shaxsning ma'naviy va axloqiy o‘lchovlari uning tanasining jismoniy holatiga ta'sir qilishi mumkin.

Keyinchalik olimlar bu masala bo‘yicha turlicha qarashlarga ega. Ular tasavvufning o‘ziga xos jihati uning aqliy yuksalishidadir, u nafaqat hozirgi bilimlarni egallash, balki qalbni poklash va qalbni poklash orqali chuqur kamolotga erishishga intiladi. O‘z-o‘zini takomillashtirish yangi maqom va reytinglarga erishishga olib keladi. Bunga faqat nazariy tayyorgarlik va ta'lim orqali emas, balki belgilangan tartibni chetlab o‘tish va muhim chegara va mahrumliklarga chidash orqali ham erishish mumkin,[25] degan tasavvufiy mushohadani keltiradilar.

Yusuf Qorabog‘iy fikricha, ruh va tananing o‘zaro munosabati masalasi yuzasidan qator materialistik farazlarni ilgari suradi. Uning yozishicha. Inson ruhini

---

[24] Қуръони Карим. Бақара сураси, 115 оят.

[25] Комилов Н. Тасаввуф ва Шарқ фалсафаси. /Шарқ машъали, 1998. 1-2-сон. – Б. 48; Латифжонхожи Баҳоуддин ўғли. Ҳазрати Одина Эшон қиссаси.

uning jismi bilan birgalikda, hatto unga tobedir,[26] deydi. Bizning fikrimizcha, ruh bir tanadan boshqasiga ko‘chadi degan qarashlarni tasavvuf ahllari mutloq rad etadilar.

Tasavvuf ahllari, Parvardigorni va uning qudrati, mo‘jizalari, g‘ayb olamini faqat aql bilan bilib bo‘lmaydi. Aql dunyoviy bilimlar, dalil bilan isbotlanishi mumkin bo‘lgan bilimlarga yaraydi, g‘ayb ilmini idrok etishga esa aql ojizdir,[27] degan fikrni ilgari suradilar.

Mutafakkirlarning fikricha, inson ruh haqidagi ta’limot bilan inson aqli masalasi bog‘liqdir. Aql - jismoniy ham emas, ruhiy ham emas, u absolyut aql bo‘lib, oqibat natijada aqliy bilimlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi,[28] degan tasavvufiy g‘oyani keltiradi.

“Abu Nasr Forobiy ham Allohning, borliq sirlari ochilmay, xomligicha pishmay qolib ketdi. Bu qimmatbaho g‘avhar teshilmaganicha, ishlatilmay, qolib ketdi. Har kim vujud sirlari haqida o‘z aqlining yo‘l ko‘rsatishi bilan biron narsa dediyu, lekin asosiy ma’no – nuqta aytilmay qolib ketdi”,[29] deb yozgan edi. Fikri ojizimizcha, biz ko‘rib turgan narsalarning hammasini ham aqlimiz anglab olib bo‘lmaydi. Bunga aqliy bilimning kuchi yetmaydi. Tasavvuf ahllari fikricha, Alloh hamma g‘ayb sirlarini ocha bermaydi.

Odina Eshon o‘zining falsafiy qarashlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda mushohada yuritar ekan, uning fikricha, badanga majburan kiritilgan ruh, go‘yoki, tan qafasini siqib turgan ruh g‘aybning keng sahrosiga ketib, u yerga keng bisotini yoygandek bo‘ladi.[30]

Mavlono YA’qub Charxiy ham o‘zining “Tafsiri Charxiy” asarining “al-Jin” surasi tafsirida diqqatga sazovor bo‘lgan fikrlardan yana biri “ilmi g‘ayb” (g‘ayb ilmi) haqida bayon qiladi. Charxiy suradagi “Alloh o‘zining g‘ayb sirlarini hech kimga bildirmaydi, faqat o‘zi yoqtirgan payg‘ambarlarigagina bildiradi” degan oyatni

[26] Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда ХВИ-ХВИИ асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр, 79-бет.
[27] Тасаввуф ва Шарқ фалсафаси, 48-бет.
[28] Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда ХВИ-ХВИИ асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр, 80-бет.
[29] Ирисов А. Фаробий адиб. – Т.: Фан, 1975. – Б. 14.
[30] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 73 а.

tafsir qilar ekan, bu hol vahiy, ilhom, mushohada yoki tush orqali yuz berishini tushuntirib o‘tadi.[31]

Odina Eshon g‘ayb ilmi haqidagi qarashlarini quyidagicha tasvirlaydi:

Noyad on illo, ki bar xoson padid,
Boqiyon “fiy labsi min xalqin jadid”.
(Bu yomg‘ir faqat xos bandalarga yog‘adi,
Boshqalar esa “yangi yaratish haqida shakdadurlar”.)[32]

Odina Eshonning yozishicha, g‘ayb yomg‘iri xos bandalargagina keladi, ya’ni toliblarga, lekin shunday toliblarga keladiki, ular yomon sifatlardan uzilib, yaxshi sifatlar bilan bog‘lanadilar.

Bashariy sifatlarning barchasidan chiqadilar va Ilohiy sifatlar bilan mavsuf bo‘ladilar. «Alloh ta’olo xulqlari bilan xulqlaninglar» hukmi bo‘yicha Podshohning chiroyli xulqlari bilan xulqlanadilar. Agar ular quyi olamga nuzul qilsalar Haqning yuborgani sifatida nuzul qiladilar, Onhazrat sallallohu alayhi va sallamning pok nuridan ayrilmagan nur sifatida nuzul ko‘rguzadilar. Chunonchi, Hazrati Mavlaviy mazkur hol sohibiga ishorat qilib buyuradilar:

K-ey biburda raxti his’ho sӯyi gayb, Dast chun Muso burun ovar zi jayb. Ey sifotat oftobi ma’rifat, ) Oftobi charx bandi yak sifat[33].

Goh, xurshedu gahe daryo shavi,
Goh Ko‘hi Qof ki anho shavi.
Tu na in boshi na on dar zoti xesh,
Ey fuzun az vaxmho v-az peshi pesh.
Rux bo ilm astu bo aql ast yor,
Ruhro bo toziyu turki chi kor?

---

[31] Разакова М. Мавлоно Яъқуб Чархийнинг илмий мероси. – Тошкент, 2013. – Б. 77; Яъқуб Чархий. Тафсири Чархий. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 3306. – Б. 69.
[32] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 79 б-бет.
[33] Ўша асар, (27а) – бет.

(Ey oʻz hislarini gʻayb sari qarattan kishi, Koʻlingni Muso kabi qoʻyningdan chiqar. Ey sifatlari ma'rifat oftobi boʻlgan, Charx oftobini bir sifat bilan band qil.

Goh quyosh, gohida daryo boʻl, Gohi Koʻhi Qof boʻlki, anqo qushi boʻlasan. Oʻz zotingda sen u ham boʻlma, bu ham boʻlma, Sen tasavvurlardan peshma-pesh ziyodasan. Ruh ilm va aql bilan yordir,Ruhning turku tozi (arab) bilan nima ishi bor.)

Yana boshqa joyda buyuradilar[34]:

Ey Xudo, jonro tu binmo on maqom,
K-andar oʻ be harf merӯyad kalom.
(Ey Xudo, jonga oʻsha maqomni koʻrsat,
Kaysiki, unda harfsiz soʻz paydo boʻladi.)

Hadisi qudsiyda buyuradi: «Mening sifatlarimdan xulqimga oʻt, kimni koʻrsang, meni koʻrasan, kimni maqsad qilsang, meni maqsad qilasan, kimni yaxshi koʻrsang, meni yaxshi koʻrasan» (hadis oxirigacha).

[35]Vaqtiki, yuqori koʻtarilsalar va visolga yaqin yetsalar va jamoli Zu-l-jalol mushohadasiga musharraf boʻlsalar bu Xudoyi ta'oloning saralab olishi va roziligidir. Hayratda dil xatarlar gʻuboridan sof boʻladi. Hech bir narsa til va dil orasiga toʻsiq boʻla olmaydi. Tasbih, tahlil, duo va sanodan nimaiki aytsalar yoki Qur'on oyatlari va Rabboniy kalimalardan oʻqisalar yoxud eshitsalar, «qachonki Qur'on oʻqilsa unga quloq solinglar va jim turinglar» (Kur'on, 7/204) oyatiga amal qilib, jimlikni va eshitishni kamolga yetqazadilar.

Alloma yana bir joyda yuqorida keltirilgan fikrga hamohang fikrni bildirib yozadi: "Ey sen (banda), Shoh (Alloh) inoyati va uning cheksiz iltifoti tufayli botiniy hislarning yoʻl jabdugʻini gʻayb olami sari yoʻnaltirgan kishi, Haq subhonahu va ta'olo oʻzining mutlaq atoriga qaramay, Haq fazlu karami bilan bu ruhlardan olib,

[34] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 27-28 а.
[35] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 47-48.

hislarning oʻrniga Oʻzining sifatlarini unga arzon tutib baxshida etadi”,[36] degan fikrni bildiradi.

Odina Eshon oʻz fikrini davom ettirar ekan, uning yozishicha, ruh solikning haqiqatidan iboratdir. Aqli kull bilan qoʻshilgan va oʻsha yerdan bosh chiqarib, hazrati Pok Zotni mushohada qiladi, unda bashariyat sifatidan asar ham qolmaydi.[37]

Bizning fikrimizcha, ruh fazosining ochilishi, ruhga rohat bagʻishlaydi, dilni ochuvchi kalit yaxshi insonlar suhbatida boʻladi. Yomon insonlar suhbatidan esa iloji boricha nari yurmoq kerak, chunki unday odamlar suhbatidan ruh qotib qolib, tubanlik sari yetaklaydi, goʻyo loyga botgandek boʻladi, degan mushohadani keltiradi. Bu borada Odina Eshon bayt keltiradi:

Gom dar sahroyi dil boyad nihod,
Z-on, ki dar sahroyi gil nabvad kushod.
(Qadamni dil sahrosiga qoʻymoq kerak,
Chunki loy sahrosida kushodlik boʻlmaydi.)[38]

Odina Eshon ruh va jism oʻrtasidagi munosabat, insoniyatning ma’naviy quvvati haqida soʻz yuritar ekan, tarixiy tasavvuf va mutafakkirlarning gʻoyalariga batafsil toʻxtalib oʻtadi. U ularning gʻoyalarining ayrim jihatlari bilan qoʻshilib, qisman tanqidiy fikrlarni bildiradi va koinotning genezisi, ruh va tana oʻrtasidagi ajralmas bogʻliqlik, gʻayb ilmi haqidagi oʻz qarashlarini batafsil bayon qiladi.

Tasavvufda “Vahdatul-vujud” ta’limoti bir qancha tarkibiy qismlardan iborat. Keyingi komponent tajalli nazariyasiga tegishli. Bu gʻoya koinot oʻzining abadiy nurining tarqalishidan kelib chiqadi, deb ta'kidlaydi.

Islomda Alloh taolo qiyomat kunida faqat jannat ahliga Oʻzining ilohiy ulugʻvorligini koʻrishga imkon berib (tajalli) qiladi. Soʻfiylar uchun asosiy maqsad jannatga erishish va Islom ahkomlariga qat'iy rioya qilgan holda Allohning jamolini

[36] Ўша асар, 122 а-бет.
[37] Ўша асар, 164 а-бет.
[38] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 164 а-бет.

ko‘rishdir. Bu Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning “Jannat ahli Alloh taoloni Badr kuni (o‘n to‘rt kun)dagidek ko‘radilar” degan hadislaridan olingan. “Tajalli” arabcha atama bo‘lib, jannat nurini yoritmoq, namoyon qilmoq, ravshanlashtirmoq, nurlantirmoq va gavdalantirmoq ma’nolarini bildiradi. Tasavvufda tajalli “Xudoning zuhuri”ni bildiradi.

Tajalli tushunchasini dastlab Basralik zohid Raboh ibn Amr al-Qaysiy (vaf. 1796) keltirgan. Mashhur so‘fiy Sahl at-Tustariy (vaf. 896 y.) ham al-Qaysiyning shu mazmundagi ishini davom ettirib, tajalliyning uch turini farqlagan: birinchisi – ilohiy mohiyatning namoyon bo‘lishi (tajalli az-Zot), yoki ilohiy vahiy (mukashafa); ikkinchisi – ilohiy mohiyatning o‘z sifatlarida namoyon bo‘lishi (tajalli sifat az-Zot), yoki nur taratish (maudi’an nur): uchinchisi –ilohiy hukmning namoyon bo‘lishi (tajalli hukm az-Zot), yoki kelajak hayot (al-axira va ma fiha).[39]

Zamonaviy tadqiqotchilar tajalliy tushunchasini teosofik falsafa va tasavvufning muhim elementi sifatida yoritib berishadi, u inson kamoloti bosqichlarini va naqshbandiya ta’limotidagi ekzistensial dilemmani belgilaydi.

Shayx Najmuddin Kubro asarlarida tajalliy tushunchasi ikki komponentga: ruhiy tajalli va ilohiy tajalliyga ajratilgan. Ilohiy tajalli ikki toifaga bo‘linadi: a) uluhiyat tajalliy; b) rububiyat tajalliy. Birinchisi Hazrati Muhammadga, ikkinchisi esa Hazrati Musoga tegishli,[40] deb yozadi.

“Rububiyat tajalliysi bo‘lgan ma’rifat, – deb yozadi Odina Eshon, - quyoshining o‘z zoti chegarasida botishi yo‘q, biroq uning nur sochishi va yorug‘ligi Haq ta’oloning irodasiga bog‘liq va yo‘qlik visolining maqomi shu yerdadir”,[41] - deb ta’rif beradi.

Odina Eshon fikricha, bu quyoshning (ya’ni, solik) chiqadigan joyi ruhdan iborat bo‘lgan jon va aqli kulldan iborat bo‘lgan aqldir. Bu solik Rasululloh (s.a.v.) nuridan iborat bo‘lgan aqli kulldan (barchani bilish) o‘tib, Allohni biladi. Odina Eshon fikrini mustahkamlash borasida Rasululloh (s.a.v.) so‘zlaridan keltiradi: “Ey

---

[39] Ислом. Энциклопедия. – Т.: Ўзбек Миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашр, 2004. – Б. 221.
[40] Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – Б. 242.
[41] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 116 а-бет.

Parvardigorim, mening sha'nim naqadar ulug', men haqman, choponim ichida Allohdan o'zga yo'q".[42] Bu rububiyat tajalliysi va ayn ul-yaqindir.

Odina Eshon Jaloliddin Rumiyning tajalliy borasidagi qarashlarini falsafiy-tasavvufiy nuqtai nazaridan sharh qilgan. Uning yozishicha, rububiyat tajalliysiga ishora bo'lib, uning mashriqi, ya'ni chiqadigan joyi Qirkun burji hisoblanadi. Bu burj jalol sifati bo'lib, qora rangdadir. Mashriq, payt va uning nurlari hayot va o'tayotgan kundir. Shuning uchun ham: "Uning Mashriqi zarralarga nisbatandir"[43] deyiladi.

Ikkinchisi quyosh bo'lib, pok Zotga (Alloh) ishoradir. U Sharq va G'arbdan pok va munazzahdir. Shuning uchun ham: "Uning Zoti na chiquvchi va na botuvchidir",[44] deyiladi.

Odina Eshon bir joyda masnaviyda keltiradi:

Ba'daz on har jo ravy mashriq shavad,
Sharqho bar mag'ribat oshiq shavad.
(Shundan so'ng, qayga borsang, mashriq bo'ladi,
Sharqlar mag'ribingga oshiq bo'ladi.)[45]

Muallifning fikricha, uluhiyyat quyoshining chiqadigan joyiga yetib borgan kishi, unga vosil bo'ladi, so'ng qayerga borsa yoki qayerga kelsa Zot (Alloh) tajalliysi oftobining mashriqi bo'ladi. Odina Eshon o'z fikrini mustahkamlash uchun Qur'oni Karimdan keltiradi: "Bas, qaysi tarafga yuzlansangizlar, o'sha tarafdadir Alloh ta'oloning yuzi".[18][46]

Odina Eshonning yozishicha, garchi bu tajalliy barcha ko'rinishlardan va mashriqlardan pok bo'lsa-da, bu ma'noni o'z ichiga oluvchidir. Bu yerda mashriqni yod etish iboratni siqiq berishdan iboratdir.[47] Rububiyat tajalliysi, - deb yozadi Odina Eshon, - quyoshining sharqi qiyrga o'xshash qoradir, pok Zot (Alloh) quyoshining

[42] Ўша асар, 116 б-бет.
[43] Ўша асар, 119 б-бет.
[44] Ўша асар, 119 б-бет.
[45] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 119 б-бет.
[46] Қуръони Карим.
[47] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 119 а-бет.

esa sharqi yo‘q, u har qanday rangdan xoliy bugun men o‘sha quyoshning nisbatiman (soyasi)”.[48]

Odina Eshon Shaytoniy va Rahmoniy taja tajalliyni farqlash toliblarga o‘ta qiyindir. Shayton o‘z nurini solikka tashlaganda va bu nur uning dilini to‘liq egallaganda, uning basiyrat ko‘zi «mo‘min kishi Alloh nuri orqali qaraydi» (hadisi) bo‘yicha ochilmagan bo‘ladi, zohiriy nazar va badan ko‘zi (bu ikki nurni) farq qilolmaydi. «Masnaviy»da bu bobda aytiladi[49]:

Talxu shirin dar nazar n-oyad padid, Az daricha oqibat donand did.

(Achchiq va shirin qarashda bilinmaydi, Darichadan oqibatni ko‘rib bo‘lmaydi.)

Mo‘min «yanzuru bi-nurillah» shudӣ,
Az xatovu sahv emin omadi.
Chashmi oxirbin tavonad didi rost,
Chashmi oxirbin gururastu xatost.
(«Mo‘min Alloh nuri bilan qaz ilan qaraydi» bo‘lagani uchun,
Xato va nuqsondan emin bo‘ldi.
Badan ko‘zi bilan garchi ko‘rsa ham,
Badan ko‘zi bilan ko‘rish aldov va xatodir.)

Uning tabiatidagi ixtilof illati hal qilish sharbati bilan mo‘tadillik topmagani va safroviy ta’mga ega bo‘lgani uchun bu narsani uning hislari idrok etolmaydi. Yana «Masnaviy»da aytiladi:

Har du surat gar baham monad, ravost, Obi talxu obi shirinro safost.

(Bu ikki ko‘rinish bir-biriga o‘xshashi ravodir,Achchiq suvda ham, shirin suvda ham sof ko‘rinishbo‘ladi.)[50]

---

[48] Ўша асар, 134 а-бет.
[49] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 64.
[50] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 35 а-бет

Bundan tashqari, Shaytoniy tajalliy bir xil ta'm va bir rangda bo'lmaydi, bir holat va bir ko'rinishda turmaydi. Xazrati Maxdumi A'zam, Alloh ularga rahmatini sochsin, o'z risolalarida aytadilarki, Rahmon so'zi fa'lon vaznidadir. Shayton ham fa'lon vaznida. Tashqaridan qaraganda ikki fa'lon orasini farqlash oson emas va qaysi biri Shayton va qaysi biri fa'lon ekanini bilish qiyin. Shuningdek ularning tajalliyotini farqlash ham mushkildir. Gohida jaloliyat kabi tajalliy qiladi va unda dardu o'rtanish bo'ladi. Ba'zida xavf va haybat, gohida zavq va tug'yon, gohida muhabbat va umid yuz beradiki, «summat ul-xayr» (keyin yaxshi deguvchi) Shayton nafsi ammora bilan birlashadi, shogirdni yaxshilik sari tortadi, shariatta haris qiladi va shu orqali zalolat va adashuvga olib boradi. Xullas, shu kabi sanoqsiz balolari borki, ko'rinishda yaxshi va shirin bo'ladi, shu vosita bilan odamlarni o'ziga ishqivoz va qiziquvchiga aylantiradi va bu nayrangi bilan xaloyiqni maftun etadi. Bularni Ilohiy nursiz bilish hech kimga muyassar bo'lmaydi. Hatto komillar ham buni qiyinlik bilan biladilar[51]. Kimki ahli Haq bo'lib, botini safo topgan, ruhi poklangan, nurlarni kasb qilgan bo'lsa, bu ma'nolarniidrok qila oladi.

Odina Eshon fikricha, had va qiyosdan tashqari bo'lgan ofarin va maqtovlar faqat Allohgaki, uluhiyyat tajalliysining to'fonini ravo ko'rish va xarobalik vositasini oradan ko'taradi, degan falsafiy-tasavvufiy fikrni keltiradi.

Bizning fikrimizcha, yer yuzidagi jamiki tirik jon va mavjudot faqat yakka Allohga tegishli ekanligini, alloma o'z she'riy satrlarida tasvirlab bermoqda. Shuningdek, alloma yer yuzidagi barcha narsalar, hayvonot dunyosi va insonlar Yaratguvchiga tobe ekanliklarini bayon qiladi.

Odina Eshon fikricha, rububiyat tajalliysining mashriqi, ya'ni chiqish joyi olamning zarralarida va U mana shu zarralarda zuhur qiladi. Alloh tajalliysi uchun na mashriq, na mag'rib, na chiqish va na botish yo'q. Shuning uchun "Uning Zoti na chiqadi va na botadi" deyiladi. Odina Eshon "Banda olam zarralarining ortida

[51] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 64-65.

qoldirilgan va bu zarralar Uning (Alloh) tajalliy mazharining soyasidir, demak inson ikki olamda soyasiz quyoshdir”,[52] degan falsafiy mushohadani keltiradi.

Odina Eshon yuqorida keltirilgan fikrini nazmiy yo‘l bilan yozadi:

Bas talab gardad zi mushtoqiyn xesh,
Jur’a menushad az soqiyn xesh.
(O‘z mushtoqligi bilan talabda bo‘lgach,
O‘z soqiysidan qultum may ichadi.)[53]

Uning fikricha, bandaning ishqu muhabbati tug‘yon uradi, o‘zini chegarasiz sahroda, xirgoh ichida, qaysi tarafdan daricha ochilishi va haqiqiy mahbub (Alloh) jilva qilishiga muntazir holda o‘tirgandek ko‘radi, deb yozadi.

Bizningcha, alloma tajalliy masalalsida fikr yuritar ekan, tasavvuf ahllariga tanish bo‘lgan haqq ul-yaqin iborasi bilan hamohangligini ko‘rsatadi. Uning yozishicha, Alloh shunday Zotki, uning Zotini tanish va mohiyatini bilishga barcha ojizdir. Hech kim bilishdan dam ura olmaydi, Uning qanday ekani haqida hech bir odam fikr qilolmaydi,[54] deydi. Alloma tajalliyni, suluk va hol asnosida bo‘lgan ismlar va sifatlar tajalliysi shu paytgacha ofoq va anfusda ekan, endi ularni nobud va yo‘q holda ko‘radi,[55]degan falsafiy mushohadani bildiradi.

Odina Eshon o‘z fikrini davom ettirib yozadi, “hukmning illati nuqsonidir, ya’ni yetilmagan solik suluk tariqida sifatlardan qanchalik foniy bo‘lsa-da, Molik ul-Mulk sifatlarining tajalliyoti uning zotida barqarordir. Shu sababli rububiyat zotining tajalliy quyoshi goh ko‘rinadi, gohida esa botadi. Va o‘sha solikning zoti quyoshida boqiydir, u oy emas va bu zot butining naqshi bo‘lib, doim turuvchidir va u esa bundan ogoh emas”, [56] deydi. Alloma o‘z fikrini mustahkamlash uchun ruboiy keltiradi:

[52] Ўша асар, 134 б-бет.
[53] Ўша асар, 14 б-бет.
[54] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 22 б-бет.
[55] Ўша асар, ўша бет.
[56] Ўша асар, 174 б-бет.

Dar diydai diyda didho binhodim,
V-onro, ki zirih did g‘azo medodim.
Toki ba sari no‘yi kamol o‘ftodim,
Az diydavu diydany kunun orodim.
(Diydamiz ko‘ziga ko‘z qo‘ygan edik,
Kimda sovut bo‘lsa, g‘azo berar edik.
Kamol ko‘chasiga tushganimizdan so‘ng,
Ko‘z va ko‘rishdan ozod bo‘ldik.)[57]

Odina Eshonning fikricha, aynul-yaqin martabasida Parvardigor sifatlari orqali solikda zotiy tajalliy voqe bo‘lsa-da, ruh tarbiyat hujrasida o‘sha holida salomat saqlanib turadi. Demak alvon nurlar va tajalliyotni mushohada qilish mumkin. Haq ul-yaqin darajasiga yetganda va Ilohiy tajalliyot muyassar bo‘lganda ruh ham kam keladi, tajalliyot va mushohadalar butunlay qolmaydi, degan falsafiy fikrni bildiradi.

Odina Eshon ruh uluhiyyati haqida fikr yuritar ekan masnaviy keltiradi:

Nuhvor ar sadmate zad dar tu ruh,
Ko‘ yamu ko‘ keshtinu ko‘ to‘foni Nuh.
(Nuh kabi ruh senga bir zarba bersa,
Qani dengiz, qani kema, qani Nuh to‘foni?)[58]

Allomaning fikricha, ruh uluhiyyat tajalliysidan iboratdir, agar u solikning joniga bir zarba yetkazsa, na bahr, na vujud kemasi, na siqilish va g‘am to‘foni va na boshqalardan asar ham qolmaydi, deb o‘z mulohazasini bayon qiladi.

Bizning fikrimizcha, inson tanasida yashab turgan ruh ham Yaratuvchining izmida bo‘ladi. Ruh hech qachon o‘z xohishi va istagi bilan harakat qila olmaydi. Hatto, o‘zi istagan chog‘ida ham inson tanasini tark eta olmaydi. Faqat Yaratganning

[57] Ўша асар, 22 б-бет.
[58] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 188 а-бет.

amri bo‘lganidagina u inson tanasini tark etadi va ruhlar olamiga ketadi. Ruh inson tanasida jon bilan birgalikda bir yo‘nalishda, ya’ni uluhiyyat yo‘lida harakat qilishadi. Agar jon uluhiyyatdan yiroqlashsa va nafs girdobiga tushib qolsa, ruh albatta qiynaladi, azoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, olimlarning fikricha, inson vujudida ham ruh ham jon mavjuddir. Inson yashar ekan, bu ikkilasi ham bir-biri bilan uzviy bog‘lanib turadi. Inson vujudida har ikkalasi tursa ham alohida o‘rin egallaydi. O‘tmishda yashagan allomalar bu borada turli mulohaza fikrlarni aytib o‘tganlar. Bu albatta, kelajakda yoritiladigan masalalardan biridir.

Odina Muhammad Xorazmiy o’z davrida tasavvufiy-irfoniy va ijtimoiy-falsafiy g’oyalarni o’z qarashlarida ilgari surgan XVIII-XIX – asrlarning tasavvuf olamining zabardast vakili hisoblanib, uning qrashlarida asosan, Kubraviya tariqati ta’siri seziladi. Inson ruhining ma’naviy sayri va ruhiy tajribasi shu tariqat asoslariga uyg’un holda sharhlangan.Odina Muhammad Xorazmiyning asarlari xalqona tilda ruhiy tarbiya g’oyalarini targ’ib etadi

Odina Muhammad Xorazmiy qarashlarining asosini, Sharq falsafasi, xususan, inson mohiyati, axloqiylik va ruhiy kamolot konsepsiyasi; alloma yashagan davrning ijtimoiy-madaniy sharoitlari, ta’siri bo’lib, uning ijodining markazida “komil inson” g’oyasi turadi. Mutafakkir o’z davrining ko‘zga ko‘ringan mutasavvifi bo‘libgina qolmay, balki forsiy tilda ijod qiluvchi taniqli shoiri sifatida ilmiy merosidan bizgacha 5 ta asari yetib kelgan, ular O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda.

Odina Eshon ruh va jism o’rtasidagi munosabat, insoniyatning ma’naviy quvvati haqida so’z yuritar ekan, tarixiy tasavvuf va mutafakkirlarning g’oyalariga batafsil to’xtalib o’tadi. U ularning g’oyalarining ayrim jihatlari bilan qo’shilib, qisman tanqidiy fikrlarni bildiradi va koinotning genezisi, ruh va tana o’rtasidagi ajralmas bog’liqlik, g’ayb ilmi haqidagi o’z qarashlarini batafsil bayon qilgan.

### 1.1. Odina Muhammad Xorazmiy hayoti va ma’naviy merosi

Odina Muhammad Xorazmiy Xorazm vohasi hozirgi Hazarasp tumani Karvak qishlog‘ida tug‘ilib Bog‘ot tumani Dehqon bozor(oldingi nomi “Kirop”)da keyinchalik yashab ijod qilgan tasavvufiy-irfoniy yuksak tafakkur egalaridan biri bo‘lgan. Uning hayoti haqidagi ma’lumotlar to‘liq tarixiy hujjatlar va arxiv ma’lumotlari  hamda allomaning o;z qalamiga mansub asarlarida ham to‘liq yoritilmagan bo‘lsa-da, mavjud manbalardan ma’lum bo‘lishicha, u Najmiddin Kubro maktabi va Kubraviya tariqatining ma’naviy an’analaridan ilhom olgan. Shu bilan birgalikda Jaloliddin Rumiy hazratlarini o‘zining ruhiy ustozi deb bilgan va uning mashhur asari “Ma’naviy mas’naviysiga” sharh yozib qoldirgan. Bu asar “Miftoh ul – asror” (“Sirlar kaliti”) deb nomlangan. Shu davrgacha “Ma’naviy mas’naviyga” yozilgan sharhlarning eng yashisi deya ta’riflanadi. U yashagan davrda Xorazm vohasi Xorazm xonligi deb nomlangan bo‘lib o‘lka ilm, adabiyot va tasavvufiy hayot markazlaridan biri bo‘lib, ellikka yaqin madrasalar faoliyat olib brogan hamda bu madrasalarda ko‘plab mutafakkir va mutasavvif, olim va ulamolar faoliyat olib borgan. Alloma o‘zi tug‘ilib o‘sgan Xorazmda diniy-ilmiy bilimlarni chuqur egallagan, Qur’on va hadis ilmlaridan tashqari, mantiq, falsafa, tibbiyot, riyoziyot va adabiyotdan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Uning ijodi xalqona ruhda, odamlarni axloqiy poklik va ilohiy muhabbatga undovchi tarzda yozilgani hamda o‘zi ham xalq ichida yashagani uchun keng omma orasida tarqalgan hamda ergashuvchilari ham ko‘p bo‘lgan.

Abu-l-Muzaffar ibn Sayyid Muzaffar al-Xusayniy al-Xorazmiy al-Karvakiy, Alloh unga va ota-onasiga rahmatini sochsin, Toho va Yosin ahli sarasidan bo‘lgan xonadonning hojatmandrog‘i va payg‘ambarlarning sayyidi (Rasululloh) avlodlarining peshvosi Sayyid Mu’iz ud-Davla va-d-Dunyo va-d-Din (Mu’izuddin) Shakarlab al-Arabiy al-Xusayniy al-Makkiy, Alloh ruhlarini aziz qilsin va ularning yaxshiliklarini olamlar yuziga sochsin, (avlodi sifatida) yoshlik (7a)ayyomi va beboshlik zamonida va oyu yillar ta’qibi ostida aziz umrini nafs va shahvat taqozosi bo‘yicha o‘tkazgan, hoyu-havasi ortidan himmat otini choptirgan edi. «Mol-go‘rdagi ilon, obro‘ esa undan zararliroq» deyilgan dunyoning molu mulki va izzatu obro‘yi

payida umrguzaronlik qilar edi. Nodonlik qabohati bilan kechayu kunduzi olamning sahroyu vodiysida javlon koʻrguzar, ertayu kech dunyoni izlash va undagi narsalarni qidirish bilan ovora boʻlardi. Tengdoshlarining ulfatligi bilan ashyolarning maishatida baxtiyor boʻlib, tirikchilik husuli bilan tabiatini chogʻ oʻtkazardi.[59] Ishning oqibati esa barchasi gʻaflat va xatokorlik, hayot sarmoyasi esa befoyda va botil edi.

Odina Muhammad Xorazmiyning yana oziroq kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, koʻplab rivoyatlarga koʻra allomami Makka shahrida Xorazmga hijrat qilganlar va bu yerni oʻzlariga vatan tutganlar deyiladi. Asil tarix shundan iboratki, Odina Muhammad Xorazmiy Xorazmga hijrat qilgan emas, aslida ularning ajdodlari, ya'ni bobokalonlari Sayyid Muazzadin Shakarlab hijrat qilganlar. Tarixiy ma'lumotlarga aniqlik kiritish uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi arxiv hujjatlariga yuzlandik.

Tarixiy ma'lumotlarga koʻra Sayyid Muazzaddin Shakarlab koʻchib kelishi hijriy 826/ millodiy 1428 yilga toʻgʻri keladi. Tarixiy ma'lumotlarga koʻra, Amir Temur 1405 yil 18 fevralda vafot etganidan keyin 1410-1413 yillarda Xorazmni Yedigey avlodi Muborakshoh boshqargan. Shohruh Mirzo kuch bilan bosib olaolmasligini bilib, Xorazm zodagonlari bilan muzokaralar olib boradi. Shohruh Mirzoning zukko siyosati tufayli tarixiy hudud yana temuriylar tomonidan boshqariladi. Bu sana hijriy 826 va milodiy 1422 yilga toʻgʻri keladi. Bu Shohruh Mirzoning Xorazmda hukmronlik qilgan davrini anglatadi. Sayyid Muazziddin Xorazmga kelganida olti-etti yoshlarda boʻlsa, taxminan Sayyid Muazzaddin Shakarlab 1420-yillarda tugʻilgan.

Sayyid Muazziddindan keyin Sayyid Abdulaziz va Sayyid Hamid Xojalar avlodni davom ettirgan ulardan Sayyid Abdulaziz Xoja Odina Muhammad Xorazmiy bobokaloni hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ular arab nasllaridan ya'ni payhanbarimiz avlodlari deyiladi.

---

[59] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 11.

Temuriylar davrida ichki urushlar va qozoqlar bosqini mamlakatni tanazulga olib borib qo‘ydi. Shu vaqtda Sulton Husayn Bayqaro Xorazmni egallab bir vaqtning o‘zida Sayyid Hamid Xo‘jaga ma’lum bir hudud berib, uni Karvak(hozirgi Hazarasp hududini) dahaning beki etib tayinlagan. 1505 yilga kelib Xorazm Dashti qipchoqlarning atoqli namoyandasi Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxonga butunlay bo‘ysundirildi. Buning natijasida Xivada muxtor xonlik tashkil etishga intildi. 1510-yilda Shayboniyxon Marvda Eron Shohi Ismoilga qarshi jangda mag‘lub bo‘ldi, keyin boshidan judo qilindi, bu esa Xorazmni eronliklar tomonidan bosib olinishiga olib keldi. Eroniylar hokimiyat qisqa umr ko‘rdi, chunki Xorazmda Dashti Qipchoq o‘zbeklari, Elbars va Bilbars vakillari hokimiyat tepasiga keldilar. 1512-yilda Elbars Sulton Vazir qo‘rg‘onida xonlik lavozimiga ko‘tarilib, bosqinchilarni muvaffaqiyatli quvib chiqardi va 1538 yilgacha hukmronlik qildi. Xiva xonligi tarixda ma’lum muddat Buxoro ta’siriga ham tushub qolgan, Abdullaxon II vafotidan keyin yana Xiva xonligi mustaqilligini tiklab oldi va shu orada 1595 yilda Xojimxon ham vafot etgach, uning o‘rniga uning o‘g‘li Arab Muhammadxon (1602-1623) davom ettirdi va taxtga o‘tirdi. Arab Muhammadxon tinch davrlarni xalqqa taqdim etdi, chet ellik dushmanlardan holi edi. Arab Muhammadxon xalqni yetti o‘g‘liga bo‘lib tashladi. Uning to‘ng‘ich o‘g‘li Asfandiyor Hazoraspni, Abulg‘ozi Sultonga Kat, Habash va Elbars sultonlarga Vazir va Urganchni boshqarganlar.

Arab Muhammadxon Karvak elida Sayyid Muazziddin Shakarlab bobomizni xotirlash maqsadida keng masjid qurdirib, uning dafn etilgan joyiga maqbara o‘rnatdi. Asfandiyor I davriga kelib, XVII asr boshlarida o‘z ota-bobolarining nasabnomasini tuzdirdi. Shu ozma hujjat – “Nasabnoma” tasdig‘i ajdodlar yashab o‘tgan davr nasabnomalarini aniq belgilashda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Odina Muhammad Xorazmiy bugungi kundagi vorislari hisoblangan Latifjon Bahouddin o‘g‘li tamonidan yozilgan “Xorazmlik ma’rifat sohibi” asarida Odina Eshon hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib ko‘plab ma’lumotlar “Xorazmda avliyolar tarixi” qo‘lyozma asaridan olingan. Bu asar 630 varaqdan iborat bu kitobda Odina Muhammad Xorazmiy haqida to‘la

ma'lumot keltirib o'tilgan. Bobomning bu qo'lyozma kitobga kirgan tarixi esa Roqim taxallusli shoir va yozuvchi tamonidan aynan Odina Muhammad Eshonga ta'luqli qismi yozilgan.

Bu haqda Latifjon Bahouddin o'g'li tamonidan yozilgan "Xorazmlik ma'rifat sohibi" asarida shunday yoziladi[60]: Hazrati Odina Eshon Xorazmda taxt so'ragan Arab Muhammadxon II (1702–1714 yillar) hukmronligining so'nggi, Sherg'ozixon (1715–1728 yillar) xoniligi boshlarida tavallud topganlar. Bu borada, afsus, biror tarixiy hujjat yo'q. Bu sana haqida taxminlar qilishimizga asosimiz bor – Odina Eshon bobomiz 85 yil foniy dunyoda umrguzaronlik qilganliklaridir. Vaffot sanalarini tarixida hijriy 1216 yil deb ko'rsatganlar. Bu melodiy hisobda 1800–1801 yillarga to'g'ri keladi. Avvalgi kitobimizda esa bu sana 1795 yil deb ko'rsatilgan edi. Noaniqlik nimadan kelib chiqdi? Hijriy yilni melodiy yillarga aylantirish bu oddiy matematik hisob-kitob emas. Oylar o'rtasida va hatto kunlar orasida ozmi-ko'pmi tafovutlar bo'larkan. Shu tahlit yuzaga kelgan xatolik uchun uzrizmizni bildiramiz. Odina Eshon yashab o'tgan shu umr davomida Xiva taxtida yigirmadan oshiq xonlar yurt so'raganlar. Bu Xorazm uchun juda og'ir kechgan davr sanaladi. Chunki o'zaro qirqinbarot urushlar, taxt talashishlar bir yoqdan yurtni, 1740 yilda Nodirshoh tomonidan istilo qilinishi bir yoq. Eron hukmdori Nodirshoh (kelib chiqishi turkiylardan bo'lgan) Xorazmni bosib olarkan, faqat fath jubbasini kiygizish, eldan o'lpon olish bilan cheklanmaydi, balki aholini qirqinbarota o'ldiradi, bor boyliklarini talaaydi. Xivadagi mashhur Juma masjidiga o't qo'yiladi. Tarixchilar naql qilishlaricha, hatto ro'y bergan ocharchilikdan odamlar it-eshak go'shtini iste'mol qilishga borib yetishadi.

Faqatgina XIX asrga kelib, Muhammad Rahimxon I va uning avlodlari Olloqulixon, Rahimqulixon, Muhammad Aminxon davrlariga kelib yurta osoyishtalik o'rnatildi, ma'naviyat, iqtisodiyot yuksalib, farovon kunlar boshlandi. Xiva tarixida bunyodkor deb yaxshi nom qoldirgan Olloqulixon bobomizni ma'naviy ustoz deb bilganlar. U kishiga atb masjid va madrasa, mozorlariga esa maqbara qurdirganlar.

[60] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 7.

Xorazmlik shoir, tarixchi, xattot Roqim ayni shu davrda, ya'ni Muhammad Rahimxon I davrida Odina Eshonning tarixini bitgani bejiz emas. Kamina bu ulug' zot shaxsi bilan ham qiziqib qoldim va bir qator tarixiy bitiklarni ko'zdan kechirdim. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan va hali to'la tadqiq qilinmagan bir asar bilan tanishib chiqdim. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, uning mazmuniga imkonim qadar e'tibor qaratdim. Roqim asarida tarixda o'tgan buyuk ulamolar, xonlar, sultonlar haqidagi ma'lumotlarni abjad hisobi bo'yicha yozilgan tafriqalarini jamlab, g'oyat ulug' ishni qilib ketgan ekanlar[61].

Shoir va xattot Raqim ma'lumot beradigan bo'lsak, shu o'rinda hayotini ibratli mehnatning ahamiyati bilan sug'organ Rakim haqida to'xtalib o'tish zarur. Rakim Melodiy 1742-1825-yillarda Xorazmda yashab ijod qilgan. Raqim tabiatan she'riyatga ixlosmand bo'lib, o'z asarlariga "Rakim" taxallusini olgan. Rakim "epistolyar kotib" yoki "qo'lyozma ko'chiruvchi" ma'nosini bildiradi. Ijodkorligidan tashqari, u qiyin davrlarda harflarni yozish orqali o'zini qo'llab-quvvatladi. U Xorazmning eng mashhur xattoti sifatida tanilgan. U fors, arab va turk tillarini mohirlik bilan o'zlashtirgan va o'zining nafis xattotligi tufayli ko'pincha freelans va buyurtma loyihalari orqali tirikchilik qilar edi. Yoshi katta bo'lishiga qaramay, u o'zining sevimli kasbiga sodiq qoldi. U buni bir necha misollarda ifodalaydi:

*Qariganda nyocha ne bo'lur ekan,*
*Bu kitobiki o'qilur xato.*

Yozibon bizga bersangiz oni,
Sizdan ul yodgor bo'lsa mango.
Yetmish besh o'lib edi yoshim,
Yo'q edi menda quvvati a'lo.
Roqimi g'amzada borin yozibok,
Dedi tarixin "Zikri shahido".[62]

---

[61] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 8.
[62] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 8-9.

Roqim kambag‘allikda umr kechirgan. Shu boisdan juda kech uylangan. Uning Yusuf va Saidmurod ismli o‘g‘illari bo‘ladi. Roqim o‘z she’rlarida Alloh ishqi bilan yonib yashash joizligini ko‘p eslatadi. Asarlarida Allohni, Uning payg‘ambarlarini o‘zlariga xos xislat, fazilatlarini shoirona tashbehlarda ko‘rsatib beradi.Roqimnoma (ishq-muhabbat mavzusida yozilgan asarlarganoma deyiladi) janrida ham ijod qilgan bo‘lib, bizgacha uning bor-yo‘g‘i to‘rtta nomasi yetib kelgan[63].

Xorazm adabiy muhitida Roqim marsiyanavislikka asos solgan ustoz sifatida ham qadrlanadi. Marsiya - yurakka yaqin bo‘lgan kishining vafoti munosabati bilan yozilgan asar. Roqimning 336 misradan iborat bir marsiyasi o‘g‘illari Yusuf va Saidmurodlarning vafoti munosabati bilan yozilgan bo‘lsa, yana bir marsiyasi zamondoshi bo‘lgan bir bekning o‘g‘li vafoti bilan bog‘liq. Bu bek uylangan uzoq vaqt farzandsiz bo‘ladi va nihoyat o‘g‘il ko‘radi, ammo o‘g‘lini uylantirish tantanasida ko‘rgan payti, qismatni qarangki, farzandi chechak kasalidan vafot topadi. Bu asar kambag‘al Roqimning buyurtma tarzida yozgan asarlaridan biridir.

Shuningdek, Roqim qator avliyo-anbiyolar haqida ham marsiyalar bitgan. Yusuf Hamadoniy, Sulaymon Boqirg‘oniy (Hakim ota), az-Zamaxshariy, Abdulla Norinjon bobo, Sulton Uvays bobo, Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro kabi nafaqat Xorazm tarixida, balki islom dunyosida mashhur bo‘lgan avliyolar, shayxlar haqida bitilgan marsiyalari shoirning umr mazmundan darak beradi.

Marsiya odatda o‘z zamondoshi bo‘lgan shaxsning vafoti munosabati bilan yoziladi. Ammo dinni islomga o‘zining umrini baxshida qilgan, Alloh xizmatiga kirgan iymonli-e’tiqodli shoir o‘zidan oldin yashab o‘tgan zotlar haqida marsiyalar bitib, bilar ularga o‘zining ma’naviy shogirdligini ko‘rsatgan, ruhiy yaqinligini amalda isbotlagan bo‘lsa, bu marsiyaning tarixiy qiymati juda buyuk. Biz ko‘pincha hollarda shu tahlit bitilgan marsiyalar boisidan aziz avliyo-anbiyolarning sifatlarini, hayot yo‘llarini, umr sarxisobini bilamiz. Roqimning tarixiy xizmatlaridan birisi ham

[63] Хоразмда авлиёлар тарихи. Шу китобдан сноска қўйиш керак

shundaki, u zot buyuk ulamolar, avliyolarga marsiyalar bag‘ishlab, ularning ulug‘ tarixiy xizmatlarini kelajak avlodlarga yozib qoldira oldi.

Buyuk bobomiz Hazrati Odina Eshon vafotiga bag‘ishlab yozilgan marsiya muallifi ham Roqimdir. Shu o‘rinda marsiyaning faqat bitilishidan kelib chiqadagina bir tarixiy haqiqatni ham aytib o‘tish kerak. Ma’lumki, Hazrati Odina Eshon bobomiz xonlik poytaxtidan juda uzoq bo‘lgan maskanda - Bog‘ot tumanining Eshonqali elatida muqim yashaganlar. Hatto xonning el og‘zidan eshitib, u zotning avliyolik sifatlarini sinash uchun bilimdon kishilarni yuborgani, bu bahslardan so‘ng bobomizning diniy, dunyoviy ilmga, kuchli botiniy xislatlarga egaligiga barcha tan bergani va shaxsan xonning iltimosiga ko‘ra ilm-fan maskani bo‘lgan poytaxtga - Xivaga ko‘chib o‘tishga iltifot qilingani va bobomizning bu iltifotdan voz kechmaganliklari bor haqiqatdir.[64]

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgan bobomiz qalamiga mansub ikki asarda u zoti muborakning to‘liq ism sharaflari, nisbalari mana shunday holda keltirib o‘tilgan: Mavlono Sayyid Odina Muhammad Eshon ibn Muzaffar ul-A’lo al-Xorazmiy al-Hazoraspiy al-Tumorxosiy. Ismi sharaf, nisbalardan so‘ng u zot yashagan yurt, ya’ni Xorazm va Hazorasp keltiriladi. Bu o‘z davrida taomilga kirgan holat edi. Al-Tumorxosiy nisbasi haqida fikrimiz tubandagicha. Bizningcha, bu laqab, nisbalar Sayyid Odina Muhammad Eshon yashagan va muborak xoqlari yotgan zamin bilan bog‘liq Bog‘ot tumanidagi Eshonbozor qishlog‘i (hozirda Dehqonbozor tarzida yuritiladi). Qadim manbalarda Os qishlog‘i deb ham yuritilgan. Qishloqning katta bir qismi shu tarzda hozir ham atalmoqda. Tarixdan ma’lumki, Xorazmda juda qadim zamonlarda os qabilalari yashaganlar. Xorazmdagi ko‘pgina joy atamalarida bu qabila nomi saqlanib qolgan. Hatto ayrim tarixchi-qadimshunoslar fikricha, Hazorasp emas, Hazaros atamasi to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu esa “Ming osli” yoki ikki qabila birikmasi “hazarlar” va “oslar” mazmunini beradi. Oddiy xalq tilida ham shu

[64] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 8-9.

tarzda ataladi. Bobomiz nisbasidagi “tumor” soʻzi mazmunan maʼlum. “Os” esa unga nisbat tarzida, yaʼni “Osiliklar tumori” mazmunida anglatadi.[65]

Umrini maʼrifat yoʻliga bagʻishlagan Sayyid Odina Muhammad Eshon butun ijodi davomida toʻrt jildlik mualliflik qilgan. Ikki nusxasi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozma fondida saqlanmoqda, qoʻshimcha bir nusxasi esa Sankt-Peterburgda joylashgan. Ushbu munozara mavjud ikkita kitobga qaratiladi. Dastlabki jild “Javohir us-Sanoi” deb nomlanadi. “Hunarmand javohirlari” deb nomlangan ushbu kitobni chinakam hunarmandchilik choʻqqisi deb hisoblash mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, bu ma'lumotni oʻz ichiga olgan kitob mening bobom davridan oldin ham, mashhur boʻlish maqsadida ham yozilmagan. Shuningdek, u bu masala boʻyicha alohida koʻrsatmalar berdi. Sayyid Odina Muhammad eshon ilm izlab yer yuzini kezib, ziyolilar bilan muloqotda boʻldi, boshqa xalqlarni oʻrgandi, islom nuroniylari bilan bevosita muloqot qildi. Xabarlarga koʻra, u Buxoro, Afgʻoniston, Karrux va Hindistonda boʻlgan. U Kashmirda yashagan vaqt davomida butun dunyo boʻylab barcha hunarmandchilikni oʻrgangani va bu sayohatdan keyin asar kitob shaklida toʻplangan boʻlishi mumkin.

Bu kitobda Odam Atodan tortib Sayyid Odina Muhammad Eshongacha insoniyatga maʼlum boʻlgan barcha hunarmandchilik, daromad manbai boʻlib xizmat qilgan. Ushbu kitob har bir hunarmandchilik amaliy foydaga ega ekanligini tan oladi. Ushbu kitob hayotda koʻrsatilgan taktikalarning samaradorligi haqida keng qamrovli tushunchalarni taqdim etadi.

Kitob 180 sahifadan iborat boʻlib, nafis xushni yozuvida yozilgan. Faqat bitta nusxasi bor, ehtimol Sayyid Odina Muhammad Eshon amalda qoʻllagan shakl. Ushbu asar institutga qanday etib kelgani sirliligicha qolmoqda. Kitobning ikkinchi qismida astrologiyaga, samoviy jismlarni oʻrganishga e'tibor qaratilgan. Unda yulduzlar harakati natijasida yuzaga keladigan hodisalar va ushbu fanning nozik tomonlarini har tomonlama tekshirish muhokama qilinadi. Kitob ilmiy bilimlarning bir nechta shakllarini yoritib beradi, bir vaqtlar afsonaviy deb hisoblangan hodisalar

[65] Ўша асар. – Б. 15.

mavjudligiga ishonchni uyg‘otadi. Hujjat fors tilida tuzilgan. Bobom davrida romanlar asosan fors tilida yozilgan. Bu bobomning arab va fors tillarini qanchalik yaxshi bilganidan dalolat beradi. Keling, yana bir risolani batafsil ko‘rib chiqaylik. Ushbu hujjat “Sharhi kalimoti tsemne ahli suluk” (“Suluk ahlining ayrim iboralariga sharh”) deb nomlangan. Mavlono Rumiy “Masnaviyi”ning fors tilida tushunish qiyin bo‘lgan murakkab ibora va ma’nolari arab tilida yoritilgan va izohlangan. Bu risolani Odina eshon ko‘rsatmalariga amal qilgan holda ismini oshkor etmagan talaba arab tilida tuzgan. Biz ushbu kitobning tarjimasini nashr etish va o‘quvchilarimizga taqdim etishni ma’qul deb bildik. Bu kitob ajdodimiz Odina eshon hazratlarining beqiyos ilm sohibi, dunyoqarashi teran ekani, islom dinining aziz avliyolaridan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Odatda, avliyolarning ko‘plab muridlari-muxlislari bo‘ladilar. Ular o‘z ustozlariga qo‘l berib, u kishining ilmi tariqat bobidagi qarashlarini omma orasida tarqatadilar. Shayx Najmuddin Kubroni “Avliyolar yaratuvchi shayx” nisbasi bilan ataganlar. Chunki u zotdan so‘fiylik xirqasi kiygan o‘nlab tabarruk zotlar, islom olamida mashhur shayxlar, avliyolar bo‘lib yetishishgan. Sayyid Odina Muhammad Eshon hazratlariga tarixiy bitiklarda “Qutb ul-avliyo”, ya’ni avliyolar qutbi, degan nisbat berilgan. Negaki bobomizning ko‘pgina shogirdlari keyinchalik avliyolik maqomiga yetishishgan. Bog‘ot tumanidagi Xitoy elatining qum etagida tug‘ ko‘tarib yotgan Raxmonquli bobo (u zotni Qum bobo deb ham ulug‘lashadi), u kishining farzandlari Murtazo eshon avliyolik maqomiga erishgan zotlardir. U zotning keyingi avlodlari orasida ham avliyolik, ilmda tengsiz, eshonlik martabasiga ko‘tarilganlari oz emas.[66]

Saodatshoh Sayyid Odina Muhammad Eshonning fidoyi shogirdlaridan biri edi. Buxorolik bu shaxs bobomiz o‘gitlaridan ilhomlanib, bu yerga yetib kelgan va bir umrlik izdoshi bo‘lgan. Bobomiz bu shogirdlarga ham yuqoridagi matnlarni aytib berishni buyurgan. Saodatshoh arab va fors tillarini mukammal egallagan, Qur’oni Karimni tafsir etish mahoratiga erishgan. Odatda, Sayyid Odina Muhammad Eshon

[66] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 16-17.

unga Qur'oni Karimni tilovat qilib, har bir oyat va sura tafsirini keltirardi. Xiva xonligidagi ba'zi ziyolilar bobomizning avliyoligini shubha ostiga olib, unga baho berish uchun olimlarni yubordilar. Oʻsha davrda bobom Saodatshohga Qur'oni Karimdan "Yosin" surasini tilovat qilib, har bir soʻz va boʻgʻini tushuntirib, tafsirini oʻtkazdilar. Uning har tomonlama bilimidan lol qolgan olimlar tahsinlar bilan qaytishdi. Sayyid Odina Muhammad Eshon hisoblangan yuqoridagi matnlarning xattoti bir xil edi. Bu nafis xattotlikdan osongina koʻrinadi. Saodatshoh bu kitoblarni katta miqdorda koʻpaytirgan shaxs sifatida koʻriladi. U kitobda oʻzini nomlashdan ehtirom bilan oʻzini tutgan boʻlsa-da, bir qancha boʻlimlarda kitob muallifi ekanligiga havola qilgan.

Saodatshohning bobomga sadoqati shu qadar boʻlganki, bobom vafotlaridan soʻng ham oʻz yurtiga qaytib ketmaganlar. Bir yozma manbada bu voqea shunday tasvirlanadi. Bobom vafotlaridan soʻng, u kishining barcha ma'rakasini oʻtkazgach, Saodatshoh oʻz yurtiga noma yoʻllab, yaqinlaridan uni kelib olib ketishni soʻraydilar. Yaqinlari yetib kelishadi. Saodatshoh bobomning yaqinlari bilan xayrlashib, koʻryonini aravaga ortib, yoʻlga chiqishga hozirlanadilar. Shunda Saodatshoh bir narsasini esdan chiqarib hujralariga qaytib kiradilar. Ul narsani olib qaytib chiqmoqchi boʻlsalar, Allohning qudratini qarangki, bobomiz eshikka suyanilb turganmishlar. Shogird bu holdan dovdiraydi, bobom esa unga deydilar: "Ey Saodatshoh, sen nega meni tashlab ketmoqdasan? Men senga endigina muruvvat koʻrsatib, martabangni yanada yuqori qilmoqchi edim. Sen bu fikringdan qayt!". Shunda Saodatshoh bobomni huddi tirikligidan koʻrayotgandek es-hushidan ayriladi. Bir qancha daqiqalardan soʻng yoʻl tayyorgarliga turgan yaqinlari oldiga chiqib soʻzlarini aytadi: "Ey birodarlar, sizlar ketaveringlar. Bizga ruxsat yoʻq. Biz bu yerda abad qoladigan boʻldik!".[67]

U koʻp yillar shu yerda yashab, bobosi oʻgitlarini xalqqa targʻib qilgan va vafotidan soʻng shu yerda dafn etilgan. Uning dafn qilingan joyi bobomning qabri ichida joylashgan. Sayyid Odina Muhammad Eshonning yana bir mashhur va fidoyi

[67] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 18.

shogirdlaridan biri Ja’farxo‘ja al-Karvakiy al-Hazoraspidir. Xorazm tibbiyoti ilmiy izlanishlari yilnomasida ko‘zga ko‘ringan bu shaxs bevosita muhtaram bobomiz Sayyid Muazziddin Shakarlab avlodidandir. Binobarin, u al-Karvakiy nasl-nasabini ajdodlariga kiritgan. Sayyidzoda Sayyid Odina Eshon bobomizning ona tomondan eng yaqin qarindoshi edi. Mening katta buvim ham Sayyidzodalar avlodidan. Ja’farxo‘ja ilm izlab yer yuzini kezib, ko‘plab xalqlarni ziyorat qilib, oxir-oqibat Sayyid Odina Eshon huzuriga yetib keldi va u yerda qo‘l berib, uning fidoyi shogirdlaridan biriga aylandi. Ja’far Xo‘janing “Multaqit ul-tib” tibbiy risolasi mashhurdir. Bu asar Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma fondida 3336 nomi bilan arxivlangan. U o‘zining durdona asarini bobom vafotidan keyin 1826 yilda yaratgan. Asar tibbiyot fanidagi yuksak yutuqlari bilan tahsinga sazovor. U inson anatomiyasining ilmiy tekshiruvini o‘tkazdi. U o‘z asarida inson tanasi to‘rtta asosiy element - suv, havo, tuproq va olovdan iborat ekanligini yoritib, inson salomatligi ana shu unsurlarning muvozanatiga bog‘liq ekanini ta’kidlab, Abu Bakr Roziy, Ibn Sino, Ibn Hammar, Ismoil Jurjoniyxon va Abulg‘ozxon kabi mashhur tabiblar merosiga amal qilgan. va jahon tibbiyoti yilnomalari. Tashqi omillar va noto‘g‘ri ovqatlanish bu muvozanatni buzishi aytiladi. Ja'far Xo‘ja davolanishni boshlashdan avval bemorning ahvoliga har tomonlama tashxis qo‘yish tarafdori. To‘plam 67 bobdan iborat. Qur'onning dastlabki bobida an'anaga ko‘ra Alloh va Uning qudrati haqida so‘z boradi. Unda aytilishicha, Alloh dardlarni va ularni davolash uchun mingdan ortiq dorivor o‘tlarni yaratgan. Qon quyish uchun alohida bob bag‘ishlangan. Qon olish usullari, ularning zararli va foydali ta'siri, qon olinadigan tomirlar anatomiyasi har tomonlama o‘rganiladi. Muhim bob bosh suyagi va miya anatomiyasiga bag‘ishlangan.

Qolgan boblar quyidagicha mazmunda keladi:[68]

IV bob - quloq.

V bob - burun.

VI bob - og‘iz, tish va til.

---

[68] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 19-20.

VII bob - oshqozon, ichak va ko‘krak bezi.

VIII bob - o‘pka.

IX bob - jigar va oshqozon osti bezi.

X bob - ichaklar.

XI bob - yo‘g‘on ichak va giчjalar.

XII bob - siydik chiqaruv a’zolari.

XIII bob - erkaklar jinsiy a’zolari.

XIV bob - ayollar jinsiy a’zolari.

XV bob - ayollarda uchraydigan xastaliklar.

XVI bobdan - XVIII bobgacha – qo‘l va oyoq tomirlari.

XIX bob - isitma bilan kechadigan kasalliklar.

XX bob - bolalar kasalliklari

XXI bob - teri-tanosil xastaliklari.

XXII bob - yuz va bo‘yinda uchraydigan o‘zgarishlar va ziynat haqida.

XXIII bob - bit va uni yo‘qotish usullari.

XXIV bob - terlash bilan kechadigan kasalliklar.

XXV bob - quyish va uni davolash yo‘llari.

XXVI bob - soch xastaliklari.

XXVII bob - zaharlarning turlari va davo yo‘llari.

XXVIII bob - zaharlovchi moddalar.

XXIX bob - ko‘z kasalliklarining oldini olish.

XXX bob - malhamlar tayyorlash va yaralarni davolash.

XXXI bob - erkaklar jinsiy zaifligini davolash yo‘llari.

XXXII bob - bug‘oq va limfatik bezlarining sili.

XXXIII bob - dorivor moddalarning farmakologiyasi.

Bundan tashqari, bir qancha boblarda bachadon anatomiyasi, ayol chaqaloqlarning tug‘ilishi, qon tomir kasalliklari, fil kasalligi, bo‘g‘imlar, orqa va oyoqlardagi og‘riqlar, zarur dorivor o‘tlar, malhamlar va ularni davolashga tayyorlash usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Terapevtik usullar sifatida massaj, qum vannalari, qon tuzlari va quyosh nurlari tez-tez tavsiya etiladi. Ushbu asar

tibbiyotning yagona, keng qamrovli ensiklopediyasini tashkil etadi. Ja’farxo‘ja o‘zining muhtaram salaflarining davolash muolajalarini batafsil yoritib berishdan tashqari, o‘ziga xos uslublarni ham joriy qiladi. 1970-yillarda tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanar ekanman, menda tibbiyot fanlari tarixiga qiziqish uyg‘ondi. Latifjon Bahovuddin o‘g‘li…. Ayrim shaxslarning qadimiy qo‘lyozmalari haqida so‘radim. Keyin bildimki, Xiva madrasasida tahsil olgan bir hukmdorda shunday kitob bor ekan. Men e'tiborimni unga qaratdim. Eshonzoda ekanligimni bilib, kitobi borligini aytdi. Kitob turkiy tilda tuzilgan bo‘lib, bobom Sayyid Odin Eshonga bag‘ishlangan. Kitobni o‘qish uchun o‘n kundan o‘n besh kungacha omonatga oldim. Men uni takrorlashni niyat qilgandim, lekin uning ulkanligi tufayli o‘sha paytda u bilan tanishish imkoniga ega emasdim. Bu orada egasi kitob haqida so‘radi. Men yana ikki kunga uzaytirishni so‘radim va shu vaqt ichida kitobni suratga olishni niyat qildim. Shu vaqt ichida ikki kun davomida kino ishlab chiqdim va Urganchdagi fotosuratlar do‘koniga tashrif buyurdim. Biroq, fotograf vijdonsiz bo‘lib, bu ish uchun katta haq talab qildi. Menga bu pul yetishmasdi. Menda kitobning o‘n sahifasi boshidan, o‘rtasidan va oxiridan suratga olingan edi. Matnga qiziqishimni bilgan kitob egasi kitobni asl nusxada takrorlashini aytdi. Men kerakli materiallarni tayyorlab berdim. Erkak kitobni arab imlosidan foydalanib yozgan. Men namoz o‘qib, rozi bo‘ldim. Ilmiy maqolam uchun tadqiqot olib borish uchun Moskvaga kelganimda u vafot etdi. Men kitobning asl nusxasini so‘radim, lekin u mavjud emasligi haqida xabar oldim. Kitob tushunarsiz tarzda g‘oyib bo‘ldi. Faqat mening qo‘limdagi nusxa saqlanib qoldi. Ja’far Xoja bu kitobida Qur’oni Karimning ba’zi oyat va suralaridan mushkul dardlarga murojaat qilishni targ‘ib qiladi. Taqdim etilgan nusxada ba'zi oyat va suralar chiqarib tashlandi. Kengash muhokamasi davomida mukofot olmoqchi bo‘lgan shaxslar xavotirda bo‘lishdi. Kitobning ochilishida muallif Ja’far Xo‘ja shunday deydi: “Men ajoyib bir avliyo, g‘ayrioddiy shaxs haqida tarix yozishga intildim. Sayyid Odina eshonning ko‘rsatmalariga muvofiq ushbu kitobni mualliflik qilib, unga bag‘ishladim. Ja’far Xoja ustozi vafot etgach, uning sharafiga 54 misradan iborat elegiya tuzgan. U bu elegiyadan romanlarining boshida foydalangan. Ulug‘ bobomizning fidoyi shogirdi va kenja

ukasi, taniqli tabib va huquqshunos Do‘ngdori Ja’farxo‘ja bobomizning vafoti xotirasiga fors-tojik tilida yaratilgan elegiyani to‘liq taqdim etishga qaror qildik.

Hazrati Eshon Odina Muhammadga bag‘ishlangan marsiya[69]

Yer yuzidan ketdi ilm chuqqisining muhri, Olam paydo bo‘lgandan buyon jahon ahli bu kabi zotni kam ko‘rgan edi.

Pok zotini idrok qilmoq uchun aqllar hayron, ojiz qolur, Bu muborak zot ta’rifiga aytsam: zoti ko‘p oliydir, har tilda doston bo‘lgan.

Bu qorong‘u olamning kechasini sham’i edi, Barcha Haq toliblari bu zot ilmu irfonidan ro‘shnolik, fayz olishgan edi.

Qahatchilik zamonida Haq madadi bilan mardona himmat qilgan edi,
Jonu dillarga, ko‘ngillarga berilgan bu himmatlarida sirlar pinhon edi.

Hazrati Eshon ladunniy ilmda muallim, ustoz edi, Talabalarga jazba va sayru suluk darslarin yetar edi.

Zohiran hech bir avliyo bu zotga ustozlik qilmagan edi,
Bu zot botinan uvaysiy edi, misli yo‘q bir kutb edi.

Shunday bo‘lsa-da, odob yuzasidan ustoz qidirgan va birinchi murshidi Sayyid Abdulloh Akbar edi, Bu zoti muqtaramning qabri Kardak qishlog‘idadur.

Ikkinchi ustozi muqtaram bobosi Mu’izzidindur, Bu zotning nasablari sayyid bo‘lib, bu ma’lum va sobitdur, bunga hech shak-shubha yo‘q.

Agar tariqat yo‘lida mushkil bir ishga duch kelinsa, mushkil holda qolinsa...

Bu ikki azizning ishorati bilan mushkillar hal bo‘lur,
ravon bo‘lur edi.

Uch yuz yildan so‘ng, balki biroz ko‘proq vaqt o‘tgandan keyin bulardan so‘ngra vujudga keldi, Hidoyat nuri osmondan zaminga tushdi.

Besh yil tariqatda jazba bilan mashg‘ullik etdi, Nihoyat haqiqat sirlari bu zotga aniq-tiniq ayon bo‘ldi.

Fano martabasi-yu fikr maqomiga yaqinan erishdi, Haq taolodan kashf-karomatlar ehson bo‘ldi.

---

[69] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 19-20.

Ibtido (boshlang‘ich) holidoq bu zot Hayy va Qayyum

Zot - Haq taolo tajallisidan nasibdor bo‘ldi, Gumonlarsiz, shubhalarsiz kashf bu zotga dast berdi.

Chun me’roj kechasi Hazrati Jabroil alayhissalom bilan birga Hazrati Payg‘ambarimiz alayhissalom ko‘kka ko‘tardilar, Bir ko‘z ochib yumgunchalik qisqa fursatda ul yerga yetdilarki, ta’rifi: “Lomakondur”.

Eshon Hazratlari mana shu me’roj sirlaridan voqif edi, ilmu irfonda benazir zot edi, Insu jin, yaxshӣ-yu yomon barcha bu zotning hol va qol ilmi odami ekanligiga shohid edilar.

Haq yo‘lchilari toliblar qalblaridagi xastaliklarga davo topuvchi edi,

Shuningdek, barcha illat-dardlarni davolovchi zamona Masihӣ edi.

Oldin o‘tgan mashoyixlarning ruhi poklaridan fayz olar edi,

Bu muqtaram zotlarning har birining maqomini biluvchi va bu maqomlardan bahra olguvchi edi.

Muridlariga amr qilur ediki, dilga nafiy isbot (ya’ni, lo iloha illalloh) zikrini ko‘p qilgin!

Bu xos zikr – bu oliy tariq (yo‘l)da xatariciz bo‘lmoq uchun birdan-bir najot chorasidir.

Ul zot farmonida barcha mashoyixlarning nisbatlari jamulham edi,

Murshidlari qayda bo‘lishmasin, albatta, Hazrati Eshondan faiz olishar, hollaridan ul zot ogoh edi.

Ul zot “Masnaviyi ma’naviy” baytlarini arabiy tilda chiroyli sharhlagan bo‘lib, Bu tilning nozikliklarini bilgan nuqtadon olim edi.

Chiroyli xulqi (fe’l-atvori)ning nishonalari qalbidan chor atrofga mushk hidi taralar edi, Muridlari g‘oyati taslimiyat bilan itoat qilushar, sarkashlar ham bu zot oldida adab saqlashga majbur qolar edilar.

Muchal hisobi bilan tovuq yilida (vafoti) voqe’ bo‘ldi,Haq taolodan chaqiriq keldi: foniy vujudni tark et, deya.

Har kim bu muborak insonni sevsa, to qiyomat kunigacha bu muhtaram zot hurmatidan, Haq taolo undan balolarni daf qilur, g‘amlarni uzoq qilur.

Ey Xudoyim, bu muhtaram zotning nasllarini, yaqinlarini odobli, xushaxloq qil, Sidq (rostgo‘ylik) bilan ziynatla, beza va barchaga suyukli qil.

Muhtaram ona tarafdan yaqin qarindosh bo‘lgan xizmatchi Ja’far aytur:
Bu zot vasfini ojizona so‘zladim, o‘quvchi idrok qilsin, anglasin uhqimiza duo qilsin.

Nogoh bandalik va ibodatlarining ozligiga qaramay, (Allohning) fazli va inoyati tufayli olam havosidan tavfiq bog‘larining nasimi ko‘ngil maysazori ustidan esa boshladi va fayz sochuvchi (Alloh) fathi ling yoqimli hidlari jon mashomiga yetmoqqa kirishdi. Ruh qushi hushyorlik va sezgirlik ko‘chasiga kirdi. «Vatanni sevish iymondandir» hadisi bo‘yicha, asl vatanining ishtiyoqi bilan vasl va visol orzusida parvoz qilishni xohladi. Ko‘ngil jahonning koru boridan sovidi. Do‘stlar va yaqinlardan qocha boshladi. Umrni bodga berganidan hasrat va nadomat chohiga tushdi. Irodat (muridlik) va inobat (tavba) yo‘lini tutdi. Dunyo va uning izzati va rohatdan yuz o‘girdi (76) Xorlik va bemiqdorlikni qidirishga tushdi. «Dilni tuzatsang, u bilan gavdaning boshqa a’zolari tuzaladi» (hadisi)ning hukmi bo‘yicha, lazzatdan ko‘ra qiyinchilikni tanladi, tanini esa riyozat va mashaqqatta tashladi, «kimki Alloh uchun o‘zini past tutsa, Alloh uni yuqori ko‘taradi» (hodisi)ning bashorati payida o‘zini ojizlik va shikastalik qo‘liga topshirdi. (Natijada) «mo‘min odam Alloh nuri orqali qaraydi» (hadisi)ning hukmi bo‘yicha, yaqin va hidoyat (sirlari) ayon bo‘ldi. Onhazrat sallallohu alayhi va sallam Ilohiy mehribonlik bilan inoyat va iltifot ko‘rsatib, o‘zining tarbiyat hujrasida saqladi. O‘tmish mashoyixlarining ruhoniyatlari, Alloh ularning sirlarini muqaddas qilsin, meni tarbiyat maqomida tutdilar. Maqomotlarning ko‘pligiga qaramasdan, birorta aziz ikki maqomdan ozgina muddatda Xaq subhonahuning jazbasi va inoyatiga yetisha olmagan. (Faqir) Onhazrat sallallohu alayhi va sallamning iltifotlari hamda ulug‘lar, Alloh ularning sirlarini muqaddas qilsin, ruhoniyatining madadi bilan barcha manzillar va maqomotlardan o‘tishga muyassar bo‘ldi. Onhazrat (sa.v.)ning «men Allohdanman va mo‘minlar mendan» so‘zlari bo‘yicha, asli o‘zlari bo‘lgan nuru anvorlariga, faqru fano joyi bo‘lgan «faqirlik faxrimdir» inoyatiga hamda holni usiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan tamkin maqomiga yeta olish sharafiga muyassar bo‘ldi. «Buning uchun Allohga

hamdlar bo‘lsin, bu Allohning fazlidir, kimga xohlasa, unga beradi, Alloh ulug‘ fazl egasidir»[70]. Nazm:

Onro, ki darpazirad ma’bud lo la’illa,
O‘ro chi hojat oyad ranji chahor chilla.

Beayb Parvardigor birorta odamni o‘z inoyat soyasiga olsa,
Uning to‘rt martalab chilla azobini tortishiga nima hojat?!

Shundan so‘ng, so‘fiylarning odat va odatlaridan biri bo‘lgan shayxdan bay'at qilish va ruxsat berish zarurligini tan olish zarur. Binobarin, kambag‘al yigit Xorazmning har bir muhtaram shayxini alohida-alohida ziyorat qilib, o‘z xizmatini taklif qiladi, suhbat qurardi. U bir necha marta Buxoroga, so‘ngra Samarqand, Shahrisabz, Balx, Maymana shaharlariga sayohat qilgan. U darveshlar guruhiga duch keldi. U o‘sha davr shayxlariga xizmat qilgan. Shunday bo‘lsa-da, ilohiy nur bilan mustahkamlangan, ilm-ma'rifatga ega bo‘lgan, to‘g‘ri va yomonni ajrata olgan bu qalb qayerda bo‘lmasin tinchlik va barqarorlikka erisha olmadi. Keyinchalik, u mamlakatning turli mintaqalaridan ma'lumot qidirib, sayohatchilar va kashfiyotchilar bilan muloqot qildi, hatto Ka'ba va Madinaga odamlarni yubordi, Xudo bu ikki shaharni ulug‘lasin, garchi u bunday jamoat haqida xabar yoki bunday avliyolar haqida hech qanday xabar olmagan. U taqlid tubidan ko‘tarilib, izlanish va ahamiyat sohasiga erishgan shaxsni sezmagan. “Alloh taoloning yetmish ming nuru zulmat pardasi bor” hadisi sharifda aytilganidek, “Alloh taolo huzurida o‘tiradigan joy ixlos maskanidir” deb belgilab qo‘yilgan, g‘aybdan ko‘rsatma olgan va hidoyat ilhomlantirgan zotni borliq zulmlaridan xoli bo‘lgan zotni uchratmagan.

U Hazrati Mavlaviy Jalol ul-milla va-d-Din (Jaloliddin) Muhammad Rumiyning “Masnaviy”larida namuna bo‘lgan so‘fiylarning yo‘lga intilish va haqiqat sirlariga oid yozgan va ta’limotlaridan na o‘tmishdan, na hozirgi zamondan ustunroq

[70] Ўша асар, 12 – бет.

asar topa olmadi. Hech kim “Masnaviy” kabi keng qamrovli va murakkab kitobga duch kelmagan bo‘lib, u safarning boshida g‘azot va xavf-xatarlarni, jumladan, jinning zuhurini, shaytonning vasvasalarini, qalb fitnalarini, aqlning iztiroblarini, ruhlarning paydo bo‘lishini, o‘zaro kelishmovchiliklar va ixtiloflar, ixtiloflar, ixtiloflar, ajdodlar o‘rtasidagi tafovut, ixtiloflar, ajdodlar orasidagi tafovut, tafovut va tafovutlar haqida ma’lumot beradi. fana filloh va baqo billah mavqei bilan yakunlanadi. Darveshlarga o‘xshagan sirlarni yashirish, haqiqatning nozik jihati va u bilan bog‘liq masalalar boshqa matnlarda tengi yo‘q rivoyatlarda nafislik va noziklik bilan ifodalangan. Darhaqiqat, Hazrati Mavlaviy, sirlari e’zoz bo‘lsin, beqiyos obro‘-e’tibor va nufuzga ega bo‘lib, o‘z davrida “tartibning tili” bo‘lib xizmat qilgan. U haqiqiy tarjimon va so‘fiylar uchun ilhom manbai bo‘lib, voqelik timsollarini ochib bergani uchun barcha dinlar tomonidan umume'tirof etilgan.

Mukammal avliyolar ko‘p bo‘lishiga qaramay, Alloh ularni ko‘paytirsin, bu firqaning jahonda kamligi baribir «kamlardan kamroq va iksirdan azizroq»dir. Karaginki, bu avliyolarning yashagan asrlarida Muhyiddin al-Arabiy, Shayx Sadruddin Kunaviy, Shayx Najmuddin Roziy va bulardan boshqa, ularga Allohning rahmati va roziligi bo‘lsin, azizlar nihoyatda ko‘p bo‘lib, ular o‘z zamonlaridan shikoyat qilgan holda buyurgan edilar. Masnaviy[71]:

Jonu dilro toqati in jo‘sh nest,
Bo ki go‘yam dar jahon yak go‘sh nest .

(Jonu dilim bu qaynab-kuyishga toqat qilolmaydi, Kimga ham aytay, jahonda eshituvchi bir quloq yo‘q)

Binobarin, men kambag‘alman; Tavhid, borliq va guvohlikdan ustun bo‘lgan sirlarni kimga aytaman? “Li ma’allah” yo‘liga kim bilan boraman? Oxirgi mashoyixlar, Alloh ularga tinchlik bersin, tasavvufning murakkab masalalari haqidagi yuqorida zikr etilgan shaxslarning so‘zlariga ko‘p amal qilib, ularning tushunchalariga tayanib, bu iboralarni asos qilib olganlar.

[71] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 14.

Odina Muhammad Al-Xorazmiy o‘zining so‘fiylik falsafasida insoniyatning ma’naviy kamolotini asosiy g‘amxo‘rlik deb biladi. Uning merosi uchta asosiy sohada namoyon bo‘ladi:

Inson va o‘zlik masalasi - Olim insoniyatni "mikrokosmos" sifatida tavsiflab, uning eng dahshatli dushmani o‘zligini ta'kidladi. O‘z-o‘zini tartibga solish orqali yurak muqaddaslanadi va ruh ilohiy yorug‘lik manbasiga aylanadi va uning muqaddas joyi bo‘lib xizmat qiladi. Bu tushuncha so‘fiylikdagi "jihod al-akbar" tushunchasiga taalluqli bo‘lib, shaxsning ichki olamidagi kurashini bildiradi.

Ikkinchidan, ilohiy ishq tushunchasi va komil inson arxetipi – Allohga sadoqat – allomaning hikmat va ijodining asosiy mavzusidir. Haqiqatga intilish insoniyat uchun ilohiy sevgi bilan chegaralangan bo‘lib, bu qiyin va mashaqqatli harakat ekanligini ko‘rsatadi. Bu muhabbat shaxsni “komil inson” maqomiga ko‘taradi. Fazilatli shaxs o‘zini ham, jamiyatni ham ma’naviy yuksaltiradi, yuksaltiradi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko‘zgusi) asarida komillik va oxiri zamon haqida fikr yuritib Sunday yozadi, - “Dajjolning chiqish voqeasi va o‘rinbosarlarining paydo bo‘lishi Qiyomatning belgilari haqidagi hadislarda zikr etilgan va mashhurdir. Chunonchi, «Gulshani roz» kitobining sharhida mana bu hadis rivoyat qilinadi: “Kazzob dajjollar chiqmaguncha Qiyomat yuz bermaydi”. Istig‘ozadan[72] forig‘ bo‘lgach, har kim o‘z darajasiga muvofiq va toqati ko‘targancha yashirin holda tabarru va tayammum tariqasida maxfiy holda tasmiya[73] aytadi, chunonchi sano va tavovuzni[74] ham maxfiy (qilishadi). Chunonchi, «Fotiha»dan[75] so‘ng «Omin»ni ham maxfiy aytadi. Biroq mubtadiy (yangi boshlovchi)lar uchun tasmiya aytish murakaba[76] orqalidir, chunonchi tasmiya aytayotganda, bu tabarruk ismning sohibi, ya’ni Alloh, mening barcha ahvolimdan ogoh, mening ishlarimni ko‘rib turibdi va so‘zlarimni eshitib turibdi, deb tasavvur qiladi. Mutavassit (o‘rtacha holdagi)lar uchun tasmiya aytish

---

[72] **Истигъоза** - панох тилаш, яъни «аъузу биллаҳ»ни айтиш.
[73] **Тасмия** - «бисмиллаҳ»ни айтиш.
[74] **Тааввуз** - бу ерда ҳам «аъузу биллаҳ» тушунилади.
[75] **Фотиҳа** - «алҳамду» сураси.
[76] **Муроқаба** - дил орқали тафаккур қилиш.

muqoshafa[77] orqalidir. Mutavassitlarning marof tadqiq ahli bo‘lgan avliyolaridir, ular barcha nurlarni anglaydilar, ishonch bilan mushohada qiladilar, biroq onai haqiqatni ochiq farq qilmaydilar va ajrata bilmaydilar”[78];

Uchinchidan, koinot va insoniyatning birligi - birinchi navbatda, insoniyat va olam o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi olimning tasavvufiy qarashlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Inson "mikrokosmos" sifatida ko‘riladi, koinot esa "makrokosmos" hisoblanadi. O‘z-o‘zini anglash Yaratganni tushunishni osonlashtiradi. Uning ta'kidlashicha, bu o‘ziga xoslikni tushunish ego va tashqi muhitni egallash evaziga keladi. Uning saqlanib qolgan asarlarida asosan tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlar aks etgan. Uning hikmatlari va aforizmlari so‘zlashuv tilida ifodalangan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ammo chuqur ahamiyatli, Qur'on oyatlari va hadislar bilan jaranglangan. Uning ijodida asosan axloqiy nasihatlar, odob-axloq tamoyillari, borliq va oxiratning tasavvufiy talqini hamda aniq tasviriy misollarni o‘z ichiga olgan she’riyat o‘rin olgan. Ma’naviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlar ramziy tushunchalar, jumladan, ishq, telbalik va darveshlik, ma’naviy sargardonlik (ruhiy telepatiya), uvayshlik (Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom tushida o‘zidan yo‘l-yo‘riq olganlik tushunchasi) kabi tasavvufiy timsollar, alohida shaxslar va jamoalar bilan chuqur muloqotlar orqali ifodalanadi.

Odina Muhammad Xorazmning bizgacha yetib kelgan mo‘l-ko‘l ma’naviy merosining ahamiyati bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy, intellektual, madaniy va zamonaviy jihatlarda namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy kamolot, poklik, sabr-toqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni targ‘ib etishda ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega.

Insoniyatning hayot, faoliyat, ma’naviy borliq, kamolot, haqiqat va voqelikka intilish kabi falsafiy mohiyati ijtimoiy-falsafiy ob’ektiv orqali tushunarli va ommabop tilda ko‘rib chiqiladi.

---

[77] **Муқошафа** - каромат орқали билиш.

[78] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 18.

Madaniy – ilm-fan, ma’rifat, madaniyat, ma’naviy-axloqiy muhit, shuningdek, Xorazm vohasida tashkil etilgan tasavvuf maktablari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatishi bilan qadrlanadi;

Uning bugungi kundagi dolzarbligi uning bugungi jamiyatda ma'naviy-axloqiy barqarorlik, diniy bag‘rikenglik va insonparvarlik tushunchalarini mustahkamlash uchun asos sifatidagi rolidadir.

XVIII asrda Xorazmda ko‘plab shoirlar, olimlar, ziyolilar istiqomat qilib, faoliyat ko‘rsatgan. Eng ko‘zga ko‘ringan ziyolilardan biri Odina Eshon hazratlari edi.

Hazrati Odina Eshon, uning to‘liq ismi – Sayyid Odina Muhammad ibn Sayyid Muzaffar ul-A’lo al-Xorazmiy al-Xazoraspiy bo‘lib, u 1728 yilda Xorazmda tavallud topgan. Odina Eshon hayoti haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi. Lekin u bilan bir davrda yashab, ijod etgan zamondoshlari bergan ma’lumotlar, shuningdek, uning avlodlari tomonidan nashr etilgan kitobga[79] suyanib, Odina Eshonning hayoti haqida bir muncha ma’lumotga egamiz. O‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan shoiri va Odina Eshonning zamondoshi bo‘lgan Roqimning ma’lumoticha, Odina Eshon dunyoviy ilmlar bilimdoni bo‘lish bilan birga shoir va mohir xattot bo‘lgan ekan. Roqim Odina Eshon vafotiga bag‘ishlab marsiya yozgan.[80] Alloma arab va fors tillarini mukammal bilgani uchun har ikkala tillardagi kitoblarni ham bemalol mutolaa qila olgan.

Odina Eshonning hayoti tomma’noda tasavvuf bilan bog‘liq. U yoshligidan tasavvufga oid ko‘pgina asarlarni mutolaa qiladi. Tariqat yo‘lida bosh bo‘ladigan pir ahtarib bir qancha davlatlarda, jumladan, Eron Afg‘oniston, Arabiston shaharlarida bo‘ladi, lekin o‘ziga munosib pir topa olmaganidan so‘ng, tasavvuf bilan mustaqil

---

[79] Латифжонхожи Баҳоуддин ўғли. Ҳазрати Одина Эшон қиссаси. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001; Латифжонхожи Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: Зарқалам, 2003.
[80] Хоразмлик маърифат соҳиби, 10-бет.

shug'ullana boshlaydi. Odina Eshon Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"[81] asarini ko'p bora mutolaa qiladi va uni o'ziga ma'naviy pir sifatida tanlab oladi.

Odina Eshon o'z davrining ko'zga ko'ringan mutasavvifi bo'libgina qolmay, balki taniqli shoiri ham edi. Uning ilmiy merosidan bizgacha 4 ta asari yetib kelgan bo'lib, ular O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda.

Ular quyidagilardan iborat:

1.Risolai Odina Eshon.

2.Tavba ut-tolibiyn" ("Tavba qiluvchilarning tavbasi").

3. Mir'ot ul-obidiyn" ("Obidlarning ko'zgusi").

4. Miftoh ul-asror" ("Sirlar kaliti")…..

5.

6.

Mazkur asarlarning bir necha nusxalari O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi.

Odina Eshonning tasavvuf borasidagi yirik asari "Miftoh ul-asror" ("Sirlar kaliti") bo'lib, asar fors tilida yozilgan. Asarning yagona nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida 7143-raqami ostida saqlanmoqda. "Miftoh ul-asror" asari Xiva xonining buyrug'i bilan yozilgan. Mazkur asar Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" kitobiga yozilgan sharh bo'lib, Odina Eshon Mavlono Rumiyning masnaviylarining 3 ta jildini sharhlab bergan. Masnaviy sharhiga kirishishdan avval o'quvchi "Masnaviy"ni oson tushuna olishi uchun olti bobdan iborat mustaqil risolani ilova qilgan.

Odina Eshonning "Miftoh ul-asror" asari 3 ta kitobdan iborat bo'lib, aytib o'tganimizdek, u 6 bobni o'z ichiga olgan mustaqil risola bilan boshlanadi. Uning har bir faslida tariqat ahli amal qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar haqida so'z ketadi.

[81]Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. 1-китоб. Таржимон Асқар Маҳкам. – Т.: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1999; Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. 3-китоб. Таржимон Жамол Камол. - Тошкент-Теҳрон, 2003.

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari olti jilddan iborat bo‘lib, Odina Eshon faqat uning 3 ta kitobini sharhlagan.

Tasavvuf ahli namoyondalari hayotida va ularning asarlari mazmunan ko‘proq odob-axloq masalasiga qaratilgandir. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Zeroki, tasavvuf falsafasida asosan Allohga e’tiqodli, qalbida Yaratganga iymon birinchi o‘rinda turadi. Chunki, Alloh inson vujudini uning ichki olamini zaruriy bir tarzda o‘z ko‘ri ila munavvar qiladi. Eronlik olim Muhammad Najmiy Zanjoniyning ta’kidlashicha, odob-axloq haqida fan va faoliyat komil inson shaxsini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi[82], degan fikrni bildiradi.

Hammaga ma’lumki, tasavvuf falsafasi faqat toat-ibodatdan iborat emas, balki odob-axloq, ilm-fan rivoji ham asosiy masalalardan biridir. Tasavvuf falsafasida kishilardan yuksak odob-axloq kabi fazilatlarni inson ongiga singdirish kabi g‘oyalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Tasavvuf ahllari asarlarida odob-axloq masalasi alohida o‘rin tutadi. Bu borada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida tasavvuf kishilarni jamiyatga zo‘rlik, inqilob yo‘li bilan emas, har bir insonni axloqiy tarbiyalash orqali yetish mumkin,[83] degan fikrlarini keltirishning o‘zi kifoyadir.

Albatta, odob-axloq masalasi, nafaqat, o‘tmishdagi olim, tasavvuf namoyondalarni balki keyingi davr olimlarining ijodida o‘zining dolzarbligi bilan keng ahamiyatga ega bo‘lgan va har doim o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan.

Odob-axloq masalalsida so‘z ketar ekan, asr namoyondalari ijodida ham bu masalaga chuqurroq yondashilib kelingan.

O‘tmish allomalari asarlarida insonlarga yaxshilik qilish masalalari asosiy o‘rinlarni tashkil etadi. Bu boradagi g‘oyalarni tasavvuf ahllari asarlarida ko‘plab uchratish mumkin. Yaxshilik qilish, bag‘rikenglik g‘oyalari ularning asarlarida asosiy mazmunni egallaydi. Bu borada Odina Eshon o‘zining “Miftoh ul-asror” asarida yaxshilik haqida yozar ekan, bir  joyda keltiradi:

---

[82] Р.Носиров. Ибн Синонинг «Тадбири манзил” асарида илм ва ахлоқ /Мозийдан садо, 2000, 1-2-сон. 36-39-бетлар.
[83] Н.Комилов. Тасаввуф ва Шарқ фалсафаси. /Шарқ машъали, 1998, 1-2-сон. 49-бет.

Chun g‘araz omad hunar po‘shida shud,
Sad hijob az dil basuyi diyda shud.
(G‘araz yuz bergach, hunarni yopib qo‘yadi,
Yurakdan ko‘z sari yuzta hijob paydo bo‘ladi.)[84]

Odina Eshonning ta'kidlashicha, agar shaxs g‘azab, nafs, adovat, nafrat yoki g‘arazli hasad sifatida namoyon bo‘ladigan xudbinlikni namoyon qilsa, bu ularning ichki ezguligini yashiradi va boshqalarning fazilatlarini tan olish qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi.

Inson o‘z hayoti davomida imkon qadar tez-tez boshqalarga mehr ko‘rsatishi kerak. Olimning fikricha, fidoyilik xizmatkorlarga xos xususiyatdir va bunday shaxslar xudo tomonidan shubhasiz mukofotlanadi.

Bizning fikrimizcha, mustahkam axloqli shaxs odamlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘ladi va hech kimga nisbatan salbiy shubhalarni keltirib chiqarmaydi.

Odina Eshon jamiyatda g‘arazgo‘ylik qilib, boshqalarni ham shunga o‘xshash ishlarga undaydiganlarni o‘zi yo‘ldan ozdirib, o‘zgalarni yo‘ldan ozdirayotgan kimsalarni xarakterlaydi. Bunday tabiatdagi ko‘plab shaxslar zamonaviy jamiyatda mavjud bo‘lib, ular har bir millat va iqlimda mavjud. Ularning harakatlari g‘arazli bo‘lib, odamlarni aldash va manipulyatsiya qilish bilan tavsiflanadi,[85] deb yozadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan tushunchalar bugungi kungacha dolzarbligicha qolmoqda. Hozir ham bir nechta odamlar yolg‘on gapirish va boshqalarni aldash orqali foyda ko‘rishadi. Ming afsuski, yolg‘on, manipulyatsiya va ishonuvchanlarni ekspluatatsiya qilish asosida martaba qurgan shaxslar bir qancha yoshlarning hayotini buzmoqda.

Tarixiy jihatdan olimlar o‘z asarlarida nafaqat axloqqa e’tibor qaratganlar, balki poklik, halollik va ozodalik haqida ham bir qancha fikrlarni bayon etganlar. Axloqning bir jihati poklik va tartib bilan yurishdir. Binobarin, inson doimiy ravishda

[84]Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 69 а-бет.
[85]Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 31 а-бет.

shaxsiy tozalikni saqlashi kerak. Erkin yuradigan odamning salomatligi va kognitiv ravshanligi bor. Sog‘lom tanada sog‘lom aql bo‘ladi, deb ko‘pincha aytiladi. Odina Eshon odob-axloq borasida o‘zining falsafiy mushohadasini keltirar ekan, yaxshi va yomon odamlar o‘rtasidagi farqni maymun bilan inson o‘rtasidagi farqqa qiyoslaydi. Alloma yomon fazilatli kishilarni kofirlar deydi va ularga, “kofirlar janjal va tortishuvda maymunga o‘xshaydilar”, [86] deb baho beradi. Ularni shunday deb ta’riflaydi:

Har chi mardum mekunad buzinaham,
On kunad k-az mard binad dambadam.
(Odamlar nima qilsa, maymun ham o‘shani qiladi,
U odamlarda ko‘rgan narsani takrorlaydi.)

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, yomon niyatli odamlarda yaxshi fazilatlar yo‘q va shuning uchun ular yaxshi odamlarning xatti-harakatlariga taqlid qilishadi. U mening xatti-harakatlarim boshqalarnikini aks ettiradi, deb hisoblaydi, biroq u farqni bilmaydi, deb yozadi Odina Eshon.

Muallifning ta'kidlashicha, ikkiyuzlamachi shaxslar tashqi ko‘rinishda hamdardlik, mehribonlik va do‘stlik ko‘rsatishiga qaramay, ular ichida ko‘rinmaslik va hasad alangasini o‘z ichiga oladi.

Odina Eshon fazilatli va badbaxt shaxslarning tashqi ko‘rinishlarini ajratib bo‘lmas darajada bo‘lishiga qaramay, ularning ichki dunyosida tafovut borligini keyingi misraga havola qiladi:

Garchi ular bitta o‘yin ustida bo‘lsalar ham,
Biroq Marvaz va Ray shaharlari kabi (bir-biridan uzoq) dirlar.[87]

[86]Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 7143. 64 б-бет.
[87]Ўша асар, ўша бет.

Odina Eshon yaxshi va yomon sifatli insonlar haqida o‘z fikrini bayon qilar ekan, ularni mo‘min va munofiqlarga ajratib, yozadi: “Mo‘min va munofiqning har biri o‘z maqomi sari qaytuvchidir. Mo‘minning maqomi Xudoyi ta’oloning lutfi, muqallidning maqomi Allohning qahridir”.[88]

Ta’kidlaymizki, Alloh taoloning amrlariga to‘la amal qilgan va Uning ko‘rsatmalariga itoat qilgan mo‘min, shubhasiz, oliy mavqega erishadi va Yaratganning roziligiga erishadi. Ikkiyuzlamachi deb ta'riflangan muqallid faqat boshqalarning idrokini aldaydi. Bunday odam Allohning g‘azabini qo‘zg‘atadi.

Odina Eshonning ta'kidlashicha, munofiq mo‘min deb aytilsa, xursand bo‘ladi, lekin munofiq deb atalsa, chayon chaqishi kabi jahldor bo‘ladi.

Nomi u mahbub az zoti vay ast,
Nomi in mabg‘uz z-ofoti vay ast.
(Uning nomi o‘z zoti sababli mahbubdir,
Buning nomi ofatlari sababli yoqimsizdir.)[89]

Odina Eshonning fikricha, yaxshi odamlar o‘z odobi, ilmi bilan yaxshidir, yomon sifatli odamlar yomon fazilatlari bilan yomon ko‘rinadilar. Yana, yaxshi insonlar so‘zida yomonlik va ofat yo‘qdir. Odina Eshon bir joyda munofiqlik haqida yozadi: “Munofiqning nomi do‘zax so‘zidan olinmaganda edi, nega uning nomi do‘zax mazasini beradi?”,[90] degan falsafiy mushohadani yuritadi.

Odina Eshon masnaviyda yozadi:

Yaxshi odamlar ketdi, biroq ulardan yaxshi odatlar qoldi,
Yomonlardan esa zulm va bid’atlar qoldi.[91]

---

[88] Ўша асар, ўша бет.
[89] Ўша асар, ўша бет.
[90] Ўша асар, 65 б-бет.
[91] Ўша асар, 90 б-бет.

Yaxshi insonlar o‘lganlaridan so‘ng o‘zlarining yaxshi hulq va odatlari bilan qoladilar. Tirikliklarida ularga boshqalar ergashadilar, ulardan yaxshi xulq-atvorlarni o‘rganadilar. Yomon odamlardan esa zulm va qiynoqqa soladigan bid’atlar qoladi, ular olamni kuydiradilar,[92] degan falsafiy mushohada yuritadi alloma.

Odina Eshon fikricha, yaxshi inson yaxshi oilada kamol topgan bo‘lsa, u o‘lguncha yaxshi inson bo‘lib qoladi. Yomon odam yomon, munofiqlik muhitida o‘sgan bo‘lsa, u o‘lguncha o‘zining yomon sifatlaridan qutula olmaydi.[93]

O‘zidan past xarakterga ega bo‘lgan shaxslar doimo mavjud bo‘lgan va bundan keyin ham mavjud bo‘ladi. Bunday shaxslar olimlar va mualliflarning asarlarida doimiy ravishda qoralangan. Tarixchi olimlar o‘z asarlarida bunday shaxslarning yomon xulq-atvori va fe’l-atvori haqida ko‘plab dono fikrlarni bayon qilganlar.

Mavlono Yoqub Charxiyning ustozi Buhouddin Naqshband keltirgan gaplari Odina Eshonning yuqorida keltirilgan mulohazalari bilan hamohangdir. Charxiy aytadilar: “Izlovchi Alloh taoloning ittifoqchilaridan bo‘lgan sahoba bilan suhbatda bo‘lishi va uning holidan xabardor bo‘lishi kerak”..., bu azizning suhbatida mulozamatda bo‘lishni o‘zi uchun farzi ayn deb hisoblasin”,[94] deydi.

Odina Eshon fikricha, yomon xulqqa yoki yomon fazilatga ega bo‘lgan odam birovning ko‘nglini olish va ularga mehribonlik qilish ishlaridan xabardor bo‘lmaydi,[95] deb yozadi. Zohiriy qahr va lutfni yaxshilik va yomonlikni biladigan har bir odam biladi, deydi. Biroq lutfning qahr ichida pinholigini o‘z dushmanlariga yaxshilik qiladigan insonlardan boshqa odamlar bilmaydi.

Odina Eshon “Miftoh ul-asror” asarida yaxshilik haqida yozar ekan, bir masnaviyda keltiradi:

G‘araz yuz bergach, hunarni yorib qo‘yadi,
Yurakdan ko‘z sari yuzta hijob paydo bo‘ladi.

---

[92]Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 90 б-бет.
[93]Ўша асар, ўша бет.
[94]Баҳоуддин балогардон, 79-бет.
[95] Мифтоҳ ул-асрор, 177 а-бет.

Odina Eshonning ta'kidlashicha, g‘azab, nafs, adovat, adovat, nafrat yoki hasad sifatida namoyon bo‘ladigan gina-kudratni o‘zida saqlaydigan shaxs, ularning boshqalarning fazilatlarini tan olish qobiliyatini to‘sib qo‘yadi.

Shunday qilib, biz inson hayoti davomida boshqalarga imkon qadar yordam berishi kerak, deb hisoblaymiz. Yaxshilik bilan shug‘ullanish - bu shaxsning o‘ziga xos xususiyati. Odina Eshon fidokorlik bandalarga xos bo‘lgan fazilat ekanini ta’kidlaydi va bunday shaxslar shak-shubhasiz, Ilohiy Yaratgandan mukofot oladilar.

Odina Eshonning ta'kidlashicha, maqtovga sazovor bo‘lgan shaxs odamlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘ladi va hech kimga nisbatan salbiy shubhalarga yo‘l qo‘ymaydi. Muallif bu boradagi fikrlarini quyidagicha umumlashtiradi:

Ular uchun yaxshimi-yomonmi birdekdir,
Nima bo‘lsa-da, ular chiroyli gumonda bo‘ladilar.
Ularga, ey Xudo, bu baloni bizdan qaytar, deb –
Duoga qo‘l ochish kufrlik bo‘ladi.[96]

So‘fiylarning asarlarida ko‘pincha inson tanasi va uning ichki tabiati haqida so‘z boradi. Jismoniy poklik holatida yashash har bir insonga xos bo‘lgan insoniy fazilatdir. Shu nuqtai nazardan Odina Eshon pokiza tana haqida quyidagilarni ta’kidlaydi:

Ulug‘lar bu so‘zni bekorga aytmaganlarki,
Poklarning jismi ham joniga o‘xshab sofdir.[97]

Yuqoridagi misralarni Odina Eshon, yuzlab soflik bilan birga bo‘ladigan aybni ulug‘lar bekorga sanamaganlar,[98] deb sharhlaydi. Uning fikricha, pok, halol insonlarning qalbi ham vujudlari ham jismlari ham pok, sof bo‘ladi, deydi.

[96] Мифтоҳ ул-асрор, 179 б-бет.
[97] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор, 95 б-бет.

Biz ishonamizki, inson bu dunyoga yuragi va tanasi bilan kirmaydi. Binobarin, u bu sayyorada poklik, yaxlitlik va pokiza fizika bilan yashashi kerak.

Odina Eshon jismoniy poklik haqidagi o‘z qarashlarini ifoda etdi. Uning ta'kidlashicha, insonning qalbi iflos bo‘lishi kerak va tanadagi nopokliklar qalbning pokligini buzmaydi; aksincha, qalbning pokligi tanadagi kirlarni tozalaydi. U falsafiy fikrni ifodalaydi: agar yurak iflos bo‘lsa, hech qanday tozalash yurakning nopokligi tanani ifloslanishidan saqlay olmaydi.

Yuqorida tilga olingan tushunchalarni tasdiqlash uchun Odina Eshonning qalb pokligi haqidagi fikrlariga havola qilamiz. Professor qalbning muqaddasligi haqida gapiradi: "Tashqi ko‘r odamning namoz o‘qishi nomaqbuldir". Shunday bo‘lsa-da, u ma'qul sanaladi, chunki tashqi kirlar va ifloslikla poklanish bilan yo‘q qilinadi. Shunga qaramay, ma'naviy ko‘r bo‘lgan shaxsning imomligi joiz emas, chunki botiniy nafs o‘z tabiatidan xalos bo‘lgunga qadar davom etadi.

So‘fiylar poklik haqida fikr yuritish bilan bir qatorda halollik haqida ham ko‘plab fikrlarni bildirganlar. Olimlar o‘z asarlari orqali o‘z shogirdlariga muhim tushunchalar berdilar.

Odina Eshon halollik haqidagi o‘z nuqtai nazarini quyidagicha ifodalaydi:

Tog‘ undan parchalandi va yorildi,
Tog‘ning tuya kabi raqsga tushganini ko‘rganmisiz?
Bir odam boshqa odamga luqma baxsh etadi,
Ammo halqum va tomoq baxsh etish esa Parvardigorning ishidir.[99]

Odina Eshon yuqorida tilga olingan bayt sharhida ta’kidlaganidek, har bir ehsonli va beg‘ubor avliyo nafs vodiysida qo‘msab yurgan qalblar bo‘g‘ziga Tangriga intiluvchi ilohiy nur daryosidan bir luqma, uchqun yoki tomchi tomizish qobiliyatiga ega; ammo bu luqmani kashf etish uchun iste'dod va qobiliyatni berish Alloh taoloning vakolatidir.

---

[98]Ўша асар, ўша бет.
[99]Ўша асар, 149 а-бет.

Bizning fikrimizcha, inson halollik bilan yashashi, kiyimi va rizqini halollik bilan o‘z mehnati bilan olishini ta'minlashi kerak. Haqiqiy oziq-ovqat luqmasi tomoqqa osonlikcha siljiydi. Odina Eshonning ta’kidlashicha, halol rizq izlab, to‘g‘ri yashash Allohning bandalari uchun ilohiy farzdir. Olim inson kamolotga yaxlitlik orqali erisha oladi, degan falsafiy fikrni ilgari suradi.

Ishonch etikaning yana bir tarkibiy qismidir. Ko‘pincha ishonchga xiyonat qilish oson emasligi aytiladi. Xiyonatning turli shakllari mavjud: oilaviy xiyonat, do‘stlikka xiyonat, vatanga xiyonat, xalqqa xiyonat, omonatga xiyonat.

Insonparvarlik - bu shaxslarga g‘amxo‘rlik qilish, bag‘rikenglik amaliyoti, xayrixohlikni targ‘ib qilish, moddiy va ma'naviy yordam ko‘rsatish sifatida ta'riflanadi. Insonparvarlik tushunchalari ko‘plab turmush tarzida va so‘fiylarning asarlarida keng tarqalgan.

Xulosa qilib aytganda, so‘fiylarning ko‘plab asarlarida turli mavzular ichida odob va axloq masalalari muhim o‘rin tutadi. Tarixiy jihatdan olimlar o‘z asarlarida odob va axloq masalalarini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqanlar. Ular ko‘pincha shaxslararo muomala muhimligini ta'kidlab, o‘ylangan javobni shakllantirishdan oldin suhbatdoshning so‘zlarini diqqat bilan tinglashni targ‘ib qilishdi. Afsuski, bu odob-axloq zamonaviy yoshlar orasida kamayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda,

Odina Muhammad Al-Xorazmiy o’zining so’fiylik falsafasida insoniyatning ma’naviy kamolotini asosiy g’amxo’rlik deb bilgan bo’lib, inson va o’zlik masalasi, uning eng dahshatli dushmani o’zi ekanligi, o’z-o’zini tartibga solish orqali yurak muqaddaslanishi va ruh ilohiy yorug’lik manbasiga aylanishi ifodalanib va uning muqaddas joyi bo’lib xizmat qilishi ta’kidlangan, bu tushuncha so’fiylikdagi "jihod al-akbar" tushunchasi sifatida shaxsning ichki olamidagi kurashini bildirgan;

-ilohiy ishq tushunchasi va komil inson arxetipi – Allohga sadoqat – allomaning hikmat va ijodining asosiy mavzusi sifatida bu muhabbat shaxsni “komil inson” maqomiga ko’tarishi, fazilatli shaxs o’zini ham, jamiyatni ham ma’naviy yuksaltirishiga oid fikrlar, “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko’zgusi) asarida o’z aksini topgan;

- Shayx Odina Eshon ijodida koinot va insoniyatning birligi, insoniyat va olam o’rtasidagi uyg’unlik, o’z-o’zini anglash, o’ziga xoslikni tushunish, tasavvufiy,

ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlar, aks etgan bo’lib, uning hikmatlari va aforizmlari so’zlashuv tilida ifodalangan, chuqur ahamiyatli, axloqiy nasihatlar, odob-axloq tamoyillari, borliq va oxiratning tasavvufiy talqini hamda aniq tasviriy misollarni o’z ichiga olgan she’riyat o’rin olgan.

Bob bo’yicha xulosalar:

-Odina Muhammad Xorazmiy o’z davrida tasavvufiy-irfoniy va ijtimoiy-falsafiy g’oyalarni o’z qarashlarida ilgari surgan XVIII-XIX – asrlarning tasavvuf olamining zabardast vakili hisoblanib, uning qrashlarida asosan, Kubraviya tariqati ta’siri seziladi. Inson ruhining ma’naviy sayri va ruhiy tajribasi shu tariqat asoslariga uyg’un holda sharhlangan.Odina Muhammad Xorazmiyning asarlari xalqona tilda ruhiy tarbiya g’oyalarini targ’ib etadi

Odina Muhammad Xorazmiy qarashlarining asosini, Sharq falsafasi, xususan, inson mohiyati, axloqiylik va ruhiy kamolot konsepsiyasi; alloma yashagan davrning ijtimoiy-madaniy sharoitlari, ta’siri bo’lib, uning ijodining markazida “komil inson” g’oyasi turadi. Mutafakkir o’z davrining ko‘zga ko‘ringan mutasavvifi bo‘libgina qolmay, balki forsiy tilda ijod qiluvchi taniqli shoiri sifatida ilmiy merosidan bizgacha 5 ta asari yetib kelgan.

Odina Muhammad Al-Xorazmiy o’zining so’fiylik falsafasida insoniyatning ma’naviy kamolotini asosiy g’amxo’rlik deb bilgan bo’lib, inson va o’zlik masalasi, uning eng dahshatli dushmani o’zi ekanligi, o’z-o’zini tartibga solish orqali yurak muqaddaslanishi va ruh ilohiy yorug’lik manbasiga aylanishi ifodalanib va uning muqaddas joyi bo’lib xizmat qilishi ta’kidlangan.

-ilohiy ishq tushunchasi va komil inson arxetipi – Allohga sadoqat – allomaning hikmat va ijodining asosiy mavzusi sifatida bu muhabbat shaxsni “komil inson” maqomiga ko’tarishi, fazilatli shaxs o’zini ham, jamiyatni ham ma’naviy yuksaltirishiga oid fikrlar, “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko’zgusi) asarida o’z aksini topgan;

- Shayx Odina Eshon ijodida koinot va insoniyatning birligi, insoniyat va olam o’rtasidagi uyg’unlik, o’z-o’zini anglash, o’ziga xoslikni tushunish, tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlar, aks etgan bo’lib, uning hikmatlari va aforizmlari so’zlashuv fors tilida ifodalangan.

## II-BOB. ODINA MUHAMMAD XORAZMIY TASAVVUFSHUNOS MUTAFAKKIR SIFATIDA

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Mutafakkirning tasavvuf ta’limotida tutgan o’rni”, “Miftoh ul – asror” (“Sirlar kaliti”) asarining tasavvufiy- falsafiy mohiyati”deb atalgan paragraflardan iborat. Birinchi paragrafida Shayx Odina Eshon

Xorazm vohasida yashab ijod qilib, faoliyat ko'rsatgan davrda Kubraviya va Naqshbandiya tariqatlari keng yoyilgani, uning ta'limotida: Najmiddin Kubro maktabining ta'siri ko'pchilik hollarda sezilishi va qarashlarida markaziy o'rinlarni egallashi, ilm va tasavvufni nazariy tahlilini mukammal darajaga yetkazganligi, alloma qarashlarining asosiy figurasi asosan Komil inson konsepsiyasiga qaratilgani, allomaning falsafiy qarashlarida Olam va inson birligi masalasi katta ahamiyatli hisoblanishi, ma'naviy poklanish, ilohiy muhabbat, olam va inson uyg'unligi, uning uvaysiy ekanligiga e'tibor qaratilib, Shayx Odina Eshon hazratlarining bizga qoldirgan merosining ahamiyati tasavvufshunoslikda mutasavvif insonni ruhiy komillikka olib boruvchi yo'lni aniq izohlagan mutafakkir sifatida qadrlanishi ta'kidlangan.

Bobning keyingi paragrafida Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qalamiga mansub "Miftoh ul-asror" nomli qo'shimcha tafsirning aniqlanishi bu mintaqa aholisining, xususan, mamlakatimiz allomalarining "Masnaviy ma'naviy"ga bo'lgan hayrat va mehrini yanada ko'rsatganligi deyilgan. Asarda "Masnaviy ma'naviy"ning uch jildiga tasavvufiy sharh berilganligi, asarni sharhlashga undagnn sabablar, Nafs va qalbni tarbiyalash va tartibga solish, ilohiy muhabbat. insonning aqlan va ruhan yetuklikka erishishining maqomat bosqichlari va ruhiy ahvollari, inson va olam munosabatlari dialektikasi, komillik sifatlari, ilm va ma'rifatga oid fikrlar, bugungi kundagi ahamiyati, kabi jihatlar tasavvufiy-falsafiy, tahliliy bayon qilingan.

## 2.1. Mutafakkirning tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni

Shayx Odina Eshon Xorazm vohasida yashab ijod qilgan bo'lib, u faoliyat ko'rsatgan davrda Kubraviya va Naqshbandiya tariqatlari keng yoyilgan edi. U aynan shu tasavvufiy maktablarning g'oyaviy merosidan ta'sirlangan holda o'zining ruhiy-irfoniy qarashlarini shakllantirgan. Xorazm – qadimdan ilm va irfon markazi bo'lib, Shayx Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, shuningdek, keyingi davrlarda ko'plab mutasavvif va olimlarning yurtidir. Shu an'anada Shayx Odina Eshon ham

o‘z davrining ma’naviy-ma’rifiy hayotida katta o‘rin egallagan. Shayx Odina Eshon Xorazmiyning tasavvuf ta’limotidagi asosiy g‘oyalari:

Ma’naviy poklanish – Shayx Odina Eshon ta’limotida insonning qalban va ruhan poklanishi, nafsni jilovlashi tasavvufiy yo‘lning markazida turgan bo‘lib, U “nafsni yengish”ni insonning ichki jihodi – ***jihod al-akbar*** deb bilgan. Va nafsni yengan va uni jilovlay olgan insonni insonlarning sarasi ya’ni komillikning na’munasi sifatida bilgan;

Ilohiy muhabbat(Haqqa nisbatan) – Uning qarashlarida Allohga chin muhabbat – haqiqat va Hqqa elituvchi yo‘l va haqiqiy ma’rifat hamda axloqiy yuksaklikka eltuvchi yo‘l sifatida talqin etilgan. Muhabbat insonni komillikka yetaklovchi asosiy kuch va undovchi fazilat sifatida ko‘rilgan;

Komil inson konsepsiyasida asosan Shayx Odina Eshon komil inson – tasavvufiy sayr va nafs hamda ruh bilan suluhning yakuniy natijasidir deb qaragan. Bunday inson o‘zini nafsdan xalos etib, jamiyatga xizmat qiluvchi ma’naviy barkamol shaxsga aylantirgandagina bu maqomga erisha olishini ta’kidlab tushuntirishga uringan. Hazrati Odina Eshon yirik mutasavvuf zot sifatida faoliyat ko‘rsatib, odamlarni ilmu ma’rifat, ko‘rkam xulqu odob bilan tarbiyalashdan tashqari, ijodiy faoliyat bilan ham shug‘ullandilar. U odamlarni komil insonlikka chaqirish va bu borada risolalar bunyod qilishda Jaloliddin Rumiyni o‘ziga ma’naviy ustoz qilib oldi. U o‘zining har bir so‘zini Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asaridigi baytlar bilan mustahkamladi, unga suyandi[100];

Olam va inson uyg‘unligi tushunchalarini falsafiy sharhlashda mukammallikka erisha olgan. Unga ko‘ra, inson – “mikroolam”, koinot esa “makroolam”. Inson o‘zini anglab yetganda, Yaratuvchining mohiyatini ham anglaydi. Bu g‘oya tasavvufdagi ***“Man arafa nafsahu faqad arafa rabbahu”*** (“Kim o‘zini tanisa, Rabbini taniydi”) hikmatiga yaqin bo‘lib hisoblanadi.

Shayx Odina Eshon mavlono, haqiqatdan, o‘zining asarlari bilan, ayniqsa, “Masnaviyi ma’naviy” asari bilan o‘zidan keyingilarga - tariqat ahllariga va ilm

[100] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 27.

urifon sohiblariga, mutafakkir va mutasavvuf shoirlarga zo‘r ta’sir ko‘rsatgan beb, Mavlono Abdurahmon Jomiy (vafoti 1492 yil) “Masnaviy”ni “forsiy Qur’on” deb ta’riflaydi.[101]

Shayx Odina Eshon “Masnaviy” va uning sharxlari haqida shunday deydi, oradan sakkiz asr o‘tibdiki, Mavlono Jaloliddin Rumiyning (1207-1273) «Masnaviyi ma’naviy» asari hamon ilm ahlini to‘lqinlantirib kelmoqda. Undagi she’rlarning latofati, tasavvufning chuqur qoidalari, serma’no hikmatlar va falsafiy mushohadalar har bir odamni hayratga solmay qo‘ymaydi. Kitob yozilgandan boshlab to shu kungacha masnaviy-xonlarning va masnaviy o‘qiladigan majlislarning hamon mavjudligi ham bunga guvohdir. Bu asar haqida o‘tmishda yashagan ulug‘ olimlar, tasavvuf namoyandalari, faylasuf olimlar o‘z fikrlarini hayajon bilan yozib ketganlar. U haqda bobomiz Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asaridagi ajoyib fikrlarini o‘qishimiz mumkin. «Masnaviy»ga eng yuqori baho bergan mutafakkir bu Abdurahmon Jomiy edi.[102] U:

Man chiy go‘yam vasfi on olijanob,

Nest payg‘ambar, vale dorad kitob.

(Men bu olijanob zot haqida nima ham deyin,

U payg‘ambar emas, biroq kitobi bor), degan edi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida “Masnaviy”ning yuzga yaqin qo‘lyozma va bosma nashrlari mavjudligi asarning shuhrat va qadr-qimmatini ko‘rsatadi.

Shayx Odina Eshon nafaqat tasavvuf ahli, balki xalqning ma’naviy ustozlaridan biri sifatida ham tanilgan. Alloma odamlarni sabr-toqat, bag‘rikenglik va mehr-oqibatga da’vat qilgan. O‘z davrida diniy-ma’naviy hayotda islomiy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlashda faol qatnashgan. Uning atrofida ko‘plab

[101] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 28-29.
[102] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 4.

shogirdlar to‘plangan, ular orqali ta’limot keng yoyilgan. Va allomaning g‘oya va qarashlari butun Islom olamiga kirib brogan.

Odina Eshon yoshligidanoq tasavvuf g‘oyalari ta’sirida bo‘ladi. Madrasa ilmlarini egallab bo‘lgach, yosh yigit birorta pirga qo‘l berish uchun harakat qiladi. Biroq sharq islom olamidan bunday pirni topolmagach, mustaqil shug‘ullanishga kirishadi. Bu borada unga Rasulullohning ruhi yordamga keladi. Demak, Odina Eshon uvaysiylardan hisoblanadi. Odina Eshon hayoti davomida Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy» asarini tinimsiz mutolaa qiladi va undagi sir va ramziy ishoralarni to‘lig‘icha o‘rganishga muvaffaq bo‘ladi. Tasavvufda kamolga yetib, valiylikning yuksak pogonasiga ko‘tarilgan Odina Eshon «Masnaviy»ning eng nozik nuktalarini sharhlab berishga ahd qiladi[103].

Shayx Odina Eshon hazratlarining bizga qoldirgab merosining ahamiyati shundaki – Tasavvufshunoslikda – Shayx Odina Eshon insonni ruhiy komillikka olib boruvchi yo‘lni aniq izohlagan mutafakkir sifatida qadrlanadi shu bilan birgalikda, tarbiya sohasida – Uning g‘oyalari yoshlarni axloqiy tarbiya, sabr, to‘g‘rilik va halollikka o‘rgatishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Bugungi davr nigohi bilan qaralganda – ma’naviy barkamollik, diniy bag‘rikenglik va ruhiy-ma’rifiy tarbiya masalalarida u ilgari surgan qarashlar hanuz dolzarblik ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shayx Odina Eshon tasavvuf ta’limotida insonning ruhiy sayrini, nafs ustidan g‘alaba qozonishni, Allohga chin muhabbatni va komil inson konsepsiyasini markaziy g‘oya sifatida ilgari surdi. Uning merosi Xorazm tasavvuf maktabining uzviy qismi bo‘lib, bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy hayotni boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shayx Odina Eshon tasavvuf masalalarining mushkil masala ekanligini ta’kidlab, -“ko‘pincha oldin o‘tgan barcha zotlarning so‘zlariga amal qilganlar, ularning aytganlariga suyanganlar, o‘zlaringiz uchun bu hikmatlarni shiorga aylantirganlar”[104]. Shunda inson chin xaq va xaqiqatga yeta oladi.

---

[103] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 6.

[104] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 15.

XVIII asr Markaziy Osiyo, xususan Xorazm tarixida siyosiy beqarorlik, iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bir qatorda, ma'naviy hayotning ham jonli kechgan davridir. Siyosiy hokimiyat ichki nizolar girdobida bo'lsa-da, xalq orasida tasavvufiy hayot va tariqatlar faoliyati sezilarli darajada kuchli bo'lgan. Xorazm o'sha davrda faqat savdo va madaniyat markazi emas, balki diniy-ma'naviy markaz ham edi. Bu hududda qadimdan tasavvufning Kubraviylik, Naqshbandiylik, Yassaviylik kabi yo'nalishlari keng tarqalgan edi. Shu tarixiy manzara ichida yetishib chiqqan mutasavviflardan biri – Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bo'ldi. U o'zining chuqur diniy bilimi, tasavvufiy mushohadalari va xalq orasida ma'naviy tarbiyachi sifatida tutgan o'rni bilan ajralib turardi. Alloma faoliyat yuritgan davrda masjidu madrasalar, xonaqohlar tasavvufiy hayotning asosiy markazlari bo'lib xizmat qilgan.

Odina Muhammad Xorazmiy haqida aniq tarjimai holiy ma'lumotlar kam uchrasa-da, uning ijodi va asarlaridan kelib chiqib, u diniy-ma'naviy ilmni chuqur o'rganib, tasavvuf ta'limotini puxta egallagan mutasavvif bo'lganini anglash mumkin. U dastlabki ta'limni madrasalarda olgan, Qur'on, hadis, fiqh va arab tilini mukammal o'zlashtirgan. Shu bilan birga, u Rumiy "Masnaviy"ini chuqur o'qib, undan ruhiy ilhom olgan va bu asarga sharh yozish darajasiga ko'tarilgan.

Alloma sharhi risola yozishni kirishar ekan, ustozidan: "qaysi so'z va iboralarning sharhini ma'qul ko'rasiz?" deb so'raydi. Odina Eshon, asosan, Jaloliddin Rumiyning tasavvufga daxldor she'rlarini sharh qilishga buyuradi va ularni avval o'z uzrlari bilan sharhlaydi. Shogirdi esa ularni arab tilida bayon qiladi[105].

Shayxning tasavvufiy shakllanishida Xorazmning boy ilmiy an'analari katta ro'l o'ynagan. Chunki Xorazm o'sha davrda ilm-fan va adabiyot rivojlangan hududlardan biri bo'lgan. Qolaversa, Najmiddin Kubro maktabining izdoshlari bu davrda ham faoliyat yuritib, tasavvufiy muhitni mustahkamlab turar edi. Alloma ham shu ilmiy va ruhiy muhitda shakllangan, ammo o'z yo'lini topishga intilgan mutasavvifdir.

[105] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 38-39.

Tasavvufiy an'anaga ko'ra, solik murshid (pir) rahbarligida kamolot sari yo'l yuradi. Ammo Odina Muhammad Xorazmiy o'z asarida bir necha bor shunday e'tirof qiladi: u ko'p ulamo va mashoyix huzuriga borgan, ammo ko'ngli to'lmagan. Shu sababli, u ko'proq Qur'on, hadis va Rumiy asarlaridan ilohiy ilhom olib, mustaqil ravishda tasavvufiy sayrini davom ettirgan.

Bu holat uning ta'limotida ikki muhim jihatni ko'rsatadi: birinchidan, u an'anaviy pir-murid munosabatidan mustaqil bo'lgan; ikkinchidan, uning asarlari insonni bevosita Qur'on va ma'rifatga murojaat qilishga da'vat qiladi. Bu jihati bilan Alloma tasavvuf tarixida o'ziga xos mustaqil shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Alloma yashagan davr siyosiy beqarorlik, qo'shni davlatlar bilan urushlar, iqtisodiy tanglik bilan belgilanadi. Shu bois xalqning ruhiy hayotida tasavvufiy qarashlar ko'proq ahamiyat kasb etgan. Odamlar ruhiy tasalli, ma'naviy madadni shoir va mutasavviflarning hikmatlaridan izlaganlar.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ana shunday vaziyatda jamiyatni birlashtiruvchi, ruhiy uyg'onishga chorlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritgan. Uning asarlari, xususan "Miftohul-asror", xalq orasida katta qiziqish uyg'otgan. Chunki u diniy-falsafiy g'oyalarni murakkab tilda emas, balki sodda va xalqona uslubda ifoda etgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning tasavvufiy maktabdagi o'rni benixoya katta bo'lib hisoblanadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida "Rumiy sharhlovchisi" sifatida mashhur bo'lsa-da, aslida u mustaqil mutafakkir sifatida ham alohida ahamiyatga ega. U "Miftohul-asror" orqali nafaqat Rumiy baytlarini sharhlaydi, balki o'zining tasavvufiy qarashlarini ham bayon qiladi. Shu jihati bilan u Markaziy Osiyo tasavvuf maktabida muhim o'rin tutadi.

Uning qarashlarida Najmiddin Kubroning ma'naviy merosi, Ibn Arabiyning "vahdat ul-vujud" ta'limoti va Rumiy ishq falsafasi uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Demak, Alloma tasavvuf tarixida turli maktablarni birlashtiruvchi va ularni o'z xalqining ma'naviy ehtiyojlariga moslashtiruvchi mutasavvif sifatida qadrlanadi.

Shu bilan birgalikda Shayx Odina Eshon inson kamoloti tasavvufning bosh mezoni ekanligini ta'kidlab, insonga va uning kamolatiga "Miftohul-asror" asarida quyidagicha ta'rif beradi:

Kimki tariqat yo'liga qadam qo'ysa, darvishlik va tasavvufga mayl ko'rguzsa avvalo uning ilmini o'rganishi kerak va ilmlarning asosi bo'lgan qalb ilmini va Ilohiy (326) ilmni, «ilm qidiringlar agarchandiki Chinda bo'lsa ham» (hadisi)ning hukmiga muvofiq, ilmni xoh Mashriqda bo'lsin, xoh Mag'ribda bo'lsin, topmoq kerak. «Bas, so'rang axli ilmdan agar bilmasangizlar» (Kur'on, 16/43) oyati hukmi bo'yicha, tasavvuf ilmining bidoyati bo'lgan haq va botilni bilish ilmini egallash lozimdir. Komil murshidni topib, unga yetishish va irodat zanjiriga ulanmoq lozim. Aksincha bo'lsa, uzoqlashuvni qidirish, ehtiyot va hushyor bo'lish kerak. Bilmoq lozimki, hammasi haq bo'lavermaydi va hammasi botil ham bo'lavermaydi. Chunonchi aytadilar:

On ki go'yad jumla haq az ahmaqist,

V-on ki go'yad jumla botil o' shaqist.

(Kimki barcha narsa haq desa, bu ahmoqlikdandir, Kimki barcha narsa botil desa, u badbaxtdir.)[106]

"Miftohul-asror" ("Sirlar kaliti") Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning eng mashhur va eng muhim asaridir. Bu asar Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"ining dastlabki uch daftariga yozilgan sharh sifatida yaratilgan bo'lsa-da, u oddiy sharh emas, balki mustaqil tasavvufiy va falsafiy traktat darajasiga ko'tarilgan. Asarda Qur'on oyatlari, hadislar, mashhur mutasavviflarning hikmatlari, ramziy hikoyatlar va muallifning shaxsiy mushohadalari uyg'unlashgan.

Asar nomi ham ramziy ma'noga ega: "kalit" – sirli eshiklarni ochuvchi vosita, ya'ni inson qalbining sirlarini ochib beruvchi ruhiy kalitdir. Muallifning fikricha,

---

[106] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 59.

"Masnaviy" baytlarini to'g'ri anglash uchun maxsus "kalit" zarur va bu kalit tasavvufiy tafakkur, qalbning pokligi va ishqdir.

"Miftohul-asror" mazmuni bo'yicha quyidagi asosiy bo'limlarga ajraladi:

Rumiy "Masnaviy"idagi ramziy hikoyatlarning sharhi;

Qur'on va hadis asosida izohlar;

Tasavvufiy maqomlarning bayoni (tavba, sabr, shukr, rizo, fano);

Borliq va vahdat ul-vujud masalasi;

Komil insonning sifatlari va jamiyat hayotidagi roli.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o'z asarida Rumiy "Masnaviy"ining murakkab va ramziy baytlarini o'quvchilarga sodda tilda sharhlab beradi. U ba'zi sharhlovchilarning ma'noni ortiqcha cho'zib yuborishini tanqid qilib, asosiy g'oyani qisqa va lo'nda izohlashni maqsad qilganini ta'kidlaydi. Shu bois "Miftohul-asror" xalq orasida tez tarqalgan va "Masnaviyxonlik" an'analarida muhim o'rin egallagan.

Rumiy asarlaridagi ishq, sabr, tavozu, Haqqa intilish kabi g'oyalar Alloma tomonidan Qur'on va hadislar bilan mustahkamlanadi. Bu jihati bilan Alloma Rumiy falsafasini shar'iy asosda qayta talqin etgan mutasavvif sifatida ajralib turadi.

"Miftohul-asror"da tasavvufiy maqomlar – ya'ni solikning ruhiy sayohat bosqichlari keng yoritilgan. Muallif ularni Qur'on oyatlari va hadislar bilan mustahkamlaydi. Asarda quyidagi maqomlar alohida tahlil qilinadi:

Tavba – gunohdan qaytish va Haqqa yuzlanish. Bu maqom solikning ilk qadamidir;

Sabr – mashaqqatlarga chidash, ruhiy barqarorlikni saqlash;

Shukr – Allohning ne'matlaridan mamnun bo'lish va ulardan to'g'ri foydalanish;

Rizo – Allohning irodasiga to'liq bo'ysunish;

Fano – nafsni yo'qotib, Haqqa erishish darajasi.

Alloma bu maqomlarni bosqichma-bosqich sharhlab, solikning qanday qilib qalbini poklashi va Haq nuriga yetishi mumkinligini ko'rsatadi.

Asarning markaziy g'oyalaridan biri – qalbni poklashdir. Muallif hadisga tayanib shunday deydi: ***"Odam bolasining ko'ksida bir parcha go'sht bor; agar u***

***sog'lom bo'lsa, butun tana sog'lom bo'ladi, agar u buzilsa, butun tana buziladi. Ogoh bo'ling, bu qalbdir".*** Shu asosda u qalbni poklashni inson kamolotining eng asosiy sharti sifatida ko'rsatadi.

Nafsning illatlari – hirs, hasad, kibr va g'azab qalbni qoraytiradi. Shuning uchun solik nafsni jilovlash, riyozat qilish va doimiy zikr bilan qalbni nurga to'ldirishga intilishi kerak.

Shayx Odina Eshon Nafs haqida fikr yuritib, Xudoyi ta'olo biror kishini Zot mushohadasi bilan sarafroz qilishni istagan bo'lsa, tavhid, vujud va shuhudga kirishdan umid uzmasin va mahbubning jamolini tajalliyning hijobisiz mushohada qilishga, uni ayon ko'rish uchun jiddu jahd qilsin, astoydil sa'yu harakat qilsin. Ammo bu vaqtda solikning ko'ziga ashyolar nur ostida pinhon bo'ladi, yo'l go'yo unga ochilmagandek tuyuladi, matlubning jamolidan parda ko'tarilmaydigandek ko'rinadi. Nafs garchi boshida qaysar va ishonmaydigan bo'lsa-da, bir necha vaqt Xaq nuri bilan orom topib, uning zikri bilan aloqada bo'lib, ishq va oshiqlik munosabatini hosil qilib, tajalliyot nuri (yomon ahvoliga qarshi) parda bo'lib, shavku muhabbat tug'yon uradi, zavq va ishtiyoq g'alaba qiladi, sabr va chidam ketadi, shiddat g'alabasidan hayajon va iztirob orom bermaydi. Betoqatlikdan har tomonga bosh uradi, Alloh ta'oloning qanday va qanaqaligiga diqqat qiladi[107].

Mana shunday paytda nafsni o'z holiga tashlab qo'yilsa, u kufr sari ketadi. Har qanday tadbir bilan uni bu yo'ldan qaytarilsa, oxiri tan beradi, g'aflatta sabab bo'ladigan narsadan qaytarib qolinadi. Shu ma'noda Shayx Abu Sa'id Xazzoz, sirlari muqaddas bo'lsin, etik tikar va uni qayta yirtardi. Bu haqda so'raganlarida: «Nafs meni o'z yo'liga solmasdan avval men uni o'z yo'limga solaman» der ekanlar. Xuddi shu kabi azizlardan biri chuqur kavlar va uni yana tuproq bilan to'ldirar edilar va yuqoridagi javobni aytar edilar[108].

Alloma pinhon bo'lish va yana jilvalanish solik uchun kiysiy holdir, buning ma'nosi albatta solik uchun Allohu taolo sifatlaridan bir sifatning nuri pinhon bo'ladi

[107] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 35.
[108] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 21 а

va boshqa sifatning nuri tajalliy (jilva) qiladi. Bu esa birinchi sifati o‘z aslini yo‘qotadi va o‘zgaradi, yangi solik uchun bir sifat paydo bo‘ladi, deganini bildirmaydi. Balki bu sifat Allohning zoti bilan abadiy boqiy va barqarordir, unga nuqson va zavol yo‘l topmaydi. Va buning taqiqqi e’tiqod haqidagi kitoblarda zikr qilingan, uni bilish istagi bo‘lsa “Mutavalliot” kitobiga qaralsin.

Birinchi misra:

Bezoram az on kӯhna Xudoyi, ki tu doriy.

(Sen ega bo‘lgan o‘sha eski Xudodan bezoram).[109]

ya’ni, men sening botin Ilohingdan bezoramanki, u sening havong (nafsing) bo‘lib, sen uni o‘zingga Iloh qilib olgansan va bu havoga tobe’ bo‘lib olgansan va Iloh deb nomlagansan. Chunki havo-havoga tobe’ kishi uchun havo (nafs) Ilohdir. Chunonchi, “Tanziyl”da keladi: “Ko‘rdingizmi, ey Habibim, o‘z nafsini Iloh qilib olgan kishini?” Kimdiki bu kalima haqida gapirishni xohdasa uni mazkur tafvilot (tushuntirish) asosida gapirishi lozim, o‘zicha bilimdonlik qilib gapirmasligi kerak, biroq buning ma’nolarini chuqur o‘rgangach, (gapirishga) ruxsat bordir, yana ham to‘g‘risini Allohu taolo biluvchiroqdir. So‘z tugadi.

Tasavvuf falsafasida ishq markaziy tushuncha hisoblanadi. Alloma ham ishqni insonni Haqqa eltuvchi eng qudratli kuch sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, ilm va aql orqali haqiqatni qisman bilish mumkin, ammo haqiqiy ma’rifat ishq orqali qalbda namoyon bo‘ladi.

Shayx Odina Eshon Hazrati Shayx Farididdun Attorning ilohiy ishq haqidagi fikrlarini sharxlab, sirlari muqaddas bo‘lsin, buyuradilar[110]:

Posboni kun base dar ko‘yi dil,

3-on ki duzdonand dar pahlo‘yi dil.

[109] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 51-52.
[110] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 78.

Chun turo in posbonӣ shud sifat,

Ishq zud oyad turovu ma’rifat.

(Dil ko‘chasida ko‘p posbonlik qil, Chunki dil atrofida o‘g‘rilar bordir. Agar sen uchun bu posbonlik sifatta aylansa, Senda ishq va ma’rifat tezda hosil bo‘ladi.)

Hazrati Shayx Farididdun Attor, sirlari muqaddas bo‘lsin, buyuradilar:

Asarda ishq va ilohiy nur o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Ishq qalbni uyg‘otadi, nur esa unga yo‘l ko‘rsatadi. Bu bosqichda solik ashyo va hodisalarning foniyligini ko‘rib, faqat Haqning abadiyligini idrok etadi.

Alloma “Miftohul-asror”da zohiriy ibodatlar bilan botiniy ixlos uyg‘unligini muhim shart sifatida ko‘rsatadi. U hadisga tayanib yozadi: ***“Albatta, Alloh sizlarning suratlaringiz va amallaringizga qaramaydi, balki qalblaringiz va niyatlaringizga qaramaydi”***.

Demak, tashqi ibodatlar inson qalbini poklashga xizmat qilishi kerak. Agar ibodat faqat rasmiy shaklda bajarilsa, uning qiymati kamayadi. Asarda shariat va tariqat uyg‘unligi, zohir va botinning birligi tasavvufiy hayotning asosiy tamoyili sifatida talqin etiladi. “Miftohul-asror” faqatgina ilmiy doiralarda emas, balki xalq orasida ham keng o‘qilgan. “Masnaviyxonlik” an’analarida ushbu asar asosiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan. Chunki u murakkab falsafiy g‘oyalarni sodda tilda izohlagan va xalqning qalbiga yaqinlashtirgan. Shu jihati bilan Alloma xalq ma’naviy hayotida katta o‘rin egallagan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy falsafiy qarashlarida borliq va yo‘qlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, mutlaq mavjudlik faqat Allohga xosdir, barcha yaratilgan narsa va hodisalar esa vaqtinchalik, foniydir. Qur’oni Karimda: **“Undan boshqa barcha narsa halok bo‘lur, faqat Uning O‘zigina boqiydir”** (Qasas, 88) – deya ta’kidlanadi. Alloma bu oyatni asos qilib olgan holda, insonni foniy, Allohni esa abadiy mavjudlik egasi sifatida sharhlaydi.

Shayx nazarida, inson o‘zini mustaqil mavjudlik deb bilsa, u aslida aldanadi. Chunki uning mavjudligi ham Allohning irodasiga bog‘liq. Insonning “men”i vaqtinchalik bo‘lib, fanoga mahkumdir. Shu sababli, insonning maqsadi o‘zini foniy deb tan olib, Haqqa yuzlanishdir.

Xorazmiyning falsafiy qarashlari ko‘pincha vahdat ul-vujud (borliqning birligi) ta’limoti bilan uyg‘unlashadi. Ibn Arabiyning bu boradagi g‘oyalari Markaziy Osiyodagi tasavvuf maktablariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan edi. Alloma ham borliqdagi barcha narsani yagona Haqning tajalliylari sifatida ko‘radi.

Barcha soliklar tavhid dengizida, xoh u shuhudiy bo‘lsin, xoh vujudiy, halokdurlar va hammasi mahvu mustagraq bo‘lgandirlar, faqat bittasinigina zamonning biror asri va qarnida sohilga tashlaydilar va ahadiyat (vahdat) daryosining sirlarini biluvchiga aylantiradilar. To shu yergacha tavhid bo‘lib, Ilohiy tajalliyot yuz bermagan bo‘ladi va ruh hamda nafs sayrida u bilan birga bo‘ladi, sulukning holatlari va atvorlarida u bilan yonma-yon bo‘ladi[111].

Ammo uning qarashlari Ibn Arabiynikidan biroz farqlanadi. Ibn Arabiy ko‘proq metafizik yo‘nalishda “borliqning birligi”ni izohlasa, Alloma uni Qur’on va hadis asosida, shar’iy mezonlarga tayanib tushuntiradi. Unga ko‘ra, inson Haqdan boshqa mustaqil mavjudot deb qaralsa, bu shirk hisoblanadi. Shu bois, mavjudotning barchasi foniy, yagona boqiy Haqdir. Alloma falsafasida aql va qalb uyg‘unligi markaziy o‘rinda turadi. Aql – ilm va tafakkur vositasi, qalb esa nur va mushohada manbaidir. Aql insonni ilm ul-yaqin darajasiga olib boradi, qalb esa ayn ul-yaqin va haqq ul-yaqin darajalariga eltadi.

Muallifning fikricha, inson faqat aqlga tayanib qolsa, haqiqatga to‘liq erisha olmaydi. Chunki aql chegaralangan, qalb esa bevosita Haqning tajalliylariga ochiqdir. Shu bois, tasavvufiy komillik aql va qalbning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. “Miftohul-asror”da ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin va haqq ul-yaqin tushunchalari falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilinadi:

---

[111] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 34.

Ilm ul-yaqin – bilim va dalillar orqali haqiqatni bilish. Bu daraja aql va tafakkurga taalluqlidir;

Ayn ul-yaqin – qalb koʻzi bilan haqiqatni koʻrish. Bu darajada inson oʻz tajribasida ilohiy nurdan bahramand boʻladi;

Haqq ul-yaqin – haqiqatning oʻzini qalban his qilish, tajalliy orqali Alloh bilan "birlik" holatiga yaqinlashish.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning ta'kidlashicha, insonning haqiqiy maqsadi – haqq ul-yaqin darajasiga yetishishdir. Bu bosqichda solik nafaqat ilmda, balki butun borligʻida Allohning tajalliylarini his qiladi.Fano – insonning oʻz "men"ini yoʻqotib, Haqqa qoʻshilishi, baqo esa Haq bilan yashash darajasi. Alloma bu tushunchalarni ham Qur'on va hadis asosida izohlaydi. Unga koʻra, inson oʻz nafsini yoʻqotib, Haqqa yaqinlashmasa, haqiqiy komillikka erisha olmaydi.

Haq rizosi talabida riyozatga bel bogʻlab, sayru suluk yoʻlini ixtiyor qilgan inson (bu inson, albatta, moʻmin boʻlishi bilan bir komil ustoza murid, shogird boʻlmogʻi shart) oʻz nafsini tarbiyalashga harakat qiladi. "Nafsni tarbiya qilmoqning juda koʻp usullari bor, - deb yozadi prof. Mahmud As'ad Joʻshun "Nafs tarbiyasi" kitobida, - bu avvalo kam gapirish, kam yeb-ichish va kam uxlash bilan boʻladi. Tasavvuf ilm istilohida bu "'killat kalom", "killat taom" va "killat manom" deb nomlanadi. Murid mana shu uch narsaga riyoya qilsa, oʻz nafsini koʻniktira olsa va boʻysundira olsa, uning shahvati va orzu-havasga xaris boʻlgan nafsining kuchi qirgʻiladi. Endi nafs aqlga va ruhga zoʻravonlik qilolmaydi. Bu esa oʻz-oʻzidan ruhning kamol topishi, qalbning nurlanishi uchun zamin tayyor boʻlganligiga dalolat qiladi. Ibodatlar va zikrlar uchun muridda kuchli ishtiyoq paydo boʻladi. U oʻz ibodat va zikr uftaseblarini ado qilishga kirishar ekan, hech qanday ogʻirlik his qilmaydi. Demak, bundan ma'lum boʻladiki, odam bolasi uchun eng katta toʻsiq boshqalar emas, balki uning ichidagi oʻz nafsi ekan.[112]

Tasavvufiy manbalarda nafsning bir necha martabalari borligi aytiladi. Bulardan nafsi ammora - oʻz sohibiga faqat bema'ni orzu havaslarni, gunoh ishlarini

---

[112] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: "ЗАР ҚАЛАМ" нашриёти, 2003. – Б. 39-40.

qilishga undovchi nafs; nafsi lavvoma - ammoralikdan qutulib bir oz tarbiyalangan, ammo tarbiyasi chala, yarim qolgani uchun ham ammoralikka tez qaytishi mumkin bo‘lgan, shu bilan birga o‘z egasini “nega bu yomonlikni qildim-a?” deb afsus-nadomat qildiradigan nafs. Bu maqomda inson pok nafsi qullikda asir, goh aql, qalb va ruhning pokligi g‘amida bo‘ladi. Keyin esa nafsi mutmainna (xotirjam nafs), nafsi roziya, nafsi marziya kabi nafs martabalari keladi. Odina Eshon ham solik, ya’ni Haq rizosini ko‘zlagan sodiq murid bir maqomdan ikkinchi maqomga holga o‘tganda “Kecha go‘r boshida gorát qildim” deya aytmoqda, deya yuqoridagi baytni sharhlagan.

Inson tabiatidagi taqozoning asli shuki, odam idrok va aql chegarasiga yetgach, o‘zining foyda va zararini bila boshlaydi, yaxshi va yomonni farq qila boshlaydi. Endi u sarvarlik va ulug‘likka yetishish uchun ruju qiladi, jumladan, badanini tarbiya qilish bilan mashg‘ul bo‘ladi[113], nafs va shahvat tomon beriladi, hoyu havas payida bo‘ladi. Va bu adashuv yo‘li bo‘lib, odamlarni zalolat yo‘liga tortadi va asl maqsadidan uzoqlashtiradi. Qalb bu narsalarning barchasidan qochmasa va ehtiyot bo‘lmasa, to‘liq va tugal Haq subhonahu ishiga kirishmasa, o‘limga va Qiyomat kuniga tayyor bo‘lmasa, dil tavbasi durust bo‘lmaydi, qalb islohga va poklikka yuz tutmaydi. Agar dil gunohlardan va yoqimsiz narsalardan pok bo‘lmas ekan, boshqa a’zolar ham ma’siyatlardan va harom narsalardan salomat qolmaydi. Xadisda aytiladi: «Albatta, odam farzandining gavdasida bir parcha go‘sht bor, agar u sog‘lom bo‘lsa, u bilan gavdaning boshqa a’zolari ham sog‘lom bo‘ladi, agar u buzilsa, u bilan boshqa a’zolar ham buziladi, ogoh bo‘lginki, u qalbdir»[114].

Fano solikning eng oliy maqomi bo‘lsa, baqo – uning davomiy natijasidir. Fanoda inson o‘zini unutadi, baqoda esa Haqni doimiy his qiladi. Bu jarayon tasavvufiy hayotning yakuniy maqsadi sifatida talqin qilinadi. Alloma falsafasida zohir va botin uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Zohiriy amallar – shariat qoidalari, ibodatlar va rasm-rusumlar insonni botiniy poklanishga tayyorlaydi. Ammo haqiqiy

---

[113] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 12 а

[114] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 18.

qiymat botindadir. Insonning ixlosi, niyati va qalbining tozaligi uning amallaridan ham muhimroqdir.

U hadisga tayanib yozadi: ***“Alloh sizlarning suratlaringizga emas, qalblaringiz va niyatlaringizga qaraydi”***. Demak, zohiriy amal va botiniy ixlos uyg‘un bo‘lsa, haqiqiy komillik yuzaga keladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy ta’limotida axloqiy tarbiya markaziy o‘rinda turadi. “Miftohul-asror”da solikning kamolot sari yo‘lida zarur bo‘lgan asosiy fazilatlar – sabr, shukr, tavozu, halollik, rizo va adolat keng sharhlanadi. Bu fazilatlar nafaqat shaxsiy poklik, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda ham muhimdir.

Alloma tasavvufiy axloqni Qur’on va hadis asosida mustahkamlab beradi. Masalan, Qur’onda: **“Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”** (Baqara, 153), **“Agar shukr qilsangiz, ne’matni ziyoda qilaman”** (Ibrohim, 7) kabi oyatlar asosida sabr va shukrning ilohiy qadriyat ekanini ta’kidlaydi.

Sabr va shukr – Alloma axloqiy ta’limotining ikki asosiy tayanchidir. Sabr – solikni sinov va mashaqqatlardan o‘tkazib, uning ruhini mustahkamlaydi. Shukr esa insonni Alloh ne’matlariga e’tiborli va minnatdor bo‘lishga o‘rgatadi.

Xorazmiyning ta’kidlashicha, sabr bilan qurollangan solik nafsiy hirs va shahvatlarga berilmaydi, shukr bilan yashagan inson esa doimiy ravishda qalbini nur bilan boyitadi. Demak, sabr – mashaqqatga chidash, shukr esa ne’matdan bahramand bo‘lish san’atidir.“Miftohul-asror”da tavozu va kamtarlik insonni kibr va g‘ururdan asraydigan eng muhim axloqiy sifat sifatida talqin qilinadi. Hadisda aytilganidek: **“Kim Alloh uchun o‘zini past tutsa, Alloh uni yuksaltiradi”**. Alloma ham tavozu va sabrni inson qalbini yengillikka eltuvchi nur deb ta’riflaydi.

Nomusavvar yo musavvar peshi o‘st,

K-o‘ hama mag‘zest berun shud zi po‘st.

Gar tu ko‘ry, nest bar a’mo haraj,

V-arna rav k-assabru miftox, ul-faraj.

(Nomusavvar yo musavvar desa, U po‘stidan chiqqan mag‘izdir. Agar sen ko‘r bo‘lsang, ko‘r uchun ayb emas, Ko‘r bo‘lmasang, «sabr-shodlik kaliti».)[115]

Pardahoyi didaro doruyi sabr,

Xam bisuzad, ham bisozad sharhi sadr.

Oynay dil chun shavad sofiyu pok,

Naqshho biny burun az obu xok. [116]

(Ko‘zning pardalariga sabr doridir, Xam kuydiradi, ham tuzatadi, dilni kengaytiradi. Dil oynasi sof va pok bo‘lgach, Suvu tuproqdan o‘zga naqshlarni ko‘rasan.)

Kamtarlik solikni odamlar orasida mehribon, sadoqatli va foydali qiladi. Unga ko‘ra, haqiqiy orif o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymaydi, balki har bir insonni Allohning bandasi sifatida qadrlaydi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy axloqda halollik va adolatni jamiyat hayotining poydevori sifatida ko‘radi. U Qur’ondagi: **“Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni egalariga topshirishni va odamlar o‘rtasida adolat bilan hukm qilishingizni buyuradi”** (Niso, 58) oyatini sharhlab, adolatli jamiyatning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

[115] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 249.
[116] Ўша асар, 250 б-бет

Halollik solikning shaxsiy fazilati bo‘lsa, adolat uning ijtimoiy mas’uliyati sifatida qaraladi. Bu g‘oya orqali Alloma tasavvufiy ta’limotni faqat ruhiy-mistik yo‘l sifatida emas, balki jamiyat hayotiga ham bevosita daxldor qilgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy falsafasida “komil inson” tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Unga ko‘ra, komillik – bu ilm, axloq va ruhiy poklik uyg‘unligidir. Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlaridagi muazzam bir ruhiy hushchaqchaqlik, sevgi-muxabbat mavzusi uzoq asrlardan beri kishilarni to‘lqinlantirib keladi[117].

Komil inson quyidagi sifatlar bilan tavsiflanadi:

Ixlos – ibodat va amalni faqat Alloh rizosi uchun bajarish;

Adolat – jamiyat hayotida haqqoniylikni ta’minlash;

Mehr-shafqat – odamlarning dardiga sherik bo‘lish;

Sabr va shukr – sinovlarga bardosh berish va ne’matni qadrlash;

Ilmga chanqoqlik – qalbni ilohiy bilim bilan to‘ldirish.

Alloma nazarida, komil inson jamiyatda ruhiy yetakchi, nur sohibi bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham qalbini poklashga sababchi bo‘ladi. Alloma tasavvufiy ta’limotida shaxsiy axloqiy fazilatlar jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq. Uning fikricha, agar inson o‘zini poklasa, jamiyat ham poklanadi; agar inson adolatli bo‘lsa, jamiyatda ham adolat qaror topadi. Shu bois “Miftohul-asror” faqat individual ruhiy sayohat emas, balki ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni ham targ‘ib qiladi.

U “taklid ahli” – ya’ni tashqi amallarga berilib, ichki poklikdan yiroq bo‘lgan insonlarni tanqid qiladi. Uningcha, jamiyatning haqiqiy tayanchi – ixlosli, halol va komil insonlardir.

Xorazm qadimdan tasavvufiy tafakkurning yirik markazlaridan biri bo‘lgan. Ayniqsa, Najmiddin Kubro (1145–1221) asos solgan Kubraviylik tariqati bu hududda chuqur ildiz otgan. Kubraviylikning asosiy g‘oyalari – qalbni poklash, ilohiy

[117] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 28.

tajalliylarni idrok etish, muridni bosqichma-bosqich kamolot sari yetaklash edi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ijodi ham ana shu muhitda shakllandi.

Ammo u o‘z asarlarida faqat bir tariqatning qoidalariga tayanib qolmadi, balki turli tasavvufiy maktablarning g‘oyalarini uyg‘unlashtirib, ularni xalq ongiga yaqinlashtirdi. Shu bois u Xorazm tasavvuf maktabining o‘ziga xos ko‘rinishini yaratgan mutasavvif sifatida qadrlanadi. Xorazmiyning qarashlari ko‘p jihatdan Najmiddin Kubroning ta’limoti bilan bog‘liq. Kubro “qalb ko‘zi”ni ochish, solikning ichki dunyosini poklash, ilohiy tajalliylarni mushohada qilish zarurligini uqtirgan. Alloma ham qalbni insonning eng muhim markazi deb biladi va uning poklanishi tasavvufiy sayrning bosh mezoni ekanini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, Alloma o‘z asarida Kubro ta’limotini keng xalq ommasiga tushunarli tarzda bayon qiladi. Agar Kubro ko‘proq murshid va muridlar doirasida ilm tarqatgan bo‘lsa, Alloma xalqona tilda yozib, tasavvufni keng qatlamlarga yoyishga harakat qilgan.

Ibn Arabiyning (1165–1240) “vahdat ul-vujud” ta’limoti musulmon dunyosining barcha tasavvuf maktablariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Alloma ham o‘z asarida bu g‘oyani keng sharhlab beradi. Uning qarashlarida Ibn Arabiyning “mavjudotning yagona manbai – Haq” degan fikri yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Biroq Xorazmiy Ibn Arabiydan farqli o‘laroq, bu g‘oyani Qur’on va hadis asosida oddiy xalq ongiga moslashtirib izohlaydi. U tasavvufiy metafizikani nazariy murakkabliklardan xoli qilib, sodda va amaliy shaklda talqin etadi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Rumiy “Masnaviy”ini chuqur o‘rgangan va unga sharh yozgan eng yirik mutasavviflardandir. Rumiy asarlarida ishq, sabr, tavozu va komillikka intilish kabi g‘oyalar ramziy hikoyatlar orqali ifodalangan bo‘lsa, Alloma ularni Qur’on va hadis asosida sharhlaydi. Shu bilan birga, u Rumiy qarashlarini shar’iy asoslar bilan mustahkamlab, xalq orasida keng yoyilishiga sababchi bo‘lgan.

Shayx Odina Muhammad tasavvufiy ta’limning mukammalini SHamsTabriziy bilan uchrashuvda oladi va Mavlononing yo‘lini, hayotini butun o‘zgartirdi. Mavlono manmanlik devorini parcha-parcha qildi, kuydi, dunyoga sigmas

bir ishq va iymon ummoni holida mavj urib o‘qishni boshladi. Uning bu holini tushunmagan yuzlari tanimagan, bilmagan bir begona darvishdan ko‘ra Mavlonoga yaqinliklarini iddao qilgan talabchi ilmlar “ustozimizni bizdan ayirdi” deb SHamsga “o‘ldiramiz” deb tahdid qilishgan [118]. Bu so‘zlardan ranjigan SHamsi Tabriziy vaqtinchalik Kunyadan ketgan. So‘ng talabalarning uzr so‘rab, qaytishini iltimos qilishganida, qaytib kelgan. Ammo bu fitna qayta kuzgab, uni bezor qilgach, ortga chidam olmagan va bir umrga g‘oyib bo‘lgan (va yoki o‘ldirilgan).[119]

Demak, Alloma tasavvuf tarixida Rumiy merosining Markaziy Osiyodagi eng asosiy sharhlovchilaridan biri sifatida katta o‘rin egallaydi. 1207–1273 yillar mobaynida yashagan Mavlono ahli sunnat va-l-jamoat aqidasini va islom ilmlarini mukammal bilgan bir islom olimi edi. Shuningdek, u yunon tili va yunon falsafasini ham juda yaxshi bilgan, ammo bu madaniyat ta’siriga tushmagan. Mavlono, tan olish kerakki, Qur’on ta’limotini falsafadan yuqori tutgan. Bunga uning quyidagi so‘zlari ham dalildir: «Falsafa beradigan inkorni ko‘nglimdan surdim, ko‘nglimga faqat Haq kalomiga yo‘l berdim; ko‘zimni esa Yusuf (a.s.)ga doir shakllarga tikdim»[120].Bu an’anaviy tasavvufiy qarashlar, fikrlar, bir tomondan, Mavlonning bir komil inson bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida o‘zining mustaqil o‘rniga ega. U:

Najmiddin Kubro maktabining “qalbni poklash” g‘oyasini davom ettirgan;

Ibn Arabiy ta’limotini shar’iy asoslar bilan uyg‘unlashtirgan;

Jaloliddin Rumiy merosini xalq ongiga yaqinlashtirgan;

Axloqiy ta’limot orqali tasavvufni jamiyat hayotiga bog‘lagan.

Shu jihatlari bilan Alloma Markaziy Osiyo tasavvuf maktabida turli oqimlarni birlashtiruvchi, ularni sodda va tushunarli shaklda talqin qilgan mutasavvif sifatida tarixda qolgan. Bugungi kunda ham Alloma asarlari ma’naviy tarbiya, ruhiy

---

[118] Бедиуссаман Фурусанфер …., С. 88.
[119] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 37.
[120] Мевлана, Диван.и Кебир. С.И, б.227.

uyg‘onish va axloqiy qadriyatlarni tiklashda katta ahamiyat kasb etadi. “Miftohul-asror”da ilgari surilgan g‘oyalar – sabr, shukr, tavozu, adolat, mehr-shafqat va komillik – hozirgi jamiyat uchun ham dolzarbdir. Shu sababli, u tasavvuf tarixidagi o‘rni bilan birga, bugungi ma’naviy hayotimizda ham beqiyos qadriyat manbai bo‘lib qolmoqda.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy XVIII asrda yashab ijod qilgan bo‘lsa-da, uning tasavvufiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U o‘z davrining siyosiy va ijtimoiy beqarorligida xalq qalbiga taskin beruvchi, jamiyatni ma’naviy uyg‘onishga chorlovchi mutasavvif sifatida namoyon bo‘lgan. Uning “Miftohul-asror” asari tasavvuf adabiyotining yorqin namunasi bo‘lib, unda Rumiy “Masnaviy”ining murakkab ramzlari Qur’on va hadis asosida sodda va xalqona tilda sharhlangan.

Alloma ta’limotida bir nechta asosiy jihatlar alohida ajralib turadi:

1. Tasavvufiy maqomlar sharhi – tavba, sabr, shukr, tavozu, rizo va fano bosqichlari solikning qalbiy yuksalish yo‘lida zaruriy qadamlar sifatida talqin etiladi.
2. Borliq va yo‘qlik falsafasi – mutlaq mavjudlik faqat Allohga xos ekani, inson va koinot foniy ekanligi asoslab beriladi.
3. Vahdat ul-vujud g‘oyasi – mavjudotning barchasi yagona Haqning tajalliylari sifatida izohlanadi, bu qarash Qur’on va hadis asosida sodda shaklda sharhlanadi.
4. Komil inson konsepsiyasi – sabr, shukr, adolat, mehr-shafqat, ilmga chanqoqlik kabi sifatlarni mujassam etgan inson jamiyatning tayanchi sifatida talqin qilinadi.
5. Zohir va botin uyg‘unligi – tashqi ibodatlar va ichki ixlos birligi tasavvufiy hayotning asosi sifatida ko‘rsatilib, insonning niyati amaldan ustun qo‘yiladi.

Shayx Odina Muhammad maqomat va olam masalasida “Sharhi kalimoti ba’zi ahli suluk ” risoladagi birinchi sharh “Masnaviy”dagi quyidagi baytga bag‘ishlangan:

Day bar sarī zillay gur g‘orat kardam.

***(Kecha go‘r boshida g‘orat qildim.)***[121]

Bu so‘z solik bir maqomdan boshqa maqomga etganda, istilohda “Maqom, martaba” kalimalari bu yo‘lning tolibi hol martabasini topganidan keyin, asta-sekin komillikka qadam qo‘yganda ishlatiladigan so‘zlardir. “Hol ahli” degan ibora ham mana shunday paydo bo‘lgan. Ba’zan hol ahli va ma’no ahli iboralari bir xil ma’noda qo‘llaniladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy martaba haqida, Sulukning ibtidosidan to shu yergacha solik Uchun nimaiki ruy bersa, bularning xammasi ismlardan, sifatlardan, rububiyat va uluxiyyat Zotidan yetgan tajalliyot buladi. Endi esa, bundan keyingi martaba xakida, chunonchi, «boz bargirad ba izzat nogaxat» (nogaxon yana izzatta yetkazadi) deydilar. Shunday kilib, bu xijron vodiysining solikini yuzlab lutfu exson bilan chakiradilar va Janobi azza va jallaga yakin kuladu kuds kushnisi kiladilar va sidk joyiga utkazadilar. orzu kilgandan buyukrok narsani berib, ismlar va sifatlardan iborat bulgan Zoti pok kashfini unga arzon tutadilar. «Mantik ut-tayr»da shunga ishora kilinadi[122]:

Xazrate dadand be vasfi sifat,

Bartar az idroxi aklu ma’rifat.

(Sifat vasfiga ega bulmagan Xazratni kurdilar,

U akl va ma’rifat idrokidan yukori edi)

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida Najmiddin Kubroning qalbni poklash haqidagi ta’limoti, Ibn Arabiyning vahdat ul-vujud nazariyasi va Jaloliddin Rumiyning ishq falsafasini uyg‘unlashtirgan mutafakkir sifatida alohida

---

[121] Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 39.

[122] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 100.

o‘rin tutadi. Shu bilan birga, u bu g‘oyalarni xalq ongiga yaqin, sodda va shar’iy asosda bayon qilib, tasavvufni keng qatlamlarga yoyishga muvaffaq bo‘lgan.

Bugungi davrda uning asarlari, xususan, “Miftohul-asror” yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda, jamiyatni ruhiy uyg‘otishda, axloqiy qadriyatlarni tiklashda beqiyos manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Tasavvufiy merosni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirish jarayonida Alloma qarashlari insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat va komillikka da’vat etuvchi o‘ziga xos maktabdir.

Umuman olganda, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafaqat “Masnaviy” sharhlovchisi, balki Markaziy Osiyo tasavvuf falsafasini yangi bosqichga olib chiqqan, uni xalq ruhiyatiga yaqinlashtirgan buyuk mutasavvifdir. Uning tasavvuf ta’limotidagi o‘rni bugungi ma’naviy hayotimiz uchun ham dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda,

-Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida Najmiddin Kubroning qalbni poklash haqidagi ta’limoti, Ibn Arabiyning vahdat ul-vujud nazariyasi va Jaloliddin Rumiyning ishq falsafasini uyg’unlashtirgan mutafakkir sifatida alohida o’rin tutadi. Shu bilan birga, u bu g’oyalarni xalq ongiga yaqin, sodda va shar’iy asosda bayon qilib, tasavvufni keng qatlamlarga yoyishga muvaffaq bo’lgan;

-bugungi davrda uning asarlari, xususan, “Miftohul-asror” yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda, jamiyatni ruhiy uyg’otishda, axloqiy qadriyatlarni tiklashda beqiyos manba bo’lib xizmat qilmoqda. Tasavvufiy merosni zamonaviy hayot bilan uyg’unlashtirish jarayonida Alloma qarashlari insonparvarlik, bag’rikenglik, adolat va komillikka da’vat etuvchi o’ziga xos maktabdir.

-Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafaqat “Masnaviy” sharhlovchisi, balki Markaziy Osiyo tasavvuf falsafasini yangi bosqichga olib chiqqan, uni xalq ruhiyatiga yaqinlashtirgan buyuk mutasavvifdir.

## 2.2. “Miftoh ul – asror” (“Sirlar kaliti”) asarining tasavvufiy- falsafiy mohiyati

O‘rta asrlarda tarixan “Movarounnahr” nomi bilan atalgan O‘zbekistonda Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” asariga ilk sharh muallifi bo‘lgan allomaning vatani hisoblanadi. Doktor Muhammad Iste’lomiyning “Masnaviy ma’naviy”ga yozgan “Muqaddima” asarida “Masnaviy”ning ilk tafsiri hijriy IX (XV asr) boshlarida Xorazmda Mavlono Kamoliddin Husayn Xorazmiy qalamiga mansub “Javohir ul-asror” nomli yozilganligi aytiladi. Keyinchalik “Masnaviy ma’naviy”ga qiziqish kuchayib, so‘fiylik va ilmning bu ko‘zga ko‘ringan o‘chog‘ida “Masnaviyxonlik” kechalari izchil tashkil etila boshlandi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qalamiga mansub “Miftoh ul-asror” nomli qo‘shimcha tafsirning aniqlanishi bu mintaqa aholisining, xususan, mamlakatimiz allomalarining “Masnaviy ma’naviy”ga bo‘lgan hayrat va mehrini yanada ko‘rsatadi.

Hijriy XVII - asrda Xorazmda yashagan shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘zining fors tilidagi “Sharhi kalomoti ba’zi ahli suluk”, “Risolai Odina Eshon”, “Mir’ot ul-obidinuti” va boshqa asarlari orqali muhim ilmiy meros qoldirgan. Shuningdek, “Miftoh, ul-asror”da “Masnaviy ma’naviy”ning uch jildiga tasavvufiy sharh bergan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 7143-raqam bilan kataloglangan Mulla Abdusalom Xonaqohiy tomonidan fors tilida yozilgan “Miftoh ul-asror”ning yagona qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda.

Odina Eshonning yozishicha, uni sharhlashga undagan narsa, birinchidan, «Masnaviy»ning eng nozik joylarini hech kim mukammal sharhlab berolmagani

bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zidan avvalgi sharhlovchilar sharhlarni juda cho‘zib yuborganliklari, natijada o‘quvchini asosiy maqsaddan chalg‘itib yuborganlik-laridir. Odina Eshon baytlarni sodda va lo‘nda sharh qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Odina Eshon «Miftoh ul-asror» («Sirlar kaliti») deb atagan bu kitobida «Masnaviy»ning dastlabki uch kitobini sharhlagan.[123]

Shayx Odina Eshonning “Miftoh ul-asror” asarida “Masnaviy” tarjimalariga oid keyingi dalillar keltiriladi. “Masnaviy” turli tillarga bir necha marta tarjima qilingan. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi:

“Masnaviy” tarjimasi turkchasi, Istanbulda nashr etilgan. Muallifi Obiddin Posho nasriy tarjima muallifidir;

2. “Masnaviy” tarjimasi. Forscha matn bilan birga turkiy nasriy tarjima. Tarjimonlar Nahifi va Farruh Ismoil. 1851 yilda Misrda chop etib chiqarilgan;

3. Afzal she’riy tarjima bilan “Masnaviy”. Tarjimon Muhammad Sulaymon ibn Abdurahmon. Turkiy tilde keng tarqalgan hisoblanadi;

4. O‘zbekcha tarjima. Ushbu tarjimani taniqli shoir va mohir tarjimon, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ijro etgan. Jamol Kamol 2001-2004 yillarda Toshkentda nashr etilgan "Masnaviy"ning olti jildining hammasini she'rga aylantirdi. "Masnaviy"ning o‘zbek tiliga dastlabki tarjimasi O‘zbekiston ma'naviy merosida muhim yutuq bo‘ldi. J. Kamolning ushbu tarjimasi eronlik olim Muhammad Iste’lomiyning tanqidiy matni va ingliz akademiki R. Nikelson tuzgan variantidan olingan;

5. Qo‘shimcha tarjima. Ushbu tarjima shoir Asqar Mahkamga tegishli. U turk olimi Mavlaviy Obiddin Poshoning sharhidan foydalangan holda she’rlarni nazmga aylantirgan. Bu tarjima va mulohazalar “Masnaviy”ning birinchi kitobining dastlabki qisminigina tashkil etadi. Asqar Mahkam salmoqli ishlarni amalga oshirdi va biz tarjimani davom ettirishni kutamiz.

Shayx Odina Eshonnning “Miftoh ul-asror” tasavvufiy-irfoniy merosga oid asar bo‘lib, unda insonning ruhiy kamolot sari qiladigan sayri va suluki (ruhiy yo‘li)

[123] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 6.

keng sharhlangan bo‘lib, asarda nafsni tiyish, qalbni poklash, ilohiy muhabbat va ma’rifatga erishish yo‘llari bayon qilingan hamda ustoz-shogird an’analari, tariqat odoblari va Haqqa yetaklovchi ruhiy bosqichlar (maqomat) izchil izohlanadi. Asarda tasavvufiy mohiyat sifati uch asosda ochib berilgan:

Birinchidan, Nafs va qalbni tarbiyalash va tartibga solish. Asarda insonning eng katta dushmani - nafs ekanligi uqtiriladi. Nafsga qarama qarshi vijdon fenomeni qo‘yiladi. Qalbni poklash orqali inson ruhiy yuksalishga erishadi. Ruhiy yuksak ison Haq ila baqo inson sifatida tasvirlanadi. Inson ichki kurashi (nafs ustidan g‘alaba) asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Alloma “Miftoh ul-asror” asarida shunday misollar bilan misol keltiradi: “Inson tabiatidagi taqozoning asli shuki, odam idrok va aql chegarasiga yetgach, o‘zining foyda va zararini bila boshlaydi, yaxshi va yomonni farq qila boshlaydi. Endi u sarvarlik va ulug‘likka yetishish uchun ruju qiladi, jumladan, badanini tarbiya qilish (12a) bilan mashg‘ul bo‘ladi, nafs va shahvat tomon beriladi, hoyu havas payida bo‘ladi[124]. Va bu adashuv yo‘li bo‘lib, odamlarni zalolat yo‘liga tortadi va asl maqsadidan uzoqlashtiradi. Qalb bu narsalarning barchasidan qochmasa va ehtiyot bo‘lmasa, to‘liq va tugal Haq subhonahu ishiga kirishmasa, o‘limga va Qiyomat kuniga tayyor bo‘lmasa, dil tavbasi durust bo‘lmaydi, qalb islohga va poklikka yuz tutmaydi. Agar dil gunohlardan va yoqimsiz narsalardan pok bo‘lmas ekan, boshqa a’zolar ham ma’siyatlardan va harom narsalardan salomat qolmaydi. Xadisda aytiladi: «Albatta, odam farzandining gavdasida bir parcha go‘sht bor, agar u sog‘lom bo‘lsa, u bilan gavdaning boshqa a’zolari ham sog‘lom bo‘ladi, agar u buzilsa, u bilan boshqa a’zolar ham buziladi, ogoh bo‘lginki, u qalbdir». Bandanning ibodati va zohiriy amallar qalbni va aqidani sog‘lom qilmasa, Alloh ta’olo qoshida e’tiborga loyiq emas, sohibiga esa samara bermaydi”[125];

Ikkinchidan, Ilohiy muhabbat. Alloma asarda ilohiy muhabbatni Allohga yaqinlashishning eng muhim kaliti sifatida talqin qilinadi. Ilohiyligi shundaki, butun borligini inson uning vasli yo‘lida deb tasavvur etadi. Insonning haqiqiy muhabbati

---

[124] Одина Эшон. “Мифтоҳ ул-асрор”. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 12 а.
[125] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 18-19.

uni “komil inson” darajasiga olib chiqadi va uni komillik sifatlari bilan boyitadi. Alloma “Miftoh ul-asror” asarida Ilohiy muhabbatga erishish va unga misol keltiradi: “muhabbat olovi bilan yondirish, qalbni Hazrati Ilohiyga qaratish, shahvoniy lazzatlar va jismoniy ne’matlardan yuz o‘girtirish, «mol qabrdagi ilon, obro‘ undan zararliroqdir» deyilgan dunyo va uning izzatidan qochish, rohatdan mehnat tomon yurish, izzatdan xorlikka yuz tutish mana bularning barchasi Alloh ta’olo va xalq uchun tavozu’ va kamtarlikda bo‘lishdir. Rasul sallallohu alayhi va sallam buning sharofati haqida shunday buyurdilar: Kim o‘zini past tutsa Allox ta’olo uni oliy jannatdan ham yuqori ko‘taradi, kim o‘zini katta olsa, Allox ta’olo uni asfal as-sofiliyndan ham pastlatadi”[126];

Uchunchidan, Barcha tasavvuf allomalarida uchragani kabi Shayx Odina Eshon Muhammad qarashlari va ta’limotlarida ham insonning aqlan va ruhan yetuklikka erishishining maqomat bosqichlari va ruhiy ahvollari haqida so‘z yuritiladi. Ruhiy sayrning bosqichlari - ***tavba, sabr, shukr, tavakkul, rizo*** kabi maqomlar alloma qarashlari va bizgacha yetib kelgan “Miftoh ul-asror” hamda boshqa asarlarida izchil yoritilgan. Ruhiy holatlar esa - ***mahabba, jazba, uns, fano va baqo*** tushunchalari “Miftoh ul-asror” asarida turli xil o‘rinlarda misollar bilan tushuntirib berilgan. Alloma “Miftoh ul-asror” asarida aqlan va ruhan yetuklikka erishishga - “Kuchli jiddu (16a) jahdni ilmni ziyoda qilishga baxshida qilib, dil sofligini va ruh pokligini hosil qildilar, tan temirini kuchli riyozat orqali sayqallaydilar” deb ta’rif bergan[127] ;

To‘rtinchidan, “Miftoh ul-asror” asarining falsafiy ahamiyati shundaki, inson va olam munosabat hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik dialektik jihatdan yoritib berilgan. Asarda inson “mikroolam”, koinot esa “makroolam” sifatida talqin etilgan bo‘lib, ular bir birisiz o‘zining mavjudlik mohiyatini yo‘qotishi to‘g‘risida ko‘plab fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan. Inson o‘zini anglaganida, Haqni anglaydi - bu g‘oya falsafiy jihatdan “ontologik birlik” tushunchasiga yaqin talqin sifatida bosh

---

[126] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 18.

[127] Одина Эшон. “Мифтоҳ ул-асрор”. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 16 а.

g‘oya sifatida ilgari surilgan. Alloma asarda insonga nisbatan ta’rif berib – “Gunohsiz bo‘lsayu, yosh bo‘lsa ham u shayxdir, Haqning qabulida qo‘ldagi kamon kabidir. Shayx agar mo‘ysafid (soqoli oq) bo‘lsa, Bu mo‘yning ma’nisini bil, ey noumid. Qora mo‘y uning o‘zligini bildiradi, O‘zligidan bir tola mo‘y ham qolmaligi kerak. Agar qora mo‘yli bo‘lsa yoxud ikki xil mo‘yli bo‘lsa, Agar uning o‘zligi qolmasa bu uning sayridir. Agar basharning ba’zi sifatlaridan qutilgan bo‘lsa, U shayx (pir) emas, balki qarigan kishidir, ey o‘g‘il. Agar oqmo‘y bo‘lsa-yu o‘zligi mavjud bo‘lsa, U pir ham emas, Allohning xos bandasi ham emas”[128] o‘tgan bo‘lsa, olam haqida - “Allohni mushohada qilib, o‘n sakkiz ming olam ularning nazarida oina kabi bo‘ladi va Ilohiy nur bilan sayqal topadi, qaysi narsaga qarasalar, Uni ko‘radilar, qaysi zarraga nazar tashlasalar, Haqni mushohada qiladilar.” deb olamning cheksizligi va uning alloh uchun naqadar kichik ekanligi va istalgan inson va zarrani bemalol kuzata olishini ta’riflaydi[129];

Beshinchidan, “Miftoh ul-asror” asarida insonni komillik sifatlari bilan bezash haqida hamda falsafiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki asarning mazmunan markazida komil inson g‘oyasi yotadi. Komil inson - nafsdan xalos bo‘lgan, qalban poklangan va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Komillik haqida – “Muttasil ne, munfasil ne on kamol, Balki bechunu chiguna z-e’telol. Tarjimasi: Bu komillik yopishib turuvchi ham emas, ajralib ketuvchi ham emas, Balki illatsiz va hech narsaga o‘xshamaydigandir. Sharhi: Uning belgilaridan bo‘lgan bu kamol tiriklik va shodmonlikdir, u yetishish va ajralishdan ozod bo‘lishga o‘xshash emas yoki uni biror narsaga o‘xshash yoxud adl va to‘g‘ri kabi narsalarga qiyos qilib bo‘lmaydi”[130];

Oltinchidan, “Miftoh ul-asror” asarida ilm va ma’rifat tushunchalari to‘g‘risida ham fikrlar bildirilgan bo‘lib, “Miftoh ul-asror”da ilm va ma’rifatning farqi izohlanadi: ilm - aqliy bilim bo‘lsa, ma’rifat - qalb ilmi, ichki idrokdir. Bu

---

[128] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 55.
[129] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 34.
[130] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 274.

jihatdan yondashuv asarning falsafiy mohiyatini yanada chuqurlashtiradi va mohiyat-mazmunini yanada oshiradi. Asarda – "… aql va dil fikrdan, ya'ni ilm va ma'rifatning jo'shga kelishidan xoliy va ozod bo'lgach, ilhomdan iborat bo'lgan yetuk rizqni topadi va harf hamda ovozdan xoliy bo'ladi. Me'da, aql va dil uni tasarruf qilolmaydi. Va bu maqomning sohibiga: «Ye Rab, Sen pokdursan, bizda hech ilm yo'kdur, fakat Sen ato qilgan miqdorda bordur, albatta, Sen buyuk ilm va hikmat sohibidursan» (Kur'on, 12/32) hukmining shukri va ishonchi hosil bo'ladi. Bu maqomga yetishishdan avval maqsad «muyassar qil yetishni kamoli ma'rifatingga»ga muvofiq bo'ladi"[131] mukammal sharhlangan ilm-ma'rifat;

Yettinchidan, "Miftoh ul-asror" asarning bugungi kundagi ahamiyati sifatida, Tasavvufshunoslikda – ruhiy sayr va nafs bilan kurash bosqichlarini tahlil etuvchi qo'llanma sifatida muhim bo'lsa, Falsafa ilmida – inson mohiyati, nafs va ruh, olam va inson birligi masalalarini chuqur falsafiy talqin etilganligi bilan ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. Ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan – yoshlarni poklik, sabr, muhabbat, halollik va ma'rifat yo'liga undovchi nazariy qo'llanma bo'lib hisoblanadi. Asarda keltirilishicha – "… nafsni o'z holiga tashlab qo'yilsa, u kufr sari ketadi. Har qanday tadbir bilan uni bu yo'ldan qaytarilsa, oxiri tan beradi, g'aflatta sabab bo'ladigan narsadan qaytarib qolinadi. Shu ma'noda Shayx Abu Sa'id Xazzoz, sirlari muqaddas bo'lsin, etik tikar va uni qayta yirtardi. Bu haqda so'raganlarida: «Nafs meni o'z yo'liga solmasdan avval men uni o'z yo'limga solaman» der ekanlar. Xuddi shu kabi azizlardan biri chuqur kavlar va uni yana tuproq bilan to'ldirar edilar va yuqoridagi javobni aytar edilar."[132]

Sakkizinchidan, "Miftoh ul-asror" asari tasavvuf falsafasida ruhiy kamolotning kaliti sifatida qaraladi. Unda nafsni jilovlash, qalbni poklash, ilohiy muhabbat orqali Haqqa yaqinlashuv g'oyalari markaziy o'rin egallaydi. Falsafiy nuqtai nazardan esa, asar komil inson konsepsiyasini shakllantirish, inson va olam

[131] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 263.
[132] Одина Эшон. "Мифтоҳ ул-асрор". ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 21 а.

birligini asoslash hamda ma’rifatni qalb ilmi sifatida sharhlashga qaratilganligi bilan muhim va ahamiyatli asar hisoblanadi.

Asarda keltirilishicha, Shayx Junayd Bag‘dodiydan, sirlari muqaddas bo‘lsin: “Tasavvuf nimadir?” deb so‘radilar. Ular: “Haqning seni o‘ldirishi va O‘zi uchun tiriltirishi“ deb javob berdilar. U o‘z holi haqida shunday xabar beradi: «Bandaning o‘z nafsidan kechishi, Alloh zikriga sho‘ng‘ishi, Uning haqlarini ado qilishi, qalbiga nazar qilishi, Xuviyyat nurlari bilan qalbini yoqishi, muhabbat kosasidan may ichishi, unga Jabborning g‘ayb pardalarini ochilishi, agar gapirsa, Alloh bilan gapirishi, agar so‘zlasa, Allohdan so‘zlashi, agar harakat qilsa, Alloh amri bilan harakat qilishi, agar to‘xtasa, Alloh bilan to‘xtashi, agar shunday bo‘lsa, bas u Alloh bilan, bas u Alloh uchun”[133] dir.

Odina Eshon «Masnaviy»ni sharhlashga kirishishdan avval o‘quvchini uni o‘qib tushunishga tayyorlaydi. Buning uchun u o‘z sharhiga Muqaddima yozib, unga olti fasldan iborat maqolalarni kiritadi. Mazkur fasllarda tasavvuf, uning asoslari, «Masnaviy»da tilga olinadigan istilohlar batafsil bayon qilinadi. Shundan so‘nggina sharhga o‘tiladi. «Miftoh ul-asror» garchi «Masnaviy»ning dastlabki uch jildining sharhi bo‘lsa-da, biroq bu jildlardagi hikoyatlar va she’rlar to‘lig‘icha keltirilmagan Odina Eshon sharhga muhtoj baytlarnigina sharhlaganini ko‘rish mumkin. Ba’zida uzun baytlar yoki to‘liq hikoyatlar keltirilsa-da, ularga hech qanday sharh berilmagan, faqat so‘z ketayotgan mavzuning ma’nosi chala bo‘lib qolmasligi uchun keltirilgan xolos. Ikkinchidan, sharhlanmagan baytlar, Odina Eshonning fikricha, tushunilishi oson baytlar deb hisoblangan bo‘lishi mumkin.[134]

Sharq ma’naviy merosi insoniyat tafakkuri taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, tasavvufiy tafakkur – islom falsafasining eng nozik, ruhiy-ma’naviy qatlamlarini o‘zida mujassam etgan soha sifatida qadrlanadi. Tasavvuf inson qalbini poklash, nafsni yengish, insonni ilohiy haqiqatga yetaklashga qaratilgan g‘oyalar

---

[133] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 76-77.
[134] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 7.

majmuasidir. Bu oqim Sharqda faqat diniy-ma’naviy hayot emas, balki falsafiy tafakkur, adabiyot, san’at, madaniyat va ijtimoiy ong rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Xususan, buyuk mutasavvif shoir Jaloliddin Rumiy (1207–1273) yaratgan “Masnaviy” asari Sharq falsafasi va tasavvufiy adabiyotining eng yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, asrlar davomida “Ma’naviyat Qur’oni” deb atalib kelmoqda. Bu asarga yozilgan sharhlar, izohlar va tafsirlar tasavvufiy tafakkurning turli davrlardagi talqinlarini o‘zida mujassam etgan. XV asrdan boshlab “Masnaviyxonlik” an’anasi Markaziy Osiyo, xususan, Xorazmda keng yoyilib, tasavvufiy hayotning ajralmas qismiga aylandi.

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” (Masnaviy ma’nolari, Ma’nolar durdonasi) Rumiy ijodi cho‘qqisini ko‘rsatuvchi 25730 misradan iborat qimmatli tasavvuf-romantik, irfoniy asardir.[135]

Shuday ilhomlanish jarayonlarda yuzaga kelgan yirik ilmiy-falsafiy asarlardan biri Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Miftohul-asror” (Sirlar kaliti) asaridir. Ushbu asar Rumiy “Masnaviy”ining dastlabki uch daftari sharhi sifatida yaratilgan bo‘lib, unda ilohiy haqiqatni anglash, tasavvufiy maqomlar, axloqiy komillik masalalari o‘ziga xos uslubda talqin etiladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftohul-asror”da nafaqat matnni sharhlaydi, balki o‘zining tasavvufiy tajribalarini ham kiritadi. Uning fikricha, har bir solik o‘z qalbini poklab, nafsni jilovlab, ilohiy nurga yetishmog‘i lozim. Bu jarayonda ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin va haqq ul-yaqin darajalari asosiy bosqich sifatida izohlanadi. Shuningdek, asarda Qur’on oyatlari, hadislar va mashhur mutasavviflarning hikmatlari keng keltiriladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy XVIII asrda Xorazm hududida yashab, tasavvufiy-ilmiy an’analarni davom ettirgan mutasavvif sifatida tanilgan. Bu davr Markaziy Osiyo tarixida siyosiy parokandalik, ichki nizolar bilan bir qatorda, ma’naviy hayotning ham qizg‘in kechgan davri edi. Xorazm o‘sha paytda tasavvufiy

---

[135] Жалолиддин, Румий. Маснавийи маънавий /Форсийдан таржимаси Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол. – Т.: “Мериюс” ХҚМК, 2010. -Б. 846.

markazlardan biri bo'lib, ko'plab mashoyix, ulamo va oriflar shu yerda yashab ijod qildilar. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, insonning haqiqiy maqsadi – Allohga yaqinlashish, Uning nuridan bahramand bo'lishdir. Bu yo'l esa nafsni tiyish, qalbni poklash va shariatga to'liq amal qilish orqali amalga oshadi. U o'z asarlarida "ilm ul-yaqin", "ayn ul-yaqin", "haqq ul-yaqin" tushunchalarini sharhlab, bu darajalar orqali solikning ruhiy yuksalishini tasvirlaydi.

Odina Muhammad Xorazmiy "Masnaviy"ini tarjima va sharhlash jarayonida: bilginki, bu kitobga "Miftoh ul-asror" deb nom qo'yildi. Sharhlashga kirishuvdan avval unga bir muqaddima berildiki, unda kitob ma'nosining qisqa bayoni keltirildi va usulning binosi va eshiklari ayon qilindi. Toki bu muqaddimaning yordami bilan maqsadlar va ma'nolar unga nazarini soluvchilar va mutolaa qiluvchilarga oson bo'lgay, maqomot va darajotlardan voqif bo'lmoq va to'g'ri yo'ldan yurmoq muyassar bo'lgay. [136] Va bu muqaddima olti faslga bo'lindi:

Birinchi fasl - ushbu kitob muallifining boshlang'ich holi bayonida;

Ikkinchi fasl ilm ul-yaqin va jazba hamda tajalliyotning boshlanishi bayonida;

Uchinchi fasl - ayn ul-yaqinning ta'yini va unga ahl bo'lganlarning tahqiqi bayonida;

To'rtinchi fasl haqq ul-yaqinning martabasi va soliklar darajasining nihoyati bayonida;

Beshinchi fasl - taqlid ahlining zikri hamda ular bilan bo'ladigan suhbatning zararlari bayonida;

Oltinchi fasl kamol ahlining sifati va Ilohiy xos (banda)larning Alloh ta'ologa yetishish yo'lining bayonida.[137]

Odina Muhammad Xorazmiyning ta'kidicha, Rumiy "Masnaviy"ining eng nozik baytlarini hech kim mukammal sharhlab bera olmagan. Ba'zi sharhlovchilar

[136] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 10.
[137] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 6 а.

esa ma'noni cho'zib, o'quvchini asosiy maqsaddan chalg'itib yuborgan. Shuning uchun Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o'z oldiga baytlarni sodda, lo'nda va tushunarli tarzda izohlashni maqsad qilib qo'ygan. Uning "Miftohul-asror" deb nomlashi ham bejiz emas: bu asar solik qalbini ochadigan, uni haqiqiy ma'rifatga yetaklaydigan "sirlar kaliti" sifatida talqin etiladi.

Asarning tasavvufiy g'oyalarining yoritilishi ham o'ziga xos uslubdan foydalanilgan:

Qalbni poklash va nafsni jilovlash g'oyasi: - Asarda inson qalbining tozaligi va nafsning jilovi komillikka eltuvchi asosiy omil sifatida yoritiladi. Nafsning hirs, g'azab, kibr kabi illatlari qalbni qoraytiradi, ishq va tavozu esa uni poklaydi.

Tavba va inobatning o'rni: - Tavba – gunohdan qaytish, inobat esa Allohga yuzlanishdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy buni solikning birinchi bosqichi deb ko'rsatadi. Tavba orqali inson qalbi yangilanadi, Haqqa bo'lgan muhabbat kuchayadi. Alloma o'z qarashlarida, - "Do'stlar va yaqinlardan qocha boshladi. Umrni bodga berganidan hasrat va nadomat chohiga tushdi. Irodat (muridlik) va inobat (tavba) yo'lini tutdi. Dunyo va uning izzati va rohatdan yuz o'girdi (76) Xorlik va bemiqdorlikni qidirishga tushdi. «Dilni tuzatsang, u bilan gavdaning boshqa a'zolari tuzaladi» (hadisi)ning hukmi bo'yicha, lazzatdan ko'ra qiyinchilikni tanladi, tanini esa riyozat va mashaqqatta tashladi, «kimki Alloh uchun o'zini past tutsa, Alloh uni yuqori ko'taradi» (hodisi)ning bashorati payida o'zini ojizlik va shikastalik qo'liga topshirdi. (Natijada) «mo'min odam Alloh nuri orqali qaraydi» (hadisi)ning hukmi bo'yicha, yaqin va hidoyat (sirlari) ayon bo'ldi" [138]. Tavba va inobat allomaning nazarida – "tavba va inobatdan so'ng doimo o'zi dilining kuzatuvchisi bo'lishi kerak, xoliy joyda ham, gavjum joyda ham, oshkoro va maxfiy ishlarda ham Xudoyi ta'oloni doimo xabardor deb bilishi lozim. Uning tavakkuli va o'zni topshirishi Janobi XHaq subhonahuga bo'lishi kerak. Shunda: «Kimki Alloxga tavakkul qilsa, bas unga kifoya qilur, batahqiq, Alloh o'z ishini tamom qilguvchidir, batahqiq, Alloh har bir narsaga bir andoza muqarrar qilgandir» (Kur'on, 65/3)

[138] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 12.

(oyati)dan natija topadi, hech qachon o‘zining kuchi va quvvatini orada ko‘rmaydi, Haq subhonahu va ta’oloning parvardigorligi haqida «Ha» deb bergan ahdiga vafo qiladi, o‘z tarbiyati va o‘zganing tarbiyati bilan mashg‘ul bo‘lmaydi. Demak, Xudoyi ta’olo o‘zining lutfi va karomati bilan: «Tamom qilinglar Menga bergan ahdlaringni, Men ham tamom qilurman». (Kur’on, 2/40). Bashorati bilan unga tarbiyat yetkazadi. Masnaviy[139]:

Chunki dar ahdi Xudo kardy vafo,

Az karam ahdat nigahdorad Xudo.

Ko‘sh bar «ufuv bi ahdiy» go‘sh dor,

To-ki «ufu bi ahdikum» oyad zi yor.

(Agar Xudoga bergan ahdingga vafo qilsang,

O‘z karamidan sening ahdingni ham saqlaydi.

«Ahdimga vafo qiling»ni bajarishga intil,

«Ahdingizga vafo qilaman»ni do‘stdan eshitasan.)[140];

Ishq va ilohiy nur: - Asarda ishq solikni Haqqa eltuvchi eng qudratli kuch sifatida talqin qilinadi. Ishq orqali inson qalbi nurlanadi va borliqning asl mohiyatini anglash imkonini topadi;

Ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haqq ul-yaqin: - Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning ta’limotida bu uch bosqich solikning ruhiy yuksalishini ifodalaydi: ilm orqali ishonch, qalb ko‘zi orqali mushohada va tajalliy orqali haqiqiy idrok. Asarda alloma – “Jazb va tajalliyotning boshlanishi, tariqning avvali va sulukning ibtidosi Janobi Haq subhonahu va ta’ologa to‘liq qaytish zohiriy tomondan nahy qilingan va diqqatni chalg‘itadigan narsalardan qochish, buyurilgan narsalarni ado qilish, qattiq kirishish, doimiy mashg‘ul bo‘lish, g‘aflat va bekorchilik bilan behuda o‘tgan va

139 Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 135 а.
140 Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 20.

hoyu havasga sarflangan umrdan afsuslanish, (boshqalarga nisbatan) ta’zim va hurmatda bo‘lish, barcha ashyo va mavjudotga nisbatan o‘zini ojiz va siniq tutish, shariat korxonasida tanni riyozat o‘chog‘ida muhabbat olovi bilan yondirish”[141] deb ta’riflagan;

Zohir va botin masalasi: - Asarda tashqi amallar bilan ichki ixlos uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Shariat – tashqi tartib, tasavvufiy qalb pokligi esa uning ruhi sifatida talqin qilinadi;

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Miftohul-asror” (Sirlar kaliti) asarning falsafiy mazmuni va borliq haqidagi qarashlari asarda quyidagicha bayon etilgan.

In sano guftan zi man tarki sanost.

K-in daleli hastiy hastiyi xatost.

(Mening bu sano aytishim tarki sano qilishimdir, Bu borliq dalili bo‘lsa, borliq xatodir.)[142]

Borliqning yagona manbai – Haq: - Asarda butun mavjudotning yagona manbai Alloh ekani ta’kidlanadi. Olamdagi barcha narsa Uning tajalliylaridir;

Vujudi mutlaq va nisbiy mavjudlik: - Mutlaq mavjudlik – faqat Allohga xos, inson va koinot esa foniydir. Inson o‘zini mustaqil mavjud deb bilsa, bu shirk hisoblanadi;

Aql va qalb uyg‘unligi: - Aql ilmni beradi, qalb esa nur va haqiqatni his qiladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu ikki kuchning uyg‘un bo‘lishini ta’kidlaydi. Alloma “Miftohul-asror”da qalb va uni poklash haqida – “Inson nafsi va aqli tomonidan boshqariladi va u ehtiros va mayllarga ergashadi. Bu odamlarni yo‘ldan ozdiradigan va ularni asl maqsadlaridan ajratib turadigan noto‘g‘ri yo‘ldir. Qalb bu ishlarga beparvolik qilib, hushyorlikdan mahrum bo‘lsa, Alloh taoloning

---

[141] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 18.

[142] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 150.

topshirig‘i bilan to‘liq shug‘ullanmasa, o‘lim va qiyomat kuniga tayyor bo‘lmasa, chin dildan tavba qilmaydi, islohot va poklikka intilmaydi. Agar qalb gunoh va nomaqbul narsalar bilan bulg‘ansa, boshqa a'zolar ham gunoh va taqiqlarga moyil bo‘ladi. Hadisda: "Albatta, Odam alayhissalomning tanasida bir luqma go‘sht bor, agar u sog‘lom bo‘lsa, boshqa a'zolar ham sog‘, agar u buzuq bo‘lsa, boshqa a'zolar ham buzuqdir. Bilingki, u qalbdir", deyiladi”[143];

Haqiqatni anglash bosqichlari: - Solikning taraqqiyoti tavbadan fanogacha bo‘lgan bosqichlarda davom etadi. Bu jarayon orqali inson haqiqiy mavjudlikni anglaydi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘zining “Miftohul-asror”asarining To‘rtinchi fasl – “Soliklar darajasining nihoyati bo‘lgan” bobining “Haqq ul-yaqinning haqiqati bayoni”da – “O‘zini tanishni va ma’rifatiga yetish yo‘lini ojizlik asosiga qo‘ygan Allohga hamdlar bo‘lsin! Alloh shunday Zotki, uning Zotini tanish va mohiyatini bilishga barcha (22b) ojizdir. Hech kim bilishdan dam ura olmaydi, Uning qanday ekani haqida hech bir odam fikr qilolmaydi. Uning Ilohiylik dengizi harakatga kelgan va haqiqat daryosi junbishga kirgan vaqtda orif qanday qilib to‘fon mavjlariga qadam qo‘yolsin va azal sirlari tug‘yonida qaysi solik o‘z vujudini poydor tuta olsin! Bunday paytda Xazrati Zotdan o‘zga narsaning barchasi yo‘q bo‘ladi. «Yangi narsa qadim narsaga yaqinlashsa, undan asar ham qolmaydi». Suluk va hol asnosida bo‘lgan ismlar va sifatlar tajalliysi shu paytgacha ofoq va anfusda ekan, endi ularni nobud va yo‘q holda ko‘radi”[144];

Zohir va botin uyg‘unligi: - Zohiriy amal bilan botiniy ixlos birlashmasa, haqiqiy komillik yuzaga kelmaydi. Shu bois, tashqi ibodat va ichki ruhiy poklik bir butun holda talqin qilinadi Alloma “Miftohul-asror”asarida zohiriy va botiniy amallar haqida – “botiniy sezgilar orkali va basirat kuzinin ochikligi bilan yuz beradi”[145]. Chunonchi, bir joyda shuna ishorat kiladilar:

Xech mu’minro mabodo chashmi kur,

---

[143] Каранг: Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 18.
[144] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 38.
[145] Каранг: Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 315-316.

(Xech bir mu'minning kuzi kur bulmasin)

Badanda beshta xis (sezgi) bulgani kabi, jonda xam

buladi. Badan xislari - eshitit, kurish, tam bilish, xid

bilish, teginib sezit. Chunonchi, boshka joyda aytadilar:

Panj gisse rast juz in panj xis,

On chu zarri surx v-in tisto chu mis.

(Bu beshta xisdan boshka yana beshta xis bor,

Unisi kizil tilla va bunisi mis kabidir.)

Bu aytilan beshta botiniy (ichki) xislar solik akli

kullga yettanda xosil buladi, Demak zoxir kuzi kur bulan

odamning namozda imom bulishi makruxdir. Ammo uning

joizlii tomoni shundaki, zoxiriy najosat va ifloslik

tozalash bilan yuk buladi. Ammo kurbotin (kalbi kur)

odamning imomliti nojoizdir, chunki botinning iflosligi

uning asl xakikatidan kutulmaguncha yuk bulmaydi[146].

Botinning buzilishi shaytoniy tajalliy xamda nafsu xavoning yomonliklari orkali yuzaga keladi Xar bir kalbi kur mukallidkim, uning basiyrat kuzi kadim nuri

[146] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 186а.

bilan munavvar bulmagan ekan, garchi ilm va zuxd bilan ziynat topgan bulsa-da, undagi nur shaytoniy tajalliydir[147].

Shayx Odina Eshon "Miftohul-asror" asarida tolibga kamolatda eng muhim fazilatlardan birlari tavba va inobat. Tavba va inobat (qaytish) hosil bo'lsa, mukammal irodat nasib etsa, shundagina qalb ilmi hosil bo'ladi, doimo Haq subhonahu va ta'oloning sifatlarini, ya'ni uni Basir (ko'rib turuvchi), Sami' (eshitib turuvchi) va Aliym (bilib turuvchi) sifatida mutolaa qiladi. Ehson deb ataladigan bu sifatlarga hozir va kuzatuvchi bo'lmoq lozimdirki, (hadisda) aytiladi: «Ehson bu Allohni ko'rib turgandek ibodat qilishingdir, agar sen Uni ko'rmasang, U seni ko'rib turadi». Xazrati Mavlaviy Rumiy, Alloh sirini muqaddas qilsin, (bu bobda) buyuradilar. Masnaviy[148]:

Az payi on guft Haq xudro Basiyr,

Ki buvad diydaviyat har dam naziyr.

Az payi on guft Haq xudro Same',

To bubandy lab zi guftori shanix.

Az payi on guft Haq xudro Aliym,

To nayandishy fasode tu zi biym.

(Haq o'zini shuning uchun Basiyr (ko'ruvchi) deb aytdiki,

Toki sening ko'zing qo'rqib turuvchi bo'lsin.

Xaq o'zini shuning uchun Sami' (eshituvchi) deb aytdiki,

Toki sen yomon so'z aytishdan labingni yumgin.

[147] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 316.

[148] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 19-20.

Haq o‘zini shuning uchun Aliym (biluvchi) deb aytdiki, Toki sen qo‘rquvdan yomon ishni qilmagin.)

Asarda axloqiy-ma’naviy qarashlar va komil inson konsepsiyasi ham ilgari surilgan bo‘lib, ular:

Axloqiy fazilatlar - sabr, shukr, tavozu, rizo va halollik solikning ma’naviy kamoloti uchun zarur fazilatlardir;

Kamtarlik va tavozu - Kamtarlik – kibrni yengish va odamiylikning eng yuksak belgisi. Alloh uchun tavozu qilgan inson Haq huzurida yuksaladi;

Sabr va shukr falsafasi - Sabr – mashaqqatga chidash, shukr esa ne’matni qadrlashdir. Bu ikki fazilat solikni ruhiy yuksaltiradi. Alloma asarida – “ komil quyosh bir bosh kabi bo‘lib, uning ishi kecha-kunduz ravshan qilishdir. Va bu quyosh uluhiyyat tajalliysi bo‘lib, uni «haqq, ul-yaqin» deb ataydilar. Shayx Attor, sirlari muqaddas bo‘lsin, «Mantiq ut-tayr» kitobining «Fakru fano vodiysi» faslida yozadilar: Sad hazoron soyai xurshed tu, Gum shuda binӣ zi yak xurshidi tu. Baxri kulli chu ba junbish kard roy, Naqshho bar bahr kay monad ba joy.

Sharhi: Xar du olam naqshi on daryost bas, Xar ki go‘yad nest, on savdost bas. Agar sen yuz mingta quyosh soyasi bo‘lsang ham, Bitta quyoshdan o‘zingni yo‘q bo‘lgan holda ko‘rasan[149];

Komil inson konsepsiyasi - Komillik – ilm, axloq va qalb uyg‘unligi asosida shakllanadi. Komil inson jamiyatda nur sochuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi;

Haqiqat va jamiyat hayoti - “Miftohul-asror” jamiyatdagi adolat, totuvlik va mehr-oqibat g‘oyalarini ilgari suradi. Komil inson jamiyatning barqarorligi va ma’naviy uyg‘onishi uchun xizmat qiladi.

Dar datoni zinda goshoke jatad

Ongat oromad, ki berunash nitad

---

[149] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 232.

Bir tirik odamning ovziga xashak kirib ketsa, Uni tashkariga chikargandagina orom oladi. Sharhi: Bir tirik odamning orziga xashak kirsa, uni chikarib tashlamaguncha tinchimagani kabi, komil odamning kalbida bir yomon fikr paydo bulsa, darxol uni yuk kilmaguncha orom olmaydi[150].

Asardagi falsafiy-metafizik qarashlar va “vahdat ul-vujud” ta’limoti bilan uyg‘unlik ham mavjud bo‘lib ular quyidagicha yoritilgan:

Vahdat ul-vujud g‘oyasining ildizlari borliqning yagona manbai Allohdir, barcha mavjudot esa Uning tajalliylaridir deb ta’kidlanadi;

Borliq va yo‘qlik dialektikasi - Inson o‘zini mustaqil mavjud deb bilishi – shirkdir. Haqiqatda inson foniy, Alloh esa boqiydir;

Tajalliy va ilohiy nur - Solik qalbi poklangach, Allohning tajalliylari zohir bo‘ladi. Bu tajalliylar orqali borliqning foniyligi, Haqning abadiyligi anglanadi;

Haqiqatni mushohada qilish - Mushohada – qalb ko‘zi orqali haqiqatni idrok etishdir. Haqiqat so‘z bilan emas, ishora va ramz bilan tushuniladi. Rumiy va Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qarashlari - Rumiy “Masnaviy”da ramzlar orqali haqiqatni bayon etgan bo‘lsa, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy uni sodda va shar’iy asoslar bilan izohlagan. Bu jihat uni tasavvuf falsafasining o‘ziga xos talqinchisiga aylantiradi. “Miftohul-asror” asarida tasavvufiy ramzlari va badiiy uslub mukammal va soda shaklda qo‘llanilgan.

Shayx Odina Eshon “Miftohul-asror” asarida

Tasavvufiy ramzlarning ahamiyati jilokorligini yanada boyitadi. Ramz – botiniy haqiqatni anglash kalitidir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ramziy hikoyatlar orqali insonni mushohadaga yetaklaydi;

“Kalit” ramzining ma’nosi, Kalit – qalb eshigini ochuvchi vosita. Bu kalit ishq, tavozu va poklikdir;

---

[150] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 121.

Obraz va hikoyatlar, Asarda qush – ruh, uning qanotlari – ishq va ma’rifat ramzlari sifatida talqin qilinadi. Podshoh va qul ramzi orqali nafs va qalb o‘rtasidagi kurash tasvirlanadi;

Badiiy uslub ham mukammallik kasb etgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Qur’on oyatlari, hadislar va fors-tojik she’riyatidan foydalanib, g‘oyalarni obrazli shaklda ifodalaydi. Qalb – oynaga, nafs – zangga, ishq – nurni yoyuvchi manbaga qiyoslanadi. Ramzlarning ijtimoiy ma’nosi soda tilde moxirlik bilan yoritilgan. Tasavvufiy ramzlar faqat ruhiy emas, balki ijtimoiy mazmunga ham ega. Adolatli podshoh va totuv xalq timsollari jamiyat hayoti uchun ibrat bo‘lib xizmat qiladi.

Asarning ma’rifiy ahamiyati va bugungi davr uchun dolzarbligi muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Ular:

Ma’naviy tarbiyadagi ahamiyati, - Asar inson qalbini uyg‘otishga, nafsni jilovlashga chaqiradi. Bugungi yoshlar tarbiyasida ham u katta ahamiyatga ega. Alloma “Miftohul-asror” asarida – “Oftobo, tarki in gulshan kuny, Toki taxt al-arzro ravshan kuny. (Ey quyosh, bu gulshanni tark et, Toki yer ostini ravshan qil.) Sharhi: Ey muhaqqiq, bu qarg‘alarning gulshanini tark et, vujuding yeri bo‘lgan taht al-arz (yer osti)ni Ilohiy nurlar bilan ravshan qil. Chunki toliblar qalbini ravshan qilish bilan mashg‘ul bo‘lish mushohada qilishdan qoldiradi. Shuning uchun ham: «Valoyat nubuvvatdan afzaldir» deydilar, ya’ni Xaqqa mashg‘ul bo‘lgan na nabiyning valoyati xalqqa mashg‘ul bo‘lgan nubuvvatidan afzaldir.”[151];

Ijtimoiy hamjihatlikdagi ahamiyati, - Shayx Odina Muhammad Xorazmiy adolat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik g‘oyalarini ilgari suradi. Jamiyatni poklashda komil insonlarning roli ta’kidlanadi;

Ilm va ma’rifat uyg‘unligidagi ahamiyati, - Ilm – yo‘lning boshlanishi, ma’rifat – uning ruhi. Bugungi ta’lim tizimida ilm va ma’naviyat uyg‘unligi muhimdir;

[151] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 227.

Bugungi kun uchun dolzarblikdagi ahamiyati, - Asardagi sabr, shukr, tavozu, adolat va mehr-shafqat gʻoyalari bugungi globallashuv davrida ham zaruriy qadriyatlardir.

Agar Xudoyi ta'olo biror kishini Zot mushohadasi bilan sarafroz qilishni istagan boʻlsa, tavhid, vujud va shuhudga kirishdan umid uzmasin va mahbubning jamolini tajalliyning hijobisiz mushohada qilishga, uni ayon koʻrish uchun jiddu jahd qilsin, astoydil sa'yu harakat qilsin. Ammo bu vaqtda solikning koʻziga ashyolar nur ostida pinhon boʻladi, yoʻl goʻyo unga ochilmagandek tuyuladi, matlubning jamolidan parda koʻtarilmaydigandek koʻrinadi. Nafs garchi boshida qaysar va ishonmaydigan boʻlsa-da, bir necha vaqt Xaq nuri bilan orom topib, uning zikri bilan aloqada boʻlib, ishq va oshiqlik munosabatini hosil qilib, tajalliyot nuri (yomon ahvoliga qarshi) parda boʻlib, shavku muhabbat tugʻyon uradi, zavq va ishtiyoq gʻalaba qiladi, sabr va chidam ketadi, shiddat gʻalabasidan hayajon va iztirob orom bermaydi. Betoqatlikdan har tomonga bosh uradi, Alloh ta'oloning qanday va qanaqaligiga diqqat qiladi[152].

Yuqorida shunday deyiladiki, Alloh oʻzining huzuri ila kimgadir saodat berishni niyat qilsa, ular tavhid va qiyinchilik va musibatlarni qabul qilishdan umidlarini uzmasliklari kerak. Ular oʻzlarining koʻrishlarida ravshanlikka erishib, sevgilining goʻzalligini yashirmasdan idrok etishga astoydil harakat qilishlari kerak. Hozirgi vaqt, bugungi kun haqiqat fidoyisi uchun qorongʻi boʻlib qolmoqda. Bu yoʻlga kirish imkonsiz boʻlib koʻrinadi va qidirilayotganlarning jozibasini yashiruvchi parda koʻtarilmaydi. Ruhning dastlabki qaysarligi va shubhasiga qaramay, u Haqiqatning yoritilishi orqali vaqtinchalik xotirjamlikka erishadi, uning xotiralari bilan bogʻlanadi va muhabbat va muhabbat rishtalarini rivojlantiradi. Odamiylik nuri, uning salbiy holatiga qarshi, kafan boʻlib, ehtiros va sevgining ortishiga olib keladi, zavq va istak hukmronlik qiladi. Binobarin, sabr-toqat va chidamlilik susayadi, shiddatlilik gʻalabasi bilan kuchaygan hayajon va iztirob davom

[152] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 21а.

etadi. Bezovtalikda u boshini har tomonga aylantirib, Alloh taoloning tabiati va mohiyati haqida fikr yurita boshlaydi.

Xalq ma'naviyatidagi o'rni, - "Miftohul-asror" xalq orasida keng tarqalgan, "Masnaviyxonlik" an'anasiga singib ketgan va ma'naviy uyg'onishning muhim manbai bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda asar Rumiy "Masnaviy"iga sharh bo'lish bilan birga, mustaqil falsafiy-tasavvufiy traktat hamdir bu asar. Birinchidan, Tasavvufiy mohiyati - Inson qalbini poklash, nafsni yengish, ishq va tajalliy orqali Haqqa erishish asarning markaziy g'oyasi bo'lib hizmat qilganligida; Ikkinchidan, Falsafiy mohiyati - Borliq va yo'qlik, vujudi mutlaq va nisbiy mavjudlik, aql va qalb uyg'unligi Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ta'limotining falsafiy asosi hisoblanganligi; Uchinchidan, Axloqiy qadriyatlar - Sabr, shukr, tavozu, adolat va mehr-shafqat – komil inson konsepsiyasining tayanchi. Bu g'oyalar bugungi jamiyat uchun ham dolzarbdir ahamiyatga ega ekanligi; va to'rtinchidan, "Miftohul-asror" – Sharq tasavvuf falsafasining yuksak namunasi bo'lib, o'tmish bilan bugungi kunni bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. U inson qalbini poklash, jamiyatni ma'naviy uyg'otish va komil insonni shakllantirishda bebaho ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda,

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qalamiga mansub "Miftoh ul-asror" nomli qo'shimcha tafsirning aniqlanishi bu mintaqa aholisining, xususan, mamlakatimiz allomalarining "Masnaviy ma'naviy"ga bo'lgan hayrat va mehrini yanada ko'rsatadi.

Shayx Odina Eshonnning "Miftoh ul-asror" tasavvufiy-irfoniy merosga oid asar bo'lib, unda insonning ruhiy kamolot sari qiladigan sayri va suluki (ruhiy yo'li) keng sharhlangan bo'lib, asarda nafsni tiyish, qalbni poklash, ilohiy muhabbat va ma'rifatga erishish yo'llari bayon qilingan hamda ustoz-shogird an'analari, tariqat odoblari va Haqqa yetaklovchi ruhiy bosqichlar (maqomat) izchil izohlanadi. Asarda tasavvufiy mohiyat sifati uch asosda ochib berilgan;

-"Miftohul-asror" – Sharq tasavvuf falsafasining yuksak namunasi bo'lib, o'tmish bilan bugungi kunni bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. U inson qalbini

poklash, jamiyatni ma'naviy uyg'otish va komil insonni shakllantirishda bebaho ahamiyat kasb etadi.

Bob bo'yicha xulosalar

-Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida Najmiddin Kubroning qalbni poklash haqidagi ta'limoti, Ibn Arabiyning vahdat ul-vujud nazariyasi va Jaloliddin Rumiyning ishq falsafasini uyg'unlashtirgan mutafakkir sifatida alohida o'rin tutadi.

-bugungi davrda uning asarlari, xususan, "Miftohul-asror" yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashda, jamiyatni ruhiy uyg'otishda, axloqiy qadriyatlarni tiklashda beqiyos manba bo'lib xizmat qilmoqda. Tasavvufiy merosni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish jarayonida Alloma qarashlari insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va komillikka da'vat etuvchi o'ziga xos maktabdir.

-Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafaqat "Masnaviy" sharhlovchisi, balki Markaziy Osiyo tasavvuf falsafasini yangi bosqichga olib chiqqan, uni xalq ruhiyatiga yaqinlashtirgan buyuk mutasavvifdir, uning ijodi mintaqa aholisining, xususan, mamlakatimiz allomalarining "Masnaviy ma'naviy"ga bo'lgan hayrat va mehrini yanada ko'rsatgan;.

Shayx Odina Eshonnning "Miftoh ul-asror" tasavvufiy-irfoniy merosga oid asar bo'lib, unda insonning ruhiy kamolot sari qiladigan sayri va suluki (ruhiy yo'li) keng sharhlangan bo'lib, asarda nafsni tiyish, qalbni poklash, ilohiy muhabbat va ma'rifatga erishish yo'llari bayon qilingan hamda ustoz-shogird an'analari, tariqat odoblari va ruhiy bosqichlar (maqomat) izchil izohlangan.

-"Miftohul-asror" – Sharq tasavvuf falsafasining yuksak namunasi bo'lib, o'tmish bilan bugungi kunni bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. U inson qalbini poklash, jamiyatni ma'naviy uyg'otish va komil insonni shakllantirishda bebaho ahamiyat kasb etadi.

# III-BOB. SHAYX ODINA ESHON MA'NAVIY MEROSIDA TASAVVUFIY MAQOMLAR TALQINI

Mazkur bobda Shayx Odina Eshon Xorazmiy ma'naviy merosidagi tasavvufiy maqomlarning falsafiy tahlili berilgan. Bob "Mutafaktafakkirning "Mir'ot ul-obidiyn" va "Miftohul-asror" asarlarining falsafiy mohiyati va maqomat bosqichi tahlili" hamda "Tavbat ut-toibin" ("Tavba qiluvchilarning tavbasi")asarida tasavvufiy maqomlar haqida"kabi paragraflardan iborat.Dastlabki paragrafida "Mir'ot ul-'obidiyn" asarining falsafiy mohiyati asarning umumiy mazmunidan kelib chiqib ta'lqin qilingan. "Mir'ot ul-'obidiyn" – "Obidlarning ko'zgusi", "Yaxshi insonlar ko'zgusi" degan ma'nolarni anglatishi. asarda Allohga ibodat qiluvchi insonning qalb olami, ruhiy sayri va Haqqa intilishi tasvirlanib, "Ko'zgu" ramzi orqali inson qalbini poklash, unda ilohiy haqiqatni aks ettirish g'oyasi ekanligi, ko'zgu avvalo qalb ko'riga nisbatan aytilib, aql va nafsdan holi ravishda rivoj topishi nazarda tutilishiga oid fikrlar tahlil qilingan.

Keyingi paragrafida "Tavbat ut-toibin" asari tavba masalasiga bag'ishlangani, alloma tasavvufda tavba ruhiy sayrning birinchi va zaruriy bosqichi ekanini alohida ta'kidlagani va tasavvufiy maqomlar sharhi berilgan. Asarda yoritilgan asosiy maqomlar 7 ekanligi, mutafakkir ma'naviy merosida tasavvufiy maqomlar talqini

o'zidan oldin o'tgan tasavvuf allomalarnikidan tubdan farq qiluvchi tamonlarga ega emasligi, ba'zi xollarda bir birini to'ldiruvchilik vazifasini bajargani, shayx ham o'z ma'naviy merosida bu maqomlarni chuqur talqin qilib, insonni ruhiy poklanish va komillikka eltuvchi yo'lni izchil yoritib berganligi. ular bugungi kun kishisi uchun ham muhim va ahamiyatli bosqichlar hisoblanishi falsafiy tahlil qilingan.

### 3.1. Mutafakkirning "Mir'ot ul-obidiyn" va "Miftohul-asror" asarlarining falsafiy mohiyati va maqomat bosqichi tahlili

"Mir'ot ul-'obidiyn" asarining falsafiy mohiyati asarning umumiy mazmunidan kelib chiqib ta'lqin qilinadi. "Mir'ot ul-'obidiyn" – so'zma-so'z tarjima qilinganda "Obidlarning ko'zgusi", "Yaxshi insonlar ko'zgusi" degan ma'nolarni anglatadi. Asarda Allohga ibodat qiluvchi insonning qalb olami, ruhiy sayri va Haqqa intilishi tasvirlanadi hamda misollar bilan tasvirlab o'tilgan. "Ko'zgu" ramzi orqali inson qalbini poklash, unda ilohiy haqiqatni aks ettirish g'oyasi ilgari suriladi. Ko'zgu avvalo qalb ko'riga nisbatan aytilib, aql va nafsda holi ravishda rivoj topishi nazarda tutiladi.

Sayyid Odina Eshon Muhammad Xorazmiy ham Abu Rayhon Beruniy, Shayx Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi azizlarning vatani bo'lgan qadimiy va navqiron Xorazmdan yetishib chiqqan hamda tasavvuf va irfon masalalarini yoritib berish, shuningdek, Mavlono Jaloliddin Rumiyining "Masnaviy Ma'naviy"sini sharh va tafsir qilishda o'z davrining yetuk allomalaridan bo'lgan bu zotning yana ikki kitobi - "Mir'yot ul-obidin" hamda "Tavbaot ut-toibin" asarlari ham mavjud bo'lib, ular sharxiga to'xtalsak: - "Mir'yot ul-obidin" tasavvufning ilk bosqichi -shariat masalalari xususida bahs yuritadi. Unda beriluvchilik, namoz va tahorat shunchaki diniy rasm-rusum emas, balki qalb oynasini kibr, hasad, ta'ma, zulm, riyo kabi yomon illatlardan poklantiruvchi vositadir. Bu fikrini muallif Attor, Sanoyiy, Rumiy kabi mutasavvif shoirlar she'rlari orqali quvvatlantiradi; - "Tavbaot ut-toibin" ham o'z mohiyatiga ko'ra "Mir'yot ul-obidin"ning mantiqiy davomi bo'lib, unda tavba maqomi xususida so'z yuritiladi. Tavbaning mohiyati, turlari, solukning har biri bosqichida tavbaga zarurligi, haqqa yetishishda tavbaning ahamiyati to'g'risida bahs

yurituvchi bu risola bugungi kunda ham oʻzining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini yoʻqotmagan emas[153].

Odina Eshon yoshligidanoq soʻfiylik gʻoyalarining qattiq ta'sir tushib qoladi. Madrasa ilmlarini oʻrgangach, yigit pir shogirdi boʻlishga intiladi. Shunga qaramay, u Sharqiy Islom olamida oʻziga mos pirni topa olmadi va yakka oʻzi mashgʻulotlarni boshladi. Bu ishda unga Paygʻambarning ruhi yordam berdi. Binobarin, Odina Eshon uvayslardan sanaladi. Odina Eshon butun umri davomida Rumiyning "Masnaviyi ma'naviyi"ni qunt bilan oʻrganib, uning sir-asrorlari va nozik jilolarini har tomonlama ochib berdi. Tasavvufda kamolotga erishib, avliyolik choʻqqisiga koʻtarilgan Odina Eshon "Masnaviy"ning eng nozik jihatlarini yoritishni tanladi va bu yoʻlda oʻzining "Miftohul-asror" asarini yozib qoldirgan.

"Masnaviy" kitobini ulugʻlab, "Men bu asarni valilar va sultonlar orasidan uchratmadim. Ulardan hech birida jazba va gʻalabaning boshlanishidagi sayru suluk, ilohiy xavf va xatarlar, chuqur nonchi, jinnilarning koʻrinishlari, shaytonning vasvasalari, nafsning ofatlari, aqlning uyqubatlari, ruhlarning soʻnib qolishi, soʻfiylar orasidagi ixtiloflar, fano filloh va baqo billoh maqomining oxirigacha boʻlgan manzillarining tuygʻuli holatlari va hayrat aks etgan bu kitob, ya'ni "Masnaviy"chalik toʻliq bayon kilingan va mufassal aytilgan kitobni topmadim. Darvishlar tariqidagi sirlarni sharh va pinhon tutuvchi, haqiqatning nozik tomonlarini va tariqatga ushlanish masalalarini hikoyatlar zaminida yiroqdan alo ba latif ilmlar bilan bayon qilinadigan boʻlib, bu narsalarni boshqa kitoblarda koʻrmadim[154].

Odina Eshon "Masnaviy"ni sharhlashga kirishishdan avval oʻquvchini uni oʻqib tushunishga tayyorlaydi. Buning uchun u oʻz sharhiga "Muqaddima" yozib, unga olti fasldan iborat maqolalarni kiritadi. Fasllar quyidagilardan iborat: Birinchi fasl – ushbu kitob muallifining boshlangʻich holi bayonida; Ikkinchi fasl – ilm ul-yaqin va xazba hamda takallufning botinlanishi bayonida; Uchinchi fasl – ayni ul-yaqinning ta'rifi va unga mansub boʻlganlarning taqsimoti bayonida; Toʻrtinchi fasl –

[153] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 3.
[154] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 4.

haqq ul-yaqinning martabasi va soliklar darajasining nihoyati bayonida; Beshinchi fasl – taqlid ahlining zikri hamda ular bilan boʻladigan suhbatning zararlari bayonida; Oltinchi fasl – kamol ahlining sifati va ilohiy xos (banda)larning Alloh taologa etishish yoʻlining bayonida. Mazkur fasllarda tasavvuf, uning asoslari, "Masnaviy"da tilga olingan istilohlar batafsil bayon qilinadi. Shundan soʻng kitobda sharhga oʻtiladi. "Miftoh ul-asror" garchi "Masnaviy"ning dastlabki uch jildining sharhi boʻlsa-da, biroq bu jildlardagi hikoyatlar va sheʼrlar toʻliq keltirilmagan. Odina Eshon sharhga muxtoj baytlarningina sharhlaganini koʻrish mumkin. Baʼzida uzun baytlar yoki toʻliq hikoyatlar keltirilsa-da, ularga hech qanday sharh berilmagan, faqat soʻz ketayotgan mavzuning maʼnosi chala boʻlib qolmasligi uchun keltirilgan holos. Ikkinchidan, sharhlanmagan baytlar, Odina Eshonning fikricha, tushunilishi oson baytlar deb hisoblangan boʻlishi mumkin. "Miftoh ul-asror"ning yagona nusxasi Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qohira majmuasida 7143-alif raqam bilan saqlanmoqda. Bu nusxa Muhammad Rahimxon Feruzning koʻrsatmasi bilan Habibulloh ibn Mulla Ahmad Odina Eshon al-Xorazmiy tomonidan koʻchirilgan[155].

Odina Eshon «Masnaviy»ni sharhlashdan tashqari, unga suyangan holda boshqa asarlar ham yozgan. Bunga misol qilib, uning «Mirʼot ul-obidiyn» («Obidlarning koʻzgusi»), «Tabbat ut-toiybin» («Tavba qiluvchilarning tabbasi») nomli asarlarini koʻrsatish mumkin. Odina Eshon bu asarlarida ham oʻzining fikrlarini isbotlash uchun faqat Rumiyning sheʼrlarigagina suyanmay, undan iqtiboslar keltiradi. Odina Eshonning «Sharhi kalimoti baʼzi ahli suluk» («Baʼzi suluk ahli kalimalarining sharhi») va «Risolai Odina Eshon» («Odina Eshon risolasi») kabi boshqa risolalari ham boʻlib, ular ham Rumiyning sheʼrlariga asos boʻnyad qilingan va boshqalardan farqli oʻlaroq arab tilida yozilgan. Bu asarlarning ham qoʻlyozma nusxalari OʻzR FA ShI Qoʻlyozmalar institutida saqlanmoqda. Odina Eshonning «Mirʼot ul-obidiyn» va «Tabbat ut-toiybin» risolalari asosan, bu ikki risolada fiqh, tasavvuf, shariat va tariqatning umumiy qoidalarini bayon qilishga bagʻishlangan.

[155] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 5.

Masalan, «Mir'ot ul-obidiyn» kitobida namozning oʻqilish qoidalari va uni chin dildan ado qilish yoʻllari bayon etilgan. «Tabbat ut-toiybin» asarida esa gunohlardan tavba va gunoh qilingan taqdirda ham undan pushaymon boʻlish hamda undan qaytish yoʻllari bayon qilinadi. Ilk marotaba oʻzbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilayotgan ushbu ikki risoladagi mavzui oyatli karimalar Mahmud Taraziy (Oltinxon Toʻra) ezhartmatining N. Abdullaev tomonidan nashrga tayyorlangan «Qur'oni karimning tarjima va tafsiri» (Toshkent, 2002) dan olib foydalanilgan[156].

Shu kunlarda Xorazm viloyatining Bogot tumanida Odina Eshonning avlodlari yashayotgan. Odina Eshonning qabri shu tumangai Dehkonqobod qishlogʻida joylashgan boʻlib, katta ziyoratgoh hisoblanadi. Eshonning avlodlaridan biri Latifxon hoji Bahouddin oʻgʻli oʻz bobosi haqida «Odina Eshon qissasi» hamda «Xorazmlik ma'rifat sohib» nomli risolalarni yozib yetkirgan. Odina Eshonni Mavlono Rumiyning ma'naviy izdoshi va izzidoshi deb atash mumkin. Ilmiy hayotda uning Rumiy ta'limotiga chuqur suyangani, uning fikrlarini tarqatgani, tasavvuf adabiyoti va tarixi ni oʻrganishda ham katta ahamiyatga ega.

Odina Eshon "Mir'ot ul-obidiyn" risolasida qiblaga yuzlanish haqida soʻz yuritiladi. Qiblaga yuzlanish qibla haqida bayon qilinish bilan bogʻliq boʻlib, zohiriy qibla va tan qiblasi bu - Bayt ul-haromdir, bordi-yu musaffo boʻlsa. Ayni unga yuzlanish farzdir, agar boʻlmasa, u tomonga yuzlanish (shart). Botin qiblasi hazrati Malikul mulk (ya'ni Alloh)ga gʻoyat chuqur ta'zimda boʻlishdir. Boshlovchi va oʻrta holdagilarning ma'naviy qiblasi muroqaba yoʻlidir. Tugallochilarniki esa mushohadadir. Chunonchi, Rasul alayhis-salom buyurdilar: «Namoz - sen Uni koʻrib turgandek, agar sen koʻrmasang, U sen koʻrib turgandek, Allohga ibodat qilishingdir». Fagʻlat ahlining qiblaga yuzlanishi zohirda surartta, botinda Allohdan oʻzga narsadan tiyilishdir. Ogoh ahlining yuzlanishi esa ham zohirin, ham botinin oʻz ichida mujassam qiladi. Chunonchi, hazrati Mavlaviy Rumiy, sirpari muqaddas boʻlsin, aytganlar[157]:

---

[156] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 6.
[157] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 7.

Qiblai orif buvad nuri visol,
Qiblai oqil mufassil shud hiyol.
Qiblai zohid buvad Izzon yor,
Qiblai mutmi' buvad hamyon zar.
Qiblai botin nishonad Zu-l-minon,
Qiblai zohir pardozad on zan.
Qiblai ma'nӣ dar on sabru farang,
Qiblai surat parston naqshi sang.

(Orif kishining qiblasi visol nuri bo'ladi.
Faylasuf ahlining qiblasi esa xayoldir.
Zohidning qiblasi Yazdon bo'lsa,
Tamagurning qiblasi zar solingan hamyondir.
Botin ahlining qiblasi Zu-l-Minan, Alloh bo'lsa,
Zohirga boquvchilarning qiblasi ayolning ko'zidir.
Ma'naviy zotlarning qiblasi sabr va ishonchsizlik bo'lsa,
Suratparastlarning qiblasi toshdagi naqshdir.)[158]

Ahli zohirning qiblasi shakl bo'lib, bu besh vaqt namozdir. Botin ahlining qiblasi barcha vaqtda va barcha holda janobi Haq ta'bolaga yuzlanishidir. Chunonchi, oyati karimada shunga ishorat bordir: «Ular o'z namozlariga qoimdidurlar» (Qur'on, 70/23). Hazrati Mavlaviy Rumiy, sirlari muqaddas bo'lsin, aytdilar[159]:

Panҷ vaqt omad salot, ey rahnamo,
Oshiqonro "fiy salotin doimun".

[158] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 8.
[159] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 8.

**(Namoz besh vaqt bo'ldi, ey rahnamo,**
**Oshiqlar "namozda doimo qoimdidurlar".)**

Sabr toqatiga ega bo'lganlar bu bilan qanoat qilmaydilar. Chunonchi, «Masnaviy»da aytiladi:

Ne ba panҷ orom girad on xumor,
K-ӯ dar ӯ sirxost ne nonsad xazar.
Nest "zur gӯbbon" vazifa oshiqon,
Saxt mustahiq joni sodiqon.

**(O'shal xumor kishilar besh vaqt namoz**
**bilan orom olmaydilar,**
**Besh yuz ming namoz ham ularga ozdir.**
**Oshiqlarning vazifasi "hoz"-zoh" zihrat qil" emas,**
**Sodiq kishilarning joni qattiq tashnadir.)**[160]

Avliyolarning ulug'lari shunday holdadalarki, ular qaysi tomon va qaysin tarafga yuzlanmasinlar, haqiqiy qiblaga yuzlanuvchilardir. Oyati karima: «Bas qaysi tarafga yuzlansangizlar Alloh ta'oloning "ko'zi" o'shal tarafdadir» (Qur'on, 2/115). Mana shunga ishorat baboloshorat qilinadi. Hazrati Mavlaviy, sirlari muqaddas bo'lsin, aytdilar:

Chun Muhammad pok shud az nuri dud,
Har kuҷo rӯ kard vas'hullox bud.

*(Muhammad (a.s.) olov tutunimdan pok bo'lgich,*
*Qaysi tomonga yuzlansa, o'sha tomonda Alloh edi.)*

---

[160] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 8-9.

Mana bu bayt ham shunga ishora qiladi:

Matla'i shams oy gar Iskandarӣ,
Ba'd az on har ҷo ravӣ nekufarӣ.

*(Agar Iskandar bo'lsang, Quyosh chiqadigan joyga kel,*
*So'ng qaerga borsang, baxtli kishi bo'lasan.)*

Ba'd az on har ҷo ravӣ ma'shriq shavad,
Sharqho ba mag'ribin oshiq shavad.

*(Kundan so'ng, qaerga borsang, mashriq bo'ladi,*
*Sharqlar mag'ribiga oshiq bo'ladi.)*

Niyat. Niyat - amalga qasd va azm qilishdan iboratdir. Bu ma'no shu jihatdanki, amal bu - qalbdir, niyatsiz qalbning e'tibori yo'q. Huzursiz qalb aslo haqiqatga ega bo'lmaydi. Qalb huzuridan so'ng, bo'lgan odat qilsa, sunnatga tobelik mukammal bo'ladi. Agar til zikrini qalb huzuriga tobe qilsa, akmal va afzal bo'ladi. Demak, qasd va niyatni surat qiblasi (Kaba)ga yuzlantirsa, tan o'zini boshqa tomonlardan ajratib, Masjid ul-Haromga yuzlantirsa va buni: «Qiling yuzingizni Masjidi Harom tarafga» (Qur'on, 2/144) oyati karimasining taqozosicha amalga oshirsa, xuddi shu kabi dil yuzini ham Allohdan o'zga barcha narsalardan ajratib, haqiqiy va asl maqsud bo'lgan Haq ta'ologa yuzlantirishga diqqatini Haq ta'olo sariga yo'naltirishga qasd qilish lozim. Chunonchi, bu haqda kelgani: «Batahqiq men o'z yuzimni U Zot tarafidan yuzlantirdim, osmonlarni va yerni yaratguvchi bir taraf bo'lgan holda» (Qur'on, 6/79). Dil yuzini asliy maqsud bo'lgan U Zotga bo'lgan yuzlanishdan tozalaganda, albatta va Niyati ham tozalanadi. Haq ta'olo hidoyat berishi va qurg'utsag, natijada o'zga narsalardan yuzini dil orqali o'girgan zot o'zining qiblasini topgandir. Bas shunday yuzlanish haqiqiy yuzlanishdir[161].

[161] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Миръот ул- обидийн" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 9.

Tasavvufiy hamda falsafiy mohiyati jihatdan asar birinchidan, Qalbning – ilohiy haqiqat ko'zgusi sifatida qaralib, qalb insonning eng muqaddas oshyoni ekanligi tasvirlanadi va ochib beriladi. Agarda qalb aqliy, nafsiy va dunyoviy mayl va istaklardan tozalansa, forih etilsa unda Haqning nuri aks etadi. Nur jilolanadi. Bu g'oya Ibn Sino va G'azzoliyning qalb falsafasi haqidagi qarashlari bilan uyg'unlikda shakllangan hisoblanadi; Ikkinchidan, Insonning ichki sayri (ruhining sayri sifatida) – asarda insonning ruhiy yuksalishi bosqichma-bosqich ko'rsatib beriladi. Bular: Tavba, sabr, shukr, tavakkul, rizo kabi maqomlar inson qalbining tozalanish darajalarini ifodalaydi. Bu jarayon falsafiy ma'noda insonning o'z "men"ini tanib borishi demakdir. Menning asosi "substansiya"sini toppish demakdir; Uchunchidan, Ilm va ma'rifat farqi ochib berilgan bo'lib, ilm – tashqi olamdan olinadigan bilim sifatida qaralsa, ma'rifat esa qalb orqali anglanadigan ichki bilim sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, haqiqiy ma'rifat qalb ko'zgusida Haqning nuri aks etgandagina yuzaga keladi deya uqtiriladi; To'rtinchidan, insonda komillik sifatlarini shakllantirishda namoyon bo'lib, asarning falsafiy mohiyatida markaziy o'rin tutuvchi tushuncha – komil insondir. Komil inson – qalbi pok, nafsdan ozod, Allohga muhabbati to'liq bo'lgan shaxs. Bu konsepsiya Forobiy va Ibn Arabiyning "kamolot" nazariyalariga hamohang hisoblanadi.

Shayx Odina Eshon ta'limotida maqomat bosqichlari:

Birinchi maqomat bosqichi – tavba. Shayx Odina Eshon qarashlarida tavba - ruhni poklash va ruhiy sayrning birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bu nafaqat gunohlardan qaytish, balki qalban poklanib, yangicha hayot sari qadam qo'yishni anglatadi. Yamondan yaxshiga, razolatdan mehribonlikka, ilmsizlikdan ilmga yetaklovchi asosiy bosqichdir. Tavba insonni ruhiy uyg'onishga olib keladi va uni tobora Haq ila baqo bo'lishini tezlashtiradi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy "Mir'ot ul- obidiyn" (Obid insonlar ko'zgusi) asarida yomon yo'lga kirib qolgan va adashgan kimsalarni tavba qilishga chorlab shunday dedi: - ""Ularda qalb bor, biroq bu dil bilan hech narsani tushunmaydilar, ularda ko'z bor, biroq bu ko'z bilan hech

narsani ko‘rmaydilar, ularda quloq bor, biroq bu quloq bilan hech narsani eshitmadilar.” ***(Qur’on, 7/179).***”[162];

Ikkinchi maqomat bosqichi – Zuhd. Zuhd - dunyoviy orzu-havaslardan, bezak va o‘tkinchi narsalardan voz kechish. Bu narsalar yo‘lida bebaxo nemat umr ya’ni vaqtni bekor o‘tkazmaslik bo‘lib hisoblanadi. Alloma qarashlarida bu “dunyodan yuz o‘girish” emas, balki dunyoni Alloh rizoligi uchun sevish, unga haddan tashqari bog‘lanib qolmaslik nazarda tutiladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftox ul-asror” (Sirlar kaliti) asarida Zuhd qiluvchi insonlarga ta’rif berib ularni 4 ta guruhga ajratadi va ularning birinchisiga shunday ta’rif beradi, - “Bilinki, insonni (nuksondan) sof kilandan, tarikat kuchasiga kadam kuytan kishilarni sufiylar deb ataydilar. Bular turt guruxga bulinadilar. U lardan birinchisi fakattina solik bulib, ularni mubtadiy (boshplovchi) va zoxid deydilar. Bu fakat zoxirga oro berish emas, balki kuyidagi buyurilanga mos bulidir, ya’ni: Zuxd - bu kalbni sabablardan ayrib, sabablarning Rabbiga karatishdir». Xar kim shunday bulmasa sufiyya soxiblaridan emas. Shuning uchun xam, Mavlaviy, sirlari mukaddas bulsin, shunga ishorat kilib buyuradilar”[163]:

Chashmbandi talk juz asbob nest,
Xar ky larzad bar sabab, z-astob nest.

(Xalkdan kuz yum, xalk sabablardan boshka emas,
Xar kim sababdan titrasa, asxobdan emas)[164].

Uchinchi maqomat bosqichi – qanoat maqomi. Qanoat - halol rizq bilan kifoyalanish va Alloh taqdiriga rozi bo‘lish. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida Mavlona Ruminiyning g‘azaliga shunday ta’rif berib o‘tadi:

---

162

163 Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 108.

164 Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 109.

Ey qanoat karda az iymon ba qavl.
Toza kun iymon na az gufti zabon,
Ey havoro toza karda dar nihon.

Sharh:
Ey iymonga so‘z bilan qanoat qiluvchi odam.
Iymonni til so‘zi bilan yangi qilma,
Ey havasni yashirin yangilagan odam[165].

So‘zda amal qiluvchidayu, amalga kelganda boshqa bo‘luvchilar. Iymonni tilde emas dildan yangilang. Havasni tiying, uni pinhona yangilab qanoatni sindirmang demoqchilar go‘yo;

To‘rtinchi maqomat bosqichi – Sabr va shukr maqomi. Sabr - insonni barcha sinovlardan yengib o‘tishga tayyorlaydi. Kutish va barcha ish-faoliyatga kifoyadorlikni oshiradi. Shukr - ne’mat va sinovlarni Haqdan deb bilib, undan rozi bo‘lishni anglatadi. Shayx Odina Eshon fikricha, sabr va shukr bir-birini to‘ldiruvchi ikki qanot bo‘lib, ularning har biri bir birisiz mukammal bo‘la olmasligini tushuntirib o‘tadi;

Beshinchi maqomat bosqichi – Tavakkul maqomi. Inson barcha ishini Allohga topshirishi, biroq mehnat va sa’y-harakatdan voz kechmasligi zarurligi uqtiriladi hamda barcha faoliyat va hatti-harakatni Unga tavakkal qilib amalga oshirish. Tavakkul - ilohiy adolatga ishonch va ruhiy xotirjamlik manbai sifatida talqin qilinadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko‘zgusi) asarida tavakkul qiluvchilar haqida shunday fikr yuritadi, - “Nabiy alayhissalom buyurdilar: “Allohga ijobat bo‘lishiga shoshgan holda duo qilinglar, bilinglarki, albatta Alloh g‘ofil qalbdan duoni qabul qilmaydi.” Agar istig‘oza duosi ijobat niyatiga tegmasa, uning sohibi Shayton vasvasasidan haloslik topolmaydi. Chunonchi, Haq subhonahu va taolo buyurdi: “Batahqiq, shayton uchun do‘stlik ul

[165] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 21.

odamlarigakim, iymon keltirdilar va Parvardigorlariga tavakkul qilurlar.” **(Qur'on, 16/99).** Lekin tavakkulning tafofuli daraja va martabalari bor. Chunonchi, bir kimsaning tavakkul binosida qancha miqdor rahna bo‘lsa, shu miqdorda asbobga e’tiqod qiladi va bu asbobni Shayton o‘zi uchun qurol qiladi. Demak, uning sohibi sari yo‘l topadi. Va bu g‘ofilarning boshiga keluvchi g‘aflat sabablaridir.”[166];

Oltinchi maqomat bosqichi – Rizo maqomi. Shayx Odina Eshon rizo maqomini ruhiy sayrning eng yuksak pog‘onalaridan biri deb biladi. Haq rizoligi va shafoatiga erishishga intilish sifatida baxolanadi. Bu maqomda murid Allohning barcha irodasini chin dildan qabul qiladi, nafsiy istaklardan butunlay voz kechadi. Barcha faoliyatni uning rozi-rizoligi yo‘lida ya’ni uning bevosita guvohligida qilayotgandan faoliyat olib boorish bosqichidir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida Xaq rizosiga yetishish haqida, - “Chunonchi, qudsiy hadisda Xaq ta’olo buyurdi: «Ey Muhammad, Sendan boshqa narsani sen uchun yaratdim». Onhazrat sallallohu alayhi va sallam esa Haq ta’olo rizosi uchun tark qilib, Alloh dargohiga murojaat qilib, dedilar: «Ey Allohim, Sensan va men emasman, Sen uchun Sendan boshqa narsani tark etdim». Demak, Onhazrat sallallohu alayhi va sallam borlig‘i oldida solikning borlig‘i xatodir, uning yo‘qligi maqsuddirki, buyuradilar”[167]:

Peshi hasty o‘ biboyad nest bud,
Chist hastӣ peshi o‘ ko‘ru kabud.

(Uning borlig‘i oldida yo‘q bo‘lmoq kerak,
Uning oldida ko‘ru ko‘kning borlig‘i nimadir?) [168]

Sharh. Solikning borligi xato va maqsadining yo‘qlik ekani shu sababdanki, solikning borlig‘i Haqning mushohadasiga to‘siq bo‘ladi va bu mushohadaning

---

[166] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 11.
[167] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 150-151.
[168] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 81 а.

ajoyib va g‘aroyiblari tahrir va bayon doirasidan tashqaridir. Bu mushohada esa Onhazrat sallallohu alayhi va sallamning borligi va nuriga g‘arq va yo‘q bo‘lgandan so‘ng hosil bo‘ladi;

Yettinchi maqomat bosqichi – Muhabbat maqomi. Ilohiy muhabbat - tasavvufiy hayotning markazi. Insonning Haqqa bo‘lgan va Haq haq deb bilgan barcha narsalarga nisbatan muhabbat nazarda tutiladi. Shayx Odina Eshon talqinida muhabbat orqali inson “komil inson” darajasiga ko‘tariladi. Komillik sifatlari unda nur misol porlaydi ya’ni bu maqomda insonning qalbi ilohiy nur bilan to‘ladi. Buni hamma hammayam ko‘ra yoki seza olmaydi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida maqomatlardan o‘tish va ma’lum maqomga yetishish haqida so‘z yuritib quyidagicha fikrlarni bildiradi, - “O‘tmish mashoyixlarining ruhoniyatlari, Alloh ularning sirlarini muqaddas qilsin, meni tarbiyat maqomida tutdilar. Maqomotlarning ko‘pligiga qaramasdan, birorta aziz ikki maqomdan ozgina muddatda Xaq subhonahuning jazbasi va inoyatiga yetisha olmagan. (Faqir) Onhazrat sallallohu alayhi va sallamning iltifotlari hamda ulug‘lar, Alloh ularning sirlarini muqaddas qilsin, ruhoniyatining madadi bilan barcha manzillar va maqomotlardan o‘tishga muyassar bo‘ldi. Onhazrat (sa.v.)ning «men Allohdanman va mo‘minlar mendan» so‘zlari bo‘yicha, asli o‘zlari bo‘lgan nuru anvorlariga, faqru fano joyi bo‘lgan «faqirlik faxrimdir» inoyatiga hamda holni usiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan tamkin maqomiga yeta olish sharafiga muyassar bo‘ldi. «Buning uchun Allohga hamdlar bo‘lsin, bu Allohning fazlidir, kimga xohlasa, unga beradi”[169].

Shayx Odina Eshon ta’limotida maqomlarning falsafiy mohiyati ontologik va goseologik jihatdan olib qarakganda – maqomlar insonning mavjudlik darajasini bosqichma-bosqich yuksaltiruvchi ruhiy zinapoya sifatida talqin qilib, goseologik tamondan inson bilish qobiliyatini bosqichma-bosqich ruhiy jihatdan yuksalib borishini anglatib, aqliy va qalbiy uyg‘unlik to‘laqonli amalga oshiradi hamda bu maqomlar insonda tafakkur va qalb uyg‘unligini ta’minlaydi. Maqomlarning yakuniy

---

[169] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 12.

natijasi sifatida “komil inson” g‘oyasi ilgari suriladi va unga elituvchi mukammal yo‘l sifatida qaraladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko‘zgusi) asarida tavhidning turli so‘fiylar qarashini mukammal tarzda sharhlab bergan. Chunonchi, Shayx Farididdin Attor, sirlari muqaddas bo‘lsin, bu maqomning raddida aytganlar:

Har libose, ki ba saxro omadast,
Soyai Simug‘r zebo omadast.
Gar hama Simug‘r gar chil murg‘ bud,
Har chi didӣ soyai Simug‘r bud.
Chun tu gum chashtiy chunӣ dar soya,
Kay zi Simug‘rat rasad sarmoya.

(Saxroda paydo bo‘lgan har qanday libos,
Bu zebo Simug‘rning soyasidir.
Agar senga Simug‘r o‘z jamolini ko‘rsatsa,
Soyani Simug‘r deb o‘ylaysan.
Simug‘r aslida qirqta qush bo‘lib,
Nimaniki ko‘rsang, Simug‘rning soyasidir.
Sen soya ichida yo‘q bo‘lib ketsang,
Qachon senga Simug‘rdan sarmoya yetadi?)[170]

Yohud oyna va surati orasini farq qila oladilar, chunonchi bu «tavhidi shuxudiy» ahlining holatidir. Chunonchi, ular aytadilar: «Biz hech narsani ko‘rmadik, birok ko‘rsak, unda Allohni ko‘rdik». Chunonchi, Shayx Farididdin Attor, sirlari muqaddas bo‘lsin, bu haqda aytganlar:

---

[170] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 19.

Har chi binad ro‘yy ӯ binad mudom,
Zarra-zarra ko‘yi ӯ binad mudom.
Sad hazor arzӯ dar yake nikob,
Rӯy mebinonad ӯ ham oftob.
Sad hazoron mard gum gardida mudom,
To yake asrorbin gardida tamom.

(Nimani ko‘rsa mudom Uning izini ko‘radi,
Zarralarni Uning ko‘yi kabi ko‘radi.
Yuz ming sirlar niqobi ostida,
Quyosh kabi unga izini ko‘rsatadi.
Yuz minglab kishilar yo‘qlikka ketib,
Ulardan bittasiga sirarni to‘la biluvchi bo‘ladi.)[171]

Shayx Attor, sirlari muqaddas bo‘lsin, «tavhidi vujudiy» ahli haqida aytganlar:

Chun tu gum chashtiy chunӣ dar soya,
Kay zi Simug‘rat rasad sarmoya.

(Sen soya ichida yo‘q bo‘lib ketsang,
Qachon senga Simug‘rdan sarmoya yetadi?)[172]

«Tavhidi shuxudiy» bayonida aytganlar:
Sad hazoron mard gum gardida mudom,
To yake asrorbin gardida tamom.

---

[171] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 19-20.
[172] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 20.

(Yuz minglab kishilar yo‘qlikka ketib,
Ulardan bittasiga sirarni to‘la biluvchi bo‘ladi.)[173]

Ta’kidlash bilan ochiq aytganlarki, tavhidning bu ikki martabasidan yuqoriroq boshqa bir maqom bordirki, bu yo‘lning eng oliy maqsadi, a’lo matlabi va nihoyatidir. Va bayon qilganlarki, tavhid ahlining bu ikki guruhi modomiki, bu ikki maqomning namoyishi bilan mashg‘ul ekanlar, o‘shal oliy maqomga yeta olmaydilar va shu joyda qolib ketadilar. Biroq davlat humosi unga soya tashlasa, bu chalkashishdan tortӣb olsa va yuqori ko‘tarsa, ana o‘sha maqomga yetadi. Va ana shu bir kishi haqiqatda bu sirru asrorlarga yetadi. Chunonchi, aytdilar:

To yake asrorbin gardida mudom.
(Uning bittasi sirarni mudom biluvchi bo‘ladi.)

Va bu ishning nihoyatida bu sirru asrorlarga yetgan bir tan barcha avliyolarining amiri, sarkarday va Qutb bo‘ladi va boshqa avliyolar uning lashkari va tobelari bo‘ladilar. Chunonchi, hazrati Mavlaviy Rumiy, sirlari muqaddas bo‘lsin, aytganlar:

Dar ҷahon on yak kas astu ablax ast,
Axtaron har yak hama ҷuzvi mah ast.
(Jahonda u yagona kishi-yu, biroq nodondir,
Yulduzlarning har biri Oyning qismlaridir.)[174]

Sharh: U yagona kishi nodondir», ya’ni u yoqimli hayrat sohibidir-ki, duolar ijobatdir. Hazrati Rasulalloh, ularga salovotlarining afzali bo‘lsin, Robb ul-arboob (Alloh) dargohiga iltijo qilib: «Hayratimni ziyoda qil», - deganlar. O‘sha yagona

[173] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 20.
[174] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 20-21.

tankim, yoqimli hayrat sohibining nihoyatiga yetuvchi va mushohada sohibi ekan, uning tasmiya aytishi mushohada tariqi orqalidir. Chunonchi, uning tili muborak ismni aytishida, joni esa Hazrati Zotning jamolini mushohada qilishda bo‘ladi. Hazrati Shayx Farididdin Attor, sirlari muqaddas bo‘lsin, aytganlar:

Hazrate didand bevasab sifat,
Bartar az idroki aqlu ma’rifat.
(Sifat vasfiga esa bo‘lmagan Zotni ko‘rdilar,
U aql va ma’rifat idrokidan yuqori edi.)[175]

Hazrati Siddiqi Akbar, raziyallohu anhu, aytgan edilar: «O‘zining ma’rifatiga ojizlik orqali yetkazadigan Allohga hamdlar bo‘lsin». Hazrati Shayx Junayd, sirlari muqaddas bo‘lsin, aytgan edilar: «Har kim Alloh desa va bu aytishni mushohada yuzasidan bo‘lmasa, demak bu aytuvchi yolg‘ongo‘ydir». Va bu yoqimli hayrat sohib bo‘lgan nihoyatga yetuvchilarning holiga nisbatan aytilgan so‘zdir. Ularning mushohadalari o‘z ixtiyorlariga bo‘ladi. Chunonchi, hazrati Mavlaviy, sirlari muqaddas bo‘lsin, aytganlar[176]:

Sufiy ibn ul-vaqt boshad dar misol,
Lek sufiy forig‘ ast az vaqtu hol.
Holi u mavquf azmi rӯhi ӯ,
Zinda az nafxi Masiih rohi ӯ.

(Sufiy - bu vaqt farzandidir, ammo u vaqt va holdan ozoddir. Uning holi o‘z ruhining azmi bilan bog‘langan, U Iso nafasidan jonlangan tirikdir.)

[175] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 21.
[176] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 21.

Shayx Odina Eshon ma'naviy merosida tasavvufiy maqomlar insonning ruhiy sayrida eng muhim yo'nalish sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra ularni uch guruhga guruhlash mumkin:

Tavba – nurlanishning boshlanishi. Irodat (muridlik) va inobat (tavba) yo'lini tutdi. Dunyo va uning izzati va rohatdan yuz o'girdi. Xorlik va bemiqdorlikni qidirishga tushdi. «Dilni tuzatsang, u bilan gavdaning boshqa a'zolari tuzaladi» (hadisi)ning hukmi bo'yicha, lazzatdan ko'ra qiyinchilikni tanladi, tanini esa riyozat va mashaqqatta tashladi, «kimki Alloh uchun o'zini past tutsa, Alloh uni yuqori ko'taradi» (hodisi)ning bashorati payida o'zini ojizlik va shikastalik qo'liga topshirdi. (Natijada) «mo'min odam Alloh nuri orqali qaraydi» (hadisi)ning hukmi bo'yicha, yaqin va hidoyat (sirlari) ayon bo'ldi. Onhazrat sallallohu alayhi va sallam Ilohiy mehribonlik bilan inoyat va iltifot ko'rsatib, o'zining tarbiyat hujrasida saqladi;[177]

Zuhd, sabr, shukr, tavakkul - ruhiy tarbiya vositasi;

Rizo va muhabbat - insonni Haqqa yetaklovchi oliy maqomlar sifatida muhim o'rinni egallaydi.

Shayx Odina Eshon bu maqomlarni faqat nazariy emas, balki amaliy ruhiy tarbiya jarayonida ham asosiy qoida sifatida ko'rsatgan. Shuning uchun uning merosi tasavvufshunoslikda muhim ilmiy va ma'naviy manba sifatida qadrlanadi va o'rganilishga muxtoj hisoblanadi.

Shayx Odina Eshonning "Mir'ot ul-'obidiyn" asarining ko'p o'rinlarida ramziy-falsafiy obrazlar foydalangan bo'lib, Ko'zgu, nafsiy zang, nur, obid va boshqalar. Ko'zgu – qalbning ramzi sifatida talqin qilinsa, Nafsiy zang – qalbni qoraytiruvchi yomon illatlar sifatida talqin etilgan. Nur esa – ilohiy haqiqat, Haqning tajallisi sifatida ko'riladi. Obid tushunchasi – insoniy kamolot sari yo'lga chiqqan ruhiy sayyoh sifatida qaraladi. Alloma asarning zamonaviy ahamiyatiga qaralganda, ijtimoiy-falsafiy jihatdan – insonning o'zini tanishi va anglashi, ruh va nafs, aql va qalb o'rtasidagi kurashni anglashda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan – yoshlarni halollik, poklik, sabr-toqat va

[177] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 76 а.

muhabbat yo‘liga undovchi hikmatli qo‘llanma bo‘lib ham hisoblanadi. Bugungi davr uchun esa, qalbni “ko‘zgu” sifatida talqin qilish g‘oyasi insoniy, milliy qadriyatlarni tiklash, ruhiy-ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. “Mir’ot ul-’obidiyn” asari tasavvuf falsafasida qalbni ko‘zgu sifatida talqin etib, unda ilohiy nur aks etishini asosiy g‘oya qilib qo‘yadi. Asarda insonning ichki sayri, maqomlar bosqichi, ilm va ma’rifat farqi, komil inson konsepsiyasi falsafiy chuqurlikda yoritilgan. Demak, bu asar nafaqat tasavvufiy qo‘llanma, balki inson mohiyatini falsafiy tahlil etuvchi noyob manba hamdir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko‘zgusi) asarida namoz o‘qishning qonun qoidalarining tartibini yozib qoldirgan bo‘lib, niyat qilishdan to namozning yakuni niyat qilishning tartib taomilini o‘zida mujassam etgan buyuk asardir. Asarda:

Niyat amalga qasd va azm qilishdan iborat bo‘lib, Allohdan o‘zga barcha narsalardan ajratib, haqiqiy va asl maqsud bo‘lgan Haq taologa yo‘naltirig‘a diqqatini Haq taolo sariga yo‘naltirishga qasd qilishi lozim. Niyat holis va chin yurak tug‘yoni bo‘lishi lozim[178];

Ibodatda, tana amallaridan bo‘lgan har qanday amal, agar u namozni noqil qiladigan bo‘lsa, undan saqlanish va parhez qilish lozim, toki namoz zohiriy buzulishdan salomat bo‘lsin. Shuningdek, har qanday qalb andishasi va fikriki, hazrati Beniyoz (Alloh)ga qilinmagan namoz va munojotdagi huzur va ogohlikka qarshi bo‘lsa, undan ham saqlanish va parhez qilib, mosivalloh (Allohdan o‘zga narsalar)dan uzilish va Allohga vosil bo‘lishni qidirish lozim. Mana shu ma’naviy tahorat bo‘lib, Rasul sallallohu alayhi va sallam shunga ishora qilib aytdilar: “Tahorat - uzilish, namoz - etishishdir, kimki uzilmasa, demak u etishmaydi.”[179]

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy XVIII asr Xorazm madaniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan mutasavvif va mutafakkirdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” (“Obid insonlar ko‘zgusi”) asari tasavvufiy-

---

[178] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 9.

[179] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 10.

falsafiy tafakkurning yuksak namunalaridan biri bo‘lib, unda shariat va tariqatning uyg‘unligi, qalb va nafsni poklash masalalari, vahdat ul-vujud g‘oyasi, sabr, shukr, tavozu, adolat kabi axloqiy fazilatlarning inson kamolotidagi o‘rni keng yoritilgan. Asar mazmunida Qur’on va hadislar bilan bir qatorda Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro, Ibn Arabiyning g‘oyalari ham ko‘plab keltiriladi va sharh qilinadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu ta’limotlarni o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhitiga moslashtirib, xalq ongiga sodda va tushunarli shaklda taqdim etadi. “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida qalb “ko‘zgu”, nafs esa “zang” ramzlari orqali talqin qilinib, solikning qalbini poklash va Haqqa yaqinlashish yo‘lidagi bosqichlari falsafiy izohlanadi. Ushbu paragrafda Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning tasavvuf tarixidagi o‘rni va bugungi davrdagi dolzarbligi tahlil qilinadi.

Sharq ma’naviy merosi, xususan, tasavvuf adabiyoti va falsafasi insoniyatning ruhiy hayotida beqiyos o‘rin tutadi. Tasavvuf – bu faqatgina diniy yo‘nalish emas, balki insonning o‘zini anglash, nafsni poklash, qalbni yuksaltirish va jamiyatda ma’naviy uyg‘onishni ta’minlovchi ta’limotdir. Qur’oni karim va hadislardan ilhomlangan bu yo‘nalish asrlar davomida musulmon dunyosining axloqiy-falsafiy tafakkurini shakllantirgan. Markaziy Osiyo, jumladan, Xorazm zaminida ham tasavvufning turli maktablari shakllanib, ilm-fan va adabiyot rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

XVIII asr – Xorazm tarixida murakkab siyosiy jarayonlar, iqtisodiy tanglik va ijtimoiy beqarorlik davri bo‘lishiga qaramay, tasavvufiy tafakkur yangi bosqichga ko‘tarildi. Ana shu davrda yashab ijod qilgan Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida alohida iz qoldirgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” (“Obid insonlar ko‘zgusi”) asari tasavvufiy-falsafiy tafakkurning yuksak namunasi bo‘lib, solikning ruhiy kamolot yo‘li, shariat va tariqat uyg‘unligi, nafsni jilovlash, qalbni poklash, komil inson konsepsiyasi kabi masalalarni yoritadi.

Xorazm qadimdan tasavvufiy maktablarning yirik markazi bo‘lib kelgan. Bu yerda Najmiddin Kubro asos solgan Kubraviylik tariqati chuqur ildiz otgan va keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini saqlab qolgan. XVIII asrda Xorazm siyosiy jihatdan

beqaror bo‘lsa-da, xalqning ma’naviy hayotida tasavvufiy qarashlar kuchli edi. Xonaqohlar, madrasalar va masjidlar atrofida tasavvufiy ilmiy majlislar o‘tkazilar, “masnaviyxonlik” an’analari davom etardi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ana shu ruhiy muhitda shakllangan. U Qur’on va hadislarni chuqur o‘rgangan, Rumiy, G‘azzoliy, Ibn Arabiy va Najmiddin Kubro kabi mutasavviflarning asarlarini sinchiklab mutolaa qilgan. Shu asosda u o‘z davrining ruhiy ehtiyojlariga javob beruvchi, xalq ongiga yaqin, sodda va chuqur falsafiy ma’no kasb etgan asarlarni yaratdi.

Shayxning tarjimai holiga oid ma’lumotlar to‘liq emas, ammo uning asarlaridan ko‘rinib turibdiki, u o‘z davrida diniy-ilmiy bilimlarni puxta egallagan, Qur’on tafsiri, hadis ilmi, fiqh va arab tili bo‘yicha yetuk alloma bo‘lgan. U tasavvuf yo‘lida an’anaviy murshid-murid tizimini ham o‘rgangan, lekin ko‘pincha mustaqil mushohada orqali o‘z yo‘lini topgan. “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida ham bu jihat yaqqol seziladi: muallif ko‘p mashhur mashoyixlarga murojaat qilgan bo‘lsa-da, o‘zining mustaqil fikrlarini ilgari suradi.

“Mir’ot ul-Obidiyn” asarining yozilishida bir nechta sabablarni ko‘rish mumkin:

1. Jamiyatda ma’naviy tanazzulni bartaraf etish va xalqni poklik, ixlos, sabr-shukr yo‘liga chorash;
2. Rumiy “Masnaviy”ida ifodalangan ramziy hikoyatlarni Qur’on va hadis asosida sodda va tushunarli izohlash;
3. Tasavvufiy qarashlarni keng kitobxonlar ommasiga moslashtirish, xalq ongiga yaqinlashtirish.

Manba sifatida Qur’oni karim, hadislar, Rumiy “Masnaviy”i, Najmiddin Kubroning “Favoih ul-jamal”, Ibn Arabiyning “Fusus ul-hikam”i, G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din”i va boshqa tasavvufiy manbalar keng qo‘llanilgan.

Bugungi kunda ma’naviy inqiroz, global muammolar, insoniy qadriyatlarning zaiflashuvi sharoitida tasavvufiy merosga qaytish, u orqali jamiyatni ma’naviy uyg‘otish dolzarb masalalardan biridir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” asari bu borada muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi

mumkin. Unda bayon etilgan qalb pokligi, nafsni jilovlash, adolat, sabr, shukr, tavozu kabi g‘oyalar bugungi jamiyat tarbiyasi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida ifodalangan falsafiy mohiyatni ochib berishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

asarning tuzilishi va mazmuniy qatlamlarini tahlil qilish;

qalb va nafs konsepsiyasini falsafiy talqin qilish;

vahdat ul-vujud va borliq–yo‘qlik masalalarini sharhlash;

axloqiy-falsafiy g‘oyalarni tizimli ravishda ko‘rsatish;

komil inson konsepsiyasining mohiyatini ochish;

asarning tasavvuf tarixidagi va zamonaviy davrdagi o‘rnini belgilash.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” (“Obid insonlar ko‘zgusi”) asari XVIII asr Xorazm tasavvufiy-falsafiy tafakkurining yuksak namunalaridan biridir. Asar nomidan ma’lumki, u “obid insonlar uchun ko‘zgu” bo‘lib, solikning ruhiy sayohatini aks ettiruvchi va uni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ma’naviy qo‘llanmadir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu asarni yaratish orqali o‘z davridagi xalqni nafaqat tasavvufiy bilimlar bilan tanishtiradi, balki ularning kundalik hayotini ham Qur’on va hadis asosida tartibga solishga xizmat qiluvchi axloqiy-falsafiy dastur ishlab chiqadi.

Asarning tuzilishida shariat, tariqat va haqiqatning bir butunligi asosiy o‘rin tutadi. Zohiriy amallarni bajarish – tahorat, namoz, ro‘za kabi qoidalar – bu yo‘lning tashqi shaklini tashkil etsa, botiniy poklanish va qalb tarbiyasi uning mazmunini belgilaydi. Shu bois, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotida zohir va botin uyg‘unligi asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

“Mir’ot ul-Obidiyn” bir necha asosiy mavzularni o‘z ichiga oladi:

Shariat asoslari – tahorat, namoz, ro‘za, zakot va boshqa ibodatlarning ma’naviy-falsafiy talqini;

Tariqat yo‘li – zikr, riyozat, murshid-murid munosabati, qalbni poklash jarayoni;

Ma’rifat – Qur’on va hadis asosida solikning ilmiy va ruhiy yuksalishi;

Haqiqat – vahdat ul-vujud, borliq va yo'qlik dialektikasi, fano va baqo darajalari;

Axloqiy ta'limot – sabr, shukr, tavozu, adolat va komil inson konsepsiyasi.

Har bir bo'limda muallif Qur'on oyatlari, hadislar va mashhur mutasavviflarning hikmatlarini keltirib, ularni xalqona va sodda tilda izohlaydi.

Asarda alohida o'rin olgan mavzulardan biri – tahoratdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tahoratni ikki qismga bo'ladi:

Zohiriy tahorat – tashqi poklik, ya'ni gavdani najosatdan, kiyimni ifloslikdan saqlash.

Botiniy tahorat – qalbni hasad, kibr, riyo, g'azab kabi nafs illatlaridan poklash.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, agar inson faqat zohiriy tahorat bilan kifoyalansa, asl maqsadga erishmaydi. Haqiqiy tahorat – qalbning nurli bo'lishidir. Bu g'oya tasavvuf falsafasidagi zohir va botin uyg'unligi haqidagi tamoyilning amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

"Mir'ot ul-Obidiyn"da barcha fikrlar Qur'on va hadisga tayangan holda bayon etiladi. Masalan, muallif qalbni ko'zguga o'xshatarkan, **"Alloh sizlarning suratlaringizga emas, balki qalblaringizga qaraydi"** degan hadisni asos qilib oladi. Shuningdek, sabr va shukr haqidagi oyatlar keng tahlil qilinadi: **"Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir"**[180] (Baqara, 153), **"Agar shukr qilsangiz, ne'matni ziyoda qilaman"**[181] (Ibrohim, 7).

Bu sharhlar orqali muallif tasavvufni shar'iy manbalarga tayanib, uni diniy va falsafiy asoslar bilan mustahkamlaydi.

Asarning markaziy ramzlaridan biri – ko'zgudir. Qalb – Alloh nurini aks ettiruvchi ko'zgu, nafs esa uni qoplagan zangdir. Solikning vazifasi bu zangni zikr, tavba va riyozat orqali ketkazib, qalbni nurli ko'zguga aylantirishdir. Bu metafora orqali Shayx Odina Muhammad Xorazmiy inson ruhiyatidagi ichki kurashni falsafiy jihatdan izohlaydi.

---

[180] Қуръони карим, (Бақара, 153)
[181] Қуръони карим, (Иброҳим, 7)

"Mir'ot ul-Obidiyn" faqatgina tasavvuf ahli uchun emas, balki oddiy xalq uchun ham yozilgan. Undagi sodda tilda berilgan hikmatlar "masnaviyxonlik" majlislarida keng o'qilgan va xalq orasida tarqalgan. Bu jihati bilan asar ilmiy-falsafiy kitob bo'lishi bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy qo'llanma sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Asarning mazmuniy asoslarini tahlil qilar ekanmiz, unda tasavvufiy-falsafiy g'oyalarning yaxlit tizimi ko'zga tashlanadi:

Shariat – tashqi qoidalar va ibodatlar;

Tariqat – ruhiy sayohat va nafsni jilovlash;

Ma'rifat – ilm va mushohada;

Haqiqat – Haq bilan birlashuv, fano va baqo.

Demak, "Mir'ot ul-Obidiyn" tasavvufiy-falsafiy tafakkurning mukammal qo'llanmasi bo'lib, solikni birinchi bosqichdan eng oliy darajaga – komillikka eltuvchi yo'lni ko'rsatib beradi.

Tasavvuf falsafasida qalb insonning eng muhim markazi sifatida talqin qilinadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham "Mir'ot ul-Obidiyn" asarida qalbni komillikka eltuvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Qalb – ilohiy nurni qabul qiluvchi, haqiqatni idrok etuvchi va Allohga yaqinlashtiruvchi markazdir. Agar qalb toza va pok bo'lsa, insonning barcha amallari ham to'g'ri bo'ladi; agar qalb buzuq bo'lsa, inson hayoti ham zino, riyo va manmanlik bilan to'ladi.

Hadisda shunday deyiladi: **"Ogoh bo'ling, inson tanasida bir parcha go'sht bor. Agar u sog'lom bo'lsa, butun tana sog'lom bo'ladi. Agar u buzilsa, butun tana buziladi. Ogoh bo'ling, u qalbdir"**. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu hadisni asos qilib olib, qalbni poklashni solikning eng muhim vazifasi sifatida ta'kidlaydi.

Qalbni poklashning asosiy vositalari sifatida muallif quyidagilarni keltiradi:

Zikr – Allohni doimiy eslash orqali qalbni nur bilan to'ldirish;

Tavba – gunoh va xatolardan chin dildan qaytish;

Riyozat – nafs istaklarini jilovlash va o'zini tarbiyalash;

Sabr va shukr – sinovlarga bardosh berish va ne'matlarga minnatdorlik bilan qarash.

Qalbni poklash natijasida inson Allohning tajalliylarini his qiladi, qalb oynasi orqali ilohiy nur aks etadi. Shu bois Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qalbni "ko'zgu"ga o'xshatadi: ko'zgu zang bosmasa, nurni to'liq aks ettiradi; qalb ham nafs illatlaridan poklansa, Haq nurini to'liq qabul qiladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham "Mir'ot ul-Obidiyn" asarida nafs va uni jilovlash haqida so'z yuritib quyidagilarni yozib qoldirgan.

Yana rohatdan mehnatga qochish, izzatdan xorlikka kelish, shakkadan aniqqa yetishish, sarkashlik va manmanlikdan taslimga kelish, kibru havo taqozolari va dunyoning o'zga xalq etuvchilaridan yuz o'girish, Xudoyi taolo amr (buyruq)laricha mashg'ul bo'lish. Shunir Haq subhonahu va taologa tavoze (kamtarlik)da bo'lish va Payg'ambar sallallohu alayhi va sallam fazilatini bayon qilgan Allohning qavli: "Kimki o'zini past olsa, Alloh uni hatto oliy illiyinga ko'taradi, kimki o'zini baland tutsa, Alloh uni to asfala sofiliyingacha pastlatadi". Xulosa shuki, insonning nafsiga ma'siyatlar mahbub va yoqimli bo'ladi. Vaqtiki inson balog'at va aql haddiga yetgach, zohiriy foyda va zararni bilgach, yaxshi va yomonni ajratgach, endi unda quyidagi istaklar tug'iladi: dunyoning qidirish, uning foydasiga ega bo'lish, badan tarbiyati bo'lgan chiroyli liboslarni kiyish,
lazzatli taomlar yeyish va sharbatlarni ichish, yashash uchun hovlilar va keng binolar, baland saroylar, yer mulki va bӯston, xushraftor markablar, behisob hayvonlar. Bu aldov dunyoning bebaho matolariga g'arq bo'lib, surur saroyi bo'lgan abadiy ulug' ne'matni unutish, hoyu-havas ketidan yurish, ko'ngil lazzatini o'z yaqinlaridan olish, do'stlaridan o'ch olish, yengish va g'alaba qilish, o'zidan o'zgalarni yomonlash, kokori tutush, ustidan hokimlik qilish, balki unda paydo bo'lgan barcha yomon kulflar va fe'llarini sanashdan ko'p so'z va malollik hosil bo'ladi. Bu sanab o'tilganlarning hammasi zalolat va adashuv sari tortuvchi va maqsadsiz uzoqqa tashlovchidirlar. Toki dini bularning ziyonlaridan qochuvchi, saqlanuvchi va o'zini e'zozlovchi bo'lmasa ekan, to'g'ri va tugal Xudovandi subhonahuning maslakiga qo'yim bo'lmaydi. Kimda tayyor bo'lmasa va jahonga iltifot qiluvchi dori surati

(shoyiil)ning muhibbi bo‘lmasa, gunohidan tavbaga qabul bo‘lmaydi, qalbi isloh topmaydi.[182]

Umuman olib qaralganda nafsni tiyish va qalb xotorjamligiga erishish har bir solikning asosiy vazifasidir. Demak, dil gunohlardan va yomon xislatlardan sof bo‘lmasa ekan, boshqa a’zolar ham salomat bo‘lolmaydi. Hadislarda keltiriladiki, Albatta, Odam farzandining gavdasida bir parcha go‘sht bo‘lib, agar u sog‘ bo‘lsa, boshqa a’zolar ham sog‘ bo‘ladi, agar u buzilsa, boshqa a’zolar ham buziladi, ogoh bo‘lingki, u dildir. Botiniy ibodatlar va zohiriy amallar qalb sog‘lom bo‘lmasa va aqida poklanmasa, undan natija va samara hosil bo‘lmaydi va Haq subhonahu nazdida qabul martabasiga erishmaydi. Har bir kishi agar qalbi nur bilan yorilsa, unda bu dunyodagi aldanuvchi o‘yinlardan bezib, boqiy dunyo, ya’ni abadiy ne’matlar sari yuz tutadi va o‘z ma’iyyatiga yaqin etib, o‘lim kelmasdan avval unga tayyor bo‘ladi.

Asarda nafs insonni Haqdan uzoqlashtiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafsni “qalb ko‘zgusini zanglatadigan” illat deb biladi. Nafsning asosiy illatlari quyidagilardan iborat:

Kibr – o‘zini boshqalardan ustun qo‘yish. Bu insonni halokatga eltuvchi eng og‘ir illatlardan biridir.

Hasad – birovning ne’matidan xafa bo‘lish, uning barakasini xohlab qo‘yish.

Riyo – amallarni Alloh uchun emas, balki odamlar uchun qilish.

Ta’ma – dunyoga haddan tashqari bog‘lanish, ochko‘zlik.

G‘azab – o‘zini tuta olmaslik, adolatni yo‘qotish.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida ruxiy poklanishning to‘rt bosqichini g‘azal bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Mavone to nagardony zi xud dur,
Daruni xonai dil n-oyadat nur.
Mavonēch chun dar in olam chahor ast,
Tahorat kardan az vay ham chahor ast.

---

[182] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 66.

Naxustin pokӣ az ixdosu anjos,
Duiyum az musitu az sharmu vasvos.
Seiyum pokӣ zi axloqi zamimast,
Ki bo vay odame hamchun baximast.
Chahorum pokii sirr ast az g'ayr,
Ki in jo muntahi megardad as-sayr.
Har on k-ӯ kard hosil in tahorat,
Shavad beshak, sazovori munoҷot.

*(O'zingdan to to'sqinlarni olib tashlamaguningcha,*
*Dil uyi ichiga nur kirmaydi.*
*To'sqinlar bu olam ichida to'rttadir,*
*Undan poklanish ham to'rtta bo'ladi.*
*Birinchi, najosat va chirkdan pok bo'lish,*
*Ikkinchi, ma'siyat va vasvasalardan pok bo'lish.*
*Uchinchi, yomon xulqlardan pok bo'lish,*
*Bundagi fe'l bilan odam hayvon kabi bo'ladi.*
*To'rtinchisi, bu sirdan g'ayridan ozod bo'lish,*
*Shu joy bu sayrning oxiriga yetadi.*
*Har kim bu tahorat (poklanish)ni hosil qilsa,*
*U Alloh uchun munoҷot qilmoqqa loyiqdir.)*[183]

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, bu illatlar qalbni qoraytiradi va solikni Haqdan uzoqlashtiradi. Nafsni jilovlash esa insonni ruhiy yuksalishga eltadi.

Asarda qalb va nafs qarama-qarshi kuchlar sifatida talqin qilinadi. Qalb – nur manbai, nafs esa zulmat manbai. Qalb Haqqa intilsa, nafs uni o'zining havoyi

---

[183] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Тавбат ут-тойибин" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси "Тавба қилувчиларнинг тавбаси"). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 70.

istaklariga tortadi. Bu ichki kurash tasavvufda eng asosiy jarayon sifatida talqin qilinadi.

Qalb “ko‘zgu”ga o‘xshatilishi bejiz emas: ko‘zgu zanglasa, hech narsani aks ettirmaydi; qalb ham nafs bilan to‘lsa, ilohiy nurni qabul qilolmaydi. Shu bois zikr va riyozat qalbni zangdan tozalovchi vosita sifatida ko‘riladi. Bu metafora orqali Shayx Odina Muhammad Xorazmiy insonning ruhiy poklanish jarayonini falsafiy darajada ifodalaydi. “Mir’ot ul-Obidiyn”da qalb va nafs o‘rtasidagi kurash solikning hayotiy vazifasi sifatida ko‘rsatiladi. Qalb Allohga yuzlanadi, nafs esa uni dunyo havaslariga tortadi. Solikning vazifasi – qalbni mustahkamlash, nafsni jilovlash, qalbni g‘olib qilishdir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida insonning duyo dardi haqida fikr yuritib o‘zidan oldingi allomalarning qarashlarini sharhlab ketgan.

Mavlono Husayn Voiz (raxmatullohi alayh) «Kashf ul-asror» (*«Sirlarning ochilishi»*) kitobida naql qilib yozadilarki, dunyo xohishi asosi ikki narsadir. Birinchi - dunyoning ziyoda bo‘lishi dinining nuqsoni bilan va bunga rozi bo‘lish. Ikkinchisi - musulmon kambag‘allardan yuz o‘girishi. Balkim, bu darvish (kambag‘al)ning dillarida oxirat hojisini oxiratga yetkazadigan vositani mahkam tutish hojisi bilan mana bu oyatdagi bashoratdan umid va muhtojmandlik yuzasi tufaylidir. Rabb ul-Izzat aytdi: «Kimki xohlasa oxirat savobini va sa’y qilsa uning uchun mos sa’y bilan musumon bo‘lgan holda, bas shularning sa’ylari maqbul jamoa”[184]. Mavlono Husayn Voiz (raxmatullohi alayh)ning «Kashf ul-asror» kitobida naql qilinishicha, oxirat hojisini ham ikki alomatga ega. Birinchi - dining salomatligi dunyoning nuqsoni bilan va bunga rozi bo‘lish. Ikkinchisi - uflatlik va do‘stlik eshigini kambag‘allar (darvishlar)ga ochish (so‘zlari tugadi). Muhibbiyylar yo‘lining go‘zal manzili shunday kishilarki, ularning dillarida Vohib ul-vujud Zotning irodasidan o‘zga iroda (xohish) bo‘lmaydi. Ularning barcha va tugal iroda va talablari Janobi Haq taologa yetishish va Uni topishdan iboratdir. Ularning iltifotlari shunday o‘zga narsaga bo‘lmaydi. Chunonchi, “Qasida-i Rububiya” bayti mana shu ma’noga ishorat qiladi:

[184] Куръон, 17/19

Ana-l-maqsudu va atlubniy taҗidniy,
Fanin tatlub sivoyy lam taҗidniy.

*(Men maqsudman, bas meni qidirsang topasan,*
*Mendan o'zgani qidirsang, hech vaqt topolmaysan.)*[185]

Bu jarayon "jihod ul-akbar" – ya'ni "eng buyuk jihod" deb ataladi. Rasululloh (s.a.v.) hadislarida ham bu jihod – insonning o'z nafsiga qarshi kurashi eng buyuk jihod sifatida talqin qilingan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham bu fikrni o'z asarida keng sharhlaydi.

Qalb va nafs masalasi ruhiy sayohatning bosqichlari bilan bog'liq:

1. Nafs ammora – yovuzlikka buyuruvchi nafs.
2. Nafs vasvasasi – o'zini malomat qiluvchi nafs.
3. Nafs mutma'inna – Allohga rozi bo'lgan nafs.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy solikning vazifasi nafs ammora bosqichidan nafs mutma'inna darajasiga ko'tarilish ekanini ta'kidlaydi. Bu yo'lda zikr, tavba, sabr, shukr, riyozat kabi amaliy vositalar muhim o'rin tutadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qalb va nafs konsepsiyasi orqali insonning ichki dunyosidagi kurashni falsafiy jihatdan asoslab beradi. Qalbni poklash – komillikka eltuvchi yagona yo'l, nafsni jilovlash esa solikning eng buyuk vazifasi sifatida ko'rsatiladi. "Qalb ko'zgusi" metaforasi orqali muallif inson ruhiyatini chuqur tahlil qilib, uni poklik, nur va komillikka chaqiradi.

Tasavvuf tarixida vahdat ul-vujud – ya'ni "borliqning birligi" ta'limoti eng chuqur falsafiy oqimlardan biridir. Bu ta'limotni keng yoygan va mukammal nazariyaga aylantirgan mutasavvif – Shayx Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240) hisoblanadi. Ibn Arabiyning ta'limotiga ko'ra, mavjudotning yagona manbai Allohdir; barcha mavjud narsalar Uning tajalliylaridir. Yaratuvchi va yaratilgan o'rtasidagi chegara faqat idrok va nisbiylik masalasidir.

---

[185] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Тавбат ут-тойибин" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси "Тавба қилувчиларнинг тавбаси"). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 72.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida ana shu ta’limotni shar’iy asoslar bilan uyg‘unlashtiradi. U vahdat ul-vujudni Qur’on oyatlari va hadislar orqali izohlaydi va bu g‘oyani xalq ongiga sodda, tushunarli shaklda yetkazadi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, mutlaq mavjudlik faqat Allohga xosdir. Qur’oni karimda: **“Uning zoti mustasno, barcha narsalar halok bo‘lur”** (Qasos, 88) degan oyat bor. Bu oyatga tayangan holda u inson va butun koinotni foniy, Allohni esa boqiy sifatida talqin qiladi.

Borliq – Allohning tajalliylari sifatida mavjud bo‘lsa, yo‘qlik – foniy va vaqtinchalik narsalarning halokatidir. Shu ma’noda, inson o‘z “men”ini mustaqil mavjudlik deb bilsa, u aslida adashadi, chunki insonning mavjudligi ham Alloh irodasiga bog‘liqdir.

Tasavvufda borliq–yo‘qlik masalasi fano va baqo tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Fano – solikning o‘z “men”ini yo‘q qilishi, nafsini jilovlashi va Haqqa qo‘shilishi;

Baqo – solikning Haq bilan yashashi, Allohning abadiyati bilan uyg‘un bo‘lishi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu jarayonni Qur’on va hadislar asosida izohlaydi. Masalan, hadisda aytiladi: **“O‘linglar o‘lmasingizdan oldin”**. Bu nafsiy o‘lim – ya’ni fanoni anglatadi. Inson o‘zini yo‘q qilib, Haqqa yaqinlashsa, abadiy baqo maqomiga erishadi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy vahdat ul-vujudni tushuntirishda tajalliy va shuhud tushunchalaridan foydalanadi.

Tajalliy – Allohning nurining mavjudotda namoyon bo‘lishi. Har bir jonzot va hodisa ilohiy nurdan dalolat beradi;

Shuhud – solikning qalb ko‘zi bilan bu nur va tajalliylarni idrok etishi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nazarida, oddiy odam bu tajalliylarni ko‘rmaydi, faqat qalbi poklangan solik ularni mushohada qila oladi. Demak,

borliqning har bir zarrasida Haqning nuri bor, ammo uni ko‘rish uchun qalb ko‘zgusini tozalash zarur.

“Mir’ot ul-Obidiyn”da borliq masalasi zohir va botin uyg‘unligi orqali ham tushuntiriladi. Zohiriy dunyo – moddiy borliq, botiniy dunyo – ilohiy haqiqatdir. Inson faqat zohirga qarasa, narsalarning vaqtinchalik foniyligini ko‘radi; agar botinga nazar solsa, ularning ortidagi abadiy haqiqatni idrok etadi.

Bu qarash tasavvuf falsafasidagi ikki qutbli dunyoqarashni ifodalaydi: zohir – ko‘rinadigan, botin – yashirin haqiqat. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu ikki qatlamni ajratib qo‘ymaydi, balki ular bir-birini to‘ldiruvchi birlik sifatida talqin qiladi.

Ibn Arabiy vahdat ul-vujudni ko‘proq metafizik darajada izohlagan bo‘lsa, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy uni shar’iy asoslarda va xalq ongiga yaqin shaklda talqin etadi. Ibn Arabiy g‘oyalari ko‘p hollarda murakkab, falsafiy-metaforik tilda ifodalangan bo‘lsa, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Qur’on oyatlari, hadislar va hikoyatlar orqali oddiy o‘quvchiga tushunarli qilib bayon qiladi.

Masalan, u borliqning foniyligi haqida gapirar ekan, Rumiy hikmatlarini keltirib, ularni Qur’on bilan mustahkamlaydi. Shu bois Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning ta’limoti xalqchil va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida vahdat ul-vujud ta’limoti Qur’on, hadis va tasavvufiy mushohada asosida sodda, ammo chuqur falsafiy mazmunda yoritilgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning qarashlariga ko‘ra:

Alloh – yagona mutlaq mavjudlik egasi;

Barcha mavjudot – Uning tajalliylaridir;

Inson o‘z “men”ini yo‘q qilib, fanoga erishishi lozim;

Haqiqiy baqo – Alloh bilan birga yashashdir;

Zohir va botin – bir butun haqiqatning ikki ko‘rinishidir.

Demak, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy vahdat ul-vujud masalasini faqat nazariy emas, balki amaliy ruhiy sayohat yo‘li sifatida ham talqin qiladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida tasavvufiy hayotning markaziga axloqiy poklikni qo‘yadi. Unga ko‘ra, solikning ruhiy kamoloti nafaqat zikr, riyozat va mushohada orqali, balki axloqiy fazilatlarni hayotida mujassam etish orqali yuz beradi. Sabr, shukr, tavozu, halollik, adolat va mehr-shafqat kabi fazilatlar insonni nafsiy illatlardan xalos etib, qalbni poklaydi va Haqqa yaqinlashtiradi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy sabrni insonning ruhiy tayanchi sifatida ko‘rsatadi. U Qur’on oyatiga tayangan holda: **“Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”** (Baqara, 153) deydi. Sabr – sinovlarga chidash, ruhiy barqarorlikni saqlash, Alloh irodasini qabul qilishdir.

Shukr esa insonning Alloh ne’matlariga e’tiborli va minnatdor bo‘lishidir. Qur’onda aytilganidek: **“Agar shukr qilsangiz, ne’matni ziyoda qilaman”** (Ibrohim, 7). Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning talqinida sabr va shukr bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir: sabr mashaqqatda, shukr esa ne’matda solikning qalbini tarbiyalaydi.

Tasavvufda eng buyuk illatlardan biri kibr bo‘lsa, uning davo yo‘li tavozudir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy hadisga tayangan holda yozadi: **“Kim Alloh uchun o‘zini past tutsa, Alloh uni yuksaltiradi”**. Shu bois tavozu solikning eng muhim sifatlaridan biridir.

Tavozu nafaqat ruhiy kamolotga, balki ijtimoiy totuvlikka ham xizmat qiladi. Kamtar inson boshqalarga mehribon, samimiy va foydali bo‘ladi. Shu ma’noda, tavozu insonni komillikka eltuvchi axloqiy ko‘prikdir.

“Mir’ot ul-Obidiyn”da halollik va adolat jamiyat hayotining poydevori sifatida talqin etiladi. Qur’onda: **“Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni egalariga topshirishingizni va odamlar o‘rtasida adolat bilan hukm qilishingizni buyuradi”** (Niso, 58) deyiladi.

Halollik – shaxsiy fazilat, adolat esa ijtimoiy majburiyatdir. Halol inson o‘z nafsini jilovlab, dunyoga haddan tashqari berilmaydi. Adolat esa jamiyatda haqqoniylikni ta’minlaydi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nazarida, halollik va adolat uyg‘unlashgan jamiyat barqaror va ma’naviy mustahkam bo‘ladi.

Tasavvuf falsafasining markaziy tushunchalaridan biri – komil insondir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu konsepsiyani alohida o‘rganib, komillikni ilm, axloq va ruhiy poklikning uyg‘unligida ko‘radi.

Komil insonning asosiy belgilarini muallif quyidagicha belgilaydi:

Ixlos – amallarni faqat Alloh rizosi uchun bajarish;

Adolat – jamiyatda haqqoniylikni ta’minlash;

Mehr-shafqat – boshqalarning dardiga sherik bo‘lish;

Sabr va shukr – sinovlarga bardosh berish va ne’matni qadrlash;

Ilmga chanqoqlik – dunyo va oxiratni ilm orqali bilishga intilish.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nazarida, komil inson jamiyatning ma’naviy tayanchi, nur sohibi va boshqalarga yo‘l ko‘rsatuvchi rahnamo bo‘ladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotida komil inson shaxsiy kamolot bilan cheklanmaydi, balki jamiyat hayotiga ham faol ta’sir ko‘rsatadi. Agar jamiyatda komil insonlar ko‘paysa, u o‘z-o‘zidan adolatli, tinch va barqaror bo‘ladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, solikning vazifasi nafaqat o‘zini poklash, balki boshqalarning ham qalbini poklashga sababchi bo‘lishdir. Shu bois komil inson jamiyatda ma’naviy etakchi, boshqalarga ibrat va namunadir. “Mir’ot ul-Obidiyn”da axloqiy-falsafiy ta’limot va komil inson konsepsiyasi yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Qalbni poklash, nafsni jilovlash, sabr, shukr, tavozu, halollik va adolat kabi fazilatlar orqali inson komillikka erishadi. Komil inson esa jamiyatda adolat va ma’naviyatni qaror toptiruvchi asosiy kuchdir.

Xorazm qadimdan tasavvufiy tafakkur va ilmiy-ma’naviy hayot markazlaridan biri sifatida mashhur bo‘lgan. IX–XII asrlarda bu hududda Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro kabi yirik allomalar yetishib chiqqan. Ayniqsa, Najmiddin Kubro asos solgan Kubraviylik tariqati nafaqat Xorazmda, balki butun musulmon dunyosida tasavvufiy g‘oyalarning yoyilishida muhim o‘rin tutgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham ana shu ma’naviy merosni davom ettirib, uni yangi tarixiy sharoitda qayta talqin qildi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Mir’ot ul-Obidiyn” asari xalq orasida keng tarqalib,

“masnaviyxonlik” majlislarining asosiy manbalaridan biriga aylandi. Bu bilan Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf falsafasini faqatgina murshid-murid doirasi bilan chegaralamay, balki uni keng xalq ommasiga yaqinlashtirdi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning tasavvufiy qarashlari o‘z ildizlari bilan mashhur mutasavviflarga borib taqaladi. U Najmiddin Kubroning “qalbni poklash” haqidagi ta’limotini davom ettirgan. Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”idagi ramziy hikoyalarni Qur’on va hadis asosida sharhlab, xalq uchun tushunarli shaklga keltirgan.

Farididdin Attor va Sanoiy merosidagi ishq, fano, riyozat, komillikka intilish g‘oyalari ham Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tafakkurida muhim o‘rin tutadi. Ammo u bu g‘oyalarni mutlaq falsafiy yoki ramziy shaklda emas, balki shar’iy asoslar bilan mustahkamlagan. Shu jihatdan, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy sharq tasavvufida “oraliq ko‘prik” vazifasini bajargan, ya’ni nazariy murakkab g‘oyalarni xalq ongiga tushunarli shaklda yetkazgan.

“Mir’ot ul-Obidiyn” oddiy xalq orasida keng o‘qilgan, masjid va xonaqohlarda dars sifatida o‘qib eshittirilgan. Undagi sodda tilda bayon qilingan hikmatlar odamlarning kundalik hayotiga tatbiq etilib, ma’naviy tarbiyada asosiy qo‘llanmalardan biriga aylangan.

Shuningdek, asarda keltirilgan “qalb ko‘zgusi”, “nafs zanglari”, “fano va baqo”, “sabr va shukr” kabi ramziy tushunchalar xalq maqollari, qo‘shiqlari va hikmatli so‘zlariga ham singib ketgan. Demak, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asari nafaqat ilmiy-falsafiy, balki xalq pedagogikasi va madaniyatining ham muhim manbaiga aylangan.

Bugungi globallashuv davrida ma’naviy inqiroz, individualizm va moddiylikning kuchayishi insoniyatni ruhiy bo‘shliq va maqsadsizlikka olib kelmoqda. Shu sharoitda “Mir’ot ul-Obidiyn” asarida ilgari surilgan g‘oyalar – qalbni poklash, nafsni jilovlash, adolat, sabr, shukr, tavozu kabi fazilatlar – zamonaviy jamiyat uchun ham nihoyatda zarurdir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning komil inson haqidagi qarashlari bugun ham ta’lim va tarbiya sohasida muhim o‘rin tutadi. Yosh avlodni ma’naviy

yetuk, halol, adolatli, sabrli va mehr-shafqatli qilib tarbiyalashda uning ta'limoti bebaho manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida nazariy va amaliy tafakkur o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qilgan. U murakkab falsafiy tushunchalarni sodda tilda izohlab, xalq ongiga yaqinlashtirdi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Mir'ot ul-Obidiyn" asari tasavvufiy-falsafiy merosning muhim bo'g'ini bo'lib, bugungi davrda ham insoniyat uchun ma'naviy saboqlar manbaidir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Mir'ot ul-Obidiyn" asari tasavvufiy-falsafiy tafakkur rivojida alohida o'rin tutuvchi bebaho merosdir. Asar nafaqat diniy, balki falsafiy, ma'naviy va pedagogik ahamiyatga ham ega bo'lib, XVIII asr Xorazm madaniy hayotidagi ruhiy muhitni aks ettiradi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asarda shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlarini izchil tarzda bayon qilib, solikni ruhiy sayohat yo'liga boshlaydi.

Asarning falsafiy mohiyati bir necha markaziy tushunchalarda mujassam:

Qalb konsepsiyasi – qalbni "ko'zgu" sifatida talqin etish va uni nafs illatlaridan poklash zarurati;

Nafs masalasi – kibr, hasad, riyo, ta'ma va g'azab kabi illatlarni jilovlash orqali solikning ruhiy yuksalishi;

Vahdat ul-vujud – borliqning yagona manbai Alloh ekanini shar'iy asoslarda izohlash;

Fano va baqo – nafsiy o'lim orqali abadiy haqiqatga yetish jarayoni;

Axloqiy fazilatlar – sabr, shukr, tavozu, adolat va halollikning inson kamolotidagi o'rni;

Komil inson konsepsiyasi – ilm, axloq va ma'naviyat uyg'unligini mujassam etgan ideal shaxs haqidagi tasavvur.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvuf tarixida Najmiddin Kubro, Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Attor va Sanoiy merosini chuqur o'rganib, ularning g'oyalarini o'z davri sharoitiga moslashtirgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning farqlanuvchi jihati shundaki, u murakkab falsafiy tushunchalarni Qur'on va hadis asosida oddiy xalq uchun sodda va tushunarli shaklda izohlab

bergan. Shu bois “Mir’ot ul-Obidiyn” faqatgina tasavvuf ahli uchun emas, balki keng xalq ommasi uchun ham ruhiy-ma’naviy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi globallashuv davrida ham bu asarning g‘oyalari dolzarbdir. Qalbni poklash, nafsni jilovlash, sabr va shukrni hayotga tatbiq etish, adolatni qaror toptirish, komil inson tarbiyasiga intilish – bular zamonaviy jamiyatning ma’naviy barqarorligi uchun muhim yo‘nalishlardir. Umuman olganda, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘zining “Mir’ot ul-Obidiyn” asari orqali tasavvufiy falsafani nazariy va amaliy jihatdan uyg‘unlashtirgan, uni xalq ongiga yaqinlashtirgan va ma’naviy uyg‘onish uchun mustahkam zamin yaratgan mutafakkirdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning merosi bugungi kun uchun ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan holda, ma’naviy va falsafiy hayotimizni yoritishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda,

Odina Eshon «Masnaviy»ni sharhlashdan tashqari, unga suyangan holda «Mir’ot ul-obidiyn» («Obidlarning ko’zgusi»), «Tabbat ut-toiybin» («Tavba qiluvchilarning tabbasi») nomli asarlarning muallifidir, alloma bu asarlarida ham o’zining fikrlarini isbotlash uchun faqat Rumiyning she’rlarigagina suyanmay, undan iqtiboslar keltiradi.

Mutasavvifning bu boradagi mutafakkirlardan farqi shundaki, u murakkab falsafiy tushunchalarni Qur’on va hadis asosida oddiy xalq uchun sodda va tushunarli shaklda izohlab bergan. Shu bois “Mir’ot ul-Obidiyn” faqatgina tasavvuf ahli uchun emas, balki keng xalq ommasi uchun ham ruhiy-ma’naviy qo’llanma vazifasini o’tagan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning komil inson haqidagi qarashlari bugungi global jamiyatda ham ta’lim va tarbiya sohasida muhim o’rin tutadi. Yosh avlodni ma’naviy yetuk, halol, adolatli, sabrli va mehr-shafqatli qilib tarbiyalashda uning ta’limoti bebaho manbalardan biri bo’lib xizmat qiladi..

## 3.2. “Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”)asarida tasavvufiy maqomlar haqida

Shayx Odina Eshonning “Tavbat ut-toibin” asarida tasavvufiy maqomlar talqini ochib berilgan. Asarning umumiy mohiyati qaralganda asar nomidan ham ko‘rinib turibdiki, u avvalo tavba masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, alloma tasavvufda tavba ruhiy sayrning birinchi va zaruriy bosqichi ekanini alohida ta’kidlaydi. Kitobda insonning Haqqa yaqinlashuvi jarayoni izchil ko‘rsatiladi va bu yo‘lda o‘tishi kerak bo‘lgan maqomlar sharhlanadi. Asarda yoritilgan asosiy maqomlar 7 ta bo‘lib, birinchisi, Tavba maqomi – Ruhiy sayrning boshlanish nuqtasi bo‘lib, tavba – gunohdan qaytishgina emas, balki qalbning tubdan yangilanishiga va poklanishiga, nafs va dunyoviy xirs ustidan kurash boshlanish ekanligi ochib berilgan. Alloma talqinida chin tavba – qaytmaslik sharti bilan qilinadigan tavbadir; ikkinchisi, Zuhd maqomi – dunyoga ortiqcha bog‘lanmaslik, aslida zuhdni dunyo ne’matlarini rad etish emas, balki ularga haddan tashqari berilib ketmaslik sifatida sharhlanadi hamda bu maqom bandani pok risqlantirish, halollik va qanoat yo‘liga boshlaydi deya uqtiriladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Mir’ot ul- obidiyn” (Obid insonlar ko‘zgusi) asarida o‘zini Zuhd maqomida deb biladigan ammo botil qalbli insonlarga shunday ta’rif deradi, “Botinning buzilishi shaytoniy tajalliy xamda nafsu xavoning yomonliklari orkali yuzaga keladi Xar bir kalbi kur mukallidkim, uning basiyrat kuzi kadim nuri bilan munavvar bulmagan ekan, garchi ilm va zuxd bilan ziynat topgan bulsa-da, undagi nur shaytoniy tajalliydir ”[186];

Uchinchidan, Sabr maqomi – har qanday sinovda sabr qilish - komillik belgisi sifatida ta’riflanadi. Asarda sabrning uch darajasi keltiriladi: Musibatda sabr, Ibodatda sabr, Ilohiy muhabbat yo‘lida sabr; To‘rtinchisi, Shukr maqomi – bandaning Alloh bergan ne’matlarni qadrlashi va undan rozilik bildirishidir. “Tavbat ut-

[186] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 316.

toibin"da shukr sabr bilan yonma-yon keltiriladi. Shukr - qalbning kengligi, sabr esa qalbning mustahkamligi sifatida qaraladi. Biri ikkinchisini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi; Beshinchidan, Tavakkul maqomi – Asarda tavakkul "Allohga ishonch va tayanish" sifatida talqin qilinadi. Biroq bu ishonch insonni amaldan to'xtatmaydi, balki mehnat qilgan holda natijani Haqdan kutishni anglatadi; Oltinchisi, Rizo maqomi – Inson Allohning qadariga rozi bo'lish darajasiga ko'tariladi. Bu maqomda shaxs dunyoviy hodisalarni ham, musibatlarni ham Haqning irodasi sifatida qabul qiladi; Yettinchisi, Muhabbat maqomi – Tasavvufiy maqomlarning cho'qqisi sifatida ilohiy muhabbat ko'rsatiladi. Bu maqomda insonning qalbi Alloh muhabbati bilan to'lib, boshqa barcha sevgilar undan so'nggi o'rinda bo'ladi. Muhabbatning oxirgi natijasi - "fano filloh" (Allohda yo'q bo'lish) va "baqo billoh" (Allohda boqiylik topish) bilan yakunlanadi. Asar falsafiy jihatdan mohiyati ochib berilganda, Asarda maqomlar ontologik yo'l sifatida talqin etiladi: inson mavjudlikning quyi darajasidan oliy darajaga ko'tarilishi, Aqliy va qalbiy uyg'unlik – maqomlar faqat aqliy tushunchalar emas, balki qalbiy tajribalar orqali anglanishi va Komil inson shakllanishida – maqomlarning yakuniy natijasi insonni komillikka yetkazish bilan baxolanadi.

Shayx Odina Eshonning "Tavbat ut-toibin" asarida mukammal tavakkul haqida so'z yuritib, Mukammal tavakkul shundan iboratki, Haq subhonahu va taolo rububiyatiga rozi bo'ladi va o'z barcha ishlarini Alloh taologa topshiradi, boshiga har nima kelsa, shunga taslim bo'ladi. Chunonchi, Rasul alayhissalom buyurdilar: «Har kim Alloh taoloning Parvardigori ekaniga rozi bo'lsa, u iymon lazzatini tatig'aydi»[187].

Masnaviyda**:**

Puti iymon luqmai zo'ft ast havo,
Ey qanoat karda az iymon ba qavl.
Toza kun iymon na az gufti zabon,

[187] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Тавбат ут-тойибин" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси "Тавба қилувчиларнинг тавбаси"). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 13.

Ey havoro toza karda dar nihon.
To havo tozast, iymon toza nest,
In havo чuz kufli in darvoza nest.

(Quruq iymonning o‘zi ko‘rkinchli zift luqmasidir,
Ey iymonga so‘z bilan qanoat qiluvchi odam!
Iymoningni toza qil, faqat tildagi so‘z bilan emas,
Ichingni havodan tozalash bilan iymoningni toza qil.
Ichingda hohu-havas toza ekan, iymon toza bo‘lmaydi,
Bu hohu-havas darvozaning qo‘flidan o‘zga narsa emas.)[188]

Chunonchi, bir odam birorta taomni g‘oyat darajada to‘yib yesa va bu taom g‘oyatda lazzatli va ko‘ngil tortuvchi bo‘lsa, bundan o‘zga taomga iltifot qilmaydi. Masalan, tabiat ko‘tarmaydigan va dil tortmaydigan taomga. Shu kabi mo‘min kishi ham haqiqiy iymonni mustahkamlaydigan rahna va nuqsondan holi tavakkulga ega bo‘ladi.

Shayx Odina Eshonning “Tavbat ut-toibin” asarining ma’naviy va zamonaviy bugungi kun uchun  ahamiyatli tamoni, insonni sabr, shukr, qanoat va halollikka o‘rgatish bilan birgalikda ruhiy sayrning bosqichlari orqali inson mohiyatini tushuntiradi va uni yuksal tirishni nazarda tutadi hamda bugungi davr yoshlarning axloqiy tarbiyasida, ruhiy-ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda metodologik manba bo‘la oladi. “Tavbat ut-toibin” asari tasavvufiy maqomlarni izchil sharhlab, insonning tavbadan muhabbatgacha bo‘lgan ruhiy yo‘lini ko‘rsatib beradi. Unda tavba – boshlanish, muhabbat – oliy cho‘qqi sifatida talqin qilinadi. Asarning falsafiy mohiyati shundaki, u insonning ichki dunyosini o‘zgarishga chorlaydi va uni komillikka yetaklovchi ruhiy qo‘llanma sifatida qadrlanadi.

Mazkur paragrafda Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) asarida ilgari surilgan tasavvufiy

[188] Ўша манба. – Б. 13-14.

maqomlarning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Asarda tasavvuf yo'lida muridning qalbiy poklanishi, nafsni jilovlashi, sabr va shukr kabi axloqiy fazilatlarni o'zlashtirishi hamda komillikka intilishi alohida e'tibor markazida turadi. Xususan, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Imom G'azzoliy va Ibn Arabiyning ta'limotlaridan ijodiy foydalangan holda, ularni o'z davrining ma'naviy ehtiyojlari va xalq dunyoqarashiga mos ravishda sharhlab bergan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Tavbat ut-toibin" asarida alohida o'rinlarda komillik haqida fikr yuritilib, Komil va mukammal oriflarning dillaridan janobi Haq taolo sari tuynuk ochilgan bo'lib, bu tuynukdan komillarning qalblariga fayz va futuh kelib turadi. Shuningdek, baxtiyor toliblarning dillariga ham yo'l ochilgan bo'lib, bu tuynukdan komillarning dillaridan qobillarning dillariga fayzu futuh yetib boradi. Chunonchi, aytilgan: "Qalbdan qalbga yo'l bor, qalbdan Rabbga yo'l bor". Chunonchi, toliblarning qalbidan muhaqqiqlarning qalbi sari tuynuk ochilgan shu kabi muqallidlarning kuchiga yarasha toliblarga ham kuch beradi. Chunonchi, hazrati Mavlaviy, sirlari muqaddas bo'lsin, bayon qilganlar[189]:

Shah chu havz bud, ҷism chu no'hlo,
Ob az no'hla ravon dar ko'hlo.
Chunki obi ҷumla az havzest pok,
Har yake obi didah chu zavqnok.
V-andaroran havz ob ҷo'r ast palid,
Har yake no'hla komron dar padid.
Z-on ki no'h payvast ast no'hla ba havz,
Har yake dar ma'nii in harf ravz.
Murg' chi bar ob shiva metanad,
Murg' chi bar ob shiva metanad.
Obi shirinro nadid ast u madad,
Balkӣ taqlid ast on iymoni ӯ,

[189] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Тавбат ут-тойибин" (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси "Тавба қилувчиларнинг тавбаси"). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 15.

Rӯyi iymonro nadida joni ӯ,
Bas xatar boshad muqallidro azim,
Az rahe rahzan zi Shayton ur-rajim.

(Shohni havuz deb bil, jismni esa quvur.
Suv quvurdan ko‘lga sari oqib boradi.
Agar havuzdagi suv sho‘r va iflos bo‘lsa,
Har bir quvur ham o‘sha suvni olib chiqadi.
Chunki har bir quvur havuzga ulangandir.
Sen bu so‘zning zamiriga chuqur shung.
Kish agar sho‘r suvda suzadigan bo‘lsa,
U shirin suvning mazasini qaydan biladi.
Uning iymon-ishonchi taqlid yuzasidandir,
Uning joni iymon yuzini ko‘rmagan bo‘ladi.
Yo‘ldan urio‘chi va toshburon qiluvchi quvvalar
Yo‘li tufayli muqallid uchun katta xatar mavjuddir.) [190]

So‘z muhaqqiqlardan himoya tilashdan ularning xislatlari va foydalari sari etgan ekan, shu sababli, endi navbat muqallidlarning yomon xislatlari va ularning zararlarini bayon qilishga yetdi. Bu ikkinchining haqiqatlarini bayon qilishimiz zarurki, shoyad birorta tolib bunga nazarini solsa va muqallidlardan yuz beradigan fitnaning yomonliklaridan ehtiyot bo‘lsa. Bas, tavfiq qo‘ymagani bilan biz bunni aytaxakmiz. Muhaqqiq deb shunday kishiga aytiladiki, u o‘z ma’naviy vujudining libosini yirtirib, ixtiyoriy ulmmaga taalluq topgan va Payg‘ambar alayhissalomning: “O‘lmasdan turib o‘linglar” degan so‘zlariga tolib bo‘ladi. Chunonchi, uning iroda, ixtiyor, fikr va xayol ketib, Alloh xulqi bilan xulqlangan va rububiyat sifatlari bilan sifatlangan bo‘ladi. Chunonchi, Onhazrat sallallohu alayhi va sallam Alloh taolo haqida hikoyat qilgan holda aytgan edilar: “Kimki menga nafllar bilan yaqinlashsa,

[190] Юқоридаги манба. – Б. 15-16.

men uni yaxshi ko‘raman, bas har qanday uni yaxshi ko‘rsam, uning qulog‘i bo‘laman, ko‘zi bo‘laman, tili bo‘laman va qo‘li bo‘laman”. Unda, (ya’ni muhaqqiqda), tan va zohiriy suratidan o‘zga narsa qolmagan bo‘ladi.

Asosan paragrafda “Tavbat ut-toibin” asarining tuzilishi, unda yoritilgan shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari keng ko‘lamda o‘rganiladi. Ayniqsa, “qalb ko‘zgusi” metaforasi, sabr va shukrning falsafiy talqini, nafsni tarbiyalashning ahamiyati va komil inson konsepsiyasi chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-falsafiy yondashuv, Qur’on va hadislar, shuningdek, tasavvufiy adabiyotlarning tahlili tashkil etadi.

Natijada Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” asari tasavvuf tarixidagi o‘rni va bugungi davr uchun ma’naviy-tarbiyaviy saboqlari ochib beriladi. Ushbu meros hozirgi jamiyatda ham ruhiy poklik, insoniylik va ma’naviyatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq ma’naviyati tarixida tasavvufning o‘rni beqiyosdir. Tasavvuf - bu shunchaki diniy yo‘nalish emas, balki inson qalbini komillikka eltuvchi, ma’naviy poklanish, nafsni yengish va ilohiy haqiqatga yaqinlashuvni o‘zida mujassam etuvchi falsafiy-ma’naviy tizimdir. Tarixiy jarayonlarda tasavvuf insoniyatning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda, jamiyat hayotini ma’naviy va axloqiy jihatdan mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan.

Xususan, Markaziy Osiyo hududi, jumladan, qadimiy Xorazm zaminida tasavvufiy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq muhim jarayonlar yuz bergan. Bu hududdan yetishib chiqqan mutasavvif olimlar - Najmiddin Kubro, Bobo Kamol Shayx Odina Muhammad Xorazmiy, Xoja Ahmad Yassaviy va ularning izdoshlari islom falsafasini boyitib, xalq ma’naviyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. XVIII asrda yashab ijod qilgan Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham ushbu ma’naviy zanjirning davomchisi sifatida tasavvuf tarixiga o‘zining alohida hissasini qo‘shgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Xorazm hududida yashagan va ijod qilgan mutafakkir sufi bo‘lib, u o‘z davrida ilm-fan, adabiyot va tasavvufiy tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. U Najmiddin Kubroning ruhiy merosidan,

Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor va Imom G‘azzoliy kabi mutafakkirlarning asarlaridan ilhom olgan.

XVIII asr Xorazm ijtimoiy-siyosiy jihatdan murakkab davr edi: siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz, tashqi tahdidlar jamiyat ruhiyatiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Shu sharoitda Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Tavbat ut-toibin” asarini yozib, insonlarni sabr, shukr, tavozu, halollik va ixlos asosida yashashga, ruhiy poklanishga chaqirdi.

“Tavbat ut-toibin” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu asar asosan tasavvufiy maqomlarni xalq tilida, sodda va ravon ifodalash maqsadida yozilgan. Muallif zamonasidagi ijtimoiy beqarorlik, insoniy qadriyatlarning susayishi va odamlarda dunyo havasining kuchayishini ko‘rib, ularga ruhiy yo‘l ko‘rsatish zarurligini his qilgan.

Asarda Qur’oni karim oyatlari, Rasululloh (s.a.v.) hadislaridan ko‘plab iqtiboslar keltiriladi. Shu bilan birga, u Rumiy “Masnaviy”i, Najmiddin Kubroning “Favoih ul-jamal”, Attor va Sanoiy asarlaridan ijodiy foydalanadi. Biroq Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘z sharhlarida xalqning tili va dunyoqarashini hisobga olgan holda, murakkab falsafiy tushunchalarni oddiy tilda izohlaydi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” asarida tasavvufiy maqomlarning qanday falsafiy mazmun kasb etishini ochib berishdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Asarning tuzilishini va bo‘limlarini ilmiy tahlil qilish;

Tasavvufiy maqomlarning (tavba, zuhdu taqvo, sabr, shukr, rizo, fano va baqo) mazmunini sharhlash;

Qalb va nafs tarbiyasining falsafiy jihatlarini ko‘rsatish;

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qarashlarini Ibn Arabiy, Rumiy, Attor va Najmiddin Kubro ta’limotlari bilan qiyoslash;

Asarning bugungi ma’naviy hayotimizdagi dolzarbligini ochib berish.

Maqomatlarning mukammal o‘ntaligini Shayx Najmiddin Kubro sharhlab asoslab bergan hisoblanadi. Husussan[191]:

1. TAVBA – ushbu yo‘lga kirgan solik uchun barcha amallarning boshi hisoblanadi. O‘zining o‘tmishda qilib o‘tgan hatoyu nuqsonlari hamda gunohlarini anglab, Alloh taolo oldida tavba qilgan va bundan keyingi hayotini xayrli, yezgu ishlarga bag‘ishlagan insongina tariqat olamiga kira oladi. Tavba bu solikning o‘z xohishi bilan Haq taologa yuzlanishi, o‘z irodasi bilan Uni sevishi va o‘zining “Men”idan voz kechishidir. Xudo tomon yuz burgan barcha insonlar har qanday gunohdan tavba sababli forig‘ bo‘ladi. Zero gunoh bandani Alloh taolodan yiroqlashtiruvchi amaldir.

2. ZUHD – taqvo, rarhez demak. Ushbu yo‘lga kirgan odamga yendi haromdan tiyilmog‘i hamda Alloh ma’n qilgan gunohlardan o‘zini saqlamog‘i vojib bo‘ladi. Zuhd – insonni bu dunyoda ham uning tashqarisida ham nimaiki lazzat tomon undasa, bularning barisidan tiyilishdir. Bunda kishi o‘z nafsini taftish qilmog‘i, uni haddidan oshishiga yo‘l qo‘ymasligi, uni aqlu idrok tizgini bilan jilovlab, riyozatga solmog‘i lozim bo‘ladi. Zuhdning asl mohiyati dunyoga ham oxiratga ham rag‘bat bildirmaslikdir. Yillar mobaynida yezgu ishlar bilan band bo‘lib, yer ishlari bilan shug‘ullanmoqdir.

3. TAVAKKUL – o‘z amallari, fikri va ishlarida yolg‘iz Allohga suyanish demakdir. Har qanday holatda, ya’ni yaxshilik kelganda ham, yomonlik kelganda ham isyon qilmaslik hamda shukr qilishlikdir. Ya’ni, barcha ishlarini Allohning ixtiyoriga torshirib, undan o‘zgasiga muhtoj bo‘lmaslikdir. Kishining bu dunyoga rag‘bat qo‘yishi mol-dunyo to‘rlash yoki biron mansab, martabaga yerishish uchun tashabbus qilishiga sabab bo‘ladi. Tavakkul yesa Allohga chin dildan ishonch bo‘lib, Uning ulug‘vorligiga iymon keltirish, mosuvodan ko‘ngilni butkul uzishdir. Maqsadga yetish asnosida tavakkul yeng ilg‘or darajali ahamiyat kasb yetadi.

4. QANOAT – tirikchilik uchun yeng zarur bo‘lgan moddiy yehtiyojlardan tashqari har qanday nafsoniy va hayvoniy istaklardan jonsiz vujud singari

[191] Жабборов.И.Ж. Шайх Нажмиддин Кубро комиллик тимсоли номили монография. Бухоро.: 2025. “Дурдона” нашриёти, - Б. 101-104.

yiroqlashmoq, yeyish-ichishda hamda uy-joy borasida isrofgarchilik qilmaslik, xususan, taomga qattiq xirs qo'ymoqdan saqlanish demakdir. Ya'ni, o'ziga jalb qiladigan, nafsoniy xirsni qo'zg'aydigan barcha noz-ne'matlardan yiroq bo'lmoq. Jumladan, qimmatbaho kiyimlarga ruju qo'yish, taomni ko'r iste'mol qilish, o'yin-kulguga mukkasidan ketish, bekorchilik va tanballik va h.k.

5. UZLAT – so'fiylarning chilla o'tirishlari, ya'ni, yolg'izlikka, xilvatga chekinishlaridir. Kubroviy ta'limotga ko'ra insonning ruhi roklanishga moyil bo'lsa, tabiiyki yakkalanish va go'shanishin bo'lishni talab qiladi. Agarda u mana shu bosqichlarni bosib o'tmaydigan bo'lsa, mutloq roklanmaydi. Ya'ni, uzlatga chekinishdan maqsad ham Allohning rizoligi bo'lmasa, yolg'izlanishdan ma'naviy yuksalishga yerisha olmaydi. Uzlatning asl maqsadi xis-tuyg'uni jilovlashdir. Yolg'izlanish solikning xissiyotlarini jilovlanishiga sabab bo'ladi. Ammo naqshbandiya tariqati rashhalaridan biri "Xilvat dar anjuman" ("Anjuman ichra xilvat") bo'lib, zohiran xalq bilan birga bo'lmoq, botinan yesa Haq Taolo yodida bo'lmoqdir. Ushbu rashhaga binoan Ulug' Holiq yaratgan xalq xizmatida doimo hozir bo'lishlik, xalq g'amini chekishlik orqali ham inson Haqning roziligiga yerishadi. Shuningdek, rivoyat qilinishicha, Rayg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham odamlar orasida bo'lib, ularga aralashib yurishni hamda ulardan yetadigan har qanday ozorlarga sabr qilishni afzal bilgan yekanlar[192].

6. TAVAJJUH – Alloh tomonga yo'nalish (tavajjuhi tom), ya'ni o'lik misoli Yaratgandan o'zga har qanday borliqqa da'vat qiluvchi har qanday narsadan yuz o'girmoq demakdir. Bu o'rinda so'fiy uchun Allohdan boshqa hech qanday matlub (talab qilingan), mahbub (sevikli) va maqsad yo'qdir. Ushbu usul naqshbandiya tariqatidagi bozgasht rashhasiga muvofiq keladi. Unga ko'ra zikr asnosida solik: "Xudavando maqsudiman tuyi, rizoyeman tuyi!", ya'ni "Xudoyo meni maqsadim Sensan, talabim Seni rizoligingdir!"[193] – deya, Yaratganga iltijo qiladi.[194]

---

[192] Жабборов.И.Ж. Шайх Нажмиддин Кубро комиллик тимсоли номили монография. Бухоро.: 2025. "Дурдона" нашриёти, - Б. 102.
[193] Абдуқаҳҳор Шоший. Авлиёлар китоби. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018 – Б.174.
[194] Жабборов.И.Ж. Шайх Нажмиддин Кубро комиллик тимсоли номили монография. Бухоро.: 2025. "Дурдона" нашриёти, - Б. 102-104.

7. SABR – solikning ye'tiqodi va niyatini sinashdan iborat. Haq yo'li og'ir va mushkul, mashaqqatli yo'ldir. Bu yo'lda solik uchun har qadamda mashaqqat, odamlar tomonidan keladigan malomat, iztirob bisyordir. Uning azobu- iztiroblariga chidagan kishilargina maqsadga yerishadi. Ya'ni, har qanday baloyu malomat yog'ilsa ham nolinmaydi, aksincha boshiga keladigan ofatu-balolar Alloh taoloning qazoyu-qadaridan o'zga narsa yemas, deb qaraydi. Ushbu usulga ko'ra solik nafs qutqusidan garchi ko'r riyozatlar chekib bo'lsada, o'zini olib qochadi. Bundan maqsad, dil, qalb kuduratlardan batamom roklanishi, ruh yesa nafs iskanjasida zanglanib, xiralashgan bo'lsa jilolanishi lozimdir.

8. MUROQABA – kuzatish, tafakkurga berilish. Tavba-tazarru qilib, Alloh taolo yodi bilan bo'lmoq, sabru sadoqat bilan o'zining ma'rifatini oshirish mobaynida solik qalbi shunday bir osoyishta bir holga keladiki, Alloh diydori ishqida tafakkurga g'arq bo'ladi va ruhan butun olamlarni sayr qilib chiqadi. Demak, qalbni bo'lar-bo'lmas xis-tuyg'ulardan holi qilib roklash va xotirjamlikka yerishmoq juda muhimdir. Hazrat Bahouddin Balogardon (q.s.) "Vuqufi zamoniy", ya'ni zamonga to'xtash rashhasi (fasli)ni o'z ta'limotlariga kiritganlar. Bundan murod, tolib o'tayotgan zamonini nazorat qilmog'i, agarda qalbi Alloh taoloni zikri bilan huzur olayotgan bo'lsa shukur qilishi va aksincha g'aflat bilan o'tayotgan bo'lsa, qattiq rushaymon bo'lmog'i lozim bo'ladi[195]. Demak, vuqufi zamoniy – kishining o'z nafsini hisobga tortishi uchun zarur bo'lgan usullardan biridir.

9. ZIKR – tariqatga kirgan odam har yerda, har doim Allohning ismlarini takrorlab turishi bilan qalbiga Alloh taoloning sifatlari va zoti joylashadi. Natijada shaytoniy vasvasalar, nafsoniy va shahvoniy istaklar undan yiroqlashadi. Ularning o'rnini rahmoniy sifatlar, oliyjanob insoniy fazilatlar yegallaydi. Xuddi mehmon tashrif buyuradigan xonadon ozoda, saranjom, sarishta qilingani singari zikr vositasida inson qalbi barcha gina, kudurat, adovat, g'aflat va jaholat kabi illatlardan butkul holi bo'ladi. Qalbda faqat Allohga bo'lgan muhabbat, ishq hosil bo'ladi. Bu o'rinda hazrati Bahouddinning "Vuqufi qalbiy" (qalbga to'xtash) usuliga murojaat

[195] Абдуқаҳҳор Шоший. Авлиёлар китоби. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018 – Б.173

qilsak, uning ikki xil ma'nosi mavjuddir. Birinchisi: zikr vaqtida zokirning qalbi Alloh taolodan ogoh bo'lgan holda zikr qilishi, ya'ni uning holatini Alloh taolo bilib turishini xis qilishi;

Ikkinchisi: zokir hamisha qalbini nazoratga olib turishidir. Bunda naqshbandiyaning muborak: "Qo'ling ishda, qalbing Alloh yodida bo'lsin" degan mashhur shioriga to'la amal qilish nazarda tutiladi.

10. RIZO – ushbu usul yo'llarning yeng oxirgisi bo'lib, unga kirgan solik Allohning qudratini, Uning ilmini chuqur xis qilgan holda, o'zini Unga butkul torshiradi va Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi, natijada Haq Taolo unga va u yesa Haq Taologa yaqinlasha boradi. Ya'ni, qurbat hosil qiladi. Kim Allohga yaqinlashsa, uning ko'radigan ko'zi, yeshitadigan qulog'i bo'ladi. Yendi nimaiki uni fe'lidan sodir bo'lsa, zohiran bandadan ko'rinadiyu, asli uni ijodkori Yaratganning O'zi bo'ladi.

Bu borada ba'zi so'fiylar shunday deydilar: "Jami ishlarimga sevgilimni vakil qildim, U istasa hayot beradi, istasa o'ldiradi"[196]. Yendi ushbu maqomga yerishgan so'fiy uchun yaxshilik kelsa ham, yomonlik kelsa ham barchasiga rozi bo'ladi va bularning barchasini Allohdan, deb biladi.

Yuqoridagi o'nta usul mohiyati shundaki, o'lmaydigan Zotning yodi uning o'z nafsini mag'lubiyatga uchratgan sifatlarida mujassam bo'ladi. Bu borada tasavvufning kubroviylik va naqshbandiya tariqatlari bir-birini to'ldiradi, desak mubolag'a bo'lmaydi.[197]

Shayx Najmiddin Kubro shahidlik maqomiga yerishib, bu dunyoni tark yetgandan so'ng u zot yaratgan ta'limotni muridlari davom yettirib, Markaziy Osiyoda Kubraviya maktabiga asos soldilar. Bunday birodarlik uyushmasi vakillarini birlashtirgan narsa quruq rasmiy tashkilot bo'lmay, balki tashkilot ruhi va uning muqaddas maqsadi bo'ldi.

---

[196] Шайх Нажмиддин Кубро. Усули ашара. // Тасаввуфий ҳаёт. – Т.: "Мовароуннаҳр", 2004. – Б. 48-80.
[197] Жабборов.И.Ж. Шайх Нажмиддин Кубро таълимотида инсон тушунчаси(ПҳД диссертатсия иши). Бухоро.: 2024., - Б. 113.

Bugungi kunda har jabhada rivojlanib borayotgan Yangi O‘zbekistonda Vatan tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirishda Najmiddin Kubro va Shayx Odina Muhammad Xorazmiylarning ilmiy-ma’naviy merosidan foydalanish ilmiy-falsafiy jihatdan samarali bo‘ladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) asarida solik kishining maqomlarga erishishi sharxlab tushuntirib beradi.

Ciyratga ega bo‘lgan as’hoblarga ochiq va ravshanki, solih har bir maqomda moziydagi ahvol va af’oldan yuz o‘girishi va kelajakdagi atvor va kirdorga ruчо‘h qilish lozimdir. Shu sababli bu risola «Tabiat ut-toibiyn fiy darajot us-solixiyn» (**Solixlarning darajalarlarida tavba qiluvchilarning tabasi**) deb ataladi. Allohning husni tavfiqi bilan ushbu risola bitta muqaddima va bir nechta fasllarga bo‘lindi. Bu bayonga nazar soluvchilardan umid shunki, tadqiq va diqqat bilan boshqilgandan so‘ng, o‘zida saxv va avto topsalar, ortiqchalik yoki kamchiliklaridan mahrumlik va xalallik topsalar, tuzatish va to‘g‘rillash ehsonini o‘zlariga hunar deb bilsinlar. «Albatta Alloh taolo yaxshilik qiluvchilarning ajrini zoe qilmas» **(Qur’on, 9/120).** Yomon so‘zlash va ayb qidirishgohida o‘zlarini tashlamasanlarki, «Kimki o‘z birodarining yomonligini yashirsa, Alloh uning yomonligini yashiradi, kimki uni ayblasa, Alloh uni ayblaydi.» Himmatingizni uni yaxshilash va tushuntirishga qarating, ko‘mak va yordamingizni darig tutmang. «Albatta U ko‘mak qiluvchilarga yaxshilik qiladi, ishonch va yutuq Ungadir, U ko‘mak qiluvchi va ato etuvchidir»[198].

Ilmiy tadqiqot ishimizning nazariy ahamiyati shundaki, u tasavvufiy-falsafiy qarashlarni chuqurroq anglashga, “Tavbat ut-toibin” asarining ma’no qatlamlarini yoritishga xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa - bugungi yoshlarni ma’naviy barkamollikka, ma’rifat va ma’naviyatga, axloqiy yetuklikka chorlaydi. Asarda ko‘tarilgan g‘oyalar zamonaviy ta’lim-tarbiyada, shuningdek, jamiyatning ma’naviy hayotida keng qo‘llanishi mumkin. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘zining “Tavbat ut-toibin” asari orqali nafaqat tasavvufiy adabiyot, balki falsafiy tafakkur

---

[198] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 60.

taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo‘shgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning maqsadi inson qalbini poklash, nafsni jilovlash va jamiyatni ma’naviy yuksaltirishdan iborat bo‘lgan. Mazkur tadqiqotning keyingi boblarida asarning tuzilishi, tasavvufiy maqomlarning mohiyati, qalb va nafs masalalari, vahdat ul-vujud talqinlari hamda komil inson konsepsiyasi alohida tahlil qilinadi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) asari XVIII asr Xorazm ijtimoiy-ma’naviy hayotining murakkab davrida yaratilgan. Bu davrda jamiyatda siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, diniy va axloqiy inqiroz kuchaygan, odamlarning qalbida ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelgan edi. Shunday bir paytda Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy-falsafiy qarashlarga asoslangan, xalq ongiga yaqin bo‘lgan asar yaratish orqali insonlarni Haqqa, poklikka, sabr va shukr yo‘liga da’vat etdi.

Asar bir necha boblardan iborat bo‘lib, har bir bobda solikning ma’naviy kamolot sari intilish yo‘lidagi muhim bosqichlar izchil va sodda tilda bayon qilingan. Asar tarkibida quyidagi asosiy bo‘limlar mavjud:

1. Tavba – tavbaning mohiyati, uning shariatdagi o‘rni va solik hayotidagi birinchi qadami.
2. Zuhdu taqvo – dunyoviy nafsiy havaslardan voz kechish, halol mehnat, poklik va ruhiy hushyorlik.
3. Sabr va shukr – insonning sinovlarga munosabati va ne’matlarga shukronalik falsafasi.
4. Rizo va taslim – Alloh taqdiriga rozi bo‘lish, tavakkul va qanoat tushunchalari.
5. Fano va baqo – solikning o‘z “men”idan voz kechib, Haq bilan uyg‘unlashuv darajasiga ko‘tarilishi.
6. Komil inson haqidagi qarashlar – insonning ruhiy yuksalishi, jamiyat oldidagi mas’uliyati va ma’naviy barkamollikning asosiy mezonlari.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) asarida tavba so‘zining lug‘aviy manosiga juda mukammal ta’rif beradi va uni mustahkamlaydigan va buzadigan omillarni sanab o‘tgan. Tavba

so‘zi lug‘atda qaytish va ruчo‘h qilishdir. Shariatda esa ma’siyatning qabih va yomonligini bilgandan so‘ng undan pushaymon bo‘lmokkim, haqiqatda ma’siyat bir zaxri qattoldir. Kelajakda esa o‘sha ma’siyatga yana qaytmaslikka azm etish, balki avvalgi aytishlarini va ishlarini yoqimli so‘zlar va ishlar bilan o‘zgartirishdir. Chunonchi, «Kimyo» kitobida bayon qilingan, uning so‘zi bilanki, tavba bu pushaymonlikdir va uning asosi ma’rifat va iymon nuridir. Uning far’i (shoxi) ahvolni o‘zgartirish va barcha a’zolarni ma’siyatdan uzoq qilish. Toat bilan unga qarshilik ko‘rsatishdir (so‘zi tugadi). Tavbaning haqiqati olti narsa jam bo‘lmasa, muyassar bo‘lmaydi. Birinchisi, o‘tmishda qilingan gunohlarda pushaymon bo‘lish va nadomat chekish. Ikkinchisi, g‘oflatda yurgan vaqtlarida nuqson bo‘lgan farzlarini qaytarish va tiklash. Uchinchisi, birovga qilgan adolatsiz zulmini tuzatish va zulmga uchraganning rozi va xushnud qilish. To‘rtinchisi, o‘tmishda qilgan ma’siyatlarini takrorlamaslikka qasd qilish. Beshinchisi, o‘tmishda ma’siyat bilan nafsiga ziynat bergani kabi endi Alloh taolo toat va ibodati bilan nafsini ziynatlash. Oltinchisi, avval ma’siyatning halovatini va shirinligini nafsiga tatigan edi, endi unga toatning achchiqligini tatirish.

Chunonchi, «Kashshof» tafsirida «Niso» surasida Alloh taoloning «tabbatan nasuho» so‘zi haqida Hazrati Ali (karramallohu vajhahu)dan rivoyat qilinadi: Ali (raziyallohu anhu)dan rivoyat qilinishicha, u bir arabning: «Allohumma, inniy astag‘firuka va atubu ilayka» (Ey bor Xudoy, men Sendan mag‘firat tilayman va Senga tavba qilaman) - degan so‘zini eshitdi. Shunda Ali (karramallohu vajhahu) dedi: «Ey sen, til bilan tavba tuzgan, bu yolg‘onchilar tavbasidir». Haliq kishi: «Tavba qanday bo‘ladi?» - deb so‘radi. Ali (raziyallohu anhu) dedi: «Olti narsani o‘zaro jam qil: o‘tgan zamonda qilgan gunohlaringga pushaymonlik; farz namozlaringni qaytarish; zulm qilganlarga adolat qilish va dushmanlarga rozilik berish; ma’siyatning shirinligidan nafsingni ajratish kabi, Allohning toatining achchiqligini tatquzishdir”.[199]

[199] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 61.

Bu bo‘limlar orqali Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy yo‘lning bosqichma-bosqich poydevorini quradi va uni xalq hayotiga tatbiq etishga intiladi.

Asarda asosiy e’tibor qalbni poklash **va** nafsni jilovlash g‘oyasiga qaratilgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafsni “insonni halokatga boshlovchi ichki dushman” sifatida talqin qiladi. Qalb esa “ilohiy nur ko‘zgusi” bo‘lib, unda Haqning tajalliylari aks etadi.

Muallif Qur’oni karim oyatlari va hadislarni asos qilib olib, solikning ruhiy yuksalishi uchun quyidagi tamoyillarni belgilaydi:

Iymonning mustahkamligi – barcha maqomlarning asosi;

Ilohiy muhabbat – solikni Haqqa yetaklovchi kuch;

Ilm va ma’rifat – ruhiy kamolotning yo‘lboshchisi;

Axloqiy fazilatlar – sabr, shukr, qanoat, tavozu, shijoat;

Nafsni yengish – komillikka eltuvchi eng muhim sinov.

“Tavbat ut-toibin” mazmuni jihatidan Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning boshqa asarlari bilan uzviy bog‘liq. Xususan, “Mir’ot ul-Obidiyn”da bayon etilgan qalb ko‘zgusi**,** nafs illatlari**,** vahdat ul-vujud haqidagi g‘oyalar bu asarda ham o‘z aksini topadi. Biroq, “Tavbat ut-toibin” asarida asosiy urg‘u aynan tasavvufiy maqomlarga qaratilgan. Har bir maqom alohida falsafiy sharh qilinadi va ularning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati izohlanadi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘zining “Tavbat ut-toibin” asarida - “Chunonchi, Imom Muhammad G‘azzoliyning “Kimyoi saodat” kitobida yozilganki, bu xulqlarning soni ko‘p bo‘lsa-da, biroq ular to‘rtta bo‘ladi: hayvoniy axloq, yovuzlar axloqi, shaytoniy axloq va farishta axloqi. Kimdaki shahvat va ochko‘zlik bo‘lsa, u hayvonlar ishini qiladi, bu esa ochko‘zlik qilish, ko‘p yeyish va jinsiy muomalaga ko‘p mayl qilish. Kimdaki qahr va g‘azab bo‘lsa, it, bo‘ri va sherning ishini qiladi. Bu esa til va qo‘l bilan tashlanmoq, urmoq va o‘ldirmoqdir. Kimdaki makr-hiyla, aldov va nayrang va fitna solish bo‘lsa, u shaytonlar va jinlarning ishini qiladi. Kimdaki aql bo‘lsa, ilmni sevish, sozgorlik, yomon ishlardan parhez qilish, ishlarining ma’rifatini o‘rganishga shod bo‘lish, haqq va nodonlikni ayb deb bilish, qisqasi, go‘yo farishtalarning ishini qilgan kabidir. Har bir odam gavdasida to‘rt narsa

bo‘ladi: itlik, to‘ng‘izlik, devlik va farishtalik. Yana g‘aflat va bekorchilik bilan o‘tgan o‘tmishicha pushaymon va nadomatli bo‘lish va Janobi Hazratga (azza va jalla) xizmatga go‘yo yangi musulmondek kirishish lozim. ”[200] Chunonchi, aytadilar:

Tavba chun boshad, pushaymon omadam,
Bar dari Haq nav musulmon omadam.
Xizmate az sar giriftan bo niyoz,
Bo haqiqat rӯy kardan az machoz.

(Tavba nima-der, u pushaymon bo‘lmoq,
Haq eshigiga yangi musulmon bo‘lib kelmoq.)[201]

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asarda asosan haqqa va tasavvufiy hayotning yuqori cho‘qqisiga chiqishning to‘rt poydevorini haqida ham ko‘p o‘rinlarda so‘z yuritib ularni quyidagicha izohlaydi:

Shariat – solikning tashqi amallari, ibodat va diniy majburiyatlari;

Tariqat – solikning ichki poklanishga, riyozat va zikrga asoslangan yo‘li;

Ma’rifat – ilohiy haqiqatni aql va qalb orqali idrok etish;

Haqiqat – Alloh bilan ruhiy uyg‘unlikka erishish, fano va baqo darajasiga ko‘tarilish.

“Tavbat ut-toibin”ning umumiy falsafiy mazmuni – insonning ruhiy sayohatini bosqichma-bosqich yoritish, qalb va nafsni tazkiya qilish orqali komillikka erishish, Haqning nurlarini qalb ko‘zgusida aks ettirish va jamiyatda axloqiy uyg‘onishning poydevorini yaratishdan iboratdir. Asar o‘zining xalqona tili va sodda uslubi bilan keng qatlam o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, tasavvufiy falsafani nazariy va amaliy jihatdan uyg‘unlashtiradi.

---

[200] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 69.
[201] Ўша асар. – Б. 69-70.

Tasavvuf falsafasida “maqom” atamasi solikning ruhiy sayohatida bosib o‘tadigan pog‘onalarni anglatadi. Har bir maqom - bu insonning o‘z ustida ishlash jarayonidagi ma’lum darajasi bo‘lib, u solikning ma’naviy yetuklikka erishish yo‘lida qo‘ygan qadamlari natijasidir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Tavbat ut-toibin” asarida bu maqomlarni tafsilotlari bilan sharhlab, ularning mohiyatini Qur’on, hadis va tasavvufiy adabiyotlar misolida ochib beradi.

Maqomlar, avvalo, solikning nafsni poklash, qalbni tozalash va ruhiy kamolot sari intilishi jarayonida sinov bosqichlari sifatida qaraladi. Har bir maqom keyingisiga ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ta’kidlaydiki, maqomlar bir-biridan ajralgan emas, balki bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular orqali inson Haqqa yetadi.

Asarda birinchi maqom sifatida tavba alohida o‘rin oladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning ta’kidlashicha, tavba solikning ruhiy hayotida boshlang‘ich qadam bo‘lib, unda inson o‘z xatolarini tan oladi, Allohdan kechirim so‘raydi va kelgusida ularni takrorlamaslikka qat’iy ahd qiladi.

Qur’oni karimda shunday deyiladi: **“Ey mo‘minlar! Barchangiz Allohga tavba qilinglar, shoyadki najot topsangiz”** (Nur surasi, 31-oyat). Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ushbu oyatga tayangan holda, tavbani insonning Haqqa qaytish yo‘lidagi birinchi qadam deb talqin qiladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, tavba qilmagan kishi ruhiy poklanish yo‘liga kira olmaydi.

Ikkinchi muhim maqom – zuhd va taqvodir. Zuhd – dunyo havasidan voz kechish, taqvo esa Allohning amrlarini ado etish va gunohdan tiyilishdir. Shayx Shayx Odina Muhammad Xorazmiy zuhdni “qalbni dunyodan bo‘shatib, uni Haqqa bag‘ishlash” deb ta’riflaydi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, solik mol-mulkni butunlay tark etishi shart emas, ammo dunyoga qalban bog‘lanmasligi kerak. Taqvo esa insonning har bir ishini Qur’on va hadis asosida bajarishi, halol va haromni aniq farqlashi, nafsni nazorat qilishidir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy sabr va shukrni tasavvufiy yo‘lning ajralmas qismi deb hisoblaydi. Sabr – nafaqat qiyinchiliklarga bardosh berish, balki

ularni Haqning inoyati sifatida qabul qilishdir, Shukr – Alloh bergan ne'matni qadrlash va uni Haq yo'lida sarflashdir.

U Qur'on oyatlarini sharhlar ekan, **"Sabr qiling, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir"** (Baqara, 153) oyatini markaziy dalil sifatida keltiradi. Shukr esa Allohning in'omlarini tan olish orqali ruhiy yuksalishga erishtiradi.

Rizo – Allohning taqdiriga rozi bo'lish, taslim esa Uning hukmiga to'liq bo'ysunishdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, haqiqiy solik o'z hayotida qanday sinovlarga duch kelsa ham, unda ilohiy hikmatni ko'ra olishi lozim. Rizo – insonning qalbini xotirjam qiladi, taslim esa uni Haqqa to'la bo'ysundiradi. Bu jarayonlar natijasida solik o'zida sabrni mustahkamlaydi va ichki irodasini chiniqtiradi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy "Miftox ul- asror" (Sirlar kaliti) asarida rizo maqomini asosan insonning nafsga bog'liq bo'lgan rizo qiluvchi amalla buzadi deb, shunday ta'rif berib o'tgan: - "Bundan tashqari, bandalikning kamolga yetishi hayrat maqomida bo'ladi. Hazrati Zotni mushohada qilib, unga bandalik va bo'ysunishni hosil qiladilar. Yana boshqa tomondan ularda rizo qiluvchi fe'llar va solih amallar xolis bo'ladi, tama', haq va evazdan xoliy va beg'araz bo'ladi va bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi".[202] Shuni tushunchani sharhlash uchun "Miftox ul-asror" (Sirlar kaliti) asarida Rumiy hazratlaridan quyidagi baylarni ketirib o'tgan. Chunonchi, Hazrati Mavlaviy buyuradilar:

Beg'araz nabvad ba gardish dar jahon,,

G'ayri jismu gayri joni oshiqon[203].

(Oshiqlarning jismi va jonidan boshqa, Jahonda aylanib yurish beg'araz bo'lmaydi.)

---

[202] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 47.
[203] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 48.

Yana boshqa joyda aytadilar:

Saxtro'e ki nadorad hech pusht,
Bahrajuero daruni xesh kusht.
Pok mebozad naboshad muzdju,
Onchunon ki pok megardad zi h.
Medihad Haq hastiyash beillate,
Mesuporad boz beillat fati[204].

(Hech bir himoyasi bo'lmagan qattiq yuzli kishi, Foyda qidirishni o'z ichida yo'q qildi. Pok yuruvchi foyda qidiruvchi bo'lmaydi, Go'yoki yiringdan pok bo'lgan kabi. Haq unga borliqni beillat beradi, Uni o'sha yosh beillat qaytaradi.)

Asarda eng yuksak bosqichlardan biri sifatida fano va baqo tushunchalari keltiriladi. Fano – solikning o'zini yo'q qilishi, ya'ni nafs istaklaridan to'liq voz kechishi. Baqo esa Alloh bilan birlashgan holda yashash, ilohiy haqiqatda davom etishdir. "Miftox ul- asror" (Sirlar kaliti) asarida, - Ular shaytoniy nur ko'magi bilan qanchalik ibodat va riyozat qilmasinlar, bu xolis bo'lmaydi, shaytoniy va nafsoniy g'arazdan pok emas. Barchasi riyo bilan illatli, maqtanish va manmanlik bilan ovora, ozgina amal bilan xudbin va xudnamodirlar. Ozgina yaxshilik qilish bilan gururga beriladilar. Ko'pincha ularda fano va baqoga o'xshagan holat yuz beradi va shaytoniy nur ichida mahv va mustagraq bo'ladilar[205]. Tavhidi vujud va shuhudga o'xshagan xayol va ko'rinishlar ro'y beradi. Ularda haqoyiq va ma'orif, istidrok va xarqi odat (karomat) zuhurga keladi. Ba'zilarida shaytoniy nur bilan odamlarni tasarruf ostiga olish yuz beradi, bu tufayli xalqni o'z tomoniga tortadi, odamlarni tariqatta targ'ib etadi, ularda darvishlikka rag'bat uyg'otadi, odamlarga shaytoniy nisbatni havola

[204] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 48-49.
[205] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 33 а.

etadi va shaytoniy nurdan ularga rohat bag‘ishlaydi. Bu bechoralar esa bu shaytoniy holat ekanini qaydan bilsinlar, axir ular ahli Xaqning suhbatini hechqachon topmagan bo‘lsalar, Ilohiy may jur’asidan totib ko‘rgan bo‘lmasalar. Ular «ashyolar ziddi bilan ayon bo‘ladi» kalimasining hukmi bo‘yicha, achchiq va shirinning farqini ajrata bilmaydilar, haq va botilni idrok qila olmaydilar[206].

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy bu bosqichni “abadiy haqiqatga qaytish” deb izohlaydi. Unga ko‘ra, fano orqali inson o‘z “men”ini tark etadi, baqo orqali esa Haqning irodasi bilan yashaydi. Bu - tasavvuf falsafasining eng oliy darajasi bo‘lib, komil inson maqomiga eltuvchi yo‘lning so‘nggi pog‘onasidir. “Tavbat ut-toibin” asarida tasavvufiy maqomlar izchil va bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ularni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham izohlaydi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, tavba, zuhd, sabr, shukr, rizo va fano-baqo kabi maqomlar insonni hayotning eng yuksak maqsadiga - Haq bilan ruhiy uyg‘unlikka, komil insonlik darajasiga olib boradi. Shu orqali asar nafaqat tasavvufiy-falsafiy tafakkur, balki ma’naviy tarbiyaning ham muhim manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Alloma Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Tavbat ut-toyibin” (Tavba qiluvchilarning tavbasi) asarida Payhanbarimiz Muhammad s.a.v ning insonning insoniyligini yuksaltiruvchi narsa uning til birla dili(ko‘ngli) ekanini e’tirof etib o‘tadi… - “Har bir narsaning sayqal beruvchisi bor, dilning sayqal beruvchisi esa Alloh taolo zikiridir”, “Kimniki Alloh desa, qalbi esa Allohdan g‘ofil bo‘lsa, Alloh ikki olamda uni dushman tutadi”. Dilning til zikrini eshitishdan va uning ma’nosini fahmlashdan qolib, o‘zga narsaga bog‘liq bo‘lsa va bu hol ahdi ma’nida yuz bersa, bu uning uchun hiҷob va hosil yo‘q holatdir.  Chunonchi, hazrati Xoja Bahovuddin Naqshband (qaddasallohu sirruh) aytganlar:

Ta’alluq hiҷob astu bexosil,
Ki payvandxo bigsalay, vosil.

---

[206] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 60.

(Chalg‘ituvchiga bog‘lanib qolish bexosillikdir,

Agar payvandni uzsang, Unga yetasan.)[207]

Har vaqt dil Alloh zikri mulohazasi yoki boshqa zikrlar bilan mashg‘ul bo‘lsa, unga o‘zga narsaning mulohazasi yo‘l topolmaydi. Negaki dil ikki narsaning mulohazasini birgalikda mulohaza qilolmaydi. Lahmi sanubariy[208]ning harakati zikr qilinuvchidan va uning zikridan o‘zga narsadan boshqani zikr qilishga loyiq emas.

Tasavvuf falsafasida insonning haqiqiy kamolot sari yetaklovchi yo‘li qalbni poklash va nafsni jilovlashdan boshlanadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Tavbat ut-toibin” asarida qalbni insonning ma’naviy markazi, Allohning nuri aks etadigan ko‘zgu sifatida tasvirlaydi. Unga ko‘ra, qalbning ravshanligi - insonning ichki dunyosi va tashqi xatti-harakatlari uyg‘unligining belgisi. Agar qalb nafs istaklari bilan qoraygan bo‘lsa, unda insonning hayotida ham beqarorlik, adolatsizlik va ma’naviy inqiroz yuzaga keladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafsni tarbiyalashni insonning eng katta sinovi deb biladi. U nafsni uch darajada talqin qiladi:

1. Nafs ammora – yovuzlikka buyuruvchi, shahvat va g‘azabga ergashuvchi nafs;
2. Nafs vasvasasi – qilgan xatosidan pushaymon bo‘lib, o‘zini malomat qiluvchi nafs;
3. Nafs mutma’inna – qalbi pok, Haqdan rozi bo‘lgan va Haq ham undan rozi bo‘lgan nafs.

Har bir daraja o‘ziga xos ruhiy mashqlarni talab qiladi. Masalan, nafs ammora bosqichida solik riyozat va mujahada orqali nafs istaklarini jilovlaydi. Nafs lawwama darajasida esa solik o‘z xatolarini tan olib, tavba qiladi. Nafs mutma’inna darajasida esa solik ilohiy nur bilan uyg‘unlashadi.

Asarda ta’kidlanishicha, nafsni tarbiyalashning eng muhim vositasi - **riyozat**dir. Riyozat deganda faqat jismoniy azob-uqubat emas, balki nafsning nojo‘ya

[207] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 74.

[208] Лаҳми санубарий – синовбар баргга ўхшаш гўшт: бу ерда юрак назарда тутилмоқда.

xohishlariga qarshi turish, nafsni Allohga bo‘ysundirish tushuniladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy buni **“o‘z nafsini jilovlash orqali qalbni poklash”** deb izohlaydi.

Riyozat quyidagi amaliyotlarni o‘z ichiga oladi:

Nafl namozlari va zikrlar orqali qalbni tozalash;

Ro‘za, sabr va qanoat orqali nafsni jilovlash;

Tavoze’ va xokisorlikni hayot mezoni sifatida belgilash.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafs va qalb o‘rtasidagi kurashni faqat shaxsiy ruhiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy hayotdagi adolat va totuvlikning asosi sifatida ham ko‘radi. Agar inson o‘z nafsini jilovlasa, u jamiyatda ham adolatli, halol va rahmdil bo‘lib yashaydi. Ammo nafs istaklariga berilgan kishi nafaqat o‘zini, balki jamiyatni ham zulmatga olib kiradi.

Shayx Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning fikricha, solikning har bir bosqichdagi muvaffaqiyati jamiyatga ham ijobiy ta’sir qiladi. Chunki qalbdagi nur jamiyatga tarqaladi, qalbdagi tinchlik jamiyatda ham totuvlikka olib keladi.

“Tavbat ut-toibin”da asosiy ramzlardan biri - qalb ko‘zgusidir. Qalb aslida sof, ammo nafs illatlari uni zanglatadi. Zikr, tavba va riyozat orqali bu zanglar tozalanadi va qalb yana Haq nuri bilan porlaydi. Qalbni poklash - bu faqatgina shaxsiy masala emas, balki butun jamiyatning ma’naviy uyg‘onishi uchun ham zarur shartdir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy maqomlarni ruhiy sayohatning bosqichlari sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, insonning maqsadi - nafsning bosimidan chiqib, qalbini tozalash va ilohiy haqiqatni anglashdir. Bu jarayon sabr, shukr, rizo, tavakkul va fano-baqo kabi maqomlarni ketma-ket bosib o‘tish orqali amalga oshadi. “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida, - “Shaytonning jilvalari, nafsning ofatlari, aqlning uqubatlari, ruhlarning zohir bo‘lishi, so‘fiylar orasidagi ixtiloflar, fano filloh va baqo billoh maqomining oxirigacha bo‘lgan manzillarning to‘xtash joylari va hayrat haqida bu kitob, ya’ni «Masnaviy» chalik to‘liq bayon qilingan va mufassal aytilgan kitobni topmadi. Darvishlarning tariqidagi sirlarni yashirish va pinhon tutish, haqiqatning nozik tomonlari va shunga o‘xshash

masalalar hikoyatlar zimnida chiroyli ado va latif imolar bilan bayon qilingan bo'lib, bu narsalarni boshqa (kitob)larda ko'rmadi"[209]. Yana shu o'rinda Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nafs va qalbni tasavvufiy falsafaning markaziga qo'yib, ularni inson kamolotining bosh mezoni sifatida talqin qiladi. "Tavbat ut-toibin" asarida nafs illatlari bilan kurashish, qalbni ko'zgudek toza saqlash, sabr va shukr fazilatlari bilan qalbni bezash orqali Haqqa yaqinlashish yo'li keng yoritiladi. Bu g'oyalar faqat diniy emas, balki falsafiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf - bu islom tafakkurining ichki ma'nolarini ochib beruvchi, shaxsni nafsiy ehtiroslardan xalos etib, ilohiy haqiqat sari yo'naltiruvchi ma'naviy-falsafiy maktabdir. Tasavvufiy ta'limotda insonning mavjudligi, qalbining holati, ruhiy sayohat va komil inson konsepsiyasi markaziy o'rinni egallaydi. "Tavbat ut-toibin" asarida ham aynan shu masalalar keng yoritilgan bo'lib, u diniy amallarni falsafiy ma'no bilan uyg'unlashtiradi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asarida tasavvufiy hayotning to'rt poydevori haqida to'xtaladi:

Shariat - Allohning hukmlarini bajarish, tashqi tartibni rioya qilish;

Tariqat - qalbni tarbiya qilish, riyozat va zikr orqali ichki dunyoni tozalash;

Ma'rifat - solikning qalbida paydo bo'ladigan ilohiy ma'rifat nuri;

Haqiqat - insonning Haq bilan birlashuvi, fano va baqo darajalariga yetishi.

Bu bo'limlarda Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Qur'oni karim va hadislar asosida ruhiy kamolot yo'lining uzluksiz jarayon ekanini ko'rsatadi. Unga ko'ra, shariat - yo'lning boshlanish nuqtasi, haqiqat esa oliy manzildir.

Asarda insonning ichki olami - ruh va qalbning markaziy o'rni falsafiy asoslar bilan izohlanadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy insonni ikki qismga bo'ladi: zohir (jismiy mavjudlik) va botin (ruhiy mohiyat). Unga ko'ra, insonning haqiqiy qiymati uning qalbida, ya'ni botinida yashiringan. Shu sababdan ham solikning

[209] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 14.

maqsadi nafsiy illatlardan xalos bo‘lib, qalb ko‘zgusini poklash va Haq nurini unda aks ettirishdir.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Tavbat ut-toibin” asarida ishqni - ilohiy haqiqatga eltuvchi eng buyuk kuch sifatida tasvirlaydi. Bu g‘oya Jaloliddin Rumiyning **Masnaviy** asaridagi ishq falsafasi bilan hamohang bo‘lib, unda insonning ruhiy sayohati muhabbat orqali mukammallikka yetishi ta’kidlanadi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Tavbat ut-toyibin” (Tavba qiluvchilarning tavbasi) asarining yakunida Hazrati Mavlaviy Rumiy (qaddasallohu alayh) “Masnaviy”sidan shunday baytlar keltiradilar:

**Zikri ҷismona xayoli nuqis ast,**
**Vosifӣ shohona z onho xolis ast.**

**(Jismonan zikr nuqis xayoldir,**
**Shohona vasf bulardan xolicdir.)**[210]

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nazarida, ishq solikni dunyoviy manfaatlardan yuksaltirib, uni ilohiy haqiqat sari yo‘naltiradi. Ishq orqali qalb nafsdan poklanadi, inson o‘z “men”ini tark etadi va Haqning cheksiz qudratini his etadi.

“Tavbat ut-toibin” faqat individual ruhiy sayohatni emas, balki jamiyatdagi axloqiy muhitni ham o‘zgartirishga qaratilgan. Asarda sabr, shukr, rizo, adolat, tavozu kabi fazilatlar jamiyat hayotini barqarorlashtiruvchi omillar sifatida talqin qilinadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy nazarida, har bir solikning komillikka erishi jamiyatning ham poklanishi va yuksalishiga olib keladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asarida tasavvuf falsafasi quyidagi falsafiy asoslarda mujassam:

Ontologik asos: mavjudotning yagona manbai Allohdir; barcha borliq Uning tajalliyidir.

[210] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – Б. 75.

Aksiologik asos: haqiqiy qadriyatlar sabr, shukr, adolat, halollik va tavozudir.

Antropologik asos: inson qalbi – ilohiy nur ko'zgusi bo'lib, nafsiy illatlardan poklanish orqali komillikka erishadi.

Epistemologik asos: haqiqiy bilim (ma'rifat) qalb orqali, ichki mushohada va tajalliy orqali hosil bo'ladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Tavbat ut-toibin" asari tasavvuf falsafasining asosiy tamoyillarini xalqona tilda yoritgan nodir manbadir. U tasavvufning nazariy g'oyalarini shariat va ma'rifat bilan uyg'unlashtirib, ularni xalq ongiga sodda va tushunarli tarzda yetkazadi. Asarda tavba, sabr, shukr, rizo, fano va baqo kabi maqomlarning falsafiy mohiyati ochib berilib, insonni komillikka eltuvchi yo'lning bosqichlari ko'rsatiladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Tavbat ut-toibin" asari tasavvufiy adabiyotlar orasida alohida o'rin egallaydi. Bu asarda u tasavvufiy maqomotni - tavba, sabr, shukr, rizo, zuhdu taqvo, fano va baqoni izchil sharhlab, solikning ruhiy yo'lini bosqichma-bosqich ko'rsatib bergan. Bu jihatdan u tasavvuf tarixida **maqomat va ahvol** masalasiga aniq mezon kiritgan mutafakkir sifatida qadrlanadi.

Najmiddin Kubroning "Favoih ul-jamal" asarida qalbning poklanishi va ruhan yuksalish bosqichlari yoritilgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy esa ushbu g'oyalarni davom ettirgan holda, ularni keng xalq ommasi uchun tushunarli qilib, shariat hukmlari bilan uyg'unlashtiradi. Shu jihatdan, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Kubraviylik an'anasining XVIII asrdagi izchil davomchisi sifatida ko'riladi.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o'z asarida Jaloliddin Rumiyning ishq falsafasidan, Attorning "Mantiq ut-tayr"idagi ma'naviy sayohat g'oyalaridan, Sanoiyning axloqiy-ma'rifiy qarashlaridan ta'sirlanganini ko'rish mumkin. Biroq u bu g'oyalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirmaydi, balki ularni o'z davridagi Xorazm muhitiga moslashtirib, shar'iy asosda talqin qiladi. Shu tariqa, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy-falsafiy g'oyalarni xalq ongiga singdirishda muhim vositachi bo'lgan.

"Tavbat ut-toibin" oddiy xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, u "masnaviyxonlik" an'analari doirasida o'qilgan, suhbat va majlislarda muhokama qilingan. Asar o'zining sodda tili, xalqona iboralari va hikmatli qissalari bilan xalqning qalbiga yaqin bo'lgan. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy asarda xalqni axloqiy tarbiyaga, poklikka, Allohga ixlos bilan xizmat qilishga, riyodan, hasaddan va kibrdan yiroq bo'lishga da'vat etadi. Shu bois uning asari ma'naviy-ma'rifiy tarbiya vositasi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Hozirgi globallashuv jarayonida insoniyat oldida ma'naviy inqiroz, maqsadsizlik, individualizm va iste'molchilik kabi muammolar kuchaymoqda. Bunday sharoitda tasavvufiy meros, xususan "Tavbat ut-toibin" asaridagi g'oyalar yosh avlodni ruhiy barkamollikka, sabr, shukr va tavozuga o'rgatishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda komil inson konsepsiyasiga bo'lgan ehtiyoj yanada oshib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyatni ijtimoiy inqirozlardan, ma'naviy bo'shliqlardan qutqarishning asosiy yo'li – ma'naviyatli, halol, vijdonli, adolatparvar insonlarni tarbiyalashdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning asari bu borada amaliy dastur vazifasini bajaradi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning "Tavbat ut-toibin" asari tasavvuf tarixida muhim o'rin egallab, undagi tasavvufiy maqomlarning falsafiy talqini bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Asarda ilgari surilgan g'oyalar - tavba, sabr, shukr, rizo, fano va baqo tushunchalari - nafaqat ruhiy hayotning, balki jamiyat barqarorligining ham poydevoridir.

Alloma yana "Miftox ul- asror" (Sirlar kaliti) asarida, - "Baqo ul-baqo maqomin bo'lub jondin kecharlar, Fano ul-fano bo'lyunlar ul manzilg'a ko'charlar. Baqolig'ning sharobi na xush totlig' sharob ul, Sirdin ma'ni tuyg'onlar ul sharobdin icharlar"[211] deb shunday sheriy misralarni bitganlar.

Bugungi kunda ma'naviy inqiroz va global muammolar kuchaygan bir davrda ushbu merosga murojaat qilish yosh avlodni tarbiyalashda, ularni komil inson sifatida voyaga yetkazishda muhim manbadir.

[211] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 63.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning **“**Tavbat ut-toibin**”** (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) asari nafaqat tasavvufiy adabiyot, balki Sharq falsafasi, ma’naviyatshunoslik va axloqiy tafakkur tarixida alohida o‘rin egallagan asarlardan biridir. Asar mazmuni chuqur falsafiy hamda axloqiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etib, solikning ma’naviy kamolot sari intilishi jarayonini izchil tarzda ko‘rsatib beradi.

Birinchidan, tavba maqomi solikning yo‘ldagi birinchi qadamidir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy tavbani inson qalbini yangidan uyg‘otuvchi kuch sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, tavba qilmagan kishi o‘z nafsining quliga aylanadi va ruhiy poklanish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Tavba insonni gunohdan uzoqlashtirib, uni Haqqa yaqinlashtiradi.

Alloma “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida:

Ey tani man, ey ragi man pur zi tu,

Tavbaro gunjo kujo boshad dar o‘.

Tavbaro z-in bas zi dil berun kunam,

Az hayoti xuld tavba chun kunam?

Ishq qahhor ast, man makhuri ishk,

Chun kamar ravshan shudam az nuri ishq.

Bargi koxam peshi tu, ey tundbod,

Man chi donam to kujo xoham fitod[212].

Sharh: Ey mening tanim, ey mening tomirim Sening bilan to‘la, Unda tavba uchun qanday yo‘l bo‘lsin. Shuning uchun tavbani dilimdan chiqaraman, Boqiy

[212] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 234.

hayotdan qanday qilib tavba qilayin?! Ishq yenguvchidir, men esa ishqdan yengiluvchi, Sening huzuringda bir somon bargiman, ey kuchli esuvchi shamol.

Ikkinchidan, zuhd va taqvo maqomlari tasavvufiy hayotning keyingi bosqichi sifatida ko‘rsatiladi. Bu bosqichda solik dunyo lazzatlaridan, mol-u mulkning ortiqcha havasidan voz kechib, qalban Allohga yuzlanishi lozim. Taqvo esa halol-haromni ajratish, ilohiy hukmlarga itoat etish va axloqiy mezonlarni hayotiy qoida sifatida qabul qilishdir.

Uchinchidan, sabr va shukr maqomlari ruhiy sayohatning muhim ustunlaridir. Sabr – sinovlarga bardosh, shukr – ne’matni qadrlashdir. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy buni Qur’on oyatlari bilan izohlaydi va solikning ma’naviy dunyosini mustahkamlashini ta’kidlaydi.

To‘rtinchidan, rizo va taslim darajasi solikning Alloh irodasini to‘liq qabul qilishi, qismatga rozi bo‘lishi va hayotning barcha bosqichida xotirjamlikka erishishini anglatadi. Bu daraja orqali inson o‘z nafsining chegaralarini yengib o‘tadi.

Beshinchidan, fano va baqo maqomlari asarda eng oliy ruhiy pog‘ona sifatida tasvirlanadi. Inson “fano” orqali o‘z nafsini yo‘q qilib, “baqo” orqali Haq bilan uyg‘unlikka erishadi. Bu tasavvuf falsafasining eng yuksak cho‘qqisi - komil inson maqomidir.

Xulosa qilib aytganda, “Tavbat ut-toibin” asari tasavvufiy maqomlarni Qur’on va hadis asosida sharhlab, ularni xalq ongiga sodda va tushunarli shaklda taqdim etadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning bu asari tasavvuf falsafasining nazariy va amaliy qirralarini birlashtiradi, nafsni tarbiyalash va qalbni poklash g‘oyalarini markazga qo‘yadi. U “komil inson” konsepsiyasini ilgari surib, insonning nafaqat o‘zini, balki jamiyatni ham ma’naviy jihatdan yuksaltirishda qanday yo‘l tutishi kerakligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ham bu asarning dolzarbligi yuqori. Insoniyat global muammolar girdobida qolayotgan bir paytda, ruhiy poklanish, sabr, shukr, tavozu, adolat va mehr-shafqat kabi tasavvufiy qadriyatlar jamiyatni barqaror va insoniy qadriyatlarga sodiq tutishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” asari

tasavvuf tarixidagi bebaho meros bo‘lishi bilan birga, bugungi kunda ham insoniy komillik sari yo‘lboshchi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda,

- Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” (“Tavba qiluvchilarning tavbasi”) asarida ilgari surilgan tasavvufiy maqomlarning falsafiy mohiyati tahlil qilingan bo’lib, asarda tasavvuf yo’lida muridning qalbiy poklanishi, nafsni jilovlashi, sabr va shukr kabi axloqiy fazilatlarni o’zlashtirishi hamda komillikka intilishi alohida e’tibor qaratilgan.

-“Tavbat ut-toibin” asari tasavvufiy maqomlarni izchil sharhlab, insonning tavbadan muhabbatgacha bo’lgan ruhiy yo’lini ko’rsatib beralgan bo’lib, unda tavba – boshlanish, muhabbat – oliy cho’qqi sifatida talqin qilingan. Asarning falsafiy mohiyati shundaki, u insonning ichki dunyosini o’zgarishga chorlaydi va uni komillikka yetaklovchi ruhiy qo’llanma sifatida qadrlanadi.

Shayx Odina Eshonning “Tavbat ut-toibin” asarining ma’naviy va bugungi kundagi ahamiyatli tamoni, insonni sabr, shukr, qanoat va halollikka o’rgatish bilan birgalikda ruhiy sayrning bosqichlari orqali inson mohiyatini tushuntiradi va uni yuksaltirishni nazarda tutgan. hamda bugungi davr yoshlarning axloqiy tarbiyasida, ruhiy-ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda metodologik manba bo’la oladi.

Bob bo’yicha xulosalar

Odina Eshon «Masnaviy»ni sharhlashdan tashqari, unga suyangan holda «Mir’ot ul-obidiyn» («Obidlarning ko’zgusi»), «Tabbat ut-toiybin» («Tavba qiluvchilarning tabbasi») nomli asarlarning muallifidir.

Mutasavvifning bu boradagi mutafakkirlardan farqi shundaki, u murakkab falsafiy tushunchalarni Qur’on va hadis asosida oddiy xalq uchun sodda va tushunarli shaklda izohlab bergan. Shu bois “Mir’ot ul-Obidiyn” faqatgina tasavvuf ahli uchun emas, balki keng xalq ommasi uchun ham ruhiy-ma’naviy qo’llanma vazifasini o’tagan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning komil inson haqidagi qarashlari bugungi global jamiyatda ham ta’lim va tarbiya sohasida muhim o’rin tutadi. Yosh

avlodni ma’naviy yetuk, halol, adolatli, sabrli va mehr-shafqatli qilib tarbiyalashda uning ta’limoti bebaho manbalardan biri bo’lib xizmat qiladi..

Tavbat ut-toibin” asari tasavvufiy maqomlarni izchil sharhlab, insonning tavbadan muhabbatgacha bo’lgan ruhiy yo’lini ko’rsatib beralgan bo’lib, unda tavba – boshlanish, muhabbat – oliy cho’qqi sifatida talqin qilingan. Asarning falsafiy mohiyati shundaki, u insonning ichki dunyosini o’zgarishga chorlaydi va uni komillikka yetaklovchi ruhiy qo’llanma sifatida qadrlangan.

Shayx Odina Eshonning “Tavbat ut-toibin” asarining ma’naviy va bugungi kundagi ahamiyatli tamoni, insonni sabr, shukr, qanoat va halollikka o’rgatish bilan birgalikda ruhiy sayrning bosqichlari orqali inson mohiyatini tushuntiradi va uni yuksaltirishni nazarda tutgan.

## IV-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA ODINA MUHAMMAD XORAZMIY TA’LIMOTINING XAVSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI FALSAFIY AHAMIYATI

Dissertatsiyaning mazkur oxirgi bobi “Risolai Odina Eshon” kitobining falsafiy tahlili va mutafakkir tasavvufiy talqinlarining keyingi ravnaqi” va “Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan omillarni oldini olishda mutafakkir ma’naviy ta’limotining o’rni, ijtimoiy axloqiy ahamiyati”deb atalgan paragraflardan iborat. Dastlabki paragrafda Sayyid Odina Muhammad Xorazmiyning “Risolai Odina Eshon” kitobining falsafiy tahlili va mutafakkir tasavvufiy talqinlarining keyingi ravnaqi hamda jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan omillarni oldini olishda mutafakkir ma’naviy ta’limotining ijtimoiy axloqiy ahamiyati mavzulariga to’xtalib o’tilgan. “Risolai Odina Eshon”ning tuzilishi va mazmuni risolaning an’anaviy tasavvufiy “risola” janriga xos tarzda qisqa boblardan iborat ekanligi, shariat–tariqat–haqiqat–ma’rifat zinalarini, maqomlarni va odoblari izohlangan

Keyingi paragrafda Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotining asosiy tamoyillari sifatida – ma’naviy poklanish – insonning nafsiy illatlardan xalos bo’lishi, ilohiy muhabbat – Allohga muhabbat orqali insonni yaxshilik va bag’rikenglikka

undash, komil inson kontsepsiyasi – ma’naviy barkamollik, jamiyat barqarorligining kafolati, Olam va inson birligi masalalari falsafiy tahlil etilgan.

Bugungi kunda jahon miqyosida tobora ortib borayotgan johillik, zo’ravonlik, diniy murosasizlik, ekstremizm, etnik mojarolar va mintaqaviy nizolar aholini ajratib tursa, ilm-fan, ma'rifat, axloq, odob-axloq, axloq va insoniylik ularni birlashtirishi va shu ma’noda olganda ma’kur mutasavvif g’oyalari shaxsning ichki dunyosi, axloqiy va estetik madaniyati, ongi va bilimini rivojlantirish va takomillashtirish har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda hal qiluvchi manbalardan biri bo’lib xizmat qilishiga e’tibor qaratilgan.

Globallashuv sharoitida Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotining xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi falsafiy ahamiyati bugungi kun va hozirgi zamon uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. XXI asr – globallashuv, tezkor axborot oqimi, turli mafkuraviy qarashlarning to‘qnashuvi davri hisoblanadi. Bu jarayonda insoniyat oldida eng katta muammolardan biri – ma’naviy tahdidlar, diniy ekstremizm, madaniy begonalashuv va ma’naviy bo‘shliqdir. Shu nuqtai nazardan, Sharq tasavvuf tafakkuri va xususan, Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotini o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatli hisoblanadi.

Ushbu bobda Sayyid Odina Muhammad Xorazmiyning “Risolai Odina Eshon” kitobining falsafiy tahlili va mutafakkir tasavvufiy talqinlarining keyingi ravnaqi hamda Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan omillarni oldini olishda mutafakkir ma’naviy ta’limotining ijtimoiy axloqiy ahamiyati mavzulariga to‘xtalib o‘tilgan.

## 4.1.“Risolai Odina Eshon” kitobining falsafiy tahlili va mutafakkir tasavvufiy talqinlarining keyingi ravnaqi

Odina Muhammad Xorazmiyning qarashlari va uning tasavvufiy g‘oyalari, allomaning hayot faoliyatini o‘zida mujassam etgan asar “Risolai Odina Eshon” nomi bilan zikr etiladigan asar hisoblanadi. Odina Eshon (Sayyid Odina Muhammad al-Xorazmiy 1728-1801) merosining markaziy bo‘g‘ini sifatida ko‘radi va uni

muallifning boshqa risolalari bilan masalan, "***Miftoh ul-asror"***, "***Mir'ot ul-'obidiyn"***, "***Tavbat ut-toyyibin"***, "***Sharhi kalimoti ba'zi ahli suluk" asarlari bilan*** uzviy bog'liq holda sharhlanadi. Asar asosan tasavvufshunos an'analarga va muallifning shu turkumdagi risolal hisoblanadi. Odina Eshon "Miftoh ul-asror", "Risolai Odina Eshon" va "Sharhi kalimoti ba'zi ahli suluk" muallifi sifatida ko'p o'rinlarda tilga olinadi. Sayyid Odina Muhammad ibn Sayyid Muzaffar al-Xorazmiy (Hazoraspiy), xalq orasida Shayx Odina Eshon nomi bilan mashhur. Vafoti millodiy yil hisobida 1801 yil atrofida ko'rsatiladi, tug'ulgan vaqti haqida aniq manbalar mavjud emas, taxminan 1728 – yillarda tug'ulganligi e'tirof etilgan. Xorazmda Odina Eshon nomi bilan bog'liq masjid va qadamjolar hozirgi kungacha Xorazm viloyati Bog'ot tumani Dehqonobod(eskicha nomi Eshonchap va Kirop) qishlog'ida saqlanib kelayotgani merosning mahalliy xotiradagi davomiyligini ko'rsatadi.Shu qishloqda "Odina Eshon Bobo" jome masjidi va qabristoni mavjud va allomaning avlodlari istiqomat qiladi.

Odina Muhammad Xorazmiy "Risolai Odina Eshon"ning tuzilishi va mazmuni risolaning an'anaviy tasavvufiy "risola" janriga xos tarzda qisqa boblardan iborat bo'lib, shariat–tariqat–haqiqat–ma'rifat zinalarini, maqomlarni va adabni izohlashini ko'rish mumkin.

Ontologiya (borliq talqini) jihatdan, Mikro-makrookosmos: Inson (qalb) - Haqning tajallosi aks etadigan "oyna" (ko'zgu); borliq yagonaligiga ichki sayr orqali yetiladi. Bu tamoyil ***Mir'ot ul-obidiyn***dagi ibodatning qalbni sayqallovchi mohiyati bilan uyg'un holda yoritilgan:

Lazzati hasti namudi nestro,

Oshiqi xud karda budy nestro.

Lazzati in'omi xudro vomagir,

Nuklu boda jomi xudro vomagir.

Sharh: Yo‘qlikka borliq lazzatini ko‘rsatding, Yo‘qlikni o‘zingga oshiq qilding. O‘z in’oming lazzatidan bizni ayirma, Shirinligi may to‘la qadahni bizdan olib judo qilma. Yanada soddaroq qilib tushuntirilsa:

Lazzati hasti namudi nestro,
Oshiqi xud karda budy nestro.

Mavjudlikning lazzatini “yo‘qlik”ga namoyon qilding,

O‘zingni “yo‘qlik”ning oshig‘i qilib qo‘yding.

Lazzati in’omi xudro vomagir,
Nuklu boda jomi xudro vomagir.

Ne’matlaringning lazzatini o‘zingga qaytarib ol,

Asal-u may kosangni o‘zingga qaytarib ol.

Aksiologiya va axloq (komil inson yo‘li) jihatdan, maqomlar zanjiri: ***Tavba → Zuhd → Sabr-Shukr → Tavakkul → Rizo → Muhabbat*** - muallif korpusida aniq tilga olinadigan yo‘l (ayniqsa ***Tavbat ut-toyyibin*** hamda umumiy talqinlarda). ***Risolada*** ushbu bosqichlarni axloqiy-amaliy dasturga aylantiradi: nafsni jilovlash, qalbni poklash, muhabbat orqali kamillikka erishish; Epistemologiya (bilish nazariyasi) jihatdan, Ilm va ma’rifat farqi: tashqi bilim shariat amaliyotini mustahkamlaydi; ichki idrok (ma’rifat) qalb sayqasi bilan hosil bo‘ladi - bu yo‘l ***Miftoh ul-asror***dagi “sir” metaforasiga ulanadi (kalit–eshiq–sir modeli) va tahlil etilgan; Amaliyot (amal va zikr adobi) jihatdan, “qalb ko‘zgusi”ni tozalashga xizmat qiladi; ***Risolada*** ibodat-zikrning falsafiy asosini (niyat, ihlos, hudur) qisqa qoidalarda jamlangan; Odina Muhammad Xorazmiy haqidagi bu risolaning falsafiy ahamiyati **s**haxsiy muhofaza va ruhiy xavfsizlik: nafsiy illatlardan poklanish - ichki barqarorlik va ijtimoiy totuvlikning falsafiy poydevori bo‘libgina qolmasdan, teleologik jihatdan allomaning “Komil inson” konsepsiyasini ochib bergan. Ishq va rizo orqali Haqqa yaqinlik; jamiyatdagi adolat, sabr, bag‘rikenglikni kuchaytiruvchi qadriy ko‘rsatkich

sifatida baxolanadi; Metodologik tamondan germenevtik (ramzlar talqini) va amaliy-axloqiy (adab) qatlamlarning uyg‘unligi, nazariya amalda tasdiqlanadi.

***Risola Odina Eshon***ning qo‘lyozmalari va nushalarini aniqlash, tanqidiy matn tayyorlash O‘zR FA Sharqshunoslik institutidagi fondlarga tayanuvchi ishlar bilan uyg‘un tarzda tayyorlangan. Risolada asosan, tasavvufiy ta’limotlarning an’analari bilan atama-tizim(zikr, muroqaba, fano/baqo)lari va maqomlar semantikasini taqqoslashni ko‘rish mumkin va yana “komil inson” teleologiyasini zamonaviy axloqiy falsafa (fazilat-etikasi, ma’naviy psixologiya) bilan tutashtirishlariga duch kelish mumkin. Ayniqsa yoshlar tarbiyasida tavba-sabr-shukr-tavakkulni kompetensiya ko‘rinishida modellashtirish, radikalizmga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish qoidalaridan foydalanilgan.

***Risolada*** Odina Eshonning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini ixcham, amaliy yo‘l-yo‘riq va ramziy-germenevtik sharhlar ko‘rinishida jamlagan. U “***Mir’ot ul-obidiyn”***dagi ibodat adobi va “***Tavbat ut-toyyibin”***dagi axloqiy poklanish yo‘li bilan “***Miftoh ul-asror”***dagi ma’rifat sirlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi: maqsad - qalbni ko‘zguga aylantirib, muhabbat va rizo orqali komil inson darajasiga yetaklash. Asar atrofidagi keyingi ravnaq - mahalliy xotira, diniy-ma’naviy amaliyot va zamonaviy ilmiy izlanishlarda dasturil amal bo‘lib hisoblanadi.

Markaziy Osiyo XVIII–XIX asrlarda siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul va ijtimoiy ziddiyatlar girdobida bo‘lgan. Ammo bu davrda tasavvufiy hayot va ma’naviy maktablar jamiyat uchun ruhiy tayanch vazifasini bajargan. Tasavvuf, bir tomondan, Qur’on va hadis asosida axloqiy-pedagogik ta’limotlarni targ‘ib etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, falsafiy-ontologik qarashlar orqali insonning mavjudligi, ruhiy mohiyati va ilohiy haqiqatni anglash jarayoniga yondashuvni shakllantirdi. Shu boisdan tasavvufiy meros o‘sha davrning nafaqat diniy, balki falsafiy tafakkurida ham markaziy o‘rin tutgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy – Xorazm va uning atrofidagi tasavvufiy muhitda shakllangan, xalq ongiga yaqin bo‘lgan mutafakkir sufi sifatida tanilgan. Alloma ilmiy faoliyati Qur’on va hadis ilmlariga tayangan holda, tasavvufiy-falsafiy qarashlarni sharhlash, xalq uchun sodda va ravon tilda bayon qilish bilan ajralib

turadi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o‘z davrida nafaqat ruhiy-axloqiy, balki ijtimoiy-ma’naviy masalalarda ham yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan, xalqni poklik, tavozu, sabr va shukrga da’vat qilgan.

Asar jamiyatning ma’naviy ehtiyojidan kelib chiqqan. XVIII–XIX asrda xalq orasida jaholat, nafsiy hirs va axloqiy zaiflik kuchaygan davrda Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Risola”sini yozib, insonlarni qalb pokligi, nafs tarbiyasi, sabr, shukr va tavbaga qaytishga chorlagan. Bu asar Qur’on va hadisga tayanib, tasavvufiy maqomlarni izchil sharhlab bergani bilan ajralib turadi. Shu sababli u oddiy xalq uchun ruhiy-ma’naviy qo‘llanma vazifasini o‘tagan.

“Risolai Odina Eshon” asari tasavvufiy-falsafiy meros sifatida bugungi kunda ham dolzarb. Global jarayonlar insoniyatda ma’naviy inqiroz va qadriyatlar tanazzuliga olib kelayotgan bir paytda, bu asar yoshlarni sabr, shukr, tavozu, halollik va komillikka chorlaydi.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi ham - “Risolai Odina Eshon” asarining falsafiy mohiyatini ochish va unda ilgari surilgan tasavvufiy talqinlarning keyingi davrlarda qanday davom etganini ko‘rsatishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Asarning tuzilishi va mazmuniy asoslarini tahlil qilish;

Tasavvufiy talqinlarning falsafiy qirralarini izohlash;

Mutafakkirning qarashlarini boshqa mashhur sufiylar merosi bilan qiyoslash;

Asarning xalq ma’naviyati va bugungi davr tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish.

“Risolai Odina Eshon” - XVIII–XIX asr tasavvufiy-falsafiy tafakkurining yirik namunasidir. Asarda inson ruhiy hayotining bosqichlari, tasavvufiy maqomot (tavba, sabr, shukr, rizo, zikr va boshqalar) batafsil yoritilgan. Muallif Qur’on va hadisga tayangan holda, murakkab falsafiy tushunchalarni xalq ongiga sodda va ravon tilda yetkazishga intiladi. Asar diniy-falsafiy risola bo‘lishi bilan birga, axloqiy-ma’rifiy qo‘llanma sifatida ham xizmat qilgan.

Asar mazmunan bir necha asosiy yo‘nalishga ajraladi:

1. Tavba – insonning ruhiy sayohatidagi birinchi qadam sifatida tushuntiriladi. Tavba orqali solik gunohlaridan poklanadi va qalbini yangi yo‘lga tayyorlaydi.

2. Ibodat – nafaqat tashqi amal, balki qalbdagi ixlos va tafakkur bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi. Alloma Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida – “og‘ir va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tish uchun sinovli imtihonlarni amalga oshirish darvishlar uchun lozim va toliblar uchun zarurligini uqtiradi. Har kim fahm va iste’dodiga yarasha tekshirsin va ehtiyot chorasini joyiga qo‘ysin, tashqi ko‘rinishini bezatishi va el orasida shuhrat qozonishiga aldanib qolmasin. Ko‘pincha botil kishilar kamolda shuhrat topgan, Xaq ahli esa panada va pinhonda qolgan bo‘ladi. Necha vaqtlar darvishlar halqasida aylanish, silsilaga kirganlar va ibodatda bo‘lganlarni tavof qilish, taftish shartini joyiga qo‘yish lozim, (386) shoyadki Xudoyi ta’olo uning amalini zoe ketkazmasa va «kimki biror narsani qidirsa, topadi» hukmi bo‘yicha uni komillik sarhadiga yetkazsa. Bordi-yu, topolmasa ham talab huquqini ado qilgan bo‘ladi”[213];

3. Zikr – Allohni doimiy yod etish orqali qalbni tozalash va Haqqa yaqinlashish vositasi sifatida ko‘rsatiladi. Alloma Shayx Odina Muhammad Xorazmiy “Miftox ul- asror” (Sirlar kaliti) asarida – “Shayx ul-imom va faxr ul-islom Aliy al-Pazdaviy aytadilar: «Ulug‘ Kur’onda Xaq ta’olo yaqinni uch yo‘sinda zikr qilgan. Bular ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin va Haqq ul-yaqindir. Ilm ul-yaqin fikr va nazardan hosil bo‘ladi. Ayn ul-yaqin ayondan hosil bo‘ladi. Haqq ul-yaqin ikkovining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi»[214]. Naxshabiy aytadilar: «Ilm ul-yaqin nazar va dalil yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Ayn ul-yaqin kashf va inoyat orqali hosil bo‘ladi. Haqq ul-yaqin mushohada hamda yomon narsalardan uzoq bo‘lish orqali hosil bo‘ladi. Ikkinchisi birinchisidan kuchliroq va uchinchisi ikkinchisidan quvvatliroqdir»[215].

---

[213] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 71.
[214] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 156 а.
[215] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 24.

4. Sabr va shukr – hayot sinovlariga toqat qilis'h va Alloh ne'matlariga minnatdor bo'lis'h fazilatlari sifatida keng s'harhlanadi. "Miftox ul- asror" (Sirlar kaliti) asarida – "Alloh ta'olo aytdi: «Agar sizlar shukr qilsangizlar sizlarga ziyoda ne'mat berurman, agar noshukrlik qilsangizlar, albatta, Mening azobim qattiqdur»[216] (Kur'on, 14/7).

Shukr kun, mar shokironro banda bosh,
Peshi eshon murda shav, poyanda bosh.

(Shukr qil va shukr qiluvchilarga banda bo'l,
Ularning oldida jon berib, murda bo'l va mahkam tur.)[217]

Sharh: Shukr qilib, muhaqqiqlarga banda bo'l, ularning oldi-da jon berib, murda bo'l, ya'ni iroda va ixtiyorini yo'q qiladi, muhaqqiqning iroda va ixtiyorini amalga oshirishda mustahkam va barqaror bo'ladi.

5. Rizo va taslim – taqdirga rozi bo'lis'h, Alloh irodasini to'liq qabul qilis'h maqomi sifatida talqin qilinadi. Alloma – "har yerda bir qobil odam bo'lsa taslim va tasdiq qulog'ini ulug'larning so'zlariga tutdi. Shuning taqozosi bo'yicha: «Najot sidq (tug'rilik) dadir» va'dasi yuz berib, bu maqomga yetishish uchun har qanday to'siqdan najot topdi va eshitgan hamda ko'rgan kishi bu ulug' maqsadga erishdi."[218]

Asarda markaziy o'rin tutgan g'oya - qalbni poklas'h va nafsni jilovlas'hdir. Muallif qalbni "nur ko'zgusi"ga, nafsni yesa "zang"ga o'xs'hatadi. Agar qalb nafs istaklari bilan qoraysa, unda Haqning nuri aks yetmaydi. Zikr, tavba va riyozat orqali bu zang ketkaziladi, qalb yesa yana porloq ko'zguga aylanadi.

Nafsni jilovlas'hda riyozat, ya'ni nafs istaklarini cheklash, ro'za, zikr va kamtarlik muhim o'rin tutadi. Alloma tasavvufiy an'anaga sodiq holda, nafsni yeng

---

216 Куръон, 14/7
217 Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 146.
218 Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 150.

buyuk dus’hman deb talqin qiladi va insonning yeng katta jihodi - o‘z nafsiga qars’hi kuras’h yekanini ta’kidlaydi.

“Risolai Odina Yeshon” Qur’on oyatlari va hadislar bilan mustahkamlangan. Masalan:

**“Albatta, Alloh tavba qiluvchilarni yaxs’hi ko‘radi”** (Baqara, 222) – tavbaning asosiy manbasi sifatida keltiriladi.

**“Sabr qiluvchilarga cheksiz ajr berilur”** (Zumor, 10) – sabr fazilatining ilohiy manbai sifatida izohlanadi.

Hadis: **“Alloh sizlarning suratlaringizga yemas, qalblaringizga qaraydi”** – qalbni poklas’hning zarurligini asoslaydi.

Muallif us’hbu manbalarga tayangan holda, tasavvufiy maqomlarni s’har’iy asoslar bilan izohlaydi va ularni falsafiy talqin qiladi.

Asarda ramziy obrazlar keng qo‘llanadi. Ko‘zgu – qalbni, nur – Haqni ifodalaydi. Agar ko‘zgu zanglasa, unda nurlar aks yetmaydi. Demak, inson qalbi ham hasad, kibr, riyo kabi illatlardan poklanmasa, unda ilohiy haqiqat namoyon bo‘lmaydi. Bu ramziy tasvirlar xalq ongida chuqur ta’sir uyg‘otgan va tasavvufiy g‘oyalarni oddiy odamlarga ham yaqinlas’htirgan. S’hunday qilib, “Risolai Odina Yeshon” asarining tuzilis’hi tasavvufiy maqomlarning izchil ketma-ketligi asosida qurilgan. Asarda tavba, zikr, sabr, s’hukr, rizo kabi maqomlar s’harh qilinib, ular qalbni poklas’h va komillikka yeris’his’h yo‘lida asosiy bosqich sifatida talqin qilinadi. Qur’on va hadisga tayanilganligi yesa asarning diniy-falsafiy asosini mustahkamlaydi.

“Risolai Odina Yeshon” asarida borliq masalasi tasavvufiy talqinda izohlanadi. Muallifning ta’kidlas’hicha, mutlaq mavjudlik faqat Allohga xosdir, bos’hqa barcha narsalar yesa foniydir. Qur’onda **“Uning zoti mustasno, barcha narsalar halok bo‘lur”** (Qasos, 88) degan oyat keltiriladi. S’hu asosda insonning “men”i vaqtinchalik va yo‘q bo‘lis’hga mahkumdir.

Asarda fano - insonning o‘z nafsidan voz kechis’hi, baqo yesa Alloh bilan yas’has’h maqomi sifatida talqin qilinadi. Demak, inson o‘zligini yo‘qotibgina abadiy

hayot - ilohiy nurda davom yetadi. Bu g‘oya tasavvuf falsafasining ontologik mohiyatini ko‘rsatadi.

Alloma qarashlarida fano tushunchasini bosha o‘zidan oldingi allomalarning qarashlari bilan uyg‘unlashtirib mukammallashtirganlar:

Xoja Alouddin Attor, qabrlari muattar bo‘lsin, buyuradilarki, solikning ko‘ziga ashyolarning pinhon bo‘lishini fano deb nomlaganlar. Ba’zilar uni «jam’i avval» deganlar. Mavlaviy, sirlari muqaddas bo‘lsin, buyuradilar:

Avvalo bishnav, ki man mondam zi shast,

Avvalu oxir zi peshi man bishast.

(Avvalo, eshittinki, o‘q otishdan qolganimda,

Avval ham, oxir ham huzurimdan qochdi.)[219]

Shayx Abu Sa’id Xazzoz, sirlari muqaddas bo‘lsin, aytadilar: Uni izlardim, ammo o‘zimni topardim. Bu holni zikr deydilar, sababi shuki, solikning vujudidan o‘zga hech narsa qolmaydi, u qaysi tomonga qarasa, bepoyon nurni ko‘radi, unda esa o‘zini topadi. Shuning uchun aytadilar: «Mahbub avval o‘z muhibiga sina bo‘ladi». Shu yerda ilm ul-yaqin darajasini qabul qiladi, Xaq ta’oloning sifatlari va zotini tanishni ilmi Yaqin orqali hosil qiladi, Alloh jamolining mushohadasi tez orada muyassar bo‘lishiga ko‘z tikadi va ayni yaqin zuhurga keladi, inshaallohu ta’olo»[220].

Mavlaviy Jomiy, ularga Allohning rahmati bo‘lsin, ayta-dilar: «Ilm ul-yaqin olovga ko‘zni yumib qarash ilmidir. Ayn ul-yaqin olovga ko‘zni ochib qarash ilmidir. Haqq ul-yaqin, bilginki, olov ichiga kirish va yo‘q bo‘lishdir, chunonchi olovning sifatlari unda sodir bo‘ladi». Naxshabiy, ularga Allohning rahmati bo‘lsin, aytadilar: «Tariqat ilmining istilohlaridan biri muhozara, mushohada va mukoshafadir. Muhozara talvin arboblarining hamda ilm ul-yaqin ahlining haqidir. Mushohada

---

[219] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 23.

[220] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 15 а.

talvin arboblari va tamkin as'hoblari orasidagi amr (ish) hamda ayn ul-yaqin ahlining haqidir. Mukoshafa tamkin as'hoblarining haqi hamda haqq ul-yaqin ahlining haqidir»[221].

S'hayx Odina Muhammad Xorazmiy insonni ikki qirrali mavjudot sifatida ko'radi: jismiy (zohiriy) va ruhiy (botiniy). Insonning haqiqiy qiymati uning ruhida, qalbida mujassam. Qalb - ilohiy nurlarni qabul qiluvchi markaz, nafs yesa insonni gunohga bos'hlovchi ichki kuchdir.

Muallif nafsni uch darajada s'harhlaydi:

1. Nafs ammora – yovuzlikka buyuruvchi nafs;
2. Nafs kifoya – xatolarini tan oluvchi va o'zini malomat qiluvchi nafs;
3. Nafs mutma'inna – Allohdan rozi bo'lgan, Alloh ham undan rozi bo'lgan nafs.

Alloma "Miftox ul- asror" (Sirlar kaliti) asarida Barcha soliklar tavhid dengizida, xoh u shuhudiy bo'lsin, xoh vujudiy, halokdurlar va hammasi mahvu mustagraq bo'lgandirlar, faqat bittasinigina zamonning biror asri va qarnida sohilga tashlaydilar va ahadiyat (vahdat) daryosining sirlarini biluvchiga aylantiradilar. To shu yergacha tavhid bo'lib, Ilohiy tajalliyot yuz bermagan bo'ladi va ruh hamda nafs sayrida u bilan birga bo'ladi, sulukning holatlari va atvorlarida u bilan yonma-yon bo'ladi. Shayx Farididdin Attor, sirlari muqaddas bo'lsin, buyuradilar:

Asb chandone ki tozad dar shikor,

Sag hametozad ba o' andar qator[222].

(Ovda ot qanchalik (yaxshi) chopmasin,

It ham (baribir) u bilan qatorda bo'ladi.)

[221] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтох ул- асрор" (Н. Комилов таржимаси "Сирлар калити"). – Тошкент: "Мусиқа" нашриёти, 2006. – Б. 23-24.
[222] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 206 а.

Qalb va nafs o‘rtasidagi kuras’h inson hayotining yeng muhim falsafiy jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Alloma o‘z qarashlarida ilohiy ilmda nodonlik ravo bo‘lmaydi, demak Shaytoniy tajalliyot, nafs makri hamda bu ikovning ofatlarini basiyrat ko‘zi bilan ko‘rib va bilib, ehtiyot bo‘lmoq va daf’iga kirishmoq lozim. Bu zotlardan boshqalar zohiriy ilmlar, xoh u aqliy ilmlar bo‘lsin, xoh naqliy ilm bo‘lsin, bu ilmlarga olim bo‘lsin yoki u johil bo‘lsin, bularning bilishi bir qancha narsalardan dalil olish yo‘li bilan bo‘ladi. Bulardan biri «albatta tanur erdingiz uning alomatlaridan» (Kur’on, 47/30) oyatida aytilgandek, siymo (alomat)lar bo‘lib, aldov va ayyorlik, munofiqlik va tilyog‘lamalik, sotqinlik va ikki yuzlamachilik ularning nomuborak yuzlaridan ma’lum bo‘ladi. Oqil kishilar farosat nazari va chuqur imtihon yuzasidan qarab, albatta, uning qallob, o‘g‘ri, kazzob ekanini biladilar[223].

Dast ne, to dast junbonad ba daf’.
Nutq ne, to dam zanad az zarru naf’.

(Daf qilishga qo‘l qimirlatish uchun qo‘li yo‘q,
Zarar va foydadan so‘zlash uchun nutqi yo‘q.)

Sharh: Iroda va ixtiyorlari yo‘qdir, ularning nafs tillari go‘ng va loldir, hatto dam urishga majollari yo‘q: «Kimki Allohni tanisa, tili gung bo‘ladi».

Shuningdek, Ilohiy oriflarning va oshiqlarning sidku vafolari ularning ravshan chehralarida zohirdir va Subhoniy nurlarning porlashi peshonalarida huvaydodir. Ularning muborak diydorlari ko‘ngillarni o‘ziga jazb etadi, ularning yoqimli qimli atvorlari ko‘ngillarning maqbuli va mahbubidir[224]. Ularning suhbatiga sadoqat va ixlos yuzasidan kirilsa, odam o‘z ixtiyorini tamom qo‘ldan berib, qalbida o‘zgarish va

---

[223] Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 36 а.
[224] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 66.

intilish yuz berganini, yuragida tortilish paydo bo‘lganini aniq his etadi. Allohni yodda tutishga, agar bunga loyiq bo‘lsa, maylni ziyoda bo‘lganini sezadi.

Asarda axloqiy qadriyatlarga katta ye’tibor beriladi. Muallif sabr, s’hukr, adolat, halollik, tavozu, rizo kabi fazilatlarni inson kamolotining asosi deb biladi.

Sabr - sinovlarga bardos’h beris’h orqali ruhiy mustahkamlikka yeris’his’h.

S’hukr - Alloh ne’matlarini qadrlas’h va minnatdorlik bildiris’h.

Adolat - jamiyatda totuvlik va haqqoniylikni ta’minlas’h.

Tavozu - insonning o‘zini kichik tutis’hi, kibr va manmanlikdan yiroq bo‘lis’hi.

Rizo - taqdirga rozi bo‘lis’h va Alloh irodasini qabul qilis’h.

Bu qadriyatlar nafaqat individual ruhiy sayohat, balki jamiyat hayotini barqarorlas’htiruvchi omillar sifatida ham ko‘rsatiladi.

S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy fikricha, haqiqiy bilim (ma’rifat) faqat qalb orqali hosil bo‘ladi. Aql insonni yo‘naltiradi, lekin qalb Haqni mus’hohada qilis’hga olib boradi. S’huning uchun solik zikr, tafakkur, riyozat va qalbiy hus’hyorlik orqali Haqni idrok yetadi.

Yepistemologik nuqtai nazardan, “Risolai Odina Eshon”da quyidagi qadamlar ko‘rsatiladi:

1. Shariat ilmlari - shariat amallarni to‘g‘ri bajarish;
2. Tariqat mas’hqlari - qalbni tozalas’h, zikr va riyozat;
3. Ma’rifat - qalb ko‘zgusida Haq nurlarini idrok yetis’h;
4. Haqiqat - Alloh bilan uyg‘unlas’huv va fano-baqo darajasi.

“Risolai Odina Eshon”da tasavvufiy talqinlarning falsafiy qirralari keng ochib berilgan. Ontologik jihatdan - borliqning yagona manbai Alloh yekanligi, antropologik jihatdan - insonning qalbi ilohiy markaz sifatida talqin yetilis’hi, aksiologik jihatdan - sabr, s’hukr, rizo kabi qadriyatlarning komillik mezoni sifatida ko‘rsatilis’hi, yepistemologik jihatdan yesa - haqiqiy bilim qalb orqali anglanis’hi muhim falsafiy xulosalardir.

S’hu bilan “Risolai Odina Eshon” tasavvufiy-falsafiy tafakkur tarixida xalq ongiga yaqin, ammo chuqur falsafiy mohiyatga yega bo‘lgan asar sifatida qadrlanadi.

“Risolai Odina Eshon” o‘z ildizlari bilan Markaziy Osiyo tasavvufiy maktablarining yirik an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Avvalo, Najmiddin Kubroning qalbni poklas’h haqidagi ta’limoti, Jaloliddin Rumiyning is’hq falsafasi, Attorning ruhiy sayohat haqidagi qaras’hlari va Imom G‘azzoliyning nafs tarbiyasi haqidagi o‘gitlari S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy tafakkurida yangicha talqin yetilgan. Muallif ularning g‘oyalarini o‘z davrining s’haroitiga moslas’htirib, xalq ongiga sodda, ammo chuqur ma’noda taqdim yetgan.

Najmiddin Kubroning “Favoih ul-jamal” asarida qalbning poklanis’hi va solikning Haqqa yetis’h jarayonlari yoritiladi. S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy ham bu g‘oyani davom yettirib, qalbni “ko‘zgu”, nafsni yesa “zang” deb ataydi. Unga ko‘ra, qalbni nafs illatlaridan tozalas’h orqaligina Haq nuri unda aks yetadi. Bu jihatdan S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy Kubraviylik tariqati g‘oyalarining XVIII–XIX asrdagi davomchisi bo‘lib ko‘rinadi.

Rumiyning “Masnaviy” asarida ilohiy is’hq solikni Haqqa yeltuvchi yeng buyuk kuch sifatida talqin yetiladi. S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy ham is’hqni ruhiy sayohatning markaziga qo‘yadi. Biroq u Rumiy kabi ramziy s’he’riy uslubdan ko‘ra, Qur’on va hadis asosida aniq s’harhlar beradi. Is’hq orqali solik dunyo havaslaridan voz kechadi, qalbi poklanadi va Haqqa yaqinlas’hadi.

Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida tasavvufiy maqomlar ramziy qus’hlar sayohati orqali ifodalangan bo‘lsa, S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy ularni Qur’oniy dalillar bilan s’harhlab beradi. Imom G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din” asaridagi nafsni jilovlas’h va axloqiy tarbiya haqidagi fikrlar ham “Risolai Odina Eshon ”da o‘z aksini topadi. Bu jihatdan S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy-falsafiy merosni xalq uchun amaliy qo‘llanma sifatida qayta talqin qilgan mutafakkirdir.

“Risolai Odina Eshon ” faqat nazariy risola sifatida yemas, balki xalq orasida keng o‘qilgan, masnaviyxonlik majlislarida qo‘llanilgan, madrasalarda ma’naviy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Asar xalqning kundalik hayotiga singib, uning

o‘gitlari xalq maqollari, hikmatli so‘zlari va rivoyatlarida ham aks yetgan. S’hu bois S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufiy tafakkurni keng ommaga yetkazis’hda ko‘prik vazifasini bajargan.

Bugungi globallas’huv davrida “Risolai S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy”ning g‘oyalari yana-da dolzarb bo‘lib bormoqda. Ma’naviy inqiroz, axloqiy zaiflik, moddiylikka mukkasidan ketis’h kabi muammolarga qars’hi turis’hda bu asar o‘zining sabr, s’hukr, tavba, tavozu, halollik va adolat haqidagi g‘oyalari bilan yos’h avlod tarbiyasida muhim qo‘llanma bo‘lis’hi mumkin. Demak, S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy qaras’hlari S’harq tasavvufiy tafakkurining chuqur ildizlariga tayanadi, ammo ularni xalq ongiga moslas’htirib, s’har’iy asoslarda taqdim yetadi. Allomaning g‘oyalari keyingi tasavvufiy an’analarda davom yetib, bugungi kun uchun ham ma’naviy dasturulamal vazifasini o‘tamoqda.

“Risolai Odina Eshon ” asari XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo tasavvufiy tafakkurining yorqin namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. Bu asarda insonning ma’naviy kamolot yo‘li, qalbni poklas’h, nafsni jilovlas’h, sabr, s’hukr, rizo, tavozu va halollik kabi axloqiy qadriyatlar chuqur falsafiy talqin yetilgan. S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy nafaqat tasavvuf ahli uchun, balki keng xalq ommasi uchun ham amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladigan ta’limotni yaratdi.

Asarning falsafiy mohiyatini tahlil qilis’h s’huni ko‘rsatadiki:

Ontologik jihatdan S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy borliqning yagona manbai Alloh yekanini, barcha mavjudot Uning tajalliylari sifatida foniy va vaqtinchalik yekanini ta’kidlaydi. Alloma o‘zining aarida majoziy ma’noda inson borliqiga shunday misralar bilan ta’rif beradi:

Lazzati hasti namudi nestro,

Oshiqi xud karda budy nestro.

Lazzati in’omi xudro vomagir,

Nuklu boda jomi xudro vomagir[225].

(Yo‘qlikka borliq lazzatini ko‘rsatding,

Yo‘qlikni o‘zingga oshiq qilding.

O‘z in’oming lazzatidan bizni ayirma,

Shirinligi may to‘la qadahni bizdan olib judo qilma.)

Antropologik nuqtai nazardan, inson qalbining markaziy o‘rni va nafsni jilovlas’h zarurligi ilgari suriladi;

Aksiologik qirralarda sabr, s’hukr, adolat, tavozu kabi qadriyatlar komillikka yeltuvchi asosiy mezon sifatida ko‘rsatiladi;

Yepistemologik jihatdan yesa haqiqiy bilim qalb orqali, zikr va riyozat orqali Haqqa yaqinlas’his’h sifatida talqin qilinadi.

Mutafakkirning tasavvufiy qaras’hlari Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Attor va Imom G‘azzoliy merosi bilan bog‘liq bo‘lsada, ularni sodda, s’har’iy asoslangan va xalq uchun tus’hunarli s’haklda izohlas’h bilan ajralib turadi. S’hu bois S’hayx Odina Muhammad Xorazmiy S’harq tasavvufiy tafakkurida murakkab falsafiy g‘oyalarni xalq ongiga yaqinlas’htirgan ko‘prik vazifasini bajargan.

Bugungi davrda ham “Risolai Odina Eshon”ning g‘oyalari dolzarbligini yo‘qotmagan. Globallas’huv, ma’naviy inqiroz, individualizm va iste’molchilik kuchaygan bir s’haroitda, bu asar sabr, s’hukr, tavba, halollik, adolat va komil inson konsepsiyasi orqali yos’h avlodni tarbiyalas’hda, jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlas’hda bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, “Risolai Odina Eshon” tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan asar bo‘lib, uning falsafiy talqinlari keyingi tasavvufiy an’analarda davom yetgan va bugungi kunda ham insoniyatning ruhiy-madaniy rivojida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

---

[225] Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 160.

Xulosa qilib aytganda,

-“Risolai Odina Eshon”ning g’oyalari tasavvufiy-falsafiy qarashlarini ixcham, amaliy yo’l-yo’riq va ramziy-germenevtik sharhlar ko’rinishida jamlagan bo’lib, u “Mir’ot ul-obidiyn”dagi ibodat adobi va “Tavbat ut-toyyibin”dagi axloqiy poklanish yo’li bilan “Miftoh ul-asror”dagi ma’rifat sirlari o’rtasida ko’prik vazifasini bajargan;

-“Risolai Odina Eshon” da mutafakkirning ontologik, aksiologik qarashlari, tasavvufiy maqomlarga oid fikrlari o’z aksini topgan bo’lib, maqsad - qalbni ko’zguga aylantirib, insonni muhabbat va rizo orqali komil inson darajasiga yetaklash;

-“Risolai Odina Eshon” tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan asar bo’lib, uning falsafiy talqinlari keyingi tasavvufiy an’analarda davom yetgan va bugungi kunda ham insoniyatning ruhiy-madaniy rivojida o’z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Asar atrofidagi keyingi ravnaq - mahalliy xotira, diniy-ma’naviy amaliyot va zamonaviy ilmiy izlanishlarda dasturil amal bo’lib hisoblanadi.

## 4.2. Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan omillarni oldini olis’hda mutafakkir ma’naviy ta’limotining o’rni ijtimoiy axloqiy ahamiyati

Mamlakatimizda yangi davr boshlandi, bu hozirda amalga oshirilayotgan islohotlar, takomillashtirish va innovatsiyalar bilan tasdiqlanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida bayon etilgan konsepsiyalar va vazifalar ulkan maqsadlarga erishish uchun juda muhimdir. Prezidentimizning so‘zlariga ko‘ra: "Yangi O‘zbekistonni barpo etish shunchaki istak yoki sub'ektiv hodisa emas, balki tarixiy asoslarga asoslangan, millatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sharoitlar bilan taqozo etilgan, xalqimizning doimiy intilishlariga mos keladigan va ularning milliy manfaatlarini to‘liq qondiradigan ob'ektiv imperativdir."[226] Biz islohotlarimizning asosiy katalizatorlari bo‘lgan jamiyatimiz a'zolarining bilimlari, salohiyati, kuchi va imkoniyatlaridan, shuningdek, jamoaviy qat'iyatimiz va g‘ayratimizdan

---

[226] Ш.М. Мирзиёев.Янги О‘збекистон тараққиёт стратегияси. – Т: “О‘збекистон” нашриёти, 2022. – Б. 4-5.

foydalanishimiz kerak. Shundagina millatimiz fuqarolarimiz tasavvur qilgan, kuchli salohiyat, hurmatli obro‘ va global maydonda obro‘-e'tibor, shuningdek, barcha jabhalarda farovonlik bilan ajralib turadigan davlatga aylanadi.

Ajdodlarimizning ma'naviy merosini tiklash va uni yoshlar ta'limida qo‘llash ularning ma'naviy va ta'lim rivojlanishini kuchaytirish uchun juda muhimdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “millat” so‘zi umumiy tilda so‘zlashadigan, ma’lum bir hududda yashovchi va yagona madaniyat va etika bilan o‘rtoqlashadigan shaxslarning tarixan shakllangan, yaxlit to‘plami sifatida ta’riflanadi. Millat va davlatning kelajagi bugungi yoshlarga beriladigan ta’lim va tarbiyaga bog‘liq. Shu bilan birga, xalqimizning ma’naviy va ma’rifiy sohasining muhim maqsadi insoniyat tsivilizatsiyasiga mislsiz hissa qo‘shgan ulug‘ Sharq olimi Odina Muhammad Xorazmiyning ilmiy merosidan falsafiy tushunchalarni o‘zida mujassam etishdir. Uning merosi butun dunyoda keng o‘rganilmoqda va xalqimiz olimlari ham Odina Muhammad Xorazmiy asarlarini tahlil qilish va tadqiq qilishga katta hissa qo‘shmoqdalar.

Yetuk avlodning milliy mustaqillik, jamiyat farovonligi va davlat rivojlanishiga qo‘shgan hissasi juda muhim. Bugungi kunda notinchlik va turli iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolar bilan ajralib turadigan dunyoda Odina Muhammad Xorazmiyning millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, yaxshi qo‘shnichilik va yoshlar o‘rtasida o‘zaro hurmat kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirishdagi falsafiy qarashlarining ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, yetuk shaxs quyidagi ikkita xususiyatga ega deb aytiladi: Birinchidan, jismoniy salomatlikka ega bo‘lish, ikkinchidan, aqliy yetuklik, o‘ychanlik va namunali odob-axloq qoidalarini namoyon etish. Bundan tashqari, yetuk shaxsning o‘ziga xos xususiyati millat tinchligi va taraqqiyoti uchun barcha foydali xususiyatlardan foydalanish qobiliyatidir; bu ko‘p qirrali xususiyat tengdoshlariga o‘rnak bo‘ladigan shaxslar uchun ideal xususiyatni namoyon etadi. Binobarin, akademiklarimizning ma'naviy merosidan eng samarali ta'lim vositasi sifatida oqilona foydalanish juda muhimdir.

Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotining asosiy tamoyillari sifatida – Ma’naviy poklanis’h – insonning nafsiy illatlardan xalos bo‘lis’hi, Ilohiy muhabbat – Allohga muhabbat orqali insonni yaxs’hilik va bag‘rikenglikka undas’h, Komil inson konsepsiyasi – ma’naviy barkamollikka yeris’hgan s’haxs jamiyat barqarorligining kafolati, Olam va inson birligi – insoniyatning yagona ma’naviy ildizlari borligini ye’tirof yetis’h yotadi.

Bugungi kunda jahon miqyosida tobora ortib borayotgan johillik, zo‘ravonlik, diniy murosasizlik, ekstremizm, etnik mojarolar va mintaqaviy nizolar aholini ajratib tursa, ilm-fan, ma'rifat, axloq, odob-axloq, axloq va insoniylik ularni birlashtiradi. Shaxsning ichki dunyosi, axloqiy va estetik madaniyati, ongi va bilimini rivojlantirish va takomillashtirish har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Falsafiy merosning millatlar bo‘ylab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ta'lim sohalarida yuqori natijalarga erishishda, jamiyat a'zolarining ma'naviy va ta'lim rivojlanishini kuchaytirishda, xalqimiz ongi va madaniyatida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini shakllantirishdagi ahamiyati mislsizdir. Hozirgi kunda globallashuv jarayoni butun dunyoda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu millatlar o‘rtasida tinchlikni targ‘ib qilishni eng dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Globallashuv ta'siri tufayli milliy o‘ziga xoslikni anglash jarayoni har qachongidan ham tezroq rivojlanmoqda. O‘z davlatlaridan uzoqda yashovchi millatlar va xalqlar vakillari zamonaviy ommaviy axborot vositalari orqali o‘z vatandoshlari haqidagi muhim ma'lumotlarga, jumladan, ularning turmush tarzi, rivojlanish holati va muammolariga tezkorlik bilan kirishlari mumkin. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida "buzilgan" vatandoshlar va oson obro‘ga ega bo‘lishga intilayotgan "millatchi" shovinistlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chaqiriqlarning tarqalishi ko‘p millatli hukumatlarda millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Alloma asarlarini tarjima qilib bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda qo‘llanilsa maqsadga muofiq ish bo‘lar edi.

Globallas’huv davrida turli mafkuraviy oqimlar yos’hlarning ongi va qalbiga ta’sir qilmoqda. Xorazmiyning tasavvufiy ta’limoti bu jarayonda quyidagi jihatlari

bilan xavfsizlik falsafasi sifatida xizmat qiladi: Yekstremizm va zo'ravonlikka qars'hi mafkuraviy immunitet – Odina Muhammad Xorazmiy ta'limotida insonni nafratga yemas, muhabbat va sabrga da'vat yetis'h markaziy o'rinda turadi; Ichki xavfsizlik – nafsni yengis'h orqali ruhiy muvozanat va xotirjamlikni ta'minlas'h. Bu jamiyat barqarorligining ichki poydevoridir bo'lib hisoblanadi; Ma'naviy qadriyatlar orqali xavfsizlik – milliy va diniy qadriyatlarni tiklas'h yos'hlarni begona g'oyalardan himoya qilis'hning yeng is'honchli manbasi hisoblanadi.

Jamiyat barqarorlikni ta'minlas'hda Odina Muhammad Xorazmiy ta'limotining falsafiy ahamiyati jamiyatda – Ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni ta'minlas'hda muhim ahamiyatli hisoblanadi.

Ijtimoiy barqarorlik – Odina Muhammad Xorazmiy targ'ib yetgan sabr, s'hukr, tavakkul va rizo kabi maqomlar jamiyatda bag'rikenglik, mehr-oqibat va totuvlikni mustahkamlaydi;

Ma'naviy barqarorlik – komil inson tarbiyasi orqali jamiyatda sog'lom muhit s'hakllanadi, sog'lom jamiyat barpo yetiladi;

Millatlararo hamjihatlik – Odina Muhammad Xorazmiy ta'limotidagi muhabbat va insonparvarlik g'oyalari turli millat va din vakillari o'rtasida tinch-totuv hayotni qo'llab-quvvatlaydi.

Globallas'huv s'haroitida Odina Muhammad Xorazmiy qaras'hlari va ta'limotlari talimiy va tarbiyaviy jarayonlarda qo'llanilsa:

Axborot xurujlariga qars'hi ma'naviy immunitetni kuchaytiradi, to'g'ri foydalanis'h madaniyatini s'hakllantiradi;

Diniy radikalizm va mafkura poligonlariga qars'hi barqarorlikni mustahkamlaydi;

Yos'hlarning ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni os'hiradi;

Falsafiy jihatdan qaraganda, Odina Muhammad Xorazmiy ta'limoti insoniyatni "o'zini tanis'h orqali Yaratuvchini tanis'h"ga undaydi - bu yesa ichki va tas'hqi barqarorlikning poydevori bo'lib hizmat qiladi.

Odina Muhammad Xorazmiy o‘z asarlarida Komillik tartibining asosini tashkil etuvchi turli tamoyillarni yoritib beradi. Ular orasida quyidagilar bor:

1. Ehtirosli sevgi va sadoqat. Haqiqatga eng yaqin va samarali yo‘l - bu oshiqlarning zavq, mehr va g‘ayrat kabi ulkan tuyg‘ulari ularning jismoniy kuchi va energiyasini kamaytiradigan yo‘lidir. Bu holatda, jozibasi qalb va ruhni o‘ziga tortadigan Haqiqat yo‘li Allohning yuksak Arshini chaqiradi.

Yashirinlik, tafakkur va eslash. Odina Muhammad Xorazmiy o‘z ta'limotlarida sevgi, minnatdorchilik (o‘zidan voz kechish) va o‘zini unutish orqali Haqiqatga intilishni qo‘llab-quvvatlaydi, dunyoviy tashvishlar va tashvishlardan, faqat Allohdan tashqari, ajralish zarurligini ta'kidlaydi. U zikr va sukutga sadoqatni, shuningdek, turli xil qattiqqo‘llik va qiyinchiliklar orasida sabr-toqat va bag‘rikenglikni rivojlantirishni, shu bilan birga shahvoniy istaklarga qarshi turishni rag‘batlantiradi.

3. Islom shariati tamoyillariga qat'iy rioya qilish. Odina Muhammad Xorazmiy ta’limoti Alloh taoloning roziligiga erishishga qaratilgan diniy tashkilot bo‘lib, diniy marosimlar, ibodatlar va shariat (farz) qoidalariga rioya qilishga alohida e'tibor qaratadi. U hech qanday holatda Allohga xizmat qilishda zimmasiga olgan majburiyat va mas'uliyatdan chetga chiqishni maqbul deb hisoblamaydi. Bu qarashlar Naqshbandiya Tartibi tamoyillariga mos keladi. Tasavvuf tarixi davomida Qodiriya va Naqshbandiya Tartiblari, jumladan, Kubraviyyaga ham mos keladi.

Odina Muhammad Xorazmiy ta'limoti Alloh tomonidan yaratilgan insonlarga hurmat va xizmat qilishni ta'kidlaydi. U Haqiqatga erishish uchun zikr qilish, yolg‘izlik, dunyoviy ishlardan uzoqlashish va oxirat haqida o‘ylashning ahamiyatini ta'kidlasa-da, uning yondashuvi dunyodan voz kechishga asoslangan emas; aksincha, u ilohiy tushunchaning muhim elementlarini, jumladan, mehr-shafqat, sevgi va boshqalarga xizmat qilishni ta'kidlaydi. Qodiriya Tartibida jamiyatga xizmat qilish ushbu kasbning asosiy sharti hisoblanadi. Natijada, inson Haqiqatga intilib, uni

anglab yetgan sari, uning boshqalarga bo‘lgan mehri kuchayadi. Boshqalarga xizmat qilish orqali u Ilohiylikning qoniqishiga erishadi[227].

Afsuski, iqtisodiy farovonlik ustuvor bo’lgan zamonaviy iste’molchilik ruhi inson ehtiyoj va istaklarini ortiqcha ravishda rag’batlantiradi, haddan oshishga moyillikni kuchaytiradi. Bu esa, o’z navbatida, inson huquqlari, shuningdek, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda ijtimoiy jamoalar manfaatlarining jiddiy buzilishiga olib kelmoqda. Iste’molchilik mafkurasiga bo‘lgan ishtiyoq ruhni bo‘g‘ib qo‘ydi va uni susaytirdi, aql va tafakkur esa shaxsiy ishtaha va yomon niyatlarga, jumladan, takabburlik va mag‘rurlik bilan soyada qoldi. Ba'zi hollarda, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi mehr-muhabbat va taqdir rishtalari uzildi va ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan nasab va qarindoshlik huquqlari og‘ir yukga aylandi. So‘fiylik zamonaviy jamiyatda mavjudligimizning buzuq jihatlarini tuzatishga qaratilgan. U insoniyatga foyda keltirishni, uning mavjudligini yaxshilashni, uni oxiratga ogohlantirishni, Yaratuvchisiga qaytishini eslatishni va shaxslar o‘rtasida aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. Odina Muhammad Xorazmiy ta'limining zamonaviy yoshlarning ma'naviy, ilmiy va axloqiy jihatdan yaxlit rivojlanishidagi ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi vaqtda so‘fiylik tamoyillari va uning chuqur intellektual asoslarini rad etuvchi noto‘g‘ri ma'lumotga ega tashqi shaxslar tomonidan targ‘ib qilinayotgan radikal guruhlar unga qarshi chiqib, musulmon jamoasi ichidagi yoshlarni, ham erkak, ham ayolni ochiqchasiga buzib, ham musulmon, ham musulmon bo‘lmagan davlatlarda tartibsizlik va axloqsizlikni tarqatmoqda. Ular dahshatli jinoyatlar sodir etish orqali dinimizning global idrokiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, so‘fiylik tamoyillari shaxslarni johillikdan qochishga va yoshlarni ham, keksalarni ham ma'naviy mukammallikka intilishga undaydi.

Odina Muhammad Xorazmiy ta’limoti globallas’huv s’haroitida diniy-ma’naviy tahdidlarga qars’hi mafkuraviy qalqon, yos’hlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlovchi manba hamda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlas’hda falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi va qilmoqda. Umuman

[227] Юнусова Г. “Абдулқодир Гилоний маънавий меросида инсон моҳиятининг фалсафий таҳлили”.Док.дисс.автореферати. - :Самарқанд, 2019. – Б. 21-22.

olib qaralganda, Odina Muhammad Xorazmiy merosi - bugungi tinchlik va barqarorlik siyosati, jamiyat va davlat, yos'hlarning ta'lim va tarbiyasi uchun ham dolzarb dasturil amal bo'lib hisoblanadi**.**

Odina Eshonning ta'limoti va uning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati bugungi globallas'huv s'haroitida jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar: ma'naviyatsizlik, diniy yekstremizm, giyohvandlik, zo'ravonlik, axloqiy qadriyatlarga bepisandlik, iste'molchilik kayfiyati, internet va axborot xurujlarining oldini olis'h va ularga qars'hi turis'h immunitetini s'hakllantiris'hda muhim ahamiyat kasb yetadi. Globallas'hgan s'haroitda milliy va diniy merosimizga, xususan, tasavvuf mutafakkiri S'hayx Odina Eshon ta'limotini o'rganis'h va uni yos'hlarni ma'naviy tarbiyalas'h va jamiyat barqarorligini ta'minlas'hda katta ahamiyatga yega hisoblanadi.

Umuman olib qaralganda jamiyat hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar bugungi kunda sanas'hga barmoqlar yetmadi, s'huni ajablanarliki, soat va daqiqa sayin ularning yangi ko'rinis'hlari namoyon bo'lib bormoqda, misol uchun.

Ma'naviy bo's'hliq – yos'hlarning axloqiy qadriyatlardan uzoqlas'huvi;

Yekstremistik g'oyalar – diniy aqidaparastlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi oqimlarning ta'siri;

Individualizm va iste'molchilik – o'z manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yis'h;

Axborot xurujlari – internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan zararli g'oyalar;

Axloqiy zaiflik – sabr, s'hukr, halollik va odob kabi qadriyatlarning susayis'hi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston xalqidir" deb ta'kidlangan.[228] O'zbekistonda tug'ilgan, uning chegaralarida yashagan va ishlagan barcha shaxslar, millati, millati yoki diniy e'tiqodidan qat'i nazar, respublikamizda

---

[228] Ўзбекистон Республикаси Конситутсияси. – "Адолат" нашриёти. -: Тошкент-2023. – Б. 7.

teng fuqarolikka ega. O‘zbekiston fuqarolari, ajdodlari, millati, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa omillardan qat’i nazar, O‘zbekiston aholisini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining rasmiy tili o‘zbek tili ekanligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi o‘z chegaralaridagi barcha mamlakatlar va xalqlarning tillari, madaniyati va an’analarini saqlab qolishni kafolatlaydi, shu bilan birga ularning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi. Mamlakat rahbariyati milliy masalani xalqaro qadriyatlarga muvofiq oqilona hal qilish va millatlararo totuvlikni mustahkamlash bo‘yicha sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Sa’y-harakatlar konstitutsiyaviy majburiyatlarga muvofiq amalga oshirildi. “O‘zbekiston yagona Vatan” tamoyiliga asoslangan xalqimizning xilma-xil aholisi orasida chinakam vatanparvarlikni tarbiyalash bu borada muhim yo‘nalishga aylandi. Vatan haqidagi yangi tushunchaning tarafdori bo‘lgan Furqat uning shaxslar uchun ahamiyatini quyidagicha ifodalaydi: "Vatan mening jonim va tanam uchun muqaddas maskandir". Bu mening cho‘qqim, xotirjamligim, qadr-qimmatim, shuhratimni ifodalaydi. Mening Ka'bam mening qiblam va gullar maskanim bo‘lib xizmat qiladi.

U O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning asosiy intilishlarini, xalqimizning tasavvurlari va ambitsiyalarini hamda asrlar davomida izlanib kelgan qadrli ideallarni o‘zida mujassam etgan. Milliy mafkuramizning asosiy tamoyillari - milliy tinchlik, jamoat farovonligi va vatan ravnaqi - o‘tmishimizni kelajagimiz bilan bog‘laydigan uzoq yillik orzu va intilishlarimizni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi va shu bilan olimning "Pioner" asaridagi sharhida eslatib o‘tgan kontseptual asosni amalga oshiradi. "Sizlar bir ota va bir onadan yaratilgansizlar". Hech biringiz bir-biringizdan ustun emassiz; aksincha, barchangiz tengsiz. "Nasl-nasabda ustunlik va g‘ururga o‘rin yo‘q" degan da'vo millatlararo totuvlik tushunchasini mustahkamlaydi, turli aholi o‘rtasida tinchlik, barqarorlik va birlikni targ‘ib qiladi. Bu umuminsoniy qadriyat turli etnik guruhlar yashaydigan mintaqalar va davlatlarning rivojlanishi uchun juda muhim va bu hududlarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Millatlararo totuvlikning ahamiyatini tushunmaslik jamiyat ichida turli nizolar va muammolarga olib kelishini, tinchlik va barqarorlikni xavf ostiga qo‘yishini tan olish muhimdir. Dunyoning turli

burchaklarida davom etayotgan milliy nizolar bu hodisaning isboti bo‘lib xizmat qiladi. Hurmatli o‘zbek shoiri va faylasufi Alisher Navoiy xalqlarni birlashishga chaqirdi va quyidagi misralarni yaratdi:

Olam ahli bilingkim, ish ermas dushmanlig‘,
Yor o‘ling bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish.[229]

Dunyo bo‘ylab odamlar, adovatning ahamiyatsizligini tan oling; bir-biriga bo‘lgan sevgi va fidoyilik birdamlikni namoyon etadi.

Millatlararo totuvlikni amalga oshirishga asosiy tahdid - bu qat'iy millatchilik va shovinizmdir. Bunday gunoh va zararli mafkura tuzog‘iga tushgan jamiyat muqarrar ravishda yo‘q bo‘lib ketishga duch keladi. Bunga qadimgi va zamonaviy tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Fashizm tushunchasi XX asrda insoniyatga oldingi barcha asrlarga qaraganda ko‘proq azob va musibatlarni keltirdi va oxir-oqibat o‘zining halokatiga olib keldi. Falastin-Isroil va Rossiya-Ukrainada sodir bo‘layotgan jinoyatlar, shuningdek, millatlararo totuvlik va birdamlikka qarshi "salib yurishi"ni uyushtirishga intilayotgan fashizm, shovinizm va irqchilikni targ‘ib qiluvchi kuchlarning qayta kuchayishi XXI asrda barchamiz uchun ogohlantirish bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta asosiy ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyaning beshinchi tarkibiy qismi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, puxta o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va pragmatik tashqi siyosat tashabbuslariga ustuvor ahamiyat berish” edi. Bu, shuningdek, fuqarolar, millatlar xavfsizligi va mamlakatimiz ichidagi diniy bag‘rikenglikka katta e’tibor qaratilayotganini anglatadi. Mamlakatimizning o‘sishi Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish

[229] Ҳамидий Ҳ. ва Маҳмуд Ҳасаний. Ассалам.Машриқзамин-хикмат бўстони. -Т. Шарқ нашриёти.1997. – Б. 89.

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonda bayon etilgan tamoyillar va maqsadlarga asoslanadi. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining bir qismi bo‘lgan davlat tashabbusi dasturining 266 va 318-bandlari ajdodlar merosini o‘rganishga bevosita tegishli bo‘lib, quyidagicha bayon etilgan:

Zamonaviy globallashuv jarayonlarida bag‘rikenglik fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim xususiyat hisoblanadi. Bugungi kunda bag‘rikenglik fuqarolik jamiyatini qurishda, turli aholining demokratik tamoyillarida va faylasuflarimiz g‘oyalarini zamonaviy tsivilizatsiyani rivojlantirishda qo‘llashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tan olish muhimdir. "Bag‘rikenglik" atamasining asl insoniy ahamiyati umumiy tushunish, birdamlik va pragmatik shaxslararo muloqotga tegishli. "Bag‘rikenglik" atamasining ham nazariy, ham amaliy kontekstida biz 1995 yildagi "Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"da keltirilgan ta'rifga amal qilamiz: "Bag‘rikenglik" atamasi lotincha "tolerantia" so‘zidan kelib chiqqan va sabr-toqatni anglatadi. Bag‘rikenglik tushunchasi va tabiati turli xalqlarda bir xil tushuniladi. Masalan, ispan tilida - o‘zinikiga qarama-qarshi bo‘lgan nuqtai nazarni tan olish usuli; fransuz tilida - boshqalarga turli fikrlar yoki harakatlarni amalga oshirishga ruxsat berish; ingliz tilida - sabr-toqat va mehr-oqibat ko‘rsatish; xitoy tilida - boshqalarga nisbatan kechirimlilik, mehr-oqibat va olijanoblikni namoyish etish; arab tilida - kechirimlilik, rahm-shafqat, muloyimlik, mehr-oqibat, olijanoblik va sabr-toqatni o‘zida mujassam etish; rus tilida - shaxslarga yoki vaziyatlarga sabr-toqat ko‘rsatish, turli fikrlarni e'tiborga olish va mehr-oqibat ko‘rsatish; o‘zbek tilida - boshqalarning turmush tarzi, xarakteri, urf-odatlari, his-tuyg‘ulari, fikrlari, g‘oyalari va e'tiqodlariga ochiq fikrli munosabatda bo‘lish.

Odina Eshonning ta’limotidagi asosiy g‘oyalar “***Miftoh ul-asror”***, “***Tavbat ut-toyyibin”***, “***Mir’ot ul-’obidiyn” asarlarida*** insonni ruhiy kamolot sari yetaklovchi g‘oyalarni ilgari suradi. Tavba va nafsni jilovlas’h – insonning salbiy istaklardan xalos bo‘lis’hi; Sabr va s’hukr – jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni mustahkamlovchi qadriyatlar; Tavakkul va rizo – Alloh irodasiga is’honch va qanoat orqali ruhiy muvozanatni saqlas’h; Ilohiy muhabbat – bag‘rikenglik, insonparvarlik,

mehr-oqibatning manbai; Komil inson konsepsiyasi – nafsdan ozod, jamiyatga xizmat qiluvchi ma'naviy barkamol s'haxsni tarbiyalas'h.

Salbiy omillarning oldini olis'hda Odina Eshon ta'limotining o'rni bugungi kunda juda ahamiyatli va o'rinli hisoblanadi. Yekstremizm va zo'ravonlikka qars'hi tura olis'hda, Odina Eshon ta'limoti muhabbat, mehr-s'hafqat, sabr va rizo tamoyillari orqali zo'ravonlik g'oyalariga zid mafkuraviy asos yaratadi; Ma'naviy bo's'hliqni to'ldiris'hda – uning risolalarida ta'lim va tarbiya markazida qalb poklanis'hi va komillikka intilis'h yotadi; Axloqiy immunitetni kuchaytiris'hda – nafs ustidan g'alaba, tavba, s'hukr va qanoat kabi qadriyatlar yos'hlarni ma'naviy buzilis'hlardan himoya qiladi; Jamiyat barqarorligini ta'minlas'hda – sabr, totuvlik va bag'rikenglik g'oyalari ijtimoiy kelis'hmovchiliklarning oldini oladi; Oila va mahalla tarbiyasida – uning ta'limoti axloqiy odob, odil munosabat va mehr-oqibatni asosiy qadriyat sifatida ko'rsatadi.

Odina Eshonning ta'limoti va uning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati insonparvarlikni targ'ib yetis'hda va har bir insonni qadrlas'h, mehr-oqibatli bo'lis'hni birinchi o'ringa qo'yis'hida; Jamiyat barqarorligiga xizmat qilis'hi – sabr va s'hukr qadriyatlari ijtimoiy kelis'huvni mustahkamlaydi; Ma'naviy tarbiya manbai sifatida qaralganda – yos'hlarni halollik, poklik, odob-axloq, qanoat ruhida tarbiyalas'hda muhim ahamiyatli bo'lib hisoblansa; allomaning tasavvufiy ta'limoti milliy ruhiyat va an'analar bilan uyg'un holda s'hakllangan hamda Globallas'huv jarayonlarida mafkuraviy qalqon vazifasini bajaradi va begona g'oyalar ta'siriga qars'hi mafkuraviy immunitet s'hakllantiris'hda muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni oldini olis'hda Odina Eshonning ma'naviy ta'limoti falsafiy-ijtimoiy dastur sifatida ahamiyatli. Uning qaras'hlari: insonni nafsdan xalos yetib, komil inson sari yetaklaydi; sabr, s'hukr, muhabbat, rizo kabi qadriyatlar orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi; yos'hlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilib, sog'lom ma'naviyatli avlodni tarbiyalas'hga xizmat qiladi. Odina Eshon ta'limoti zamonaviy jamiyatda xavfsizlik, barqarorlik va ma'naviy uyg'onis'hning poydevoriy manbai bo'lib hisoblanadi.

**Xulosa qilib aytganda,**

-Falsafiy jihatdan qaraganda, Odina Muhammad Xorazmiy ta'limoti insoniyatni "o'zini tanish orqali Yaratuvchini tanish"ga undaydi - bu yesa ichki va tashqi barqarorlikning poydevori bo'lib hizmat qiladigan eng qadimgi falsafiy tafakkur tarixidagi asosiy g'oya hisoblanadi;

-Odina Eshonning ta'limoti va uning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati bugungi globallas'huv s'haroitida jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar: ma'naviyatsizlik, diniy yekstremizm, giyohvandlik, zo'ravonlik, axloqiy qadriyatlarga bepisandlik, iste'molchilik kayfiyati, internet va axborot xurujlarining oldini olis'h va ularga qars'hi turis'h immunitetini s'hakllantiris'hda muhim ahamiyat kasb yetadi;

-Odina Muhammad Xorazmiy o'z asarlarida Komillik tartibining asosini tashkil etuvchi turli tamoyillarni yoritib bergan bo'lib, bugungi kunda notinchlik va turli iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolar bilan ajralib turadigan dunyoda Odina Muhammad Xorazmiyning falsafiy qarashlarining ahamiyati beqiyosdir.

**Bob bo'yicha xulosalar:**

-"Risolai Odina Eshon"ning g'oyalari tasavvufiy-falsafiy qarashlarini ixcham, amaliy yo'l-yo'riq va ramziy-germenevtik sharhlar ko'rinishida jamlagan bo'lib, u

"Mir'ot ul-obidiyn"dagi ibodat adobi va "Tavbat ut-toyyibin"dagi axloqiy poklanish yo'li bilan "Miftoh ul-asror"dagi ma'rifat sirlari o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan;

-"Risolai Odina Eshon" tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan asar bo'lib, uning falsafiy talqinlari keyingi tasavvufiy an'analarda davom yetgan va bugungi kunda ham insoniyatning ruhiy-madaniy rivojida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Asar atrofidagi keyingi ravnaq - mahalliy xotira, diniy-ma'naviy amaliyot va zamonaviy ilmiy izlanishlarda dasturil amal bo'lib hisoblanadi.

-Falsafiy jihatdan qaraganda, Odina Muhammad Xorazmiy ta'limoti insoniyatni "o'zini tanish orqali Yaratuvchini tanish"ga undaydi - bu yesa ichki va tashqi barqarorlikning poydevori bo'lib hizmat qiladigan eng qadimgi falsafiy tafakkur tarixidagi asosiy g'oya hisoblanadi;

-Odina Eshonning ta'limoti va uning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati bugungi globallas'huv s'haroitida jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar: ma'naviyatsizlik, diniy yekstremizm, giyohvandlik, zo'ravonlik, axloqiy qadriyatlarga bepisandlik, iste'molchilik kayfiyati, internet va axborot xurujlarining oldini olis'h va ularga qars'hi turis'h immunitetini s'hakllantiris'hda muhim ahamiyat kasb yetadi;

-Odina Muhammad Xorazmiy o'z asarlarida Komillik tartibining asosini tashkil etuvchi turli tamoyillarni yoritib bergan bo'lib, bugungi kunda notinchlik va turli iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolar bilan ajralib turadigan dunyoda Odina Muhammad Xorazmiyning millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, yaxshi qo'shnichilik va yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirishdagi falsafiy qarashlarining ahamiyati beqiyosdir.

## Xulosa

1.Odina Muhammad Xorazmiy - o'z davrining yirik mutasavvif va mutafakkirlaridan biri bo'lib, uning falsafiy va ma'naviy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. U nafaqat tasavvuf ilmini chuqur o'rganib, o'z asarlarida insonning ruhiy poklanish jarayonini yoritgan, balki jamiyatdagi ma'naviy

uyg’onish, axloqiy barqarorlik va ruhiy komillikka erishish yo’lida mustahkam g’oyaviy asos yarata olgan.

2.Odina Muhammad Xorazmiy shaxsiyati, hayoti va ijodini o’rganishda foydalanilgan manbalar, tarixiy va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, uning tasavvuf falsafasiga qo’shgan hissasi aniqlab berildi. Shuningdek, mutafakkirning ma’naviy merosi va falsafiy qarashlarining shakllanish jarayonlari chuqur tahlil qilindi;

3.Odina Muhammad Xorazmiy tasavvufshunos olim sifatida o’rganilib, uning “Miftoh ul-asror” asari tasavvuf falsafasining mohiyatini ochib beruvchi manba sifatida baholandi. Unda ilohiy haqiqatga erishish, ruhiy poklanish va ma’naviy kamolot masalalari chuqur falsafiy talqin qilingan;

4.Mutafakkirning “Mir’ot ul-obidiyn”, “Miftoh ul-asror” va “Tavbat ut-toibin” asarlarida ilgari surilgan tasavvufiy maqomlar - tavba, sabr, shukr, rizo, muhabbat kabi bosqichlarning falsafiy mazmuni tahlil etildi. Bu maqomlar orqali inson ruhining ilohiy haqiqat sari yuksalish jarayoni ifodalangan;

5.Globalizatsiya sharoitida Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotining ahamiyati ochib berilib, uning qarashlari jamiyatdagi ma’naviy barqarorlik va axloqiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim falsafiy asos bo’lishi ta’kidlandi. “Risolai Odina Eshon” kitobidagi g’oyalar bugungi axloqiy inqiroz sharoitida insonni ma’naviy uyg’otish, ruhiy tahlikalarga qarshi immunitetni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi;

6.Odina Muhammad Xorazmiyning falsafiy-tasavvufiy merosi inson kamoloti, jamiyat axloqiy yuksalishi va barqaror taraqqiyotning muhim ma’naviy omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning ta’limoti bugungi kunda ham yosh avlodni ma’rifat, insonparvarlik va komillikka yetaklovchi bebaho manba bo’lib qolmoqda;

7. Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotini chuqur o’rganish va uni zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy hayotga tatbiq etish - milliy tafakkurni boyitish, ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror jamiyat qurishning muhim falsafiy omillaridan biridir.

## TAKLIF VA TAVSIYALAR:

Odina Muhammad Xorazmiy merosini tizimli o‘rganish. Mutafakkirning asarlari, ayniqsa “Miftoh ul-asror”, “Mir’ot ul-obidiyn”, “Tavbat ut-toibin” va “Risolai Odina Eshon” kabi manbalarni ilmiy asosda nashrga tayyorlash, ularning tanqidiy matnlarini yaratish hamda Ushbu asarlarni zamonaviy o‘zbek tiliga tarjima qilib, keng ilmiy jamoatchilik va yoshlar orasida targ‘ib etish;

Tasavvuf falsafasini ta’lim tizimiga integratsiya qilish. Oliy ta’lim muassasalarida “Tasavvuf falsafasi”, “O‘zbek mutafakkirlarining ma’naviy merosi” kabi fanlar doirasida Odina Muhammad Xorazmiy ta’limotini o‘qitish foydalidir hamda talabalarda ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishda mutafakkir qarashlaridan namunalar sifatida foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish;

Ma’naviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda Xorazmiy g‘oyalarini tatbiq etish. Globallashuv davrida axloqiy inqiroz va ruhiy beqarorlik kuchayib borayotgan bir paytda, Xorazmiyning tasavvufiy g‘oyalari inson ruhiyati va ijtimoiy axloqni mustahkamlashda samarali falsafiy vosita sifatida qo‘llanishhamda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ma’naviyat targ‘iboti dasturlarida mutafakkir qarashlarini aks ettirish;

Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini kengaytirish orqali Odina Muhammad Xorazmiy merosini boshqa tasavvufiy oqimlar (Naqshbandiya, Qodiriya, Yassaviya) bilan qiyosiy tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tashkil etish va mutafakkirning falsafiy g‘oyalari zamonaviy axloqiy va diniy muammolar yechimida qay darajada ahamiyatli ekanini o‘rganishga yo‘naltirilgan doktorlik dissertatsiyalari ishlab chiqilish;

Madaniy-ma’naviy merosni keng targ‘ib etish bilan Odina Muhammad Xorazmiy asarlari asosida hujjatli film, ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiyalar va onlayn ma’naviy platformalar tashkil etish orqali uning merosini global miqyosda tanitish va yoshlarni ma’naviyat, tafakkur va insoniylikka chorlovchi Xorazmiy hikmatlarini ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib boorish.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – 80 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Имом Термизий халқаро илмий–тадқиқот марказини ташкил этиш чора–тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 14 февралдаги ПҚ–2774–сонли Қарори // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 14 февраль, № 33 (6727).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий–маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги 2017-йил 28-июлдаги ПҚ-3160-сонли қарори // “Халқсўзи” газетаси, 2017 йил 29 июль, №149, (6843).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора–тадбирлари тўғрисида”ги 2017-йил 15-февралдаги ПФ-4956-сонли фармони // ЎзбекистонРеспубликаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 8-сон, 105-модда; Қонунҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.03.2018 й., 06/18/5329/0846-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора–тадбирлари тўғрисида”ги 2018-йил 26-августдаги ПҚ-3920-сонли қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.08.2018 й., 07/18/3920/1799-сон.

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2030- йилгача бўлган даврда Барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора–тадбирлари тўғрисида”ги 2018–йил 20–октябрдаги 841–сонли қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.10.2018 й., 09/18/841/2081-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ижтимоий–маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб–қувватлаш ҳамда оила ва хотин–қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага

олиб чиқиш чора–тадбирлари тўғрисида”ги 2020-йил 18- февралдаги ПФ-5938-сонли фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.02.2020 й., 06/20/5938/0187-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маърифатпарвар жадидчилик ҳаракати намояндаларини мукофотлаш тўғрисида”ги 2020-йил 20-октябрдаги Фармони // “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 1 октябрь, №207 (7709).

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021-йил 26-мартдаги ПҚ-5040-сонли қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

10. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

11. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.

12. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 20 19. – 400 б.

13. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 456 б.

14. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 454 б.

15. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Тасвир, 2020. –80 б.

16. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 1 сентябрь, №186 (7688).

17. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75–сессиясидаги нутқи // “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 24 сентябрь, №202 (7704).

18. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон халқига байрам табриги // “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 21 октябрь, №221-222 (7723-7724).

19. Латифжон Баҳоуддин ўғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: “ЗАР ҚАЛАМ” нашриёти, 2003. – Б. 92.

20. Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 7143. – Б. 640.

21. Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Мифтох ул- асрор” (Н. Комилов таржимаси “Сирлар калити”). – Тошкент: “Мусиқа” нашриёти, 2006. – Б. 352.

22. Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 7143. – Б. 238 а.

23. Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Миръот ул- обидийн” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Обид инсонлар кўзгуси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – В. 44.

24. Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий “Тавбат ут-тойибин” (Форсийдан М.Ҳасаний таржимаси “Тавба қилувчиларнинг тавбаси”). – Тошкент: ЎФА Шарқшунослик институти босмахонаси , 2006. – В. 78.

25. Одина Муҳаммад Хоразмий. Мифтоҳул-асрор. – Урганч: “Маънавият” нашриёти, 2025. – 400 б.

26. Баҳоуддин балогардон /Нашрга тайёрловчи М.Ҳасаний. – Т.: Ёзувчи, 1995.

27. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. 1-китоб. Таржимон Асқар Маҳкам. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1999.

28. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. 3-китоб. Таржимон Жамол Камол. - Тошкент-Теҳрон, 2003.

29. Комилов Н. Тасаввуф ва Шарқ фалсафаси. /Шарқ машъали, 1998, 1-2-сон.

30. Латифжонхожи Баҳоуддин оъғли. Ҳазрати Одина Эшон қиссаси. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001.

31. Латифжонхожи Баҳоуддин оъғли. Хоразмлик маърифат соҳиби. – Т.: Зарқалам, 2003.

32. Носиров Н. Ибн Синонинг «Тадбири манзил” асарида илм ва ахлоқ /Мозийдан садо, 2000, 1-2-сон.

33. Одина Эшон. Мифтоҳ ул-асрор. ОъзР ФА ШИ қоълёзмаси, № 7143. 64 б-бет.

34. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2000. – 320 б.

35. Ал-Аттар, Ф. Суфисм анд Исламис Мйстисисм: Сонсептс анд Прастисес. – Лондон: Роутледге, 2017. – 254 п.

36. Ал-Ғаззолий, Абу Ҳомид. Ихё улу́м ад-дин. – Қоҳира: Дар ал-Маърйфа, 2011. – 420 б.

37. Арберрй, А. Ж. Суфисм: Ан Ассоунт оф тҳе Мйстисс оф Ислам. – Лондон: Георге Аллен & Унwин, 1969. – 245 п.

38. Изутсу, Т. Суфисм анд Таоисм: А Сомпаративе Студй. – Беркелей: Университй оф Салифорниа Пресс, 2008. – 412 п.

39. Нажмиддин Кубро. Фавоих ул-жамол ва фавоид ул-жалол. – Тошкент: Моваро̆уннахр, 2004. – 280 б.

40. Наср, С. Ҳ. Исламис Пҳилосопҳй фром Итс Оригин то тҳе Пресент: Пҳилосопҳй ин тҳе Ланд оф Пропҳесй. – Албанй: СУНЙ Пресс, 2007. – 330 п.

41. Ничолсон, Р. А. Тҳе Мйстисс оф Ислам. – Лондон: Роутледге, 1995. – 190 п.

42. Счиммел, А. Мйстисал Дименсионс оф Ислам. – Чапел Ҳилл: Университй оф Нортҳ Саролина Пресс, 2011. – 430 п.

43. Жалолиддин Румий. Маснавий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2000. – 540 б.

44. Нажмиддин Кубро. Фавоих ул-жамол ва фавоид ул-жалол. – Тошкент: Моваро̆уннахр, 2004. – 280 б.

45. Ибн Арабий. Фусус ул-ҳикам. – Қоҳира: Дар ал-Маърйфа, 2010. – 365 б.

46. Ал-Ғаззолий Абу Ҳомид. Ихё улу́м ад-дин. – Қоҳира: Дар ал-Маърифа, 2011. – 420 б.

47. Счиммел, А. Мйстисал Дименсионс оф Ислам. – Чапел Ҳилл: Университй оф Нортҳ Саролина Пресс, 2011. – 430 п.

48. Наср, С. Ҳ. Исламис Пҳилосопҳй фром Итс Оригин то тҳе Пресент. – Албанй: СУНЙ Пресс, 2007. – 330 п.

49. Изутсу, Т. Суфисм анд Таоисм: А Сомпаративе Студй. – Беркелей: Университй оф Салифорниа Пресс, 2008. – 412 п.

50. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2000. – 320 б.

51. Арберрй, А. Ж. Суфисм: Ан Ассоунт оф тҳе Мйстисс оф Ислам. – Лондон: Георге Аллен & Унwин, 1969. – 245 п.

52. Ибн Арабий. Фусус ул-ҳикам. – Қоҳира: Дар ал-Маърифа, 2010. – 365 б.

53. Алимов А. Миллий маънавият асослари. – Тошкент: Оъзбекистон, 2018. – 240 б.

54. Аширов Ш. Тасаввуф ва унинг ижтимоий аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2019. – 180 б.

55. Бобоев Х. Шахс камолоти ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 212 б.

56. Вохидов Ш. Оъзбекистонда маънавий тарбиянинг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан ва технология, 2020. – 198 б.

57. Ғафуров А. Тасаввуф таълимоти ва унинг аҳамияти. – Бухоро: БухДУ нашриёти, 2017. – 156 б.

58. Жабборов Ҳ. Исломда маънавият ва ахлоқ. – Тошкент: Маънавият, 2014. – 134 б.

59. Зокиров И. Шарқ фалсафаси ва тасаввурлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 220 б.

60. Исмоилов С. Маънавий қадриятлар ва замонавий жамият. – Самарқанд: СамДУ, 2021. – 176 б.

61. Каримов И.Ю. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 168 б

62. Қодиров А. Тарбия назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Оъқитувчи, 2012. – 210 б.

63. Мирзаев Х. Тасаввуф ва инсон камолоти. – Тошкент: Оъзбекистон, 2010. – 150 б.

64. Мухторов Ф. Ислом тарихи ва маънавий мерос. – Тошкент: Маърифат, 2019. – 190 б.

65. Назаров Қ. Маънавият фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2016. – 240 б.

66. Ниёзов Р. Маънавий-ахлоқий тарбия масалалари. – Тошкент: Оъқитувчи, 2017. – 180 б.

67. Нурматов А. Ёшлар ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2014. – 176 б.

68. Рашидов А. Шарқ мутфаккирлари таълимотида инсонпарварлик. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 200 б.

69. Раҳмонов У. Тарбия назарияси ва методикаси. – Тошкент: ТДПУ, 2020. – 230 б.

70. Сафаров О. Жамият ва маънавият уйғунлиги. – Тошкент: Фан, 2018. – 205 б.

71. Саидов А. Оъзбек тасаввуфи тарихи. – Тошкент: Фан, 2017. – 160 б.

72. Сатторов М. Ислом цивилизацияси ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 220 б.

73. Турсунов А. Маънавият ва маърифат. – Тошкент: Фан, 2016. – 178 б.

74. Усмонов Қ. Ёшлар онгини шакллантиришда маънавий тарбиянинг оърни. – Самарқанд: СамДУ, 2019. – 150 б.

75. Хожиев А. Тил ва маданият. – Тошкент: Оъқитувчи, 2015. – 210 б.

76. Хоъжамқулов А. Маънавият ва маънавий мерос. – Тошкент: Фан, 2014. – 195 б.

77. Хоъқандий М. Тасаввуф йоъллари ва руҳий тарбия. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 180 б.

78. Юсупов У. Жамият ва маънавий тараққиёт. – Тошкент: Фан, 2015. – 200 б.

79. Абдуллаев, Р. ***Спиритуалитй анд Едусатион ин Сентрал Асиа***. Тасҳкент: Фан ва технология, 2019. – 220 п.

80. Каримова, Д. ***Суфисм анд Морал Валуес ин Узбекистан***. Тасҳкент: Янги аср авлоди, 2020. – 180 п.

81. Саидов, Б. ***Исламис Пҳилосопҳй анд Сосиетй ин Сентрал Асиа***. Лондон: Роутледге, 2021. – 250 п.

82. Ҳажиева, Кҳ.З. ***Тҳе Роле оф Спиритуал Ҳеритаге ин Сосиал Девелопмент***. Баку: Елм, 2022. – 230 п.

83. http://www.ziyonet

84. http://www.Fikr.Uz

85. http://www.bbc.co.uk

86. http://www.islom.uz

87. http://www.uzedu.uz

88. http://www.pedlib.ru

89. ttp://www.ziyo

90. http://www.altinoluk.com

91. http://www.khamush

92. http://www.sufism.org

93. http://rumi.org.uk

94. http://www.arches

95. http://www.livejournal

96. http://www.angelfire

97. http://lib.ru

98. http://sufism.ru

99. http://medsan-er.boom.ru

100. http://www.unc